JOURNALS & BOOKS

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

TRANSFORMATION OF SCIENCE IN THE CONTEXT OF GLOBAL DEVELOPMENT: INTERDISCIPLINARY RESEARCH, INNOVATIVE SOLUTIONS AND A SUSTAINABLE FUTURE

CONFERENCE PROCEEDINGS

30 September 2026

Tashkent — London



Google Scholar | Zenodo | OpenAIRE

academscience.com

Academic Research Publisher (United Kingdom)

UniScience journal (Republic of Uzbekistan)

Hamroh books (Uzbekistan)

****

MATERIALS

The international scientific-practical conference

«TRANSFORMATION OF SCIENCE IN THE CONTEXT OF GLOBAL DEVELOPMENT: INTERDISCIPLINARY RESEARCH, INNOVATIVE SOLUTIONS AND A SUSTAINABLE FUTURE»

Tashkent, London

September 30, 2026

****

Transformation of science in the context of global development: interdisciplinary research, innovative solutions and a sustainable future // Materials International Scientific-Practical Conference. Tashkent-London. September 30, 2026.

Editorial board of the conference

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N.** - PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D.** - DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V.** - PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A.** - PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M.** - DSc, professor (Eskisehir, Turkey); Jurayev J. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); Azimov S. -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); Shonazarov J. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); Gapparov B. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); Qo‘shayev T. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); Arifxodjayeva L. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

The event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the conference framework, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research findings, exchange scientific ideas, and expand international collaboration.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (September 29, 2026, Protocol No. 38).

CONTENTS

1. FUNDAMENTAL, NATURAL AND EXACT SCIENCES 14

O‘ZBEKISTON JANUBI SHAROITIDA O‘SIMLIKLARNING TURLI TUPROQ SHAROITLARIGA FIZIOLOGIK-BIOKIMYOVIY MOSLASHUVCHANLIGI 15

DINAMIK BOG‘LIQ TERMOPLASTIKLIK MASALASINI DEFORMATSION NAZARIYASI ASOSIDA SONLI MODELLASHTIRISH 19

2. ENGINEERING, ENERGY AND MODERN TECHNOLOGIES 22

PID ROSTLAGICHNI SOZLASH USULLARINING QIYOSIY TAHLILI ...23

KONSTRUKSION METALLARNING KORROZIYAGA CHIDAMLILIGINI OSHIRISHDA NANOTEXNOLOGIK YONDASHUVLAR: FANLARARO TADQIQOTLAR VA AMALIY YECHIMLAR 32

RUX ISHLAB CHIQARISH SANOATI YARIM MAHSULOTLARI TARKIBIDAN METALLARNI KOMPLEKS AJRATIB OLISHNING IMKONIYATLARI 36

AUTOMATIC DETECTION OF PANEL SOILING AND CONTROL OF THE CLEANING PROCESS IN SOLAR PHOTOVOLTAIC POWER PLANTS ...39

NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI ARXITEKTURASIDA FUNKSIONAL, PSIXOLOGIK VA ESTETIK TALABLARNING UYG‘UNLASHUVI.....50

SANOAT OQOVA SUVLARINI TOZALASH INSHOOTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TEXNOLOGIK PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH 59

БИОБЕТОН С ЭФФЕКТОМ САМОВОССТАНОВЛЕНИЯ: МЕХАНИЗМ ДЕЙСТВИЯ, ПОДБОР СОСТАВА И РАСЧЁТ ЗАЛЕЧИВАНИЯ ТРЕЩИН 68

3. INFORMATION TECHNOLOGIES, ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TRANSFORMATION 79

INSON-AGENT TIZIMLARIDA KOGNITIV BYUDJETNI HISOBGA OLGAN HOLDA AXBOROTNI SEMANTIK TANLASH YONDASHUVI..80

LLM ASOSIDAGI KO‘P AGENTLI TIZIMLARDA ALOQA SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARINING TASNIFI VA TAHLILI 83

GIPERPARAMETRLARNI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA SODDALASHTIRILGAN AES KALITLARINI TASNIFLASH USULI.....86

DETECTING PHISHING ATTACKS DELIVERED THROUGH HTML PAGES AND THE EFFECT OF DATASET SIZE ON ACCURACY.....97

SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA IJTIMOIY INJENERIYA: OLIY TA'LIM XODIMLARI UCHUN KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA XABARDORLIK MODELI.....103

АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ, САҚЛАШ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ: "ОҒЗАКИ ТАРИХ" МАТЕРИАЛЛАРИ МИСОЛИДА.....108

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПРОГНОЗИРОВАНИИ ВАЛЮТНОГО РИСКА И ОПТИМИЗАЦИИ ХЕДЖИРОВАНИЯ ОТКРЫТОЙ ВАЛЮТНОЙ ПОЗИЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ....120

4. GEOGRAPHY, ECOLOGY, CLIMATE CHANGE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT.....128

O'ZBEKISTONDA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI VA QURILISH SOHASIDA UGLEROD CHIQINDILARINI KAMAYTIRISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI: KAPITAL UGLEROD KONSEPSIYASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL.....129

ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ПИТЬЕВОЙ ВОДЫ В ТЕРРИТОРИАЛЬНОМ РАЗРЕЗЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН ЗА 2016-2026 гг.....137

5. AGRICULTURE, VETERINARY SCIENCE, BIOTECHNOLOGY AND FOOD SECURITY.....144

NA'MATAK (ROSA CANINA L.) O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI VA QISHLOQ XO'JALIGIDAGI O'RNI.....145

QATTIQ BUG'DOY SELEKSIYASIDA DON SIFATI VA MAS TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.....149

BIOLOGIK QAYTA ISHLANGAN PARRANDA CHIQINDILARI ASOSIDAGI ORGANIK O'G'ITNING KOLLOID-DISPERS XOSSALARINI TADQIQ ETISH.....154

QATTIQ BUG'DOY NAV VA TIZMALARINI ISSIQLIKKA CHIDAMLILIGI BO'YICHA BAHOLASH.....162

XUROSON ESPARSETI URUG'LARINI EKISH CHUQURLIGINING FOTOSINTETIK FAOLIYATIGA TA'SIRI.....169

6. MEDICINE, PHARMACY, BIOLOGY AND PUBLIC HEALTH

.....174

ENDOMETRIOZ BILAN BOG‘LIQ BEPUSHTLIKDA TUXUMDON ZAXIRASI VA ULTRATOVUSH-DOPPLER KO‘RSATKICHLARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI 175

ENDOMETRIOZ FENOTIPLARIDA TUXUMDON ZAXIRASI VA ULTRATOVUSH-DOPPLER KO‘RSATKICHLARINING KLINIK-DIAGNOSTIK XUSUSIYATLARI 177

OKSIDLOVCHI STRESSNING BOLALAR AORTASI SILLIQ MUSHAK HUJAYRALARIGA TA’SIRI.....181

SEREBROVASKULYAR KASALLIKLARDA ISHEMIK MIYA SHIKASTLANISHINING PATOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI 186

ISHEMIK INSULTDA QON TOMIR DISPLAZIYASINI ANIQLASH UCHUN BALLI SHKALA VA KOLLATERAL ZAXIRANING PROGNOSTIK AHAMIYATI 191

QON TOMIR DISPLAZIYASI FONIDA RIVOJLANGAN ISHEMIK INSULTNING KLINIK-NEVROLOGIK XUSUSIYATLARI VA GEMODINAMIK AHAMIYATI 203

DETERMINATION OF TOTAL PROTEIN CONTENT IN *CICHORIUM INTYBUS* L. COLLECTED IN RISHTON DISTRICT 217

DASTURLI GEMODIALIZDAGI BEMORLARDA NERV TIZIMI BUZILISHLARI: ADABIYOT SHARHI VA TADQIQOT KONSEPSIYASI 224

FARG‘ONA VODIYSINING QIZIL GILLI ADIRLARIDA O‘SUVCHI CISTANCHE JODOSTOMA BUTK. ET VVED. O‘SIMLIGINING FITOKIMYOVIY TARKIBI VA BIOLOGIK FAOLLIGINI O‘RGANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 230

LINX MAGNIT SFINKTER AUGMENTATSIYASI VA DIAFRAGMA QIZILO‘NGACH TESHIGI CHURRASI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (ADABIYOTLAR SHARHI) 237

ФАКТОРЫ РИСКА ОСТРОГО ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОГО ПОДЪЁМА УРОВНЯ КРЕАТИНИНА У ПАЦИЕНТОВ ПОСЛЕ ОПЕРАЦИЙ НА ОТКРЫТОМ СЕРДЦЕ С ИСКУССТВЕННЫМ КРОВООБРАЩЕНИЕМ: ДАННЫЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО РЕГИСТРА 252

ПЕРСПЕКТИВЫ НАНОТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ФАРМАЦЕВТИКИ И МЕДИЦИНЫ 264

ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСТКОВИДНОГО СИНДРОМА У ДЕТЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СЕРОЛОГИЧЕСКОГО СТАТУСА К КОРИ 268

ИНСУЛИНОРЕЗИСТЕНТЛИК ВА МЕТАБОЛИЗМ РЕГУЛЯЦИЯСИ ...272

7. ECONOMICS, MANAGEMENT, FINANCE, LAW AND TOURISM 285

MINTAQALAR IQTISODIY BARQARORLIGINI TARMOQLAR DIVERSIFIKATSIYASI VA HUDUDLARARO HAMKORLIK ASOSIDA MUSTAHKAMLASH METODIKASI 286

FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARINI TA'MINLASH VA HIMOYA QILISHNING NAZARIY-AMALIY MASALALARI 299

IMPORTANCE OF FESTIVALS IN ATTRACTING TOURISTS TO UZBEKISTAN....305

BYUROKRATIK TO'SIQLARNI BARTARAF ETISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR MEXANIZMLARINING AHAMIYATI....310

DAVLAT XARIDLARIDA MAHALLIYLASHTIRISH SIYOSATINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR....315

XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MAXSUS IQTISODIY REJIMLAR: XAYNAN OROLI TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR 326

"AGROBANK" ATBDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINING TUZILISHI VA UNING TAHLILI....336

QURILISH PUDRATIDA ISH NATIJASINI QABUL QILISHDAN BOSH TORTISH: HUQUQIY ASOSLAR VA FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLAR....350

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA MEHNAT SALOHIYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI 358

THE STATE REGISTER OF CIVIL SERVICE POSITIONS AND QUALIFICATION RANKS IN UZBEKISTAN: CRITERIA FOR LEGAL DIFFERENTIATION 367

MA'MURIY TARTIB-TAOMILLARDA INSON QADRI PROTEKSIYASI VA JAMOATCHILIK NAZORATINING MA'MURIY-HUQUQIY MEXANIZMLARI 375

INSONNING QULAY ATROF-MUHITGA BO‘LGAN KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARI TIZIMI VA DAVLAT APPARATI EKOLOKIK SIYOSATI STRATEGIK SAMARADORLIGI.....385

O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....393

USE OF FINANCIAL INTELLIGENCE DATA IN CORRUPTION RISK ASSESSMENT: LEGAL PROSPECTS FOR UZBEKISTAN.....401

SIYOSIY ISLOHOTLAR VA O‘ZBEKISTON KAPITAL BOZORI DINAMIKASI: UCI INDEKSI ASOSIDAGI DASTLABKI TAHLIL 406

HARBIY XIZMATNI O‘TASH TARTIBINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING MA’MURIY-HUQUQIY MUAMMOLARI: PROTSESSUAL ADOLAT TRANSFORMATSIYASI 414

HARBIY SOHADA QONUNIYLIK VA HUQUQ-TARTIBOTNI TA’MINLASHNING STRATEGIK SAMARADORLIGI.....423

HARBIY XIZMATCHILARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA’MINLASHNING MA’MURIY-HUQUQIY ASOSLARI: JAMOAT XAVFSIZLIGI VA INSON QADRI MUTANOSIBLIGI 431

HUDUDIY TURIZM INFRATUZILMASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 439

A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CRIMINAL CODES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE PEOPLE’S REPUBLIC OF CHINA 445

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИДА НОРАСМИЙ БАНДЛИК ВА УНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ 452

СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН – 2030» И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ: НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ ДИСПРОПОРЦИЙ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНОВ 459

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛОЯЛЬНОСТИ ИНОСТРАННЫХ ТУРИСТОВ К ДЕСТИНАЦИИ САМАРКАНД 464

ПЕРЕДОВЫЕ ПРАКТИКИ АНАЛИЗА ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА ГОСУДАРСТВ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРИОРИТЕТЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 476

ЕДИНЫЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ СТАНДАРТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН - НАДЕЖНАЯ ГАРАНТИЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ ИМУЩЕСТВА 481

СТРАТЕГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПЕРЕХОДОМ К «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКЕ: ИНСТРУМЕНТЫ ЦЕЛЕПОЛАГАНИЯ, ФИНАНСИРОВАНИЯ И МОНИТОРИНГА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....486

8. EDUCATION, PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND INNOVATIVE TEACHING TECHNOLOGIES 493

TALABALARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI (Talaba tashabbusi va jamoa bilan hamkorlikni bog‘lovchi pedagogik model).....494

INKLYUZIV TA’LIMGA MUHTOJ BOLALARNI UMUMIY TA’LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SHART-SHAROITLARI 506

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 522

RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA TALABALARNING KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.....527

O‘ZBEKISTONDA KO'RISH BO‘YICHA NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALAR TA’LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI 533

XORIJIY TILLARNI OLIY TA’LIMDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI.....535

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI DIREKTORI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINING RAQAMLI O‘LCHOVI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI RAQAMLI QO‘LLAB-QUVVATLASH.....541

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ART-PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI BAHOLASH MEZONLARI VA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH 545

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ART-PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MODELINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH.....551

MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY VA MANTIQIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....559

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BO'LAJAK ENERGETIKA MUHANDISLARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGI MAZMUNI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI 568

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI BAHOLASH: EGMA TOPSHIRIQ TURLARI VA ULARNING METODIK NAMUNALARI 574

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH ORQALI O‘QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH 581

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH: QONUNIY ASOSLAR VA AMALIY MUAMMOLAR 586

VIRTUAL LABORATORIES IN PHYSICS TEACHING: DIDACTIC POTENTIAL, EFFECTIVENESS, AND PROSPECTS FOR APPLICATION 590

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA KASBIY SIFATLARNI SUN’IY INTELLEKT MODELLARI VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.....595

METHODOLOGY FOR DEVELOPING SAMPLE TEXTBOOK PAGES BASED ON IMPROVED GRAPHIC MATERIALS 601

AVLONIY PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA AXLOQIY TARBIYAGA YO‘NALTIRILGAN AI-YORDAMCHI (CHATBOT) YARATISH KONSEPSIYASI.....612

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING LOYIHAVIY-KONSTRUKTORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (NAZARIY MEXANIKA FANI MISOLIDA).....619

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION O‘QITISH METODIKASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 624

INGLIZ TILI DARSLARIDA LUG‘ATNI FAOLLASHTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLAR VA KOMMUNIKATIV VAZIFALARNING O‘RNI 629

TARBIYA FANINING O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI 632

LINGUISTIC ADAPTATION OF AI-GENERATED ENGLISH ACADEMIC TEXTS FOR EFL SECONDARY SCHOOL LEARNERS IN UZBEKISTAN 636

BO‘LAJAK MUHANDISLARNI FIZIKADAN KASBGA YO‘NALTIRILGAN UMUMTEXNIK MASALALARNI YECHISHGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 647

O‘QUV JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AFZALLIKLARI VA MUAMMOLARI 655

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA NIZOLI VAZIYATLARNING YUZAGA KELISH OMILLARI 661

SHAXSLARARO NIZOLAR TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI VA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI 668

ЎҚИТУВЧИ ПРОФЕССИОНАЛЛИГИНИНГ ПСИХОЛОГИК ВА ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ 674

ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ У ДОШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКСКО-РУССКОГО ДВУЯЗЫЧИЯ И НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ ИХ КОРРЕКЦИИ 678

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И КОМПЬЮТЕРНАЯ ГРАФИКА В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ 684

9. PHILOLOGY, LINGUISTICS, LITERATURE, TRANSLATION STUDIES AND MEDIA RESEARCH 691

PRAGMATIC FEATURES OF UZBEK FOLK TALES: A CASE STUDY OF “SUSAMBIL” 692

THE SPIRITUAL GROWTH OF THE FEMALE PROTAGONISTS IN L. M. ALCOTT’S NOVEL “LITTLE WOMEN” 704

ОБРАТНЫЙ ПЕРЕВОД КАК СПОСОБ РАСШИРЕНИЯ РУССКО-УЗБЕКСКОГО ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА 715

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “YOSHLIK” KONSEPTINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOPRAGMATIK VA DISKURSIV TAHLILI.....719

“LISON UT-TAYR” DOSTONIDAGI HIKOYATLAR TAVSIFI VA TASNIFI 726

TRANSLATING PROVERBS THAT EXPRESS PERSONAL SPIRITUALITY IN ENGLISH AND UZBEK: LINGUISTIC PROBLEMS AND LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION.....732

TURKIY TILLAR PAREMIOLOGIYASIDA KOGNITIV VA PRAGMALINGVISTIK TADQIQOTLAR TAHLILI 743

ALISHER NAVOIYNING “NAZMUL-JAVOHIR” ASARIDAGI ASLIYAT VA TABDIL MASALALARI.....748

QADIMGI TURKIY YOZMA YODGORLIKLAR TARJIMASINI TADQIQ ETISHDA LINGVOTEXTOLOGIK, LINGVOPRAGMATIK VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR 754

THE RELIGIOUS-SEMANTIC INTERRELATION BETWEEN LANGUAGE, CULTURE AND RELIGION: A LINGUISTIC PERSPECTIVE ON ENGLISH AND UZBEK.....765

ISSUES OF CREATING IMAGES AND ARTISTIC IMAGINATION IN NOVELS 773

ISSUES OF ARTISTIC CHARACTERS AND PLOT FORMATION IN NOVELS (on the example of Uzbek and Karakalpak novels from 2013-2023) 778

МЕТАРОМАННАЯ ПОЭТИКА ДЭВИДА МИТЧЕЛЛА: ФРАГМЕНТАРНОСТЬ И МЕТАЛЕПСИС.....783

ПАЛИНДРОМНАЯ КОМПОЗИЦИЯ КАК МЕТАРОМАННАЯ СТРАТЕГИЯ В РОМАНЕ ДЭВИДА МИТЧЕЛЛА «ОБЛАЧНЫЙ АТЛАС» 790

МЕТАЛЕПСИС И ГРАНИЦЫ ВЫМЫСЛА В РОМАНЕ ДЭВИДА МИТЧЕЛЛА « КОСТЯНЫЕ ЧАСЫ» 794

10. HISTORY, PHILOSOPHY, SOCIOLOGY, POLITICAL SCIENCE, CULTURE AND ARTS 797

JANUBIY KOREYANING 1961–1979 YILLARDAGI TARIXI (Iqtisodiy modernizatsiya va avtoritar hokimiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar).....798

YOZMA MANBALARDAN BIRI “TARJIMATUT-TABAQOT FI TI’DAD AT-TASNIFOT” ASARINING QIYMATI XUSUSIDA 812

BURLI QAL’A YODGORLIGINING QUYI AMUDARYO TARIXIDAGI O‘RNI.....820

ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA GIS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: QADIMGI XORAZM MISOLIDA 823

O‘ZBEKISTONDA XITOYSHUNOSLIKNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA XITOYSHUNOSLIK OLIY MAKTABINING O‘RNI.827

QORAQALPOQ–BOSHQIRD ALOQALARINING O‘RGANILISH TARIXI 840

TA’LIM TRANSFORMATSIYASI JARAYONINING FALSAFIY ASOSLARI 846

BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK TURLARI VA ULARNING SALBIY TA’SIRI 851

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI INTEGRATSIYASI: YANGI UYG'ONISH DAVRI VA GEOPOLITIK TRANSFORMATSIYA 862

1. FUNDAMENTAL, NATURAL AND EXACT SCIENCES

O‘ZBEKISTON JANUBI SHAROITIDA O‘SIMLIKLARNING TURLI TUPROQ SHAROITLARIGA FIZIOLOGIK-BIOKIMYOVIY MOSLASHUVCHANLIGI

Musayeva Dirlabo Avazovna
Termiz shahridagi Cembidge xalqaro maktabi
faxriddin188122@gmail.com

Annotatsiya. *O‘zbekiston janubining o‘ziga xos tuproq-iqlim sharoitlari o‘simliklarning suv almashinuvi, mineral oziqlanishi, fotosintetik faoliyati va modda almashinuvi jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tezisda turli tuproq sharoitlarida o‘simliklarning fiziologik-biokimyoviy moslashuvchanligini kompleks baholashning ilmiy-metodik asoslari yoritiladi. Tuproqning namlik rejimi, reaksiyasi, gumus va oziqa elementlari bilan ta’minlanganlik darajasi kabi omillar o‘simliklarning morfologik, fiziologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot yondashuvi o‘simlikning muhitga javob reaksiyasini alohida ko‘rsatkichlar emas, balki ularning majmuasi orqali baholashga asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston janubi, tuproq sharoiti, o‘simlik, fiziologik moslashuvchanlik, biokimyoviy moslashuvchanlik, suv almashinuvi, fotosintez, pigmentlar, mineral oziqlanish, tuproq unumdorligi, agroekologik barqarorlik.*

Аннотация. *Специфические почвенно-климатические условия юга Узбекистана оказывают существенное влияние на процессы водного обмена, минерального питания, фотосинтетической активности и метаболизма растений. В настоящем тезисе освещаются научно-методические основы комплексной оценки физиолого-биохимической адаптивности растений в различных почвенных условиях. Такие факторы, как режим влажности почвы, её реакция, содержание гумуса и обеспеченность элементами питания, рассматриваются во взаимосвязи с морфологическими, физиологическими и биохимическими показателями растений. Предлагаемый исследовательский подход основан на оценке ответной реакции растений на воздействие окружающей среды не по отдельным показателям, а по их совокупности.*

Ключевые слова: *юг Узбекистана, почвенные условия, растение, физиологическая адаптивность, биохимическая адаптивность, водный обмен, фотосинтез, пигменты, минеральное питание, плодородие почвы, агроэкологическая устойчивость.*

Abstract. *The specific soil and climatic conditions of southern Uzbekistan have a significant influence on water relations, mineral nutrition, photosynthetic activity, and metabolic processes in plants. This thesis presents the scientific and methodological foundations for a comprehensive assessment of the physiological and biochemical adaptability of plants under different soil conditions. Factors such as soil moisture regime, soil reaction, humus content, and nutrient availability are considered in relation to the morphological, physiological, and biochemical characteristics of plants. The proposed research approach is based on assessing the plant's response to environmental conditions not through individual indicators, but through their integrated combination.*

Keywords: *southern Uzbekistan, soil conditions, plant, physiological adaptability, biochemical adaptability, water relations, photosynthesis, pigments, mineral nutrition, soil fertility, agroecological stability.*

Kirish

O‘simliklarning tashqi muhit omillariga moslashishi ularning hayotiy jarayonlarini barqaror saqlab qolish imkonini beruvchi murakkab fiziologik va biokimyoviy mexanizmlar majmuasidir. Ayniqsa, ildiz tizimi faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tuproq sharoiti o‘simlikning suv va mineral moddalarni o‘zlashtirishi, fotosintetik apparatining faoliyati hamda biomassa hosil bo‘lishiga ta’sir etadi.

O‘zbekiston janubida yuqori harorat, bug‘lanishning kuchayishi, sug‘orish rejimining o‘zgaruvchanligi va tuproq xususiyatlarining hududlar bo‘yicha farqlanishi o‘simliklarning moslashuvchanligini o‘rganishni dolzarb masalaga aylantiradi. Shu jihatdan o‘simliklarning turli tuproq sharoitlarida fiziologik-biokimyoviy holatini baholash nafaqat fundamental biologik, balki qishloq xo‘jaligi uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi

O‘zbekiston janubi sharoitida turli tuproq sharoitlarining o‘simliklarning fiziologik va biokimyoviy jarayonlariga ta’sirini kompleks baholash hamda o‘simliklarning ushbu sharoitlarga moslashuvchanligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlash.

Tadqiqot vazifalari

• turli tuproq sharoitlarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini tavsiflash;

• tuproq namligi, pH, gumus va oziqa elementlari bilan ta’minlanganlik darajasini baholash;

• o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va biomassa to‘planishidagi farqlarni aniqlash;

• barglarning suv holati va suv almashinuvi bilan bog‘liq fiziologik ko‘rsatkichlarni o‘rganish;

• fotosintetik pigmentlar tarkibi va fotosintetik apparat holatini baholash;

• o‘simliklarning mineral oziqlanishi va asosiy biokimyoviy ko‘rsatkichlarini aniqlash;

• tuproq xususiyatlari bilan fiziologik-biokimyoviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish;

• turli tuproq sharoitlariga moslashuvchanlikni kompleks baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot O‘zbekiston janubining turli tuproq sharoitlarida o‘stiriladigan o‘simlik materiallari asosida tashkil etilishi mumkin. Tadqiqotning tuproq qismida namlik, pH, gumus miqdori, elektr o‘tkazuvchanlik hamda o‘simliklar uchun muhim makroelementlar miqdorini aniqlash tavsiya etiladi. O‘simlik materiallarida esa o‘sish sur’ati, barg yuzasi, quruq va ho‘l biomassa, suv miqdori, xlorofill va karotinoidlar, zarur hollarda eruvchan oqsil, umumiy qandlar va boshqa biokimyoviy ko‘rsatkichlar aniqlanishi mumkin.

Olingan ma’lumotlarni statistik qayta ishlashda o‘rtacha qiymat, standart xatolik, variatsiya koeffitsiyenti, korrelyatsion tahlil va zaruratga ko‘ra dispersiya tahlilidan foydalanish mumkin. Bunday yondashuv tuproq omillari va o‘simliklarning fiziologik-biokimyoviy javob reaksiyalari o‘rtasidagi munosabatni ishonchli baholash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama

Turli tuproq sharoitlarida o‘simliklarning fiziologik-biokimyoviy holati bir xil bo‘lmasligi kutiladi. Tuproq namligi va oziqa elementlarining mavjudligi ildiz faoliyati orqali o‘simlikning suv va mineral moddalar bilan ta’minlanishiga ta’sir qiladi. Bu esa barglarning suv holati, fotosintetik pigmentlar miqdori, biomassa to‘planishi va umumiy fiziologik faollikda aks etadi.

Noqulay tuproq sharoitida o‘simliklarda suvni tejash, hujayra osmotik holatini saqlash, fotosintetik apparatni himoyalash va antioksidant himoya tizimini faollashtirish kabi moslashuv reaksiyalari yuzaga kelishi mumkin. Biroq

bunday reaksiyalarning yo‘nalishi va darajasi o‘simlik turi, genotipi, rivojlanish bosqichi hamda muhit omillarining davomiyligiga bog‘liq.

Shu sababli moslashuvchanlikni faqat hosildorlik yoki biomassa bilan baholash yetarli emas. Tuproq ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda suv rejimi, fotosintetik pigmentlar, mineral oziqlanish va biokimyoviy belgilarni birgalikda tahlil qilish o‘simlikning ekologik barqarorligini aniqroq tavsiflaydi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o‘simliklarning tuproq omillariga javob reaksiyalarini fiziologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlar tizimi orqali izohlashdan iborat. Amaliy jihatdan esa olingan natijalar O‘zbekiston janubining muayyan tuproq sharoitlariga mos o‘simliklarni tanlash, sug‘orish va oziqlantirish tadbirlarini takomillashtirish, shuningdek, agroekologik jihatdan barqaror yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Xulosa

O‘zbekiston janubida turli tuproq sharoitlarining o‘simliklar hayotiy jarayonlariga ta’sirini o‘rganishda tuproqshunoslik va o‘simliklar fiziologiyasi yondashuvlarini birlashtirish muhimdir. Tuproqning fizik-kimyoviy holati o‘simlikning suv va mineral oziqlanishiga, bu jarayonlar esa fotosintetik va biokimyoviy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun fiziologik-biokimyoviy ko‘rsatkichlar majmuasi asosida moslashuvchanlikni baholash o‘simliklarning muhitga javob reaksiyalarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv O‘zbekiston janubining tuproq-iqlim sharoitida ilmiy asoslangan agroekologik tavsiyalar ishlab chiqish uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Taiz L., Zeiger E., Møller I.M., Murphy A. *Plant Physiology and Development*. 6th ed. Sunderland, MA: Sinauer Associates, 2015. ISBN: 978-1-60535-255-8.

2. Marschner P. (ed.). *Marschner’s Mineral Nutrition of Higher Plants*. 3rd ed. Amsterdam: Academic Press, 2012. ISBN: 978-0-12-384905-2. DOI: 10.1016/C2009-0-63043-9.

3.Lambers H., Chapin F.S. III, Pons T.L. *Plant Physiological Ecology*. 2nd ed. New York: Springer, 2008. ISBN: 978-0-387-78340-6. DOI: 10.1007/978-0-387-78341-3.

4. Sagdiev M.T., Alimova R.A. *O‘simliklar fiziologiyasi*. Toshkent: Voris-nashriyot, 2025.

DINAMIK BOG‘LIQ TERMOPLASTIKLIK MASALASINI DEFORMATSION NAZARIYASI ASOSIDA SONLI MODELLASHTIRISH

Yusupova Nazokatxon
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti akademik litseyi
toshboltayevan@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda termoplastiklik masalasini bog‘liq holatda oshkormas va oshkor rekurrent formulalar yordamida sonli modellashtirish ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *termoplastiklik, plastik deformatsiya, temperatura maydoni, kuchlanish, deformatsiya, matematik model, sonli usul, chekli ayrmali sxema, rekurrent formulalar.*

Termoplastiklik — mexanik yuklama va temperatura ta’sirida materialning qaytmas(plastik) deformatsiyalanishini o‘rganuvchi mexanikaning bir sohasi hisoblanadi. Ya’ni materialga kuch ta’sir qilganda temperaturani o‘zgarmas deb hisoblash emas, balki harorat o‘zgartirilganda yoki berilgan kuch natijasida ajralgan issiqlik bilan bog‘liq holda deformatsiyalanish jarayonini o‘rganadi:

- Bir jinsli yoki bir jinsli bo‘lmagan materiallarga kuch berilishi;
- Deformatsiya plastik chegaradan oshishi;
- Kuchli deformatsiya natijasida issiqlik paydo bo‘lishi;
- Natijada temperatura o‘zgarishi bilan metallning mexanik hususiyatlari ham o‘zgarishi yoki aksini ham tasavvur qilishimiz mumkin.

Termoplastiklikda kuchlanish (σ), plastik deformatsiya (ε^p), va issiqlik (T) birgalikda o‘rganiladi: σ, ε^p, T.

Kichik deformatsiyalar uchun deformatsiya tenzori

$$\varepsilon_{ij} = \frac{1}{2}\left(u_{i,j} + u_{j,i}\right) \quad (1)$$

ko‘rinishda hisoblanadi. Umumiy deformatsiya elastik, plastik va temperatura ta’siridagi deformatsiyalardan tashkil topadi:

$$\sigma_{ij} = \lambda\theta\delta_{ij} + 2\mu\varepsilon_{ij} + \alpha\gamma T\delta_{ij} + \frac{\sigma_u}{\varepsilon_u}e_{ij}. \quad (2)$$

Muvozanat tenglamasi

$$\sigma_{ij,j} + X_i = \rho\ddot{u}_i, \quad (3)$$

bilan ifodalanadi.

Temperatura maydonining o‘zgarishi esa issiqlik tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$\lambda_0 T_{,ii} - C_\varepsilon \dot{T} - \alpha\gamma T_0 \cdot \dot{\varepsilon}_{ij} = 0. \quad (4)$$

Plastik deformatsiyaning yuzaga kelishi materialdagi kuchlanishning oqish chegarasiga yetishi bilan bog‘liq bo‘lib, umumiy holda

$$F(\sigma_{ij}, \varepsilon_{ij}^p, T) \le 0, \quad (5)$$

shart orqali ifodalanadi.

Boshlang‘ich shartlar:

$$u_i|_{t=t_0} = \varphi_i,\ \dot{u}_i|_{t=t_0} = \psi_i,\ T|_{t=t_0} = T_0, \quad (6)$$

chegaraviy shartlar

$$u_i|_{\Sigma_1} = u_i^0,\ \ T|_{\Sigma_1} = \bar{T}_0,\ \ \sigma_{ij}n_j\big|_{\Sigma_2} = S_i^0, \quad (7)$$

Yuqoridagi (1-7) munosabatlarni birlashtirilib, termoplastiklik jarayonining matematik modeli umumiy bog‘liq tenglamalar sistemasi ko‘rinishida yoziladi va bu sistema mexanik muvozanat, deformatsiya, elastik-plastik xususiyatlar, temperatura ta’siri va issiqlik almashinuvini birgalikda ifodalaydi. Mazkur matematik model keyingi bosqichda sonli usul yordamida yechilib, temperatura va deformatsiya maydonlarining o‘zgarishi aniqlanadi.

Adabiyotlar

1. Ilyushin A.A. *Plastiklik. 1-qism: Kichik elastik-plastik deformatsiyalar nazariyasi.* Moskva: GITTL, 1948.

2. Khaldjigitov A.A., Yusupov Yu.S., Adambaev U.A. *Numerical modeling of a related two-dimensional dynamic thermoplasticity problem.* Vestnik Ilm Sarchashmalari, 2019, №11, 12–15.

3. Samarskiy A.A., Nikolaev E.A. *Ayirmali sxemalar nazariyasi.* Moskva: Nauka, 1983. – 646 b.

4. Novatskiy V. *Elastiklik nazariyasi.* Moskva: Mir, 1975.

5. Yusupov Yu.S., Khasanov K.A. *Izotrop jismlar uchun bir o‘lchovli termoplastiklik masalasining sonli yechimi.* 2014. – B. 131–138.

6. Yusupov Y., Khaldjigitov A.A. *Mathematical and numerical modeling of the coupled dynamic thermoplastic problem.* Universal Journal of Computational Mathematics, 2017, 5(2), 34–43.

7. Yusupov Yu.S., Khuzhakulov Sh.A., Khudayarov Sh.Sh. *Numerical solution of a two-dimensional bound thermoplastic problem based on*

deformation theory. Innovation Management: Theory, Methodology, Practice, 2014, №11, 138–144.

8. Khaldjigitov A.A., Qalandarov A.A., Yusupov Y.S., Sagdullaeva D.A. *Numerical modelling of the 1D thermoplastic coupled problem for isotropic materials.* Acta TUIT, 2013, №1.

9. Yusupov Y.S., Babadjanov M.R. *Numerical solution of a Three-Dimensional Coupled thermoplastic problem based on deformation theory.* The International Journal of Science & Technology, 2019, 7(9).

2. ENGINEERING, ENERGY AND MODERN TECHNOLOGIES

PID ROSTLAGICHNI SOZLASH USULLARINING QIYOSIY TAHLILI

Musurmonov Tokhirjon Fazliddin o‘g‘li,
Urishev Omadjon Musurmonqul o‘g‘li
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Farg‘ona davlat texnika universiteti
e-mail: tokhirjon0501@gmail.com

Annotatsiya. *Kechikishli birinchi tartibli issiqlik obyekti (K = 2,0 °C/%, T = 120 s, L = 30 s) uchun PID rostlagichni sozlashning uchta usuli sonli modellashtirish orqali solishtirildi. IMC usuli topshiriqni 4,1 % o‘ta rostlash va 78 s rostlash vaqti bilan ishlab chiqdi; Ziegler–Nichols va Cohen–Coon usullarida o‘ta rostlash 58,2 % va 79,9 % ni tashkil etdi. Klassik usullar esa tashqi ta’sirni taxminan uch barobar kichik integral xatolik bilan bartaraf etadi. Qo‘shimcha ravishda boshqarish ta’siri, kechikish o‘zgarishi, λ parametri va L/T nisbatining ta’siri tekshirildi. IMC kechikish 50 % oshganda ham barqaror ishlaydi va L/T = 0,1–1,0 oralig‘ida o‘ta rostlashni 5 % dan oshirmaydi.*

Kalit so‘zlar: *PID rostlagich, sozlash usullari, Ziegler–Nichols, Cohen–Coon, IMC, kechikishli obyekt, haroratni rostlash, o‘ta rostlash.*

Аннотация. *В статье методом численного моделирования сравниваются три метода настройки ПИД-регулятора — Зиглера–Никольса, Коэна–Куна и метод внутренней модели (IMC) — для теплового объекта первого порядка с запаздыванием (K = 2,0 °C/%, T = 120 с, L = 30 с). Метод IMC отрабатывает изменение задания с перерегулированием 4,1 % и временем регулирования 78 с, тогда как при настройках Зиглера–Никольса и Коэна–Куна перерегулирование составляет 58,2 % и 79,9 %. Классические методы подавляют внешнее возмущение примерно с втрое меньшей интегральной ошибкой. Дополнительно исследовано влияние управляющего воздействия, изменения запаздывания, параметра λ и отношения L/T. Метод IMC сохраняет устойчивость при увеличении запаздывания на 50 % и обеспечивает перерегулирование не более 5 % в диапазоне L/T = 0,1–1,0.*

Ключевые слова: *ПИД-регулятор, методы настройки, Зиглер–Никольс, Коэн–Кун, IMC, объект с запаздыванием, регулирование температуры, перерегулирование.*

Abstract. *Three PID tuning methods — Ziegler–Nichols, Cohen–Coon and internal model control (IMC) — are compared by numerical simulation for a first-order-plus-dead-time thermal process (K = 2.0 °C/%, T = 120 s, L = 30 s). IMC tracks a setpoint step with 4.1 % overshoot and a settling time of 78 s, whereas the Ziegler–Nichols and Cohen–Coon settings give overshoots of 58.2 % and 79.9 %. The classical methods reject a load disturbance with roughly three times smaller integral absolute error. The control effort, the sensitivity to dead-time changes, the IMC parameter λ and the L/T ratio are also examined. IMC remains stable when the dead time grows by 50 % and keeps the overshoot below 5 % for L/T = 0.1–1.0.*

Keywords: *PID controller, tuning methods, Ziegler–Nichols, Cohen–Coon, IMC, dead-time process, temperature control, overshoot.*

Kirish

Sanoatdagi rostlash konturlarining 90 % dan ortig‘i PID turidagi rostlagichlar asosida qurilgan [1]. Shunga qaramay, amaliyotda ularning katta qismi qo‘lda, tajriba asosida sozlanadi va bu rostlash sifatining pasayishiga, energiya sarfining ortishiga olib keladi.

Issiqlik obyektlari (pechlar, quritgichlar, issiqlik almashtirgichlar) katta inersiya va transport kechikishiga ega. Bunday obyektlarda rostlagich parametrlarini noto‘g‘ri tanlash haroratning belgilangan qiymatdan oshib ketishiga yoki o‘tish jarayonining cho‘zilishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun sozlash usulini asosli tanlash dolzarb amaliy masala hisoblanadi.

Adabiyotlarda PID rostlagichlar uchun yuzlab sozlash qoidalari jamlangan [5], ammo ulardan qaysi biri muayyan obyektga mos kelishi oldindan ma’lum emas. Shu sababli eng ko‘p qo‘llaniladigan usullarni bir xil model va bir xil mezonlar bo‘yicha solishtirish amaliy ahamiyatga ega.

Ishning maqsadi kechikishli issiqlik obyekti uchun Ziegler–Nichols, Cohen–Coon va ichki model (IMC) usullarini bir xil sharoitda sonli modellashtirish orqali solishtirish hamda kechikish o‘zgarishi, λ parametri va L/T nisbatining ta’sirini baholab, har bir usulning qo‘llanish sohasini aniqlashdan iborat.

Boshqarish obyekti va rostlagich

Boshqarish obyekti sifatida elektr isitish pechining harorat kanali olindi va u kechikishli birinchi tartibli zveno bilan ifodalandi:

$$W(s) = \frac{K}{Ts+1} e^{-Ls} \quad (1)$$

Bu yerda K = 2,0 °C/% — uzatish koeffitsiyenti, T = 120 s — vaqt doimiysi, L = 30 s — kechikish vaqti. Parametrlar uchun namunaviy qiymatlar qabul qilindi; L/T = 0,25 nisbat o‘rtacha kechikishli obyektga mos keladi.

Rostlash qonuni sifatida standart (ideal) shakldagi PID qonuni qo‘llanildi:

$$u(t) = K_p\left(e(t) + \frac{1}{T_i}\int_0^t e(\tau)d\tau - T_d\frac{dy(t)}{dt}\right) \quad (2)$$

Bu yerda e(t) — topshiriq va o‘lchangan harorat orasidagi farq, y(t) — o‘lchangan harorat, K_p, T_i va T_d — rostlagichning sozlash parametrlari. Differensial tashkil etuvchi chiqish signali bo‘yicha hisoblandi va vaqt doimiysi $T_d/10$ bo‘lgan filtr orqali o‘tkazildi.

Amalda K, T va L qiymatlari ishlab turgan obyektning tajriba o‘tish xarakteristikasidan ikki nuqta usuli bilan aniqlanadi [6]:

1. Rostlagich qo‘l rejimiga o‘tkaziladi va haroratning barqarorlashishi kutiladi.
2. Boshqarish ta’siri Δu ga (masalan, 5–10 % ga) pog‘onali o‘zgartiriladi va harorat yangi barqaror qiymatga yetguncha yozib olinadi.
3. Uzatish koeffitsiyenti hisoblanadi: K = Δy / Δu.
4. Harorat o‘zgarishi to‘liq o‘zgarishning 28,3 % va 63,2 % iga yetgan t28 va t63 vaqtlar aniqlanadi.
5. Vaqt doimiysi va kechikish hisoblanadi: $T = 1{,}5\cdot(t_{63} - t_{28})$, L = t63 − T.

Qabul qilingan model uchun bu nuqtalar $t_{28} \approx 70$ s va $t_{63} = 150$ s ga to‘g‘ri keladi.

Sozlash usullari

Uchala usul ham rostlagich parametrlarini obyekt modelining K, T va L qiymatlari orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblaydi (1-jadval) [5]. Ziegler–Nichols [2] va Cohen–Coon [3] usullari tebranishlarning har davrda to‘rt marta so‘nishi mezoniga asoslangan. IMC usuli [4] esa berk tizimning istalgan vaqt doimiysi λ ni tanlashga asoslanadi; ishda λ = L qabul qilindi.

1-jadval. PID rostlagich parametrlarini hisoblash formulalari

Usul	K_p	T_i	T_d
Ziegler–Nichols	1,2·T / (K·L)	2·L	0,5·L
Cohen–Coon	T / (K·L) · (4/3 + L / (4·T))	L·(32 + 6·L/T) / (13 + 8·L/T)	4·L / (11 + 2·L/T)
IMC	(2·T + L) / (K·(2·λ + L))	T + L/2	T·L / (2·T + L)

Modellashtirish natijalari

IMC usuli topshiriqni eng sifatli ishlab chiqdi: o‘ta rostlash 4,1 %, rostlash vaqti 78 s (1-rasm, 2-jadval). Tajribada topshiriq t = 0 da 10 °C ga pog‘onali o‘zgartirildi, t = 750 s da esa obyekt kirishiga 2 % li pog‘onali tashqi ta’sir berildi. Model Eyler usulida 0,01 s qadam bilan hisoblandi; ijro mexanizmining to‘yinishi hisobga olinmadi.

Ziegler–Nichols va Cohen–Coon usullarida o‘ta rostlash mos ravishda 58,2 % va 79,9 % ni tashkil etdi. Bunday qiymat harorat rejimi qat’iy bo‘lgan jarayonlar uchun odatda maqbul emas.

Biroq bu ikki usul tashqi ta’sirni tezroq bartaraf etadi. Tashqi ta’sir bo‘yicha IAE ularda 57–58 °C·s, IMC da esa 180 °C·s, ya’ni taxminan uch barobar katta.

Barqarorlik zaxiralari ham IMC da eng katta: amplituda bo‘yicha 2,18, faza bo‘yicha 69°, kechikish bo‘yicha 50,3 s.



1-rasm. Uch sozlash usuli uchun o‘tish jarayonlari

2-jadval. Rostlagich sozlamalari va rostlash sifati ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Ziegler–Nichols	Cohen–Coon	IMC
K_p, %/°C	2,40	2,79	1,50
T_i, s	60,0	67,0	135,0
T_d, s	15,0	10,4	13,3
O‘ta rostlash, %	58,2	79,9	4,1
Rostlash vaqti (±5 %), s	201	271	78
IAE, topshiriq bo‘yicha, °C·s	765	881	593
Tashqi ta’sirdagi eng katta og‘ish, °C	0,93	0,93	1,03
IAE, tashqi ta’sir bo‘yicha, °C·s	58	57	180
Amplituda bo‘yicha barqarorlik zaxirasi	1,34	1,31	2,18
Faza bo‘yicha barqarorlik zaxirasi, °	42	28	69
Kechikish bo‘yicha barqarorlik zaxirasi, s	17,5	10,3	50,3

Boshqarish ta’siri

Klassik usullar tezkorlikka katta boshqarish ta’siri evaziga erishadi (2-rasm). Cohen–Coon usulida signal barqaror qiymatdan (5 %) sakkiz marta katta cho‘qqiga (40,4 %) chiqadi, so‘ng −15 % gacha tushadi. Ziegler–Nichols usulida cho‘qqi 36,0 % ni tashkil etadi. IMC da signal 4,4–18,3 % oralig‘ida qoladi.



2-rasm. Rostlagich chiqish signalining o‘zgarishi (ish nuqtasidan og‘ish)

Ish nuqtasidagi quvvat zaxirasi kichik bo‘lsa, bunday keskin signal ijro mexanizmini to‘yinishga olib keladi va uning yeyilishini tezlashtiradi.

Kechikish o‘zgarishiga chidamlilik

Obyekt kechikishi sozlashda qabul qilingan qiymatdan oshganda faqat IMC rostlash sifatini saqlaydi (3-jadval). Tajribada rostlagich sozlamalari o‘zgartirilmadi, obyekt kechikishi esa 21 s dan 45 s gacha o‘zgartirildi. Jadvalda Z–N — Ziegler–Nichols, C–C — Cohen–Coon.

3-jadval. Kechikish o‘zgarganda o‘ta rostlash va rostlash vaqti

Obyekt kechikishi	Z–N: o‘ta rostlash, %	C–C: o‘ta rostlash, %	IMC: o‘ta rostlash, %	Z–N: rostlash vaqti, s	C–C: rostlash vaqti, s	IMC: rostlash vaqti, s
21 s (−30 %)	27,6	28,6	2,6	186	171	107
30 s (hisobiy)	58,2	79,9	4,1	201	271	78
39 s (+30 %)	106,7	133,1	19,4	516	2974	142
45 s (+50 %)	140,0	nobarqaror	33,6	2093	nobarqaror	273

Cohen–Coon sozlamalari kechikish 34 % dan ko‘proq oshsa barqarorlikni yo‘qotadi. Ziegler–Nichols uchun bu chegara 58 %, IMC uchun 168 %.



3-rasm. Kechikish 30 % ga oshgandagi o‘tish jarayonlari

Cohen–Coon usulida tebranish amplitudasi 700 s dan keyin ham 6 °C dan yuqori. Issiqlik obyektlarida kechikish mahsulot yuklamasi va ish rejimiga qarab o‘zgarishi sababli bu xossa amaliy jihatdan muhim.

IMC usulida λ parametrining ta’siri

λ = L qiymati eng qisqa rostlash vaqtini (78 s) beradi va bu adabiyotdagi tavsiyaga mos keladi [7] (4-jadval). Tajribada faqat λ o‘zgartirildi, obyekt modeli va sinov sharoiti avvalgidek qoldirildi.

4-jadval. λ ning turli qiymatlarida IMC rostlagichning ko‘rsatkichlari

λ / L	K_p, %/°C	O‘ta rostlash, %	Rostlash vaqti, s	IAE, topshiriq bo‘yicha, °C·s	IAE, tashqi ta’sir bo‘yicha, °C·s	Amplituda bo‘yicha zaxira
0,8	1,73	6,2	170	566	156	1,89
1,0	1,50	4,1	78	593	180	2,18
1,5	1,13	2,2	129	698	240	2,91
2,0	0,90	1,2	166	808	299	3,64
3,0	0,64	0,2	251	1060	417	5,09

λ kamaytirilganda tashqi ta’sir tezroq bostiriladi, lekin o‘ta rostlash 5 % lik chegaradan chiqadi va rostlash vaqti 170 s gacha uzayadi. λ oshirilganda barqarorlik zaxirasi ortadi, biroq jarayon sekinlashadi: λ = 3L da tashqi ta’sir bo‘yicha IAE 2,3 marta katta.

Demak, λ bitta sozlash parametri sifatida tezkorlik va chidamlilik orasidagi muvozanatni boshqarish imkonini beradi. Klassik usullarda bunday imkoniyat yo‘q.

L/T nisbatining ta’siri

IMC da o‘ta rostlash L/T ning butun tekshirilgan oralig‘ida 5 % dan oshmadi (5-jadval). Tajribada T = 120 s o‘zgarmas saqlandi, kechikish 12 s dan 120 s gacha o‘zgartirildi va har bir holat uchun rostlagich qayta sozlandi (IMC da λ = L).

5-jadval. L/T nisbatining turli qiymatlarida o‘ta rostlash va rostlash vaqti

L/T	L, s	Z–N: o‘ta rostlash, %	C–C: o‘ta rostlash, %	IMC: o‘ta rostlash, %	Z–N: rostlash vaqti, s	C–C: rostlash vaqti, s	IMC: rostlash vaqti, s
0,10	12	77,5	93,8	2,6	88	112	43
0,25	30	58,2	79,9	4,1	201	271	78
0,50	60	33,4	61,9	3,8	458	514	142
1,00	120	5,6	38,3	4,7	706	803	259

Ziegler–Nichols usuli faqat L/T ≈ 1 da maqbul natija beradi (5,6 %). Kechikishi kichik obyektlarda esa o‘ta rostlash 77,5 % gacha ortadi. Cohen–Coon usulida o‘ta rostlash barcha holatlarda 38 % dan yuqori.

IMC da rostlash vaqti Ziegler–Nichols usuliga nisbatan barcha holatlarda 2,0–3,2 marta qisqa. Bu IMC ning afzalligi bitta model bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi.

Xulosa

1. Topshiriq o‘zgarishini ishlab chiqishda IMC usuli eng yaxshi natija berdi: o‘ta rostlash 4,1 %, rostlash vaqti Ziegler–Nichols usuliga nisbatan 2,6 marta qisqa.
2. Ziegler–Nichols va Cohen–Coon usullari tashqi ta’sirni taxminan uch barobar kichik IAE bilan bartaraf etadi. Buning evaziga o‘ta rostlash 58–80 % ga yetadi, barqarorlik zaxirasi kichik (1,31–1,34) va boshqarish ta’sirining cho‘qqisi ikki barobar katta.
3. Kechikish hisobiy qiymatdan 30 % oshganda IMC da o‘ta rostlash 19,4 % ni tashkil etadi. Cohen–Coon usuli esa barqarorlik chegarasiga yaqinlashadi: uning kechikish bo‘yicha zaxirasi atigi 34 %.
4. IMC ning afzalligi L/T = 0,1–1,0 oralig‘ida saqlanadi: o‘ta rostlash 5 % dan oshmaydi, rostlash vaqti Ziegler–Nichols usuliga nisbatan 2,0–3,2 marta qisqa.
5. λ parametri tezkorlik va chidamlilik orasidagi muvozanatni bitta son bilan boshqaradi; boshlang‘ich qiymat sifatida λ = L tavsiya etiladi.
6. Harorat oshib ketishi mumkin bo‘lmagan va obyekt parametrlari o‘zgaruvchan bo‘lgan issiqlik jarayonlari uchun IMC usuli tavsiya etiladi.
7. Keyingi tadqiqotlarda obyekt parametrlarini ishlab turgan pechning tajriba o‘tish xarakteristikasidan aniqlash va ijro mexanizmining to‘yinishini hisobga olish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Åström K.J., Hägglund T. PID Controllers: Theory, Design, and Tuning. – 2nd ed. – Research Triangle Park, NC: Instrument Society of America, 1995. – 343 p.
2. Ziegler J.G., Nichols N.B. Optimum settings for automatic controllers // Transactions of the ASME. – 1942. – Vol. 64. – P. 759–768.
3. Cohen G.H., Coon G.A. Theoretical consideration of retarded control // Transactions of the ASME. – 1953. – Vol. 75. – P. 827–834.

4. Rivera D.E., Morari M., Skogestad S. Internal model control. 4. PID controller design // Industrial & Engineering Chemistry Process Design and Development. – 1986. – Vol. 25, No. 1. – P. 252–265.
5. O'Dwyer A. Handbook of PI and PID Controller Tuning Rules. – 3rd ed. – London: Imperial College Press, 2009.
6. Seborg D.E., Edgar T.F., Mellichamp D.A., Doyle F.J. Process Dynamics and Control. – 3rd ed. – Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2011.
7. Skogestad S. Simple analytic rules for model reduction and PID controller tuning // Journal of Process Control. – 2003. – Vol. 13, No. 4. – P. 291–309.

KONSTRUKSION METALLARNING KORROZIYAGA CHIDAMLILIGINI OSHIRISHDA NANOTEXNOLOGIK YONDASHUVLAR: FANLARARO TADQIQOTLAR VA AMALIY YECHIMLAR

Mirzayeva Yulduzoy Alizafar qizi
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika universiteti
muxlis19931119@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy sanoatda konstruksion metallar va qotishmalarning korroziyaga chidamliligini oshirishda nanotexnologik yondashuvlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Fizika, kimyo va materialshunoslik fanlari tutashgan nuqtada nanomateriallar hamda nano-qoplamalardan foydalanish orqali metall yuzasining passivatsiyalanishi va ekspluatatsiya muddatini uzaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari resurs tejamkorligini ta’minlash va barqaror sanoat altyernativalarini yaratishga xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: *konstruksion metallar, korroziya, nanotexnologiya, nano-qoplamalar,fanlararo tadqiqotlar, barqaror kelajak.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение нанотехнологических подходов в повышении коррозионной стойкости конструкционных металлов и сплавов в современной промышленности. На стыке физики, химии и материаловедения рассмотрены возможности использования наноматериалов и нанопокрытий для пассивации поверхности металлов и продления срока их эксплуатации. Результаты исследования способствуют обеспечению ресурсосбережения и созданию экологически устойчивых промышленных решений.*

Ключевые слова: *конструкционные металлы, коррозия, нанотехнологии, нанопокрытия, междисциплинарные исследования, устойчивое будущее.*

Abstract. *This article analyzes the role and importance of nanotechnological approaches in enhancing the corrosion resistance of structural metals and alloys in modern industry. At the intersection of physics, chemistry, and materials science, the potential of using nanomaterials and nanocoatings for surface passivation and extending the operational lifespan of*

metals is explored. The research results contribute to ensuring resource efficiency and developing sustainable industrial solutions.

Keywords: *structural metals, corrosion, nanotechnology, nanocoatings, interdisciplinary research, sustainable future.*

Kirish. Sanoat tarmoqlari hamda metallurgiya majmualarida ishlatiladigan texnik inshootlar va mashina detallarining uzoq muddat xizmat qilishi Bevosita ularning tashqi muhit ta’siriga chidamliligiga bog‘liq. Amaliyotda keng qo‘llaniladigan St3, 40X rusumli konstruksion po‘latlar va alyuminiy-titan qotishmalari namlik hamda tajovuzkor kimyoviy muhitda tezkor korroziyaga uchrab, o‘zining dastlabki mexanik xossalarini yo‘qotadi. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, ishlab chiqarilgan metall fondining salmoqli qismi aynan elektrokimyoviy yemirilish oqibatida muddatidan ilgari ishdan chiqadi va bu holat iqtisodiyotga va resurslar sarfiga jiddiy zarar yetkazadi. An’anaviy bo‘yoq va standart galvanik himoya usullari mikro-darajadagi darsliklar hamda kovaklar sababli uzoq muddatli himoyani ta’minlay olmaydi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasida materialshunoslik sohasida olib borilayotgan tajribaviy izlanishlar, jumladan Parkentdagi Materialshunoslik instituti kabi ilmiy markazlarda bajarilayotgan tadqiqotlar metall yuzasini nano-darajada modifikatsiyalash zaruratini ko‘rsatmoqda. Physical-chemical va materialshunoslik fanlarining o‘zaro integratsiyasi asosida metallar yuzasida nanostrukturaviy passivatsiyalovchi qatlamlar hosil qilish ushbu texnik muammoni hal etishda eng istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Asosiy qism. Metallar va qotishmalarning sirtini korroziyadan muhofaza qilishda nanotexnologik usullarni qo‘llash ularning fizik-kimyoviy xossalarini ildizdan o‘zgartirishga imkon beradi. Materialshunoslik laboratoriyalarida va amaliyotda sinovdan o‘tkazilayotgan asosiy texnologik yondashuvlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1.Nanostrukturaviy oksid va keramik qoplamalar. Metallar yuzasiga Magnetronli changitish hamda Plazmaviy-elektrolitik oksidlash (PEO) texnologiyalari orqali titan oksidi (TiO_2), alyuminiy oksidi (Al_2O_3) hamda sirkoniy birikmalari asosida nanozarrachali keramik qatlamlar tushiriladi. Bu jarayonda metall yuzasida juda zich kristalli panjara shakllanadi va mikroqattiqlik ko‘rsatkichi 2-3- barobarga oshishi kuzatiladi.

2.Polimer va gibrid nano-kompozitlar. Epoksid hamda poliuretan birikmalariga grafen nano-varaqalari, uglerod nanotubokalari va nano-SiO_2 zarrachalari kiritilishi natijasida gibrid kompozit qoplamalar olinadi. Nano-

o‘lchamli to‘ldirgichlar polimer matrisadagi kapillyar tirqishlarni yopib, Cl^-ionlari hamda kislorod molekulalarining metall sirtiga kirib borishiga to‘sqinlik qiladi.

3.O‘z-o‘zini tiklovchi nano-ingibitorlar. Kapsulalangan nano-ingibitorlar qoplama mexanik shikastlanganda (tirnalganda yoki mikroyoriqlar hosil bo‘lganda) faollashib, metall sirtida avtomatik ravishda qayta passivatsiyalovchi pardahosilqiladi.

Tajribaviy va elektrokimyoviy ko‘rsatkichlar tahliliLaboratoriya sharoitida 3.5% li NaCl tuzli eritmasida o‘tkazilgan elektrokimyoviy sinovlar nano-modifikatsiyalangan qoplamalarning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Konstruksion po‘lat namunalaridagi korroziya tezligi va himoya qatlamlarining ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Metall/ Qoplama turi	**Qoplama qalinligi** (Цm)	**Korroziya tezligi** (mm/yil**)**	**Himoya samaradorligi (%)**
Oddiy konstruksion po‘lat (qoplamasiz)	-	0.45 – 0.50	0 %
An’anaviy epoksid qoplama	50-80	0.08-0.12	75-80%
Nano-TiO_2 qo‘shilgan gibrid qoplama	15-25	0.005-0.01	96-98%
Nanostrukturaviy keramik PEO-qoplama	10-20	0.002-0.005	98-99%

Olingan ko‘rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, nanotexnologik qoplamalarning qalinligi an’anaviy bo‘yoqlarga qaraganda sezilarli darajada kichik (10-25 \ \mu m) bo‘lsada, ularning korroziyaga chidamliligi va mexanik qattiqligi bir necha barobar yuqoridir. Bu esa texnik inshootlar va mashina detallarining og‘irligini oshirmasdan ularning ekspluatatsiya muddatini uzaytirish imkonini beradi. Shunday qilib, metallar korroziyasi muammosini samarali hal etish fizika, kimyo hamda materialshunoslik sohalarining uzviy integratsiyasini talab etadi. Nanostrukturaviy qoplamalar metallarni agressiv muhit ta’siridan samarali himoya qiladi va korroziya tezligini 95–99% gacha kamaytiradi. Konstruksion metallarning xizmat muddatini uzaytirish resurs tejamkorligini ta’minlaydi, metallurgiya sanoatida xomashyo sarfini kamaytiradi va atrof-muhitga

ajraladigan zararli moddalar miqdorini qisqartirish orqali barqaror kelajak tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gleiter H. Nanostructured materials: basic concepts and microstructure // Acta Materialia. — 2000. — Vol. 48, № 1. — P. 1–29. DOI: 10.1016/S1359-6454(99)00285-2.

2. Khanna A. S. Nanotechnology in Corrosion Control. — Woodhead Publishing, 2008.

3. Montemor M. F. Functional and smart coatings for corrosion protection: A review of recent advances // Surface and Coatings Technology. — 2014. — Vol. 258. — P. 17–37.

4. Ramezanzadeh B. et al. Enhancement of corrosion protection properties of epoxy coating using graphene oxide nanosheets // Corrosion Science. — 2015. — Vol. 100. — P. 252–263.

5. Abdullayev E., Lvov Y. Halloysite clay nanotubes for controlled release of protective agents // Journal of Nanoscience and Nanotechnology. — 2011. — Vol. 11, № 11. — P. 10007–10026. DOI: 10.1166/jnn.2011.5724.

RUX ISHLAB CHIQARISH SANOATI YARIM MAHSULOTLARI TARKIBIDAN METALLARNI KOMPLEKS AJRATIB OLISHNING IMKONIYATLARI

Muradullayeva Zarnigor Husniddin qizi
NavDKTU
Ilmiy rahbar: Axtamov F.E.

Hozirgi kunda rux ishlab chiqarish rangli metallurgiyaning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning jarayonida rux bilan birga ko'p miqdorda yarim mahsulotlar hosil bo'ladi. Rux konsentratlarini kuydirish, kuyindini sulfat kislotada tanlab eritish va eritmani tozalash bosqichlarida tanlab eritish qoldiqlari, mis-kadmiyli keklar, changlar va shlamlar hosil bo‘ladi [1]. Ularning tarkibida mis, kadmiy, qo'rg'oshin kabi rangli metallar bilan bir qatorda oltin va kumush ham bo‘ladi. Nodir metallar asosan qattiq qoldiqlarda to‘planadi va ularning miqdori kam bo‘lsa ham, yuqori qiymati tufayli ajratib olish iqtisodiy jihatdan muhimdir. Yarim mahsulotlarning qayta ishlanmasdan saqlanishi qimmatli komponentlar yo‘qolishiga va atrof-muhitga texnogen chiqindilarning ortishiga olib keladi.

Ruxni ajratib olishda asosiy manba polimetall rudalarni flotatsion boyitishdan olingan rux boyitmasi hisoblanib tarkibi quyidagicha, %: Zn 48-60; Pb 1,5-2; Cu 1-3; Fe-3-10; S 30-38. Bundan tashqari rux boyitmasi tarkibida Au, Ag, Cd, Ga, Zn, Tl, Se, Te va boshqa metallar ham uchraydi. Rux boyitmasi qaynar qatlamli pechda kudirilib, kuyindi tarkibidagi ruxni eritmaga o‘tkazish maqsadida sulfat kislotaning suvli eritmasi bilan tanlab eritiladi. Kuyindini tanlab eritish vaqtida uning tarkibidagi Cu, Cd, Fe, As kabi metallarning ham qisman eritmaga o‘tishi kuzatiladi. Ruxning eritmaga o‘tish darajasi 85-90%, kekning chiqishi 20-25% bo‘ladi.

Rux keki kuyindini tanlab eritishdan qolgan qattiq qoldiq bo‘lib uning tarkibi quyidagicha, %: Zn-18-23; Pb-4,8-11,7; Cu-0,25-1,28; Cd-0,08-0,2; Ag-170-425g/t; Fe-23-32; Au-1-2g/t; $S_{um.}$-4,7-10. Hozirgi kunda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, rux konxonasida kek tarkibida qolgan ruxni ajratib olish maqsadida 1000-1100^{0}C haroratda 35-55% koks qo‘shilib velslash jarayoni amalga oshirilmoqda. Bunda ruxli uchirma va tarkibida ko‘pgina metallar bo‘lgan klinker hosil bo‘ladi. Velslash jarayoni kamchiliklari:

- qimmatbaho va tahchil bo‘lgan koks sarfining yuqoriligi;
- jarayonning yuqori haroratda kechishi;
- klinkerni qayta ishlashning samarali texnologiyasi yo‘qligi sababli boshqa qimmatbaho metallar (Au, Ag, Pb, Cu va b.) ni ajratib olinmasligi.

Pirometallurgik usullar yuqori energiya sarfi va gazsimon chiqindilar hosil bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, kumush ko‘pincha qo‘rg‘oshin sulfati va ferritlar matritsasida mayda zarrachalar shaklida bog‘langan, oltin esa juda kam miqdorda tarqalgan bo‘ladi. Shu sababli nodir metallarni selektiv ajratib olish imkonini beradigan gidrometallurgik usullar istiqbolli hisoblanadi.

Eng keng tarqalgan usul sianli tanlab eritish bo‘lib, u ishqoriy muhitda kislorod ishtirokida boradi [2]. pH<9,4 bo‘lganda siyanid ioni protonlanib, zaharli sianid vodorod hosil qiladi, shu sababli jarayon pH 10–11 da olib boriladi:

$$CN^- + H^+ = HCN \quad (1)$$

Oltin va kumushning erishi Elsner tenglamalari bo'yicha kechadi:

$$4Au + 8NaCN + O_2 + 2H_2O = 4Na[Au(CN)_2] + 4NaOH \quad (2)$$

$$4Ag + 8NaCN + O_2 + 2H_2O = 4Na[Ag(CN)_2] + 4NaOH \quad (3)$$

Jarayon samaradorligi natriy sianidining konsentratsiyasiga, eritma pH muhitiga, erigan kislorod miqdoriga, qattiq va suyuq faza nisbatiga, zarrachalar maydaligiga, haroratga va davomiylikka bog'liq.

Sianidning zaharliligi tufayli muqobil reagentlarga qiziqish ortmoqda. Ulardan biri tiokarbamid bo‘lib, u rux ishlab chiqarishidagi kabi kislotali sulfat muhitida faol; oksidlovchi sifatida Fe^{3+} ionlari qo‘llanadi [2]:

$$Au + 2CS(NH_2)_2 + Fe^{3+} = Au[CS(NH_2)_2]_2^+ + Fe^{2+} \quad (4)$$

$$Ag + 3CS(NH_2)_2 + Fe^{3+} = Ag[CS(NH_2)_2]_3^+ + Fe^{2+} \quad (5)$$

Tanlab eritish pH 1–2 da olib boriladi, bu esa yarim mahsulotlarni kislotali tanlab eritishdan so‘ng qoldiqni neytrallashtirmasdan qayta ishlash imkonini beradi. Kumushni ajratishda konsentrlangan xloridli eritmalar ham qo‘llaniladi:

$$Ag^+ + 2Cl^- = [AgCl_2]^- \quad (6)$$

Eritmaga o‘tgan nodir metallar sementatsiya, ko‘mirga sorbsiyalash yoki elektroliz bilan cho‘ktiriladi. Sianidli eritmalarda rux kukuni bilan sementatsiya keng qo'llaniladi:

$$2Na[Au(CN)_2] + Zn = Na_2[Zn(CN)_4] + 2Au \quad (7)$$

$$2Na[Ag(CN)_2] + Zn = Na_2[Zn(CN)_4] + 2Ag \quad (8)$$

Kelajakda oson boyitiladigan rudalar zaxiralarining kamayishi ikkilamchi xomashyoni qayta ishlashga e'tiborni oshiradi. Yarim mahsulotlarni oldindan tayyorlash (ferritlarni parchalash, matritsani ochish) hamda sianli va sianidsiz eritmalarni qo‘llash nodir metallarni ajratib olishning istiqbolli yo'nalishlaridan

biri bo'lishi mumkin. Olmaliq KMK rux ishlab chiqarishida hosil bo'ladigan yarim mahsulotlar misolida bu jarayonlarni tadqiq qilish iqtisodiy va ekologik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Снурников А.П. Гидрометаллургия цинка. М.: Металлургия, 1981. 384 с.
2. Marsden J., House I. The Chemistry of Gold Extraction. 2nd ed. Littleton: SME, 2006. 651 p.

AUTOMATIC DETECTION OF PANEL SOILING AND CONTROL OF THE CLEANING PROCESS IN SOLAR PHOTOVOLTAIC POWER PLANTS

Musurmonov Tohirjon
tokhirjon0501@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada quruq va changli iqlim sharoitida ishlovchi quyosh fotoelektr stansiyalarida (QFES) panellarning changlanishini avtomatik aniqlash va tozalash jarayonini boshqarish tizimi taklif etilgan. Chang konsentratsiyasi, havo namligi, shamol tezligi va yog‘ingarchilikni hisobga oluvchi changlanish dinamikasining matematik modeli, etalon modul usuli asosida changlanish koeffitsiyentini aniqlash algoritmi hamda energiya yo‘qotishi va tozalash xarajatini taqqoslovchi, ob-havo prognozini hisobga oluvchi adaptiv boshqarish algoritmi ishlab chiqilgan. 1 MW quvvatli QFES uchun 92 kunlik (iyun-avgust) modellashtirish natijalariga ko'ra, taklif etilgan algoritm tozalanmagan holatga nisbatan energiya ishlab chiqarishni 14,3% ga oshirdi, 14 kunlik qat'iy jadvalga nisbatan esa tozalash sikllari sonini 33% ga kamaytirib, sof daromadni 2,1% ga oshirdi.*

Kalit so'zlar: *quyosh fotoelektr stansiyasi, changlanish, changlanish koeffitsiyenti, avtomatik boshqarish, tozalash roboti, optimallash, adaptiv algoritm.*

Аннотация. *В статье предложена система автоматического определения загрязнения панелей солнечных фотоэлектрических станций и управления процессом их очистки в условиях сухого и пыльного климата. Разработаны математическая модель динамики загрязнения с учётом концентрации пыли, влажности, скорости ветра и осадков, алгоритм определения коэффициента загрязнения методом эталонного модуля и адаптивный алгоритм управления очисткой, учитывающий прогноз погоды. По результатам моделирования для СФЭС мощностью 1 МВт предложенный алгоритм увеличил выработку энергии на 14,3% по сравнению с работой без очистки и сократил число циклов очистки на 33% по сравнению с фиксированным 14-дневным графиком, увеличив чистый доход на 2,1%.*

Ключевые слова: *солнечная фотоэлектрическая станция, загрязнение, коэффициент загрязнения, автоматическое управление, робот очистки, оптимизация, адаптивный алгоритм.*

Abstract. *The paper proposes a system for automatic soiling detection and cleaning control for photovoltaic (PV) power plants operating in dry and dusty climates. A soiling dynamics model accounting for dust concentration, humidity, wind speed and rainfall, a reference-module algorithm for soiling ratio estimation, and a forecast-aware adaptive cleaning control algorithm are developed. Simulation of a 1 MW plant over 92 days (June-August) shows a 14.3% increase in energy yield compared with no cleaning, and a 33% reduction in cleaning cycles together with a 2.1% increase in net revenue compared with a fixed 14-day schedule.*

Keywords: *photovoltaic power plant, soiling, soiling ratio, automatic control, cleaning robot, optimization, adaptive algorithm.*

Introduction. In recent years, renewable energy, and solar energy in particular, has been developing rapidly in Uzbekistan. Solar photovoltaic power plants with capacities of hundreds of megawatts have been commissioned or are under construction in Navoi, Samarkand, Jizzakh, Bukhara, Kashkadarya and other regions. Up to 2800-3000 hours of sunshine per year are observed across the Republic [1], which creates very favorable conditions for photovoltaic technologies.

However, the same climatic conditions also give rise to a serious technical problem. Precipitation is very scarce in summer, the concentration of dust particles in the air is high, and dust storms occur frequently. Salty dust lifted from the Aral Sea region adheres to the panel surface and forms a hard layer. Dust accumulated on the panel surface prevents solar radiation from reaching the photovoltaic cells and reduces the generated electrical energy. In international studies, this phenomenon is called *soiling*, and it has been reported that in arid regions the monthly energy loss of uncleaned panels reaches 10-30% [2-4]. Studies conducted in our Republic have also found that a dust layer reduces panel efficiency by 15-25% [5], and it has been shown that quartz and hematite particles predominate in the composition of Aral region dust [6].

In practice, cleaning at PVPPs is mainly performed according to a fixed schedule (for example, every 2 or 4 weeks) or based on visual inspection by the operator. This approach has two main drawbacks. First, cleaning is carried out even during periods of low dust accumulation, and water, electricity, labor and

equipment resources are wasted. Second, after a dust storm the panels operate with large energy losses until the next scheduled date. In addition, weather factors (whether rain or a dust storm is expected in the coming days, air humidity) are not taken into account when choosing the cleaning time.

Thus, the development of a system that objectively determines the soiling level of PVPP panels in real time and automatically controls the cleaning process based on an energy-economic criterion and meteorological conditions is a relevant scientific and technical problem.

Mathematical model of soiling dynamics

The dust density on the panel surface m (g/m²) at a discrete time step (k is the day number) is described by the following balance equation [4, 7], which takes into account deposition, partial cleaning by wind and the effect of rain:

$$m_{k+1} = m_k + k_d C_k[1 + \gamma \cdot max(\varphi_k - \varphi_0, 0)] - \kappa \cdot max(v_k - v_0, 0)m_k \quad (1)$$

where C is the average daily concentration of PM10 particles in the air, μg/m³; φ is the relative humidity, %; v is the average wind speed, m/s; k_d is the deposition coefficient; γ is the coefficient of the effect of humidity on dust adhesion; κ is the wind cleaning coefficient; φ_0 and v_0 are the threshold values of humidity and wind speed, respectively.

When the amount of precipitation R exceeds the threshold value R_0, part of the dust layer is washed off, and after a cleaning operation residual dust remains:

$$m_{k+1} \leftarrow (1 - \eta_r)m_{k+1},\ R_k > R_0; \quad m \leftarrow (1 - \eta_c)m \quad (2)$$

where η_r is the rain cleaning efficiency, η_c is the efficiency of the cleaning system.

The soiling ratio SR is the ratio of the power of a soiled panel to the power of a clean panel. It is assumed to depend exponentially on the dust density (similar to the Bouguer-Lambert law) [2]:

$$SR_k = exp(-\beta m_k) \quad (3)$$

where β is the optical extinction coefficient of the dust layer, m²/g. SR = 1 corresponds to a clean panel, and SR = 0.8 corresponds to a 20% power loss. The daily energy generation of the plant is:

$$E_k = P_{nom} \cdot H_k \cdot PR \cdot SR_k \quad (4)$$

where P_{nom} is the nominal power of the plant, kW; H_k is the daily solar irradiation on the panel plane, kWh/m²; PR is the performance ratio accounting for losses other than soiling. The parameters adopted in the simulation are given in Table 1.

Table 1

Model parameters

Parameter	Symbol	Value	Unit
Deposition coefficient	k_d	$8.5 \cdot 10^{-4}$	$(g/m^2)/(\mu g/m^3 \cdot day)$
Humidity effect coefficient	γ	0.012	1/%
Humidity threshold	φ_0	40	%
Wind cleaning coefficient	κ	0.035	s/m
Wind speed threshold	v_0	6	m/s
Precipitation threshold	R_0	5	mm
Rain cleaning efficiency	η_r	0.75	-
Cleaning efficiency	η_c	0.97	-
Optical extinction coefficient	β	0.11	m^2/g
Nominal power	P_{nom}	1000	kW
Performance ratio	PR	0.80	-

The advantage of the model is that all its input quantities (PM10, humidity, wind, precipitation) are measured by an ordinary weather station and a dust sensor, while its parameters are identified by the least squares method from the SR values measured at the plant.

Hybrid soiling detection algorithm

To determine the soiling level, a hybrid algorithm is proposed that combines data from two sources: electrical parameters (the reference module method) and panel images.

Detection based on electrical parameters. Two reference modules of the same type are installed on the plant site. One of them is automatically cleaned every day (clean module, index c), while the other is left under the same conditions as the plant panels (soiled module, index s). This method is recommended in the IEC 61724-1 standard for soiling monitoring [8]. The short-circuit currents are corrected for temperature to standard conditions (25 °C):

$$I_{sc}^{*} = \frac{I_{sc}}{1+\alpha(T_m-25)} \quad (5)$$

where α is the temperature coefficient of the short-circuit current, 1/°C; T_m is the module temperature, °C. The instantaneous value of the soiling ratio is:

$$SR_{el} = K_{cal} \cdot \frac{I_{sc,s}^{*}}{I_{sc,c}^{*}} \quad (6)$$

where K_{cal} is the calibration coefficient determined on a day when both modules are clean at the same time. To reduce measurement error, only measurements with irradiance G > 500 W/m² taken within ±2 hours of solar noon are used, and their median is taken as the daily value. Using the ratio almost

completely eliminates the influence of changes in solar irradiance and temperature, while using the short-circuit current reduces the influence of module degradation and MPPT errors.

Image-based detection. Panel images obtained with a stationary camera or a drone are classified by a convolutional neural network (CNN) into four classes: clean, lightly soiled, moderately soiled and heavily soiled. The main purpose of image analysis is to detect uneven dust distribution across the plant and to indicate which rows should be cleaned first.

Data fusion rule. The final estimate is formed as follows:

$$SR = w \cdot SR_{el} + (1 - w) \cdot SR_{img}, \quad 0 \le w \le 1 \qquad (7)$$

where w is the confidence weight of the electrical method (w = 0.7-0.8 is recommended). In addition, a logical check is introduced: if SR_{el} drops sharply while the image shows the panel as clean, the system interprets this not as soiling but as shading or a module fault and sends a warning to the operator. This prevents unnecessary activation of the cleaning system.

In the simulation, when a relative random error of 1.2% was added to the reference module measurements, the root mean square error (RMSE) of SR estimation over 92 days was 0.0095 (approximately 0.95 percentage points). This accuracy is sufficient for making cleaning decisions.

Cleaning process control algorithm

Optimization criterion. The cleaning decision is based on comparing two types of costs: the revenue lost due to soiling and the cost of one cleaning cycle C_{cl} (water, electricity, labor, robot wear). The loss accumulated since the last cleaning is:

$$L_k = \sum_{j=k_0}^{k} p \cdot P_{nom} \cdot H_j \cdot PR \cdot \left(1 - SR_j\right) \qquad (8)$$

where p is the electricity tariff, UZS/kWh; k_0 is the day of the last cleaning. Cleaning is advisable when $L_k \ge C_{cl}$.

This criterion is consistent with the classical result presented in [9]. If the soiling rate r is constant and the loss grows linearly ($1 - SR \approx r \cdot t$), the loss accumulated over the interval T equals $p \cdot E_0 \cdot r \cdot T^2/2$ ($E_0 = P_{nom} \cdot H \cdot PR$). Equating it to C_{cl}, we obtain the optimal interval:

$$T^* = \sqrt{\frac{2C_{cl}}{pE_0 r}} \qquad (9)$$

For average values (C_{cl} = 5.32 mln UZS, p = 650 UZS/kWh, E_0 = 5920 kWh/day, r = 0.8 %/day), $T^* \approx 18.6$ days is obtained. However, under real conditions r is not constant: dust storms increase it sharply, while rain partially cleans the panel. Therefore, the proposed algorithm does not set T* in advance;

instead, it calculates L_k daily from the measured SR and thereby adapts to actual conditions.

Meteorological constraints. The following additional conditions are introduced into the cleaning decision:

–if precipitation R > 5 mm is expected within the next 48 hours, cleaning is postponed (natural cleaning is used);

–if a dust storm is expected the next day (PM10 forecast > 250 μg/m³), cleaning is postponed until after the storm;

–if the relative humidity φ > 60% (risk of dew), dry brush cleaning is prohibited, since wet dust forms a muddy layer;

–safety condition: if $SR < SR_{min} = 0.80$ and no precipitation is expected, cleaning starts immediately.

Algorithm steps. The control cycle is executed every day after sunset:

1. the daily SR value is determined from the measurements taken during the day;
2. the daily loss is calculated and added to L_k;
3. the weather forecast (precipitation, PM10, humidity) is obtained;
4. if $L_k \geq C_{cl}$ or $SR < SR_{min}$ and the meteorological constraints are satisfied, a cleaning command is generated;
5. based on the image analysis results, cleaning starts from the most soiled rows; the robot operates at night or early in the morning (when φ < 60%);
6. after cleaning, L_k is set to 0, and SR recovery is verified by the next day's measurement. If SR remains below 0.95, a cleaning inefficiency alarm is issued.

The advantage of the algorithm lies in its simplicity: it is easily implemented on an industrial controller (PLC) or a microcontroller and automatically changes its behavior when the cleaning cost C_{cl} changes (for example, when the water tariff increases).

Experimental setup and research methodology

To test the proposed system in practice, an experimental setup was designed, the composition of which is given in Table 2.

Table 2

Composition of the experimental setup

Component	Function	Recommended element
Reference modules (2 pcs)	Measuring the currents of the clean and soiled modules	300-550 W monocrystalline module of the same type as at the plant

Component	Function	Recommended element
Current sensors	Measuring the short-circuit current	Shunt + ADS1115 (16 bit) or INA226
Temperature sensors	Measuring the module temperature	DS18B20 (on the back side of the module)
Pyranometer	Measuring solar irradiance	Second-class pyranometer or calibrated reference cell
Dust sensor	Measuring PM10 and PM2.5	Optical laser sensor (e.g., SDS011)
Weather sensors	Humidity, wind, precipitation	BME280, anemometer, rain gauge
Camera	Capturing panel images	5-8 MP IP camera or drone
Control unit	Data acquisition and algorithm execution	ESP32 / Raspberry Pi or industrial PLC
Actuator	Panel cleaning	Waterless brush robot or motorized brush on the test bench

Data are collected every 5 minutes and transmitted to the server via the MQTT protocol. The algorithm is implemented in the Python programming language, and the TensorFlow library is used for the CNN model.

To evaluate the efficiency of the algorithm, the operation of a 1 MW PVPP from June 1 to August 31 (92 days) was simulated based on the model presented above. The input meteorological data were generated to approximate the summer climate of the Fergana Valley: the average daily PM10 concentration was 96.5 μg/m³ (dust storms on days 19, 48 and 72, with the concentration increasing 3.5 times); the average relative humidity was 33.4%; the average wind speed was 3.2 m/s; significant precipitation occurred only twice, on day 10 (6.5 mm) and day 64 (8.0 mm); the average daily irradiation on the panel plane was 7.26 kWh/m².

In the economic calculations, the electricity selling tariff was taken as p = 650 UZS/kWh, and the cost of a single cleaning of a 1 MW area (including water, electricity, wages and robot wear) as C_{cl} = 5.32 mln UZS. Five cleaning strategies were compared: A - no cleaning; B - every 30 days; C - every 14 days; D - every 7 days; E - the proposed adaptive algorithm. All strategies were tested with the same meteorological data.

Results and discussion

The proposed adaptive algorithm (E) provided the highest net revenue among the compared strategies, 301.0 mln UZS, with only 4 cleanings performed. Figure 1 shows the daily variation of the soiling ratio for three strategies.



Figure 1. Variation of the soiling ratio over 92 days

In the uncleaned case (A), SR dropped to 0.624 by day 63, i.e., 37.6% of the plant's power was lost. The rain on day 64 restored SR to 0.887, but not completely. Dust storms (days 19, 48 and 72) appear in the graph as sharp drops.

The 14-day schedule (C) performed cleaning on day 14 even though SR was still 0.947, i.e., the loss was only 5.3%, which is an example of excessive cleaning. The adaptive algorithm, by contrast, waited until day 24 and started cleaning only when the accumulated loss became equal to the cleaning cost (SR = 0.870). Subsequent cleanings were performed on days 43, 58 and 79 (Table 3). After the dust storm on day 48, the algorithm did not react immediately but waited until sufficient loss had accumulated.

Table 3

Cleaning events under the adaptive algorithm (strategy E)

	Cleaning day	Interval, days	SR before cleaning	SR after cleaning	L_k, mln UZS	Weather events in the interval
	24	24	0.870	0.987	5.65	day 10 - rain; day 19 - dust storm
	43	19	0.862	0.987	5.38	-
	58	15	0.839	0.981	5.41	day 48 - dust storm
	79	21	0.858	0.981	5.41	day 64 - rain; day 72 - dust storm

Table 3 shows that the average interval between cleanings was 19.8 days, which is close to $T^* \approx 18.6$ days calculated by formula (9). However, the intervals

are not equal: in the period with a dust storm the algorithm performed cleaning after 15 days, while in periods when rain partially cleaned the panels it waited 21-24 days. Thus, the algorithm automatically adapts the cleaning time to actual weather conditions.



Figure 2. Results of the cleaning strategies over 92 days (1 MW PVPP)

Figure 2 shows that cleaning every 7 days (D) yields the most energy, but the cost of 13 cleanings exceeds the additional energy revenue and the net revenue is the lowest. Therefore, when evaluating a cleaning strategy, the main criterion should be net revenue rather than the amount of energy [3].

Compared with the uncleaned case, the adaptive algorithm provided an additional 62.0 MWh (+14.3%) of energy. Compared with the 14-day schedule, it generated 6.7 MWh less energy, but by saving 2 cleanings it increased net revenue by 6.28 mln UZS (2.1%).



Figure 3. Net revenue versus cleaning cost C_{cl} (92 days)

Figure 3 shows an important property of the algorithm: each fixed schedule performs well only within a certain cost range (the 14-day schedule for cheap cleaning, the 30-day schedule for expensive cleaning), whereas the adaptive algorithm itself changes the number of cleanings depending on the cost (6 → 4 → 3) and gives the best result in all cases. This property is particularly important in practical conditions where water and electricity tariffs vary.

Although the difference in net revenue is 2-3% for 92 days, for large plants (100 MW and above) and over a one-year period it becomes a significant amount. In addition, reducing the number of cleanings also reduces water consumption, robot wear and the risk of mechanical damage to the panel coating.

It should be noted that the results were obtained on the basis of the model: the model parameters (k_d, β, γ, κ) must be identified at a real plant. In addition, the weather forecast was assumed to be ideal; in practice, forecast errors may slightly reduce the effectiveness of the algorithm.

Conclusion

As a result of the research, an adaptive control system has been developed that automatically detects soiling of solar panels and selects the cleaning time according to weather conditions. The simulation results showed the following:

1. If the panels are not cleaned, the energy loss due to soiling reaches 18.8% in the summer season.
2. The proposed algorithm increases energy generation by 14.3% compared with the uncleaned case.
3. Compared with the fixed 14-day schedule, the number of cleanings decreases by 33%, and net revenue increases by 6.28 mln UZS.

At the next stage, the system will be tested on the experimental setup and at an operating plant.

References

1. Avezova N.R., Rakhimov E.Yu., Izzatillaev J.O. Resource indicators used for solar photovoltaic plants in Uzbekistan. Part 1 // Applied Solar Energy. – 2018. – Vol. 54, № 4. – P. 273–278.
2. Sarver T., Al-Qaraghuli A., Kazmerski L.L. A comprehensive review of the impact of dust on the use of solar energy: History, investigations, results, literature, and mitigation approaches // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2013. – Vol. 22. – P. 698–733.

3. Ilse K., Micheli L., Figgis B.W. et al. Techno-economic assessment of soiling losses and mitigation strategies for solar power generation // Joule. – 2019. – Vol. 3, № 10. – P. 2303–2321.

4. Micheli L., Muller M. An investigation of the key parameters for predicting PV soiling losses // Progress in Photovoltaics: Research and Applications. – 2017. – Vol. 25, № 4. – P. 291–307.

5. Mamasaliyev O.Q., Saitov E.B. Study of the dust composition of solar panels under the conditions of Uzbekistan // Development of Science: Problems, Solutions and Prospects: Proceedings of the II Traditional International Scientific and Practical Conference. – 2025. – № 4(12). – P. 768–772. (in Uzbek)

6. Bazarbayev R., Zhou B., Allaniyazov A. et al. Physical and chemical properties of dust in the Pre-Aral region of Uzbekistan // Environmental Science and Pollution Research. – 2022. – Vol. 29, № 27. – P. 40893–40902.

7. Coello M., Boyle L. Simple model for predicting time series soiling of photovoltaic panels // IEEE Journal of Photovoltaics. – 2019. – Vol. 9, № 5. – P. 1382–1387.

8. IEC 61724-1:2021. Photovoltaic system performance. Part 1: Monitoring. – Geneva: IEC, 2021.

9. Jones R.K., Baras A., Saeeri A.A. et al. Optimized cleaning cost and schedule based on observed soiling conditions for photovoltaic plants in Central Saudi Arabia // IEEE Journal of Photovoltaics. – 2016. – Vol. 6, № 3. – P. 730–738.

NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI ARXITEKTURASIDA FUNKSIONAL, PSIXOLOGIK VA ESTETIK TALABLARNING UYG'UNLASHUVI

Xidoyatova Shaxlo Mirsamug qizi
TAQU

Annotatsiya. *Mazkur tezisda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari arxitekturasini shakllantirishda funksional, psixologik va estetik talablarning o'zaro uyg'unligi masalasi tahlil qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixofiziologik xususiyatlari, ularning harakatga bo'lgan ehtiyoji, idrok jarayonlari, emotsional holati, muloqot va mustaqil faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari arxitektura-fazoviy muhitni loyihalashning muhim omillari sifatida qaraladi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida funksional zonalarning to'g'ri tashkil etilishi, ichki va tashqi makonlarning o'zaro bog'liqligi, xavfsizlik, tabiiy yoritish, shamollatish, rang, shakl, material va masshtab kabi estetik hamda psixologik omillarning bir butun tizim sifatida qaralishi zarurligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi, arxitektura muhiti, funksional zonalash, psixologik muhit, estetik muhit, bolalar psixofiziologiyasi, fazoviy-kompozitsion yechim, rivojlantiruvchi muhit, xavfsizlik.*

Аннотация. *В тезисе рассматривается проблема гармоничного сочетания функциональных, психологических и эстетических требований в архитектуре негосударственных дошкольных образовательных учреждений. Особое внимание уделяется возрастным и психофизиологическим особенностям детей дошкольного возраста, их потребности в движении, особенностям восприятия, эмоциональному состоянию, общению и самостоятельной деятельности. Обосновывается необходимость комплексного подхода к организации функционального зонирования, взаимосвязи внутренних и внешних пространств, безопасности, естественного освещения, вентиляции, цветовых, формообразующих, материальных и масштабных решений.*

Ключевые слова: *негосударственное дошкольное образовательное учреждение, архитектурная среда, функциональное зонирование,*

психологическая среда, эстетическая среда, психофизиология детей, пространственно-композиционное решение, развивающая среда, безопасность.

Abstract. *The thesis examines the integration of functional, psychological and aesthetic requirements in the architecture of private preschool educational institutions. Particular attention is paid to the age-related and psychophysiological characteristics of preschool children, their need for physical activity, perception, emotional state, communication and independent activities. The study substantiates the importance of an integrated approach to functional zoning, the relationship between indoor and outdoor spaces, safety, natural lighting, ventilation, colour, form, materials and scale.*

Keywords: *private preschool educational institution, architectural environment, functional zoning, psychological environment, aesthetic environment, child psychophysiology, spatial and compositional design, developmental environment, safety.*

Kirish

Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli bolalar kunning muayyan qismini o‘tkazadigan maktabgacha ta’lim muassasasi faqat ta’lim-tarbiya jarayoni amalga oshiriladigan bino emas, balki bolaning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhit sifatida qaralishi lozim. Arxitektura makonining tuzilishi, xonalarning o‘zaro joylashuvi, yorug‘lik, rang, tovush, material, mebel, ochiq va yopiq makonlarning nisbati hamda harakat yo‘nalishlari bolaning kundalik faoliyatini tashkil etuvchi muhim omillardir.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ham o‘rni ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida bolalarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, sifatli maktabgacha ta’limdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-fazoviy muhitiga ham yangi talablarni yuzaga keltiradi. Bunda arxitektura yechimlari faqat sanitariya, texnik va funksional talablarni bajarish bilan cheklanib qolmasdan, bolaning psixologik ehtiyojlari va estetik idrokini ham hisobga olishi zarur.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning maqsadi — nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari arxitekturasida funksional, psixologik va estetik talablarni o‘zaro bog‘liq holda shakllantirishning ilmiy-amaliy tamoyillarini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

1. maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini arxitektura muhiti bilan bog‘liq holda tahlil qilish;
2. nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasida funksional zonalashning asosiy tamoyillarini aniqlash;
3. bolaning emotsional va psixologik holatiga ta’sir etuvchi fazoviy va sensor omillarni ko‘rsatish;
4. rang, shakl, material, yorug‘lik va tabiiy elementlarning estetik muhitni shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish;
5. funksional, psixologik va estetik talablarni yagona fazoviy-kompozitsion tizimga birlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Asosiy qism

1. Funksional talablar va arxitektura-fazoviy tashkil etish

Maktabgacha ta’lim muassasasining funksional tuzilishi bolaning kundalik faoliyatini qulay va xavfsiz tashkil etishga xizmat qilishi kerak. Bunda ta’lim-tarbiya, o‘yin, dam olish, ovqatlanish, jismoniy faollik, ijodiy mashg‘ulotlar va ma’muriy-xizmat funksiyalari o‘zaro bog‘langan, biroq zarur hollarda bir-biridan ajratilgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Funksional zonalashda quyidagi asosiy makonlarni ajratish mumkin:

- guruh va mashg‘ulot xonalari;
- o‘yin va ijodiy faoliyat zonalari;
- tinchlanish va dam olish zonalari;
- jismoniy faollik zonalari;
- ovqatlanish joylari;
- sanitariya-gigiyena xonalari;
- ma’muriy va xodimlar uchun xonalar;
- ochiq o‘yin maydonchalari;
- yashil hududlar va tabiat bilan bevosita aloqador makonlar.

Funksional zonalar o‘rtasidagi aloqalar bolaning harakatlanish yo‘nalishlarini soddalashtirishi, tarbiyachining kuzatuv imkoniyatini ta’minlashi va xavfsizlikni oshirishi lozim. Zamonaviy tadqiqotlarda maktabgacha ta’lim muhitidagi ichki makonning fazoviy xususiyatlari bolalarning makondan foydalanishi, ijtimoiy xulqi va rivojlanishi bilan bog‘liq ekani qayd etilgan. Xususan, ochiq zonalashning bolalarning makondan foydalanishiga ta’siri

alohida ko‘rsatilgan. Shuning uchun funksional yechimda «xona — yo‘lak — xona» kabi faqat kommunikativ tizimdan ko‘ra, faoliyat turlarini bir-biriga bog‘lovchi moslashuvchan va rivojlantiruvchi makonlardan foydalanish muhimdir.

2. Psixologik talablar va bolalarga yaratilgan muhit

Maktabgacha yoshdagi bolaning psixologik rivojlanishi atrof-muhit bilan faol o‘zaro munosabatda shakllanadi. E. G‘oziyevning ontogenez psixologiyasiga oid qarashlarida ham bolaning rivojlanishini yosh davrlari va faoliyat xususiyatlari bilan bog‘liq holda tushunish muhimligi ko‘rsatiladi [2].

L.S. Vigotskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va faoliyatning ahamiyatini ta’kidlagan [3]. A. N. Leontyev faoliyatni shaxs rivojlanishining muhim sharti sifatida ko‘rib chiqadi [4]. D. B. Elkoninning maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida o‘yin jarayoniga bergan e’tibori esa arxitektura muhitida o‘yin uchun maxsus va moslashuvchan makonlarning ahamiyatini tushuntirish imkonini beradi [5].

Demak, maktabgacha ta’lim muassasasi arxitekturasi bolani faqat ma’lum bir xonaga joylashtiruvchi muhit emas, balki uning harakatlanishi, tanlashi, kuzatishi, muloqot qilishi, mustaqil faoliyat yuritishi va ijodiy tajriba orttirishiga imkon beradigan rivojlantiruvchi muhit bo‘lishi kerak.

Psixologik jihatdan qulay muhitning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, bolaning makonda o‘zini xavfsiz his qilishi;

ikkinchidan, mustaqil harakat va faoliyat uchun yetarli imkoniyatning mavjudligi;

uchinchidan, haddan tashqari shovqin, rang-baranglik va vizual yuklamaning oldini olish;

to‘rtinchidan, individual va guruhiy faoliyat uchun turli shart-sharoitning mavjudligi;

beshinchidan, tabiat, yorug‘lik va tashqi muhit bilan vizual hamda funksional aloqaning ta’minlanishi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar ham ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. 2023-yilda chop etilgan tizimli sharhda 3–6 yoshdagi bolalarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi bilan maktabgacha ta’lim muhitining fizik va sensor omillari o‘rtasidagi aloqalar tahlil qilingan. Unda fizik muhit sifati, sinf sharoitlari, ichki va tashqi makonlar, makonning belgilanganligi va zichlik kabi omillar muhim omillar sifatida ko‘rsatilgan.

3. Sensor muhit va psixologik qulaylik

Maktabgacha ta’lim muassasasining arxitekturasi bolaning bir vaqtning o‘zida bir necha sezgi kanallari orqali qabul qiladigan axborot muhitini shakllantiradi. Bunga yorug‘lik, rang, tovush, harorat, materialning fakturasi, makonning hajmi va boshqa omillar kiradi.

Masalan, haddan tashqari shovqin bolaning diqqatini jamlashni qiyinlashtirishi mumkin. Juda kuchli ranglar va ko‘plab vizual elementlar esa ayrim hollarda ortiqcha sensor yuklamani yuzaga keltirishi ehtimoli mavjud. Shu sababli ichki makonlarda rang va bezak elementlaridan me’yorida foydalanish, faoliyat zonalarini aniq ajratish hamda tinchlanish uchun nisbatan sokin makonlar yaratish maqsadga muvofiq.

Tamblyn va hammualliflarning tizimli sharhida maktabgacha ta’lim muhitidagi fizik va sensor omillar bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi bilan bog‘liq ekani, jumladan, sinf sharoitlari, tashqi muhit, materiallar, shovqin va muhitning umumiy sifati kabi omillar o‘rganilgani ko‘rsatilgan. Shu nuqtai nazardan, psixologik talablar arxitekturaning alohida «bezagi» emas, balki fazoviy tashkil etishning ichki tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

4. Estetik talablar va bolaning badiiy idroki

Maktabgacha ta’lim muassasasining estetik muhiti bolaning atrof-muhitni idrok etishi va unda ijobiy emotsional munosabat shakllanishiga xizmat qiladi. Estetik yechimni faqat devorlarni rangli bo‘yash yoki dekorativ elementlardan foydalanish bilan chegaralash to‘g‘ri emas.

Estetik muhit quyidagi tarkibiy qismlarning o‘zaro uyg‘unligi orqali shakllanadi:

- bino va xonalarning umumiy kompozitsiyasi;
- ranglar uyg‘unligi;
- tabiiy va sun’iy yoritish;
- materiallarning tabiiyligi va fakturasi;
- mebel shakli va bolaning o‘lchamiga mosligi;
- dekorativ elementlarning mazmuni;
- landshaft va ko‘kalamzorlashtirish;
- milliy bezak va zamonaviy arxitektura yechimlarining uyg‘unligi.

O‘zbekiston sharoitida milliy arxitektura an’analaridan foydalanish masalasi ham muhimdir. 2026-yilda Sh. T. Abdumannopova tomonidan e’lon qilingan tadqiqotda maktabgacha ta’lim muassasalari arxitekturasini O‘zbekiston milliy arxitektura an’analari asosida takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan; unda ichki hovli, ayvonli yarim ochiq makonlar va milliy ornamentlarning soddalashtirilgan talqinidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Bunday yondashuv milliy identitetni saqlash bilan birga, bolaga tushunarli va zamonaviy estetik muhit yaratish imkonini beradi.

5. Funksional, psixologik va estetik talablarning integratsiyasi

Maktabgacha ta’lim muassasasining sifatli arxitektura muhitini yaratishda funksional, psixologik va estetik talablarni bir-biridan ajratib ko‘rish yetarli emas. Ular yagona fazoviy-kompozitsion tizimni tashkil etishi kerak.

Ushbu uyg‘unlikni quyidagi model orqali ifodalash mumkin:

FUNKSIONAL TALAB → qulaylik va xavfsizlik

PSIXOLOGIK TALAB → rivojlanish va emotsional qulaylik

ESTETIK TALAB → idrok va ijobiy emotsional tajriba

Masalan, guruh xonasidagi katta deraza funksional jihatdan tabiiy yoritishni ta’minlaydi; psixologik jihatdan tashqi muhit bilan vizual aloqa imkonini beradi; estetik jihatdan esa makonning ochiqligi va tabiiy yorug‘lik hisobiga ijobiy muhit yaratadi.

Xuddi shuningdek, ichki hovli yoki yashil maydon funksional jihatdan o‘yin va dam olishga xizmat qiladi, psixologik jihatdan tabiat bilan aloqa va erkin harakat imkonini beradi, estetik jihatdan esa arxitektura ansamblining kompozitsion yaxlitligini kuchaytiradi.

6. Nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida arxitektura yechimlarining o‘ziga xosligi

Nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari ko‘pincha turli hajm va shakldagi mavjud binolarni moslashtirish, yangi binolarni loyihalash yoki kichikroq hududlarda ta’lim xizmatlarini tashkil etish sharoitida faoliyat yuritadi. Shu sababli ularning arxitekturasida moslashuvchanlik va funksional transformatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Nodavlat muassasa uchun quyidagi tamoyillarni ajratish mumkin:

1. **Moslashuvchanlik tamoyili** — xonadan turli faoliyatlar uchun foydalanish imkoniyati.
2. **Xavfsizlik tamoyili** — bolalar harakatini nazorat qilish va xavfli zonalarni ajratish.
3. **Masshtab tamoyili** — mebel, deraza, eshik, jihoz va makon elementlarini bolaning antropometrik xususiyatlariga moslashtirish.
4. **Faoliyat zonalarini differensiallashtirish** — faol o‘yin, ijodiy mashg‘ulot, muloqot va tinchlanish zonalarini ajratish.
5. **Tabiat bilan integratsiya** — yashil hududlar, ochiq maydonlar, tabiiy yorug‘lik va shamollatishdan oqilona foydalanish.

6. **Estetik yaxlitlik** — rang, shakl, material va dekorning yagona kompozitsion tizimda ishlatilishi.

7. **Milliy-madaniy identitet** — O‘zbekiston me’moriy an’analarini zamonaviy talablarga mos holda talqin qilish.

O‘zbekistonning 2030-yilgacha maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ham maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun sharoit yaratish hamda nodavlat sektorni rivojlantirish masalalari belgilangan.

Natijalar

Tadqiqot natijasida nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari arxitekturasida funksional, psixologik va estetik talablarni uyg‘unlashtirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari aniqlandi:

1. Funksional uyg‘unlik.

Bino va hududdagi barcha asosiy funksiyalar o‘zaro bog‘langan, tushunarli va xavfsiz harakat tizimi asosida tashkil etilishi kerak.

2. Psixologik uyg‘unlik.

Arxitektura muhiti bolaning yoshiga, idrok imkoniyatlariga, harakat faolligiga, muloqot va mustaqil faoliyat ehtiyojlariga mos bo‘lishi lozim.

3. Sensor uyg‘unlik.

Rang, yorug‘lik, tovush, faktura va makon zichligi bola uchun haddan tashqari sensor yuklama hosil qilmaydigan tarzda tashkil etilishi zarur.

4. Estetik uyg‘unlik.

Bino, interyer va landshaft yagona kompozitsion tizimni tashkil qilishi, dekorativ elementlar esa bolaning yoshiga mos va mazmunli bo‘lishi kerak.

5. Tabiiy muhit bilan integratsiya.

Ichki makonlarni tashqi yashil hududlar, hovli va o‘yin maydonlari bilan vizual va funksional jihatdan bog‘lash bolaning faoliyat imkoniyatlarini kengaytiradi.

6. Milliy va zamonaviy yechimlarning uyg‘unligi.

Mahalliy arxitektura an’analarini zamonaviy ta’lim muhiti talablariga moslashtirish maktabgacha ta’lim muassasasining estetik va madaniy identitetini kuchaytirishi mumkin.

Xulosa

Nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari arxitekturasi bolaning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ko‘p funksiyali muhit sifatida qaralishi lozim. Uning sifatini faqat bino maydoni, xonalar soni yoki texnik ko‘rsatkichlar bilan baholash yetarli emas. Arxitektura muhitining funksional

qulayligi, psixologik xavfsizligi va estetik yaxlitligi bolaning kundalik faoliyati bilan uzviy bog‘langan holda loyihalashtirilishi zarur.

Tadqiqotlar maktabgacha ta’lim muhitining fizik va sensor xususiyatlari bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar ushbu munosabatlarning barcha jihatlari hali to‘liq o‘rganilmaganini ham ko‘rsatadi.

Shu asosda nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarini loyihalashda **«funksiya – psixologiya – estetika – xavfsizlik – rivojlanish»** tamoyillarini yagona arxitektura-fazoviy tizim sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv maktabgacha ta’lim muassasasini nafaqat ta’lim beruvchi, balki bolaning jismoniy, kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhitga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E. G‘. Ontogenez psixologiyasi. — Toshkent: Noshir, 2010. — 360 b.
2. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. — Toshkent: Universitet, 2010.
3. Выготский Л. С. Педагогическая психология. — Москва: Педагогика, 1991.
4. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. — Москва: Смысл, 2005.
5. Эльконин Д. Б. Психология игры. — Москва: Педагогика, 1978.
6. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — Санкт-Петербург: Питер, 2002.
7. Лурия А. Р. Лекции по общей психологии. — Санкт-Петербург: Питер, 2006.
8. van Liempd I. H., Paz O., Leseman P. P. M. Do spatial characteristics influence behavior and development in early childhood education and care? // Journal of Environmental Psychology. — 2020. — Vol. 67. — 101385. DOI: 10.1016/j.jenvp.2019.101385.
9. Tamblyn A., Sun Y., May T., Evangelou M., Godsman N., Blewitt C., Skouteris H. How do physical or sensory early childhood education and care environment factors affect children's social and emotional development? A systematic scoping review // Educational Research Review. — 2023. — Vol. 41. — 100555. DOI: 10.1016/j.edurev.2023.100555.

10. Abdumannopova Sh. T. O‘zbekiston milliy arxitekturasi an’analari asosida maktabgacha ta’lim muassasalarini arxitekturaviy takomillashtirish // Advances in Science and Education. — 2026. — Vol. 2, № 8. — B. 97–100. DOI: 10.70728/edu.v02.i08.022.

11. Abdujabbarova M. T., Mirzamukhamedova D. Sh. General Requirements and Modern Approaches to Architectural Design of Private Pre-School Educational Institutions // Oscar Journal of Applied Science and Technology. — 2026. — Vol. 6, № 3. — P. 94–98.

12. O‘zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida: O‘RQ-595-son Qonun. — Toshkent, 2019.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: PQ-4312-son qaror. — Toshkent, 2019.

14. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida: O‘RQ-637-son Qonun. — Toshkent, 2020.

15. UNICEF. Early Childhood Development: Early Childhood Education and Care [Elektron resurs].

SANOAT OQOVA SUVLARINI TOZALASH INSHOOTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TEXNOLOGIK PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Xudoyberdiyeva Odina Zafar qizi
Samarqand Davlat Arxitektura-Qurilish Universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sanoat korxonalarida hosil bo‘ladigan oqova suvlarni tozalash inshootlarining samaradorligini oshirish, mavjud texnologik jarayonlarni takomillashtirish hamda suv resurslarini qayta foydalanishga tayyorlash masalalari tahlil qilingan. Sanoat oqova suvlarining tarkibida turli xil mexanik aralashmalar, organik moddalar, mineral birikmalar va og‘ir metall ionlari mavjud bo‘lib, ularni samarali chiqarib tashlash uchun zamonaviy kompleks tozalash texnologiyalarini qo‘llash talab etiladi. Maqolada mexanik, fizik-kimyoviy, biologik va sorbsion tozalash usullarining imkoniyatlari o‘rganilib, ularning afzallik va kamchiliklari tahlil qilingan. Sanoat oqova suvlarini qayta foydalanishga tayyorlashda texnologik parametrlarni (pH, reagent sarfi, tozalash davomiyligi, filtratsiya tezligi va sorbent miqdori) optimallashtirish orqali tozalash samaradorligini oshirish mumkinligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar*: sanoat oqova suvlari, suv tozalash inshootlari, fizik-kimyoviy tozalash, sorbsiya, filtratsiya, og‘ir metall ionlari, suvni qayta foydalanish, texnologik optimallashtirish.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены вопросы повышения эффективности сооружений очистки промышленных сточных вод и оптимизации технологических параметров процессов очистки. Проанализированы современные методы очистки сточных вод, включая механические, физико-химические и сорбционные методы. Обоснована необходимость применения комбинированных технологий для подготовки очищенной воды к повторному использованию в производственных процессах. Предложенный подход позволяет повысить эффективность очистки, снизить нагрузку на природные водные объекты и обеспечить рациональное использование водных ресурсов.*

Ключевые слова: *промышленные сточные воды, очистные сооружения, сорбция, физико-химическая очистка, фильтрация, повторное использование воды, оптимизация.*

Abstract*: This article discusses the improvement of the efficiency of industrial wastewater treatment facilities and the optimization of technological parameters of purification processes. Modern wastewater treatment methods, including mechanical, physicochemical and sorption techniques, are analyzed. The necessity of applying integrated treatment technologies for preparing treated water for reuse in industrial processes is substantiated. The proposed approach can improve treatment efficiency, reduce environmental pollution and ensure rational utilization of water resources.*

Keywords: *industrial wastewater, wastewater treatment facilities, sorption, physicochemical treatment, filtration, water reuse, optimization.*

Kirish

Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi natijasida suv resurslariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Sanoat korxonalarida suv texnologik jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lib, sovitish, yuvish, xomashyoni qayta ishlash va boshqa ko‘plab jarayonlarda keng qo‘llaniladi. Biroq ishlab chiqarish jarayonlaridan so‘ng hosil bo‘ladigan oqova suvlar tarkibida atrof-muhit uchun xavfli bo‘lgan turli komponentlar mavjud bo‘ladi. Jumladan, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va to‘qimachilik sanoati korxonalarining oqova suvlarida og‘ir metall ionlari, bo‘yoq moddalar, neft mahsulotlari, tuzlar va organik birikmalar uchrashi mumkin.

Шунингдек, маъмурий аккаунтлар ва ташқи кириш нуқталари учун multi-factor authentication технологияларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Рақамли архив ахборот хавфсизлиги бир марталик техник чора эмас. У доимий мониторинг ва хавфларни қайта баҳолашни талаб қиладиган жараёндир.

Ўзбекистон архив муассасаларида рақамли ҳужжатлар, шу жумладан оғзаки тарих материалларини узоқ муддатли сақлаш тизимини ривожлантириш мақсадида қуйидаги чораларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

Биринчидан, архив ҳужжатларини рақамлаштиришнинг ягона миллий технологик талабларини ишлаб чиқиш зарур. Унда тасвир сифати, файл форматлари, файл номлаш, ранг параметрлари, master ва access copy талаблари белгиланиши лозим.

Иккинчидан, Ўзбекистон архивлари учун рақамли сақлаш концепциясини ишлаб чиқиш лозим. У фақат backup эмас, балки format migration, fixity checking, preservation metadata ва disaster recovery жараёнларини ҳам қамраб олиши керак.

Учинчидан, рақамли репозиторийларни OAIS модели тамойиллари асосида ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Тўртинчидан, давлат архивлари учун ягона метамаълумотлар профили ишлаб чиқилиши зарур. У миллий архив тавсифи билан Dublin Core, PREMIS, METS ва халқаро архив тавсиф стандартларининг ўзаро мувофиқлигини таъминлаши лозим.

Бешинчидан, оғзаки тарих материалларини архивга қабул қилиш бўйича махсус методик қўлланма ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ. У интервью олишдан тортиб архивга топширишгача бўлган тўлиқ жараённи белгилаши керак.

Олтинчидан, архив ҳужжатларини оммавий транскрипция қилиш учун OCR, HTR ва автоматик нутқни таниш технологияларини босқичма-босқич синовдан ўтказиш зарур. Бунда ўзбек тили, кирилл ва лотин ёзуви, рус тили ҳамда тарихий лексикани ҳисобга оладиган моделларга устувор аҳамият бериш лозим.

Еттинчидан, AI воситалари орқали олинган транскрипт, аннотация ва индекслар инсон томонидан текширилиши шарт бўлган ёрдамчи маълумот сифатида белгиланиши керак.

Саккизинчидан, файлларнинг яхлитлигини checksum асосида автоматик текшириш механизмини жорий этиш мақсадга мувофиқ.

Тўққизинчидан, давлат архивларида ахборот хавфсизлиги бўйича ягона минимал талаблар: role-based access, audit log, multi-factor authentication, резерв сақлаш ва фавқулодда тиклаш режалари ишлаб чиқилиши керак.

Ўнинчидан, архивчиларнинг рақамли компетенцияларини мунтазам ошириш тизимини йўлга қўйиш зарур. Бунда архившунослик билан ахборот технологияларини боғлайдиган махсус малака ошириш курслари ташкил этилиши мумкин.

Ўн биринчидан, «оғзаки тарих» бўйича миллий рақамли коллекцияларни шакллантиришда архивлар, университетлар, музейлар ва илмий-тадқиқот муассасалари ҳамкорлигини йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ.

Ўн иккинчидан, архив ахборот тизимларида фойдаланиш ҳуқуқларини объект даражасида бошқариш механизмини жорий этиш зарур. Бу очиқ маълумотлардан кенг фойдаланиш билан шахсий маълумотлар ва респондент ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ўртасида мувозанатни таъминлайди.

Хулоса

Архив соҳасининг рақамли трансформацияси ҳужжатнинг шаклини ўзгартириш билан чекланмайди. Рақамлаштириш натижасида архив

ишининг ўзи — ҳужжатни қабул қилиш, ҳисобга олиш, тавсифлаш, сақлаш, экспертиза қилиш ва фойдаланишга тақдим этиш жараёнлари янги технологик муҳитга ўтади.

Шу жиҳатдан қаралганда, архив муассасаси учун асосий вазифа имкони борича кўпроқ ҳужжатни сканерлаш эмас, балки рақамли объектнинг ишончлилигини узоқ муддат таъминлай оладиган тизимни яратишдир.

«Оғзаки тарих» материаллари бу жараённинг мураккаблигини яққол кўрсатади. Интервьюнинг архив қиймати фақат аудио ёки видеофайл билан белгиланмайди. Унинг мазмунини тўғри талқин қилиш учун интервью олинган шароит, респондент, интервьюер, сана, мавзу, ҳуқуқий мақом ва бошқа контекстуал маълумотлар ҳам сақланиши лозим.

Шундай қилиб, оғзаки тарих архив объекти сифатида **асл ёзув, тавсиф, транскрипт, ҳуқуқий ҳужжатлар, техник метамаълумотлар ва фойдаланиш нусхаларидан ташкил топган ўзаро боғлиқ ахборот мажмуаси** сифатида бошқарилиши мақсадга мувофиқ.

Сунъий интеллект технологиялари архивларда катта ҳажмдаги маълумотни қайта ишлаш, нутқни транскрипция қилиш, матнни индекслаш ва интеллектуал қидирувни ташкил этишда сезиларли самара бериши мумкин. Бироқ AI томонидан яратилган натижалар архив манбасининг ўрнини босмайди. Уларнинг вазифаси архивчининг профессионал қарорини автоматлаштириш эмас, балки кўп меҳнат талаб қиладиган техник операцияларни енгиллаштиришдан иборат.

Ўзбекистон архив соҳасида амалга оширилаётган ҳуқуқий ва технологик янгиланишлар рақамли архив тизимини янги босқичга олиб чиқиш учун имконият яратмоқда. Кейинги босқичда ягона технологик стандартлар, узоқ муддатли рақамли сақлаш сиёсати, метамаълумотлар модели ва малакали кадрлар тизимини биргаликда шакллантириш муҳим.

Архив меросининг рақамли келажаги серверлар ҳажми билан эмас, балки бугун қабул қилинаётган архившунослик қарорларининг сифати билан белгиланади. Агар рақамли ҳужжатнинг асллиги, контексти, яхлитлиги ва фойдаланиш имконияти тизимли равишда таъминланса, замонавий технологиялар архивларни нафақат сақлаш муассасаси, балки жамиятнинг тарихий хотирасидан фойдаланиш имконини кенгайтирувчи илмий-ахборот марказига айлантириши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. UNESCO. Charter on the Preservation of Digital Heritage. — Paris: UNESCO, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida: O‘RQ-1164-son Qonun. — 2026-yil 13-avgust.
3. ISO. ISO 14721:2025. Space data and information transfer systems — Open archival information system (OAIS) — Reference model. — Geneva: International Organization for Standardization, 2025.
4. International Council on Archives. ISAD(G): General International Standard Archival Description. — 2nd ed. — Ottawa: ICA, 2000.
5. International Council on Archives. ISAAR(CPF): International Standard Archival Authority Record for Corporate Bodies, Persons and Families. — 2nd ed. — Paris: ICA, 2004.
6. Dublin Core Metadata Initiative. DCMI Metadata Terms. — DCMI.
7. Library of Congress. METS: Metadata Encoding and Transmission Standard. — Washington, D.C.: Library of Congress.
8. PREMIS Editorial Committee. PREMIS Data Dictionary for Preservation Metadata. Version 3.0. — Library of Congress, 2015.
9. National Archives and Records Administration. Digital Preservation Strategy. — Washington, D.C.: NARA.
10. Library of Congress. Sustainability of Digital Formats: Planning for Library of Congress Collections. — Washington, D.C.: Library of Congress.
11. The National Archives. PRONOM: The Technical Registry. — Kew: The National Archives, United Kingdom.
12. International Council on Archives. Records in Contexts — Conceptual Model (RiC-CM), Version 1.0. — ICA, 2023.
13. International Council on Archives. Records in Contexts — Ontology (RiC-O), Version 1.0. — ICA, 2023.
14. ISO. ISO 15489-1:2016. Information and documentation — Records management — Part 1: Concepts and principles. — Geneva: ISO, 2016.
15. ISO. ISO 16363:2012. Space data and information transfer systems — Audit and certification of trustworthy digital repositories. — Geneva: ISO, 2012.
16. International Association of Sound and Audiovisual Archives. Guidelines on the Production and Preservation of Digital Audio Objects (IASA-TC 04). — IASA.

17. International Association of Sound and Audiovisual Archives. Handling and Storage of Audio and Video Carriers (IASA-TC 05). — IASA.

18. Council of Europe. Convention for the Protection of Individuals with regard to Automatic Processing of Personal Data. — Strasbourg, 1981.

19. Oral History Association. Principles and Best Practices for Oral History. — Oral History Association.

20. Library of Congress. Recommended Formats Statement. — Washington, D.C.: Library of Congress.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПРОГНОЗИРОВАНИИ ВАЛЮТНОГО РИСКА И ОПТИМИЗАЦИИ ХЕДЖИРОВАНИЯ ОТКРЫТОЙ ВАЛЮТНОЙ ПОЗИЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Курбонов Илхом Жумакулович
Агентство по эффективности управления, руководитель департамента
ilhomkurbanov49@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada tijorat banklari faoliyatida valyuta riskini prognozlash va ochiq valyuta pozitsiyasini xedjirlashni optimallashtirishda sun'iy intellekt usullarining qo'llanilishi tahlil qilingan. O'zbekiston bank tizimida xorijiy valyutaning aktivlar va passivlardagi yuqori ulushi hamda muallif tomonidan ilgari asoslangan konsentratsiya riski chegaraviy qiymatlari ko'rib chiqilgan. Xalqaro tadqiqotlar asosida valyuta kursini prognozlash bo'yicha chuqur o'rganish modellarining (LSTM) an'anaviy usullardan ustunligi hamda dinamik mashinali o'qitish asosidagi xedjirlash strategiyasining statik usullardan samaraliroq ekanligi ko'rsatilgan. Ma'lumot, prognozlash, xedjirlashni optimallashtirish va boshqaruv bloklaridan iborat to'rt darajali analitik mexanizm taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *valyuta riski, sun'iy intellekt, LSTM, xedjirlash, ochiq valyuta pozitsiyasi, konsentratsiya riski, mashinali o'qitish.*

Аннотация. *В статье анализируется применение методов искусственного интеллекта в прогнозировании валютного риска и оптимизации хеджирования открытой валютной позиции коммерческих банков. Рассмотрены высокая доля иностранной валюты в активах и пассивах банковской системы Узбекистана и обоснованные автором ранее пороговые значения риска концентрации. На основе международных исследований показано превосходство моделей глубокого обучения (LSTM) над традиционными методами прогнозирования валютного курса, а также более высокая эффективность стратегий динамического хеджирования на основе машинного обучения по сравнению со статическими методами. Предложен четырёхуровневый аналитический*

механизм, включающий блоки данных, прогнозирования, оптимизации хеджирования и управления.

Ключевые слова: *валютный риск, искусственный интеллект, LSTM, хеджирование, открытая валютная позиция, риск концентрации, машинное обучение.*

Abstract. *The article analyses the use of artificial intelligence methods in forecasting currency risk and optimising the hedging of commercial banks' open currency positions. It examines the high share of foreign currency in the assets and liabilities of Uzbekistan's banking system and the concentration-risk threshold values previously substantiated by the author. Drawing on international research, it shows that deep-learning models (LSTM) outperform traditional exchange-rate forecasting methods and that machine-learning-based dynamic hedging strategies are more effective than static approaches. A four-layer analytical mechanism is proposed, comprising data, forecasting, hedge-optimisation and governance blocks.*

Keywords: *currency risk, artificial intelligence, LSTM, hedging, open currency position, concentration risk, machine learning.*

ВВЕДЕНИЕ

Валютный риск[1] занимает важное место в деятельности коммерческих банков, участвующих во внешнеэкономической деятельности. К концу 2024 года более 41% активов банковской системы Узбекистана, а в отдельных крупных банках — свыше 60%, было сформировано в иностранной валюте, что ещё более повышает значимость управления валютным и связанным с ним риском концентрации [1].

Использованием традиционных инструментов — лимитирования открытой валютной позиции, хеджирования срочными контрактами и стресс-тестирования — валютный риск в целом контролируется, однако эти методы, как правило, опираются на статические лимиты и периодически пересматриваемые прогнозы курса. Развитие моделей искусственного интеллекта, способных обрабатывать большие массивы рыночных данных в режиме реального времени, открывает возможность перехода к динамическому прогнозированию валютного курса и адаптивной оптимизации хеджирования.

[1]Валютный риск (currency risk) — риск возникновения убытков вследствие неблагоприятного изменения курсов иностранных валют по открытым позициям банка.

Целью статьи является анализ применения методов искусственного интеллекта в прогнозировании валютного риска и оптимизации хеджирования открытой валютной позиции коммерческих банков и обоснование соответствующего аналитического механизма применительно к банковской системе Узбекистана.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Данные Центрального банка Республики Узбекистан за 2020–2024 годы показывают, что доля иностранной валюты в активах банковской системы снизилась с 50,43% до 41,13%, а в кредитном портфеле — с 50,10% до 42,59%, что отражает положительную тенденцию снижения валютного риска (таблица 1). Вместе с тем в отдельных крупных банках доля валютных кредитов оставалась в диапазоне 58–64%, что обосновало предложение пороговых значений для определения риска концентрации: 37% — для доли валютных активов в общих активах, 32% — для доли валютных кредитов в кредитном портфеле и 30% — для доли межбанковских депозитов в общих депозитах [1].

Таблица 1. Доля иностранной валюты в ключевых показателях банковской системы Узбекистана, %

Показатель	2020	2021	2022	2023	2024
Доля в активах	50,43	48,42	47,62	44,74	41,13
Доля в кредитном портфеле	50,10	50,18	47,44	44,69	42,59
Доля в обязательствах	59,65	56,76	55,72	51,76	47,97

Источник: составлено автором на основе данных Центрального банка Республики Узбекистан [1].

Такие пороговые значения носят статичный характер и не учитывают текущую волатильность рынка. Между тем международный опыт демонстрирует, что модели глубокого обучения способны существенно повысить точность краткосрочного прогнозирования валютного курса. Так, О. Абузаид и Ф. Бусседра сравнили точность многослойного перцептрона[2] (MLP), случайного леса[3] (Random Forest) и сети долгой краткосрочной

[2]Многослойный перцептрон (Multilayer Perceptron, MLP) — нейронная сеть прямого распространения, состоящая из нескольких последовательных слоёв нейронов с нелинейными функциями активации; относится к базовым архитектурам глубокого обучения, применяемым для задач регрессии и классификации.

[3]Случайный лес (Random Forest) — ансамблевый метод машинного обучения, объединяющий прогнозы множества деревьев решений, построенных на случайных подвыборках наблюдений и признаков, что повышает точность и устойчивость итогового прогноза по сравнению с одиночным деревом.

памяти[4] (LSTM) в задаче прогнозирования валютного курса; наилучший результат показала LSTM-модель (R^2 = 0,9234; RMSE = 0,0152; MAE = 0,0112), превзойдя MLP (R^2 = 0,9107) и Random Forest (R^2 = 0,8821) [2]. Показательно, что включённые в модель макроэкономические переменные — инфляция, ВВП, безработица — объяснили лишь 4,7% дисперсии ошибки прогноза, что говорит о преобладающем влиянии рыночной динамики над фундаментальными факторами в краткосрочном прогнозировании курса [2].

Применительно к хеджированию валютного риска П. Паньоттони и А. Спельта разработали динамическую стратегию хеджирования на основе ансамбля моделей машинного обучения (метод опорных векторов, деревья решений, случайный лес, градиентный бустинг, гауссовские процессы) с байесовской оптимизацией [5] гиперпараметров; на данных глобального валютного портфеля за 2008–2022 годы предложенная модель ML-DCF превзошла по риск-скорректированной доходности как нехеджированный портфель, так и традиционные линейные факторные стратегии хеджирования [3]. Это подтверждает, что динамический пересчёт коэффициента хеджирования[6] на основе прогнозов модели способен точнее реагировать на изменение рыночных условий, чем фиксированные лимиты открытой валютной позиции.

Практика ведущих зарубежных банков подтверждает востребованность аналитических инструментов в управлении валютным риском: Deutsche Bank [7] применяет диверсификацию валютных позиций совместно с автоматизированными системами мониторинга риска, а MUFG [8] использует комплекс инструментов хеджирования (форварды, фьючерсы, опционы, свопы) в сочетании с автоматизированным непрерывным контролем валютных позиций [4]. Однако полная передача

[4]LSTM (Long Short-Term Memory) — архитектура рекуррентной нейронной сети, способная запоминать долгосрочные зависимости во временных рядах, что делает её эффективной для прогнозирования финансовых показателей, изменяющихся во времени, включая валютные курсы.
[5]Байесовская оптимизация — метод последовательного подбора параметров модели, при котором каждое новое испытание выбирается на основе результатов предыдущих для максимально эффективного поиска наилучшей настройки за минимальное число итераций.
[6]Хедж-коэффициент (hedge ratio) — доля открытой валютной позиции, покрываемая срочными инструментами (форвардами, фьючерсами, опционами, свопами) для снижения валютного риска.
[7]Deutsche Bank AG — крупнейший коммерческий и инвестиционный банк Германии (штаб-квартира во Франкфурте-на-Майне), один из системно значимых банков мира, ведущий активные операции на международном валютном рынке.
[8]MUFG (Mitsubishi UFJ Financial Group) — крупнейшая финансовая группа Японии и одна из крупнейших банковских групп мира (штаб-квартира в Токио), образованная в результате слияния банков Mitsubishi и UFJ.

решений о хеджировании автономным алгоритмам сопряжена с новыми рисками.

Дж. Барнетт и Т. Чо в обзоре Комитета по валютному рынку при Федеральном резервном банке Нью-Йорка отмечают, что распространение агентного искусственного интеллекта[9] на валютном рынке качественно отличается от традиционных алгоритмов и требует усиленного человеческого надзора: регуляторы[10] (Банк Англии, FCA, ESMA, MAS, Совет по финансовой стабильности) сходятся во мнении, что ответственность за решения должна оставаться за человеком даже при самообучении и самонастройке систем, а общая зависимость банков от ограниченного числа поставщиков моделей и риск дрейфа моделей создают новые каналы системного риска [5].

С учётом изложенного предлагается четырёхуровневый аналитический механизм прогнозирования валютного риска и оптимизации хеджирования (таблица 2), увязывающий современные модели искусственного интеллекта с ранее обоснованными пороговыми значениями концентрации валютного риска.

Таблица 2. Предлагаемый механизм прогнозирования валютного риска и оптимизации хеджирования

Уровень	Содержание	Контрольные показатели
1. Данные	Котировки валютных пар в реальном времени, открытая валютная позиция по валютам, ставки денежного рынка, макроэкономические индикаторы	Полнота и частота обновления данных
2. Прогнозирование	Модель LSTM для краткосрочного прогноза курса и волатильности по каждой валютной паре	Точность прогноза (RMSE, MAE); горизонт прогнозирования

[9]Агентный искусственный интеллект (agentic AI) — системы ИИ, способные самостоятельно принимать и исполнять последовательность решений для достижения поставленной цели с минимальным участием человека, в отличие от моделей, лишь выдающих рекомендацию.

[10]Банк Англии (Bank of England) — центральный банк Великобритании; FCA (Financial Conduct Authority) — управление по финансовому регулированию и надзору за поведением участников рынка Великобритании; ESMA (European Securities and Markets Authority) — Европейское управление по ценным бумагам и рынкам, регулятор рынков капитала ЕС; MAS (Monetary Authority of Singapore) — Валютно-финансовое управление Сингапура, выполняющее функции центрального банка и финансового регулятора страны; Совет по финансовой стабильности (Financial Stability Board, FSB) — международный орган, учреждённый странами «Группы двадцати» (G20) для мониторинга и выработки рекомендаций по обеспечению стабильности мировой финансовой системы.

Уровень	Содержание	Контрольные показатели
3. Оптимизация хеджирования	Динамический расчёт хедж-коэффициента на основе прогноза; увязка с лимитами открытой валютной позиции и пороговыми значениями 37% / 32% / 30% [1]	Доля хеджированной позиции; риск-скорректированная доходность
4. Управление	Человеческий контроль решений агентных систем, независимая валидация моделей, мониторинг дрейфа модели, разграничение ответственности	Доля решений с подтверждением человеком; частота валидации

Источник: разработано автором.

Четвёртый, управленческий уровень механизма имеет решающее значение: как показывает практика, точность прогнозной модели сама по себе не устраняет риск — при делегировании решений автономным системам без надлежащего надзора возникают новые каналы модельного и операционного риска [5].

Применительно к банковской системе Узбекистана предложенный механизм целесообразно внедрять поэтапно. На первом этапе следует сформировать единую базу исторических котировок по основным валютным парам (UZS/USD, UZS/EUR, UZS/RUB) и данных об открытой валютной позиции банков, необходимую для обучения прогнозных моделей. На втором этапе — провести пилотную апробацию LSTM-модели на данных одного-двух системообразующих банков с сопоставлением её точности прогноза с действующими статическими лимитами открытой валютной позиции. На третьем этапе — интегрировать модуль динамической оптимизации хеджирования в систему внутреннего риск-менеджмента банка, сохранив при этом за уполномоченным сотрудником право окончательного одобрения решений, что соответствует принципу обязательного человеческого контроля, отмеченному в [5].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Во-первых, несмотря на снижение доли иностранной валюты в активах и кредитном портфеле банковской системы Узбекистана в 2020–2024 годах, её уровень в отдельных банках остаётся выше обоснованных пороговых значений (37%, 32%, 30%), что сохраняет актуальность задачи управления валютным риском.

Во-вторых, международные исследования подтверждают, что модели глубокого обучения (LSTM) обеспечивают более высокую точность

краткосрочного прогнозирования валютного курса по сравнению с традиционными методами, а динамические стратегии хеджирования на основе машинного обучения превосходят по риск-скорректированной доходности статические подходы.

В-третьих, предложенный четырёхуровневый механизм (данные, прогнозирование, оптимизация хеджирования, управление) позволяет увязать современные модели искусственного интеллекта с действующими лимитами открытой валютной позиции и пороговыми значениями риска концентрации, обеспечивая при этом обязательный человеческий контроль над решениями, порождаемыми автоматизированными и агентными системами.

В-четвёртых, дальнейшим направлением исследования является апробация LSTM-модели прогнозирования курса на данных валютных пар, актуальных для банковской системы Узбекистана, с оценкой практической эффективности динамического хеджирования по сравнению с действующими лимитами.

В-пятых, практическое внедрение предложенного механизма целесообразно осуществлять поэтапно — от формирования базы исторических данных к пилотной апробации модели и последующей интеграции в систему риск-менеджмента при сохранении обязательного человеческого контроля над принимаемыми решениями.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Qurbonov I.J. Management of Foreign Exchange and Concentration Risks in the Operations of Commercial Banks // Innovation Science and Technology. – 2026. – № 7. – B. 26–28.

2. Abouzaid O., Boussedra F. Artificial intelligence and exchange rate forecasting: assessing predictive accuracy and macroeconomic sensitivity // Frontiers in Applied Mathematics and Statistics. – 2025. – Vol. 11. – Art. 1654093. – https://doi.org/10.3389/fams.2025.1654093

3. Pagnottoni P., Spelta A. Hedging global currency risk: A dynamic machine learning approach // Physica A: Statistical Mechanics and its Applications. – 2024. – https://doi.org/10.1016/j.physa.2024.129948

4. Qurbonov I.J. Kredit institutlarining risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent: TDIU, 2025. – 170 b.

5. Barnett J., Cho T. Artificial Intelligence (AI) in FX Markets. – New York: Foreign Exchange Committee, Federal Reserve Bank of New York; BNY, 15 April 2026. – https://www.newyorkfed.org/medialibrary/microsites/fxc/files/2026/AI-In-FX-Markets

4. GEOGRAPHY, ECOLOGY, CLIMATE CHANGE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT

O‘ZBEKISTONDA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VA QURILISH SOHASIDA UGLEROD CHIQINDILARINI KAMAYTIRISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI: KAPITAL UGLEROD KONSEPSIYASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL

Muxammadqulov Aziz Ixtiyor o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi
azizmukhammadkulov1992@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xo‘jaligi va qurilish sohasida uglerod chiqindilarini kamaytirish muammolari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e’tibori qurilish materiallari ishlab chiqarish va qurilish jarayonida shakllanadigan “kapital uglerod” chiqindilariga qaratilgan. Xalqaro ilmiy manbalar, IPCC, UN-Habitat, OECD hamda rivojlangan davlatlar (Shvetsiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, AQSh) tajribasi asosida O‘zbekiston sharoitiga mos strategik mexanizmlar ishlab chiqilgan. Maqolada normativ-huquqiy, institutsional, texnologik va iqtisodiy mexanizmlar integratsiyasi asosida uglerod chiqindilarini 2030-yilgacha 40–50 foizgacha kamaytirish imkoniyatlari ilmiy dalillar bilan asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *uy-joy kommunal xo‘jaligi, uglerod chiqindilari, kapital uglerod, barqaror qurilish, LCA, yashil iqtisodiyot, iqlim siyosati.*

Annotation. *This study systematically analyzes the problems of reducing carbon emissions in the housing and communal services and construction sectors of the Republic of Uzbekistan. The research focuses primarily on embodied carbon emissions generated during the production of construction materials and the construction process. Drawing on international scientific sources, IPCC, UN-Habitat, and OECD materials, as well as the experience of developed countries (Sweden, Norway, the United Kingdom, and the United States), strategic mechanisms suited to the conditions of Uzbekistan have been developed. The article scientifically substantiates the potential for reducing carbon emissions by 40–50 percent by 2030 through the integration of regulatory, institutional, technological, and economic mechanisms.*

Keywords: *housing and communal services, carbon emissions, embodied carbon, sustainable construction, life cycle assessment (LCA), green economy, climate policy.*

KIRISH

XXI asrda iqlim o‘zgarishi masalasi global siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IPCC)ning so‘nggi hisobotlariga ko‘ra, agar 2030–2040-yillarga qadar issiqxona gazlari chiqindilari keskin kamaytirilmasa, global haroratning 1,5–2 °C chegaradan oshib ketish xavfi yuqori bo‘lib qoladi. Bu holat suv resurslari tanqisligi, ekstremal iqlim hodisalari, oziq-ovqat xavfsizligi va urban hududlarda yashash sifatining pasayishiga olib keladi. Mazkur jarayonda qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasi alohida strategik ahamiyatga ega. 2024–2025-yillarda e’lon qilingan xalqaro tahlillarga ko‘ra, binolar va infratuzilma obyektlari global uglerod chiqindilarining qariyb 37–40 foizini shakllantirmoqda. Ushbu chiqindilarning muhim qismi nafaqat ekspluatatsiya davrida, balki aynan qurilish va materiallar ishlab chiqarish bosqichlarida yuzaga keladi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda keng ko‘lamli qurilish dasturlari amalga oshirilmoqda. “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi, uy-joy bilan ta’minlash dasturlari, renovatsiya loyihalari va ijtimoiy infratuzilma qurilishi natijasida qurilish hajmlari sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, 2025-yilga kelib energiya resurslari narxlarining bosqichma-bosqich liberallashuvi, ekologik talablarning kuchayishi va xalqaro majburiyatlar qurilish sohasida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonda qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasini strategik rivojlantirish masalalari asosan iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yoritilgan bo‘lsa-da, uglerod chiqindilarini kamaytirish, ayniqsa kapital uglerod tushunchasi asosida tizimli ilmiy tahlil yetarli emas. Ayniqsa, yoshlar nuqtayi nazaridan – ya’ni kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda barqaror qurilish strategiyalarini shakllantirish masalasi alohida e’tiborni talab qiladi.

O‘ZBEKISTONDA QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA STRATEGIK RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning eng muhim va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha mamlakatda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, aholini uy-joy bilan ta’minlash hamda ijtimoiy obyektlarni barpo etishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli investitsiya dasturlari qurilish hajmlarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Aholi sonining barqaror o‘sishi va demografik tarkibning yoshlar foydasiga

o‘zgarib borishi uy-joyga bo‘lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Urbanizatsiya jarayonlari, ayniqsa yirik shaharlarda, qurilish faoliyatining jadallashuviga sabab bo‘lmoqda. Toshkent shahri va viloyat markazlarida ko‘p qavatli turar joy majmualari qurilishi ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Qishloq hududlarida ham uy-joy sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha davlat dasturlari izchil amalga oshirilmoqda. Qurilish sohasidagi faollik yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon aholi bandligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Qurilish materiallariga bo‘lgan talabning oshishi sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga turtki bermoqda. Sement, beton va metall mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga, mazkur materiallarning ishlab chiqarish jarayonlari yuqori energiya sarfi bilan tavsiflanadi. Bu holat ekologik yuklamaning ortishiga olib kelmoqda. Qurilish jarayonlarida foydalanilayotgan texnologiyalarning katta qismi an’anaviy xarakterga ega. Energiya samaradorlik darajasi ko‘plab obyektlarda yetarli emasligi saqlanib qolmoqda. Uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimi aholi turmush sifatini belgilovchi muhim soha hisoblanadi. Issiqlik ta’minoti, ichimlik suvi, kanalizatsiya va chiqindilarni boshqarish tizimlari aholining sog‘lom hayoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Mazkur tizimlarning infratuzilmasi ko‘p hollarda eskirgan bo‘lib qolmoqda. Eskirgan infratuzilmani modernizatsiya qilish katta moliyaviy resurslarni talab etadi. Kommunal obyektlarning qurilishi va rekonstruksiyasi yuqori moddiy va energetik xarajatlar bilan bog‘liqdir. Ushbu jarayonlarda ekologik omillar yetarli darajada hisobga olinmayotgani kuzatiladi. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida uglerod chiqindilarining sezilarli ulushi shakllanmoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqarish atmosferaga katta miqdorda karbonat angidrid chiqarilishiga sabab bo‘lmoqda. Qurilish maydonchalarida dizel yoqilg‘isida ishlovchi texnikalar ustunlik qilmoqda. Transport-logistika jarayonlari ham uglerod chiqindilarining ortishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bo‘yicha dastlabki qadamlar tashlanmoqda. Energiya samarador binolar qurilishi bo‘yicha pilot loyihalar amalga oshirilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha normativ asoslar shakllanmoqda. Biroq ushbu yondashuvlar hali qurilish sektorida ommaviy tus olmagan. Qurilish loyihalarini rejalashtirishda ekologik baholash mexanizmlari cheklangan holda qo‘llanilmoqda. Hayotiy sikl tahlili kabi zamonaviy metodlar amaliyotda keng qo‘llanilmayapti. Natijada, qurilishning dastlabki bosqichlarida yuzaga keladigan ekologik ta’sirlar yetarli darajada baholanmayapti. Strategik rivojlanish nuqtayi nazaridan qurilish sohasida yangi yondashuvlarni joriy etish zarurati mavjud.

Uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash uchun ekologik mezonlarni strategik rejalashtirishga integratsiya qilish lozim. Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida ham resurslardan oqilona foydalanish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Suv va issiqlik yo‘qotishlari mavjud tizimlarda yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ushbu muammolarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Qurilish va kommunal sohalarni strategik rivojlantirishda davlatning muvofiqlashtiruvchi roli muhim hisoblanadi. Davlat siyosatida ekologik barqarorlik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi zarur. Soha rivojida xususiy sektor ishtiroki ham ortib bormoqda. Xususiy investorlar uchun barqaror va shaffof shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Qurilish sohasida innovatsiyalarni rag‘batlantirish strategik rivojlanishning muhim omilidir. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Kadrlar salohiyatini oshirish qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasining uzoq muddatli rivoji uchun zarur shart hisoblanadi. Yosh mutaxassislarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi strategik ustunlikni ta’minlaydi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasi jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, ekologik va strategik jihatdan chuqur islohotlarni talab etmoqda. Ushbu islohotlar barqaror rivojlanish tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim.

KAPITAL UGLEROD TUSHUNCHASI VA XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGIDA UGLEROD CHIQINDILARINI KAMAYTIRISH MODELLARI

So‘nggi yillarda qurilish bilan bog‘liq uglerod chiqindilarini baholashda “kapital uglerod” tushunchasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Kapital uglerod deganda bino yoki infratuzilma obyektining hayotiy siklining dastlabki bosqichlarida – qurilish materiallarini ishlab chiqarish, ularni tashish va bevosita qurilish jarayonida hosil bo‘ladigan uglerod chiqindilari tushuniladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, energiya samarador texnologiyalar keng joriy etilayotgan sharoitda ekspluatatsiya uglerodi asta-sekin kamayib bormoqda. Biroq aynan shu jarayon kapital uglerodning umumiy ulushini oshirmoqda. 2024–2025-yillardagi Yevropa va Skandinaviya mamlakatlari tajribasiga ko‘ra, yangi binolarda umumiy uglerod chiqindilarining 60–80 foizi qurilish bosqichiga to‘g‘ri kelmoqda. O‘zbekiston sharoitida kapital uglerod masalasi ayniqsa dolzarbdir. Chunki mamlakatda qurilish hajmlari tez sur’atlarda oshayotgan bir paytda, materiallar ishlab chiqarish texnologiyalari va logistika tizimlari hali ham yuqori uglerod intensivligiga ega. Bundan tashqari, mavjud binolarni saqlab

qolish va rekonstruksiya qilishdan ko‘ra yangi qurilishlarga ustuvorlik berilishi kapital uglerod yuklamasini yanada oshirmoqda. Kapital uglerod tushunchasini strategik rejalashtirishga integratsiya qilish qurilish loyihalarining dastlabki bosqichlaridayoq ekologik samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat iqlim o‘zgarishi bilan kurashish, balki resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar manfaatlarini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhimdir.

So‘nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida uglerod chiqindilarini kamaytirish masalasi strategik davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. 2024–2025-yillarda Yevropa Ittifoqi, Skandinaviya mamlakatlari, Buyuk Britaniya va Kanada tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uglerod chiqindisiz qurilishga erishish faqat texnologik emas, balki institutsional va boshqaruv yondashuvlarini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Shvetsiya tajribasi alohida e’tiborga loyiq. 2022-yildan boshlab mamlakatda yangi binolar uchun majburiy uglerod deklaratsiyalari joriy etilgan bo‘lib, 2025-yilga kelib ushbu talablar infratuzilma obyektlariga ham bosqichma-bosqich kengaytirildi. Bu tizim qurilish kompaniyalarini loyiha bosqichidayoq material tanlash, konstruktiv yechimlar va logistika masalalarida kam uglerodli variantlarni izlashga majbur qilmoqda. Natijada ayrim turdagi turar joy binolarida kapital uglerod chiqindilari 25–30 foizga kamaygani qayd etilgan. Norvegiya esa qurilish texnikalarini elektrlashtirish va vodorod asosidagi yechimlarni joriy etishda yetakchi hisoblanadi. 2025-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda yirik davlat buyurtmalarida dizel texnikalaridan foydalanish keskin cheklangan. Qurilish maydonchalarida elektr ekskavatorlar, kranlar va yuk ko‘taruvchi texnikalar qo‘llanilishi natijasida nafaqat uglerod chiqindilari, balki shovqin va havo ifloslanishi ham sezilarli darajada kamaygan. Buyuk Britaniyada esa “avval buzish emas, avval saqlash” tamoyili ustuvor hisoblanadi. 2024–2025-yillarda Londonda amalga oshirilgan yirik loyihalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud konstruksiyalarni saqlab qolish va moslashtirish orqali yangi qurilish bilan solishtirganda 35–45 foizgacha uglerod tejashga erishish mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali deb topilgan. Mazkur xorijiy tajribalar O‘zbekiston uchun muhim xulosalarni beradi. Eng avvalo, uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha aniq maqsadlar va majburiy talablar bo‘lmasa, bozor o‘z-o‘zidan ekologik yo‘lga o‘tmaydi. Shu sababli davlat siyosati bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA UGLEROD CHIQINDILARINI KAMAYTIRISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI VA QURILISH

SOHASINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR NUQTAYI NAZARIDAN UGLERODNI KAMAYTIRISH MODELI

O‘zbekiston Respublikasida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasini uglerod jihatidan barqaror rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. 2025-yilga kelib mamlakatda yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi va ekologik xavfsizlik masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lsa-da, ushbu yondashuvlarni qurilish sektoriga chuqur integratsiya qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Birinchi navbatda, normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish talab etiladi. Qurilish loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishda hayotiy sikl tahlili (Life Cycle Assessment) va uglerod hisob-kitoblarini joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Bu jarayon dastlab yirik davlat buyurtmalaridan boshlanishi, keyinchalik xususiy sektor loyihalariga ham tatbiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi muhim yo‘nalish — institutsional mexanizmlarni shakllantirishdir. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzurida uglerod monitoringi, metodologiya ishlab chiqish va tahlil bilan shug‘ullanuvchi maxsus markaz tashkil etilishi zarur. Ushbu markaz normativ hujjatlarni ishlab chiqish, loyihalarni baholash va mutaxassislar malakasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Uchinchi yo‘nalish — texnologik mexanizmlar. 2025-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda kam klinkerli sement, sanoat chiqindilarini qayta ishlash asosidagi qurilish materiallari, modulli qurilish va BIM texnologiyalarini joriy etish uchun muayyan texnik imkoniyatlar mavjud. Ushbu texnologiyalarni keng joriy etish kapital uglerod chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi. To‘rtinchi yo‘nalish — iqtisodiy mexanizmlar. Yashil moliyalashtirish instrumentlari, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va davlat kafolatlari orqali kam uglerodli loyihalarni rag‘batlantirish zarur. Ayniqsa, yosh tadbirkorlar va startaplar uchun yashil qurilish sohasida alohida qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda barqaror rivojlanish masalasi tobora ko‘proq avlodlararo mas’uliyat konsepsiyasi bilan bog‘lanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida qabul qilinayotgan strategik qarorlar bugungi iqtisodiy samaradorlik bilan birga kelajak avlodlar, xususan yoshlar manfaatlarini ham hisobga olishi lozim. O‘zbekiston sharoitida aholining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, ushbu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Yoshlar nuqtayi nazaridan uglerod chiqindilarini kamaytirish modeli uch asosiy komponentga tayanadi: **institutsional ishtirok**, **kadrlar salohiyati** va **innovatsion faollik**. Birinchidan, yosh mutaxassislarning

davlat boshqaruvi va strategik rejalashtirish jarayonlarida ishtirokini kengaytirish zarur. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida ishlab chiqilayotgan dasturlar, standartlar va normativ hujjatlarda yoshlarning ekologik qadriyatlari va innovatsion qarashlari aks etishi lozim. Ikkinchidan, kadrlar masalasi alohida e’tiborni talab qiladi. 2025-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda qurilish yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar soni ortib bormoqda, biroq ularning o‘quv dasturlarida uglerod hisob-kitoblari, hayotiy sikl tahlili (LCA), yashil qurilish standartlari yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida “yashil qurilish”, “kam uglerodli texnologiyalar” va “barqaror infratuzilma” yo‘nalishlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, innovatsion faollikni oshirish yoshlar modeli uchun asosiy drayver hisoblanadi. Startaplar, ilmiy-tadqiqot loyihalari va tajriba maydonchalari orqali yoshlar kam uglerodli materiallar, raqamli monitoring tizimlari va energiya samarador yechimlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etishi mumkin. Bu esa nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham raqobatbardosh natijalarni ta’minlaydi.

YAKUNIY XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasini strategik rivojlantirish jarayonida uglerod chiqindilarini kamaytirish masalasi markaziy o‘rin egallashi lozim. 2025-yil sharoitida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, qurilish hajmlarining oshishi va energetik resurslar narxlarining o‘zgarishi mazkur masalani nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida ham dolzarb etmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, qurilish sohasida uglerod chiqindilarining katta qismi ekspluatatsiya bosqichidan ko‘ra aynan qurilish va materiallar ishlab chiqarish jarayoniga, ya’ni kapital uglerodga to‘g‘ri keladi. Shu bois an’anaviy energiya samaradorligi yondashuvlari bilan cheklanib qolish yetarli emas. Kapital uglerod tushunchasini strategik rejalashtirishga integratsiya qilish qurilish loyihalarining dastlabki bosqichlaridayoq ekologik samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, uglerod chiqindilarini kamaytirishda normativ-huquqiy talablar, institutsional muvofiqlashtirish va iqtisodiy rag‘batlar birgalikda qo‘llanilgandagina sezilarli natijalarga erishish mumkin. Ushbu yondashuvlarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, ayniqsa davlat buyurtmalari va yirik infratuzilma loyihalarida joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar nuqtayi nazaridan ishlab chiqilgan model esa mazkur jarayonning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Yosh mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar va tadbirkorlarning faol ishtiroki qurilish va uy-joy

kommunal xo‘jaligi sohasida innovatsiyalarni jadallashtiradi hamda uglerod chiqindilarini kamaytirishga yo‘naltirilgan madaniyatni shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan strategik mexanizmlar bosqichma-bosqich joriy etilgan taqdirda, 2030-yilga qadar O‘zbekistonda qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida uglerod chiqindilarini 40–50 foizga qisqartirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. IPCC. Climate Change 2022: Mitigation of Climate Change. — Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
2. UN-Habitat. Global Status Report for Buildings and Construction. — Nairobi: United Nations Human Settlements Programme, 2024.
3. OECD. Decarbonising Buildings in Cities and Regions. — Paris: OECD Publishing, 2022.

ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ПИТЬЕВОЙ ВОДЫ В ТЕРРИТОРИАЛЬНОМ РАЗРЕЗЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН ЗА 2016-2026 гг.

Реймова Гулжамал Батырбаевна
Научно-исследовательский институт ирригации и водных проблем (НИИИВП)
guljamalreymova25@gmail.com

Аннотация. *Мақолада Қорақалпоғистон Республикасининг 16 та тумани ва Нукус шаҳри бўйича 2016-2026 йиллардаги лаборатория назорати маълумотлари асосида ичимлик суви сифатининг ҳудудий баҳоси келтирилган. Водород кўрсаткичи (pH), нитратлар, хлоридлар, сульфатлар, темир, мис ва қуруқ қолдиқ миқдори таҳлил қилинди. Энг сезиларли ҳудудий фарқлар сувнинг туз таркиби кўрсаткичларида аниқланди. Хлоридлар, сульфатлар ва қуруқ қолдиқнинг нисбатан юқори кўп йиллик ўртача қийматлари Беруний ва Мўйноқ туманларида қайд этилди. Темир ва мис миқдори ҳудудлар бўйича нисбатан кам ўзгарувчанлик билан тавсифланди. Олинган натижалар ичимлик суви сифатининг ҳудудий табақалаштирилган ва таққосланадиган кўп йиллик мониторингини олиб бориш зарурлигини кўрсатади.*

Калит сўзлар: *ичимлик суви, Қорақалпоғистон, сув сифати, мониторинг, хлоридлар, сульфатлар, темир, мис, қуруқ қолдиқ.*

Аннотация. *В статье представлена территориальная оценка качества питьевой воды Республики Каракалпакстан за 2016-2026 гг. по данным лабораторного контроля 16 районов и города Нукуса. Проанализированы водородный показатель (pH), нитраты, хлориды, сульфаты, железо, медь и сухой остаток. Наиболее выраженные территориальные различия установлены по показателям солевого состава воды. Повышенные многолетние средние значения хлоридов, сульфатов и сухого остатка отмечены в Берунийском и Муйнакском районах. Содержание железа и меди характеризовалось меньшей территориальной изменчивостью. Полученные результаты подтверждают необходимость территориально дифференцированного и сопоставимого многолетнего мониторинга качества питьевой воды.*

Ключевые слова: *питьевая вода, Каракалпакстан, качество воды, мониторинг, хлориды, сульфаты, железо, медь, сухой остаток.*

Abstract.*The article presents a territorial assessment of drinking water quality in the Republic of Karakalpakstan for 2016-2026 based on laboratory monitoring data from 16 districts and the city of Nukus. The analysis included pH, nitrates, chlorides, sulfates, iron, copper, and total dissolved solids. The most pronounced territorial differences were observed in indicators characterizing the salt composition of water. Higher long-term average concentrations of chlorides, sulfates, and total dissolved solids were recorded in Beruniy and Muynak districts. Iron and copper showed less pronounced territorial variability. The results indicate the need for territorially differentiated and comparable long-term monitoring of drinking water quality.*

Keywords*: drinking water, Karakalpakstan, water quality, monitoring, chlorides, sulfates, iron, copper, total dissolved solids.*

Введение

Обеспечение населения качественной питьевой водой является важным условием устойчивого развития территорий. Для Республики Каракалпакстан данная проблема имеет особое значение в связи с природно-климатическими и водохозяйственными условиями Южного Приаралья. Изменение гидрологического режима Амударьи, высокая испаряемость, процессы засоления и трансформация экосистемы Аральского моря формируют сложный гидроэкологический фон региона [2, 3].

Основная часть централизованного питьевого водоснабжения Республики Каракалпакстан связана с водными ресурсами Амударьи, при этом на отдельных территориях используются также подземные источники [4, 5, 10]. В процессе водоподготовки и транспортировки воды её физико-химические характеристики могут изменяться, поэтому оценка качества питьевой воды должна основываться непосредственно на результатах лабораторного контроля воды, поступающей потребителю [1, 10].

Проведённые исследования и реализуемые проекты показывают актуальность совершенствования систем питьевого водоснабжения и контроля качества воды в регионе [4-11]. Вместе с тем для выявления устойчивых территориальных различий необходим анализ многолетних лабораторных наблюдений в едином административно-территориальном разрезе.

Цель исследования - выявить территориальные различия и особенности многолетней динамики качества питьевой воды Республики Каракалпакстан за 2016-2026 гг. по основным физико-химическим показателям [1, 10].

Для достижения поставленной цели лабораторные данные систематизированы по территориям и годам и проведено сопоставление значений pH, нитратов, хлоридов, сульфатов, железа, меди и сухого остатка [1, 12].

Материалы и методы.

Исходной информационной базой исследования послужили материалы аналитической лаборатории АО «Каракалпак сув таъминоти» за 2016-2026 гг. [12]. Лабораторные данные были систематизированы по годам, административным территориям и пунктам отбора проб.

Исследование охватывает 16 административных районов Республики Каракалпакстан и город Нукус. Нукусский район и город Нукус рассматривались как самостоятельные территориальные единицы [12].

При формировании территориальных показателей качества питьевой воды преимущественно использовались результаты анализов проб из резервуаров чистой воды (РЧВ), узлов распределения воды (УРВ), эксплуатационных скважин и водопроводной сети [1, 12]. Результаты анализа исходной воды каналов, аванкамер, отстойников и промежуточных этапов водоподготовки не включались в территориальные средние значения питьевой воды.

В качестве основных показателей рассматривались pH, нитраты (NO_3^-), хлориды (Cl^-), сульфаты (SO_4^{2-}), железо (Fe), медь (Cu) и сухой остаток [1, 12].

Для последних лет наблюдений учитывалась номенклатура показателей, предусмотренная O‘zMSt 133:2024 «Вода питьевая. Гигиенические требования и контроль за качеством» [13]. Средние значения рассчитывались по фактически имеющимся лабораторным наблюдениям. Отсутствующие данные не интерполировались и не заменялись нулевыми значениями [12].

Следует учитывать неодинаковую полноту временных рядов: материалы за 2021 г. представлены ограниченным периодом наблюдений, а данные за 2026 г. являются неполными [12]. Поэтому полученные средние значения характеризуют имеющийся массив лабораторных наблюдений и интерпретируются с учётом его фактической полноты.

Результаты.

Анализ многолетних лабораторных данных показал наличие территориальных различий в физико-химическом составе питьевой воды Республики Каракалпакстан [12]. Наиболее заметная пространственная изменчивость наблюдалась по содержанию хлоридов, сульфатов и сухого остатка, тогда как значения pH изменялись в сравнительно узком диапазоне [1, 12]. Основные результаты территориального сопоставления представлены в таблице 1.

Таблица 1

Средние многолетние показатели химического состава питьевой воды Республики Каракалпакстан за 2016-2026 гг.

№	Территория	pH	NO_3^-, мг/дм³	Cl^-, мг/дм³	SO_4^{2-}, мг/дм³	Fe, мг/дм³	Cu, мг/дм³	Сухой остаток, мг/дм³
1	Амударьинский	7,52	1,43	182,43	254,36	0,0303	0,0268	770,54
Birinchi bosqichda zarbadan oldingi tarmoqlar ulushi hisoblanadi. Bandlik ulushi mehnat bozorining ta’sirlanishini, qo‘shilgan qiymat ulushi ishlab chiqarish tarkibini ifodalaydi. Ular turli savollarga javob beradi va bir formula ichida aralashtirilmaydi. Korxonalar soni ulushi esa firma o‘lchamini hisobga olmagani uchun asosiy tarkib ko‘rsatkichi o‘rnini bosa olmaydi.

$$HHI_r = \Sigma_i {s_{ri}}^2$$

Bu yerda s_{ri} — r hududdagi i tarmoqning bandlikdagi yoki qo‘shilgan qiymatdagi ulushi; barcha ulushlar yig‘indisi birga teng. HHI konsentratsiyani ko‘rsatadi: katta qiymat faoliyat kam sonli tarmoqlarda jamlanganini anglatadi. Tarmoqlar soni va tasnif darajasi turlicha bo‘lsa, hududlar taqqoslanishi noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Shu sababli bir xil qamrov va tasnif majburiy shartdir.

Bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan xilma-xillik uchun ikki pog‘onali tarmoq tasnifi ishlatiladi. J — yirik tarmoq guruhlari to‘plami, j guruh ichidagi i kichik tarmoqlar esa o‘zaro ajratilgan bo‘ladi. P_{rj} guruh ulushini, s_{ri}/P_{rj} shu guruh ichidagi shartli ulushni anglatadi. Hisoblash bir xil davr va bir xil turdagi ulushlarga asoslanadi.

$$UV_r = -\Sigma_j P_{rj} \ln P_{rj}$$

$$RV_r = \Sigma_j P_{rj} \left[-\Sigma_{i \in j} (s_{ri}/P_{rj}) \ln(s_{ri}/P_{rj})\right]$$

UV yirik guruhlar o‘rtasidagi, RV guruh ichidagi xilma-xillikni ifodalaydi. Nol ulush uchun 0 ln 0 = 0 kelishuvi qo‘llanadi; nol ulushli guruh hisobga kiritilmaydi. Entropiya ajralishi [4] dagi yondashuvga mos keladi. Biroq statistik tasnifning yaqinligi haqiqiy texnologik yoki kasbiy yaqinlikning taxminiy belgisi ekanini unutmaslik zarur. Mikroma’lumot bo‘lsa, bu taxmin ko‘nikmalar va xarid aloqalari bilan tekshiriladi.

1 jadval. Tarkibiy imkoniyatlarni baholash indikatorlari

Yo‘nalish	O‘lchov	Qaror uchun mazmun	Asosiy cheklov
Konsentratsiya	Bandlik va qo‘shilgan qiymat bo‘yicha HHI	Faoliyatning tor tarkibda jamlanishi	Tasnif va qamrovga sezgir

Yo‘nalish	O‘lchov	Qaror uchun mazmun	Asosiy cheklov
Xilma-xillik	UV va RV entropiya o‘lchovlari	Yirik guruhlar va guruh ichidagi imkoniyatlar	Statistik yaqinlik texnologik yaqinlikni to‘liq bermaydi
Umumiy xatar	Tarmoqlar dinamikasining kovariatsiyasi	Bir vaqtda pasayish ehtimolini tahlil qilish	Tarix kelajak zarbasini kafolatlamaydi
Ta’minot	Eng yirik yetkazib beruvchining xaridlardagi ulushi	Bitta manbaga bog‘liqlik	Boshqa yetkazib beruvchilar ham bitta tugunga bog‘liq bo‘lishi mumkin
Almashinuv	Muqobil ta’minotga o‘tish muddati va sig‘imi	Uzilishda faoliyatni davom ettirish	Texnik moslik alohida tekshiriladi
Mehnat resurslari	Qayta tayyorlashdan keyingi ishga joylashish va saqlanish	Ko‘nikmalarning real moslashuvi	O‘qishga tanlanish natijani og‘dirishi mumkin

Manba: muallif taklifi; xilma-xillik o‘lchovlarining nazariy asosi [4]. O‘lchovlar yagona indeksga avtomatik yig‘ilmaydi.

Ushbu indikatorlar hududning tashxis profilini hosil qiladi. Jadvaldagi o‘lchovlarning ayrimlari faqat korxonalar so‘rovi orqali olinishi mumkin; mavjud bo‘lmagan qiymatlar nol deb yozilmaydi. Ma’lumot yetishmasligi alohida ko‘rsatiladi. Bir xil xatarni ikki indikator qayta hisobga olmasligi uchun ularning mazmuni va o‘zaro bog‘liqligi tekshiriladi. Reyting zarur bo‘lsa, vaznlar manfaatdor tomonlar bilan ochiq muhokama qilinib, muqobil vaznlarda natija qanchalik o‘zgarishi ko‘rsatilishi kerak.

Zarba ta’siri va tiklanishni o‘lchash

Ikkinchi bosqich muayyan zarbaning boshlanishi, davomiyligi va ta’sir kanalini oldindan belgilaydi. Tashqi talab pasayishi, muhim resurs ta’minotining uzilishi va logistika cheklovi bir xil hodisa sifatida olinmaydi. Har birida qaysi faoliyat bevosita, qaysilari xarid yoki daromad kanali orqali ta’sirlanishi ko‘rsatiladi. Qisqa uzilish bilan uzoq davom etuvchi strukturaviy o‘zgarish turli moslashuv choralarini talab qiladi.

Tiklanish uchun bandlik, real qo‘shilgan qiymat va faol korxonalar soni alohida vaqt qatorlari orqali kuzatiladi. Nominal qiymatlarning oshishi narx o‘sishini aks ettirishi mumkin, shuning uchun ishlab chiqarish natijasi mos deflyator bilan real ifodaga keltiriladi. Bandlik tiklanishi esa ish vaqtining

qisqarishi yoki past haq to‘lanadigan faoliyatga ko‘chishni yashirishi mumkin. Imkoniyat bo‘lsa, ishlangan soatlar va real mehnat daromadi ham tekshiriladi.

Zarba bo‘lmagandagi kutilgan yo‘l aniq kuzatilmaydi. U zarbadan oldingi trend, o‘xshash hududlar guruhi yoki asoslangan boshqa taqqoslash orqali baholanadi. Shuning uchun kutilgan natijadan farq haqiqiy yo‘qotishning shartsiz o‘lchovi emas, tanlangan qarshi holatga bog‘liq bahodir. Trendni keskin o‘zgartirgan oldingi hodisalar mavjud bo‘lsa, oddiy chiziqli ekstrapolyatsiya ishonchsiz bo‘lishi mumkin.

Tiklanish muddati natija oldindan belgilangan mezonga ketma-ket bir necha davr davomida yetgan vaqt sifatida olinadi. Mezonga faqat zarbadan oldingi daraja yoki zarbasiz kutilgan yo‘lning ma’lum oralig‘i tanlanishi mumkin, lekin ular bir xil ma’no bermaydi. Kuzatuv oxirigacha mezonga yetmagan hududlar uchun muddat sun’iy tayinlanmaydi; holat yakunlanmagan kuzatuv sifatida qayd etiladi.

Uzoq muddatli moslashuv yangi faoliyatning paydo bo‘lishi bilangina cheklanmaydi. Uning saqlanib qolishi, unumdorligi, mahalliy ko‘nikmalarga talabi va xatar manbalarini qanchalik o‘zgartirgani tekshiriladi. Tarmoq ulushi boshqa tarmoq qisqargani uchun ham oshishi mumkin. Shu bois ulush o‘zgarishi mutlaq bandlik va ishlab chiqarish hajmi bilan birga talqin qilinadi.

Shartli hisoblash misoli

Hisoblash mexanizmini ko‘rsatish uchun to‘rtta tarmoqli A va B shartli hududlari olinadi. Ulushlar boshlang‘ich qo‘shilgan qiymat ulushidir. Birinchi tarmoqda hajm 30 foiz, ikkinchisida 10 foiz kamayadi; qolgan ikki tarmoq o‘zgarmaydi. Narxlar, ikkilamchi ta’sirlar va korxonalararo almashinuv hisobga olinmagan. Barcha raqamlar muallif tomonidan namuna uchun belgilangan.

2 jadval. Ikki shartli hudud uchun hisoblash natijalari

Ko‘rsatkich	A hududi	B hududi
Birinchi tarmoq ulushi	60%	25%
Ikkinchi tarmoq ulushi	20%	25%
Uchinchi tarmoq ulushi	10%	25%
To‘rtinchi tarmoq ulushi	10%	25%
HHI	0,42	0,25
Tanlangan zarbada jami hajm o‘zgarishi	−20%	−10%

Ko‘rsatkich	A hududi	B hududi
Barcha tarmoqlar 20% pasayganidagi o‘zgarish	−20%	−20%

Manba: muallifning shartli hisoblari. A va B real ma’muriy hududlar emas; raqamlar statistik kuzatuv natijasi hisoblanmaydi.

Hisoblashda A hududining jami o‘zgarishi 0,60 × (−0,30) + 0,20 × (−0,10) = −0,20 ni tashkil etadi. B hududida natija 0,25 × (−0,30) + 0,25 × (−0,10) = −0,10 bo‘ladi. A uchun HHI 0,42, B uchun 0,25 ga teng. Mazkur ssenariyda ko‘proq konsentratsiyalashgan tarkib kattaroq yo‘qotish bilan birga kuzatiladi.

Misol universal ustunlikni isbotlamaydi. Agar zarba to‘rt tarmoqni bir xil 20 foizga qisqartirsa, ikkala hudud ham 20 foiz yo‘qotadi. Agar zarar asosan uchinchi va to‘rtinchi tarmoqlarda yuz bersa, B hududining ko‘proq diversifikatsiyalangan tarkibi katta yo‘qotishga olib kelishi mumkin. Demak, konsentratsiya bilan birga zarbaning manbai va tarmoqlar xatarlarining birgalikda o‘zgarishi ham o‘rganilishi kerak.

Dinamik tahlilda jami natijaning tebranishi tarmoqlar ulushi va ularning o‘sish sur’atlari kovariatsiyasi bilan bog‘lanadi. Faqat tarmoqlar sonini ko‘paytirish yetarli emas: turli faoliyatlar bir xil xaridor yoki energiya manbasiga tayansa, ular birgalikda pasayishi mumkin. Tarixiy kovariatsiya ham kelajakdagi zarba tuzilishini kafolatlamaydi. Shu sababli tarixiy tahlil alohida stress ssenariylari bilan to‘ldiriladi.

Hududlararo hamkorlikni baholash

Hamkorlikni diagnostika qilishda savdo aylanmasi umumiy hajmidan tashqari xaridlar qaysi yetkazib beruvchilarga taqsimlangani o‘rganiladi. Bir nechta hududdan keluvchi mahsulotning barchasi yagona zavodga yoki logistika tuguniga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shunday vaziyatda geografik xilma-xillik real muqobillikni anglatmaydi. Korxonalardan zarur mahsulot sifati, sertifikat talabi, hajm va yetkazish muddati haqidagi ma’lumotlar olinishi kerak.

Muqobil yetkazib beruvchi mavjudligi uch bosqichda tekshiriladi: texnik moslik, iqtisodiy maqbullik va amalda yetkazish imkoniyati. Qog‘ozdagi hamkorlik shartnomasi qisqa muddatli uzilishni bartaraf eta olmasligi mumkin. Muqobil kanalning sig‘imi yetarli bo‘lmasa, u faqat qisman himoya beradi. Yetkazib beruvchini almashtirish xarajati bilan uzilish oqibatidagi yo‘qotish taqqoslanishi kerak.

Hamkorlikning mehnat bozori kanali ham muhim. Boshqa hududdagi ta’lim markazi qayta tayyorlashga xizmat qilishi mumkin, ammo qatnov xarajati yoki turar joy muammosi bu imkoniyatdan foydalanishni cheklaydi. O‘qitish

dasturining mavjudligi bilan bitiruvchining barqaror ishga joylashishi farqlanadi. Hamkorlik natijasi yangi kelishuvlar soni bilan emas, amalda foydalanilgan xizmat va saqlangan faoliyat bilan o‘lchanadi.

Hududlararo dasturlar xarajat va manfaatlarni adolatli taqsimlashni talab qiladi. Ombor yoki transport infratuzilmasi bir hududda joylashib, qo‘shni hududlarga ham foyda keltirishi mumkin. Moliyalashtirish yukini faqat joylashgan hududga yuklash hamkorlikni susaytiradi. Taklif etilayotgan mexanizmda foydalanish hajmi, xizmat sifati va texnik xizmat majburiyatlari shartnomada aniq belgilanadi; nizolarni hal qilish tartibi ham oldindan kelishiladi.

O‘zbekiston hududlarida qo‘llash tartibi

Metodikani amaliy qo‘llash ma’lumotlarni inventarizatsiya qilishdan boshlanadi. Rasmiy hududiy statistika tarkib va umumiy dinamikani aniqlash uchun, korxona darajasidagi tekshirilgan ma’lumotlar esa ta’minot va moslashuv mexanizmlarini o‘rganish uchun ishlatilishi rejalashtiriladi. Hozirgi maqolada ushbu bazalar yig‘ilmagan. Har bir indikator bo‘yicha manba, davr, qamrov, qayta ko‘rib chiqish holati va cheklovlar kelajakdagi empirik tadqiqot protokolida ko‘rsatilishi lozim.

Hududlar taqqoslanishidan oldin tarmoq tasnifi va hudud chegaralaridagi o‘zgarishlar uyg‘unlashtiriladi. Bir korxonaning bosh ofisi joylashgan hudud bilan uning ishlab chiqarish manzili farq qilishi mumkin; ma’lumot qaysi joyga hisoblanganini aniqlash zarur. Yashirin yoki norasmiy bandlik qamrovi past bo‘lsa, rasmiy bandlikdagi o‘zgarish butun mehnat bozori holatini ifodalamaydi. Bunday cheklov natijalar bilan birga ochiq bayon qilinadi.

Keyingi bosqichda hududlar sanoat yoki xizmatlar ulushi bilangina emas, o‘xshash ta’sir kanallari bo‘yicha guruhlanadi. Masalan, yagona xaridorga kuchli bog‘langan faoliyatlar va transport uzilishiga sezgir faoliyatlar bir-biridan farqlanadi. Hududga umumiy yorliq berish o‘rniga tarmoqlar va korxonalar kesimida zaif bo‘g‘inlar aniqlanadi. Bu yondashuv yordam mablag‘ini asoslangan ehtiyojga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Empirik tekshirish uchun uch gipoteza taklif etiladi. Birinchisi, zarbaga kuchli ta’sirlanadigan faoliyatlarda yuqori konsentratsiya dastlabki yo‘qotish bilan musbat bog‘lanadi. Ikkinchisi, kasbiy yaqin faoliyatlarning mavjudligi, ishchi kuchi harakati uchun to‘siqlar past bo‘lganda, bandlik tiklanishi bilan bog‘lanadi. Uchinchisi, texnik jihatdan foydalanish mumkin bo‘lgan muqobil yetkazib beruvchilar tarmog‘i uzilish davomiyligi bilan manfiy bog‘lanadi. Bular aniqlangan natijalar emas, ma’lumotlarda tekshiriladigan taxminlardir.

Panel tahlilida boshlang‘ich tarkib, zarbaga ta’sirlanish, infratuzilma va mehnat bozori sharoitlari hisobga olinishi mumkin. Hudud va vaqtga xos kuzatilmagan farqlar uchun tegishli nazoratlar tanlanadi. Biroq kam sonli hududlar va qisqa vaqt qatori murakkab modelni asoslashga yetmasligi mumkin. Ko‘p o‘zgaruvchilar kiritish o‘rniga nazariy jihatdan zarur ko‘rsatkichlar tanlanadi, noaniqlik intervallari va natijaning muqobil spetsifikatsiyalarga sezgirligi beriladi.

Hududiy siyosat choralarini tanlash

OECDning 2025-yilgi hisobotida hududga mos siyosat mahalliy sharoit va imkoniyatlarga tayangan, turli tarmoqlar hamda boshqaruv darajalarini muvofiqlashtiradigan choralar sifatida talqin qilinadi [5]. Ushbu maqolada bunday yondashuv diagnostika natijasini aniq aralashuv bilan bog‘lash orqali qo‘llanadi. Yangi korxona ochishga subsidiya berish yagona universal chora emas; muammo malaka, sifat standarti yoki transportda bo‘lsa, tegishli to‘siqni bartaraf etish birinchi o‘ringa chiqadi.

3 jadval. Tashxis va siyosat choralarining muvofiqligi

Aniqlangan to‘siq	Taklif etiladigan chora	Kuzatiladigan natija
Yagona yetkazib beruvchiga bog‘liqlik	Muqobil korxonani texnik sinovdan o‘tkazish va hamkorlik xaridi	Almashtirish muddati va uzilish davomiyligi
Standart va sifat talablariga mos kelmaslik	Umumiy sinov va sertifikatlash xizmatiga kirish	Tasdiqlangan mahsulot va saqlangan shartnomalar
Kasbiy ko‘nikmalar mos kelmasligi	Ish beruvchi ehtiyoji bilan bog‘langan qayta tayyorlash	Ishga joylashish, ishda saqlanish va real daromad
Bitta logistika yo‘nalishiga bog‘liqlik	Muqobil yo‘nalishning xarajati va sig‘imini baholash	Yetkazishning kechikishi va umumiy xarajati
Yangi faoliyat uchun umumiy xizmatlar yetishmasligi	Pilot asosida infratuzilma yoki texnik xizmatni rivojlantirish	Xizmatdan foydalanish va faoliyatning saqlanishi

Manba: muallif takliflari. Har bir chora uchun boshlang‘ich daraja, baholash davri va taqqoslash usuli oldindan belgilanadi.

Har bir loyiha bo‘yicha qo‘shimcha natija savoli qo‘yiladi: davlat ko‘magi bo‘lmaganda korxona shu investitsiyani baribir amalga oshirarmidi? Mavjud faoliyatni shunchaki boshqa hududga ko‘chirish milliy miqyosda yangi qiymat

yaratmasligi mumkin. Shu sababli mahalliy foyda bilan boshqa hududlarda yuzaga keladigan yo‘qotish ham imkon qadar tekshiriladi. Yirik loyiha baholanishida kelajakdagi texnik xizmat va ekologik xarajatlar hisobga olinadi.

Diversifikatsiya siyosati barcha tarmoqlarni bir xil ulushga keltirishni ko‘zlamaydi. Hududning mavjud ustunliklari samarali ixtisoslashuvni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Siyosiy maqsad tanlangan ixtisoslashuvning muhim zaifliklarini kamaytirish va yangi faoliyatga o‘tish imkoniyatini saqlashdir. Imkoniyati cheklangan hududda ko‘p yo‘nalishga kichik mablag‘ tarqatish o‘rniga tekshirilgan umumiy to‘siqlarni kamaytiradigan xizmatlar tanlanadi.

Siyosat samaradorligini tekshirish

Uchinchi baholash bosqichi dastur ishtirokchilarida kuzatilgan yaxshilanishning aynan dasturga tegishli qismini aniqlashga qaratiladi. Yordam olgan korxonalar boshidanoq faolroq yoki ko‘proq muammoli bo‘lishi mumkin. Ularni yordam olmagan barcha korxonalar bilan oddiy taqqoslash tanlanish og‘ishini keltirib chiqaradi. Dasturga qabul mezonlari va boshlang‘ich holat hujjatlashtirilishi kerak.

Dastur bosqichma-bosqich joriy etilsa, joriy etilish tartibidan foydalanadigan taqqoslash dizayni tuzilishi mumkin. Farqlar farqi yondashuvi uchun dasturdan oldingi parallel trendlar, boshqa choralar va kuzatuv tarkibidagi o‘zgarishlar tekshiriladi. Yagona hududdagi yirik dasturda yetarli oldingi davrlar va mos taqqoslash hududlari bo‘lsa, sintetik nazorat ko‘rib chiqilishi mumkin. Ushbu usullar shartlari bajarilmasa, natija sababiy ta’sir deb nomlanmaydi.

Hududlararo hamkorlikning o‘zi ta’sirni taqqoslash guruhiga tarqatishi mumkin. Masalan, yordam olmagan korxona yangi umumiy logistika xizmatidan foydalanadi. Bunday holda korxonalar mustaqil birliklar emas; hamkorlik tarmog‘i bo‘yicha bilvosita ta’sir o‘lchanishi yoki baholash chegarasi kengaytirilishi kerak. Ta’sirning yo‘qligi ba’zan dastur samarasizligini emas, taqqoslash guruhiga foyda tarqalganini anglatishi mumkin.

Natijalar hisobotida kamida dastur qamrovi, foydalanish darajasi, yakuniy iqtisodiy natija va bir natija birligiga xarajat ajratiladi. Yo‘qolgan kuzatuvlar, faoliyatini tugatgan korxonalar va qatnashishdan bosh tortgan birliklar yashirilmaydi. Samarali deb baholangan chora boshqa hududga ko‘chirilishidan oldin uning infratuzilma, institutsional va bozor shartlari solishtiriladi. Kichik pilotning natijasi katta dasturda avtomatik takrorlanmaydi.

Muhokama va cheklovlar

Taklif etilgan tuzilma iqtisodiy barqarorlikni oldindan mavjud imkoniyat va keyin kuzatilgan natija sifatida ikki alohida tekislikda ko‘radi. Hudud zarbani

yengil boshdan kechirgan bo‘lsa, bu doimo kuchli institutlar mavjudligini anglatmaydi; uning faoliyati aynan shu zarbaga kam ta’sirlangan bo‘lishi mumkin. Aksincha, katta dastlabki zarar ko‘rgan hudud keyinchalik tez va sifatli moslashishi mumkin. Tashxis uchun zarar va tiklanish birga o‘rganiladi.

Metodikaning birinchi cheklovi batafsil tarmoq va korxonalararo ma’lumotlarga talabdir. Ikkinchisi, iqtisodiy tasnifdagi yaqinlik real bilim va kasbiy aloqalarni to‘liq aks ettirmaydi. Uchinchisi, tarixiy xatarlar kelajakdagi yangi zarbani oldindan to‘liq ifodalay olmaydi. To‘rtinchisi, ishlab chiqarish tiklanishi aholining barcha guruhlariga teng foyda keltirmasligi mumkin. Shu sababli natijalar tuman, jins yoki yosh kesimida, mavjud va yetarli sifatli ma’lumotlar doirasida aniqlashtiriladi.

Keyingi empirik tadqiqot uchun dastlab cheklangan hududlar guruhida ma’lumotlar mavjudligi tekshirilishi, korxona so‘rovi sinovdan o‘tkazilishi va indikatorlarning talqini manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilinishi tavsiya etiladi. So‘ng oldindan belgilangan zarba va natija ko‘rsatkichlari asosida tahlil amalga oshiriladi. Ushbu ketma-ketlik maqoladagi metodik taklifning qaysi qismi ishlashini, qaysi qismini mahalliy sharoitga moslashtirish kerakligini aniqlaydi.

Xulosa

Mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun diversifikatsiyani tarmoqlar soni bilan cheklash yetarli emas. Tarkibiy konsentratsiya, tarmoqlararo ko‘nikma yaqinligi va umumiy xatar manbalari birgalikda ko‘rilishi kerak. Hududlararo hamkorlikning qiymati yangi aloqalar sonidan ko‘ra zarur resursni almashtirish, bozorga chiqish va mehnat resurslarini moslashtirish imkoniyati bilan aniqlanadi.

Maqolada taklif etilgan metodika tarkibiy diagnostika, zarba va tiklanish tahlili hamda siyosat ta’sirini baholashni ajratadi. Shartli misol konsentratsiya ta’siri zarba tuzilishiga bog‘liqligini ko‘rsatdi; u real hududlar bo‘yicha xulosa chiqarishga asos bo‘lmaydi. Amaliyotda har bir aralashuv aniqlangan to‘siqqa, foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotga va oldindan belgilangan natija mezoniga bog‘lanishi lozim.

O‘zbekiston hududlari uchun keyingi vazifa yagona reyting yaratishdan oldin taqqoslanadigan ma’lumotlar va tarmoq aloqalari haqida dalillar to‘plashdir. Metodikaning samaradorligi haqidagi xulosa real ma’lumotlarda tekshirishdan keyin berilishi mumkin. Shu tartib hududiy investitsiyalarni asoslash, zaif aloqalarni aniqlash va natijasi kuzatiladigan rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish uchun ilmiy tayanch yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] OECD. (2023). OECD Regional Outlook 2023: The Longstanding Geography of Inequalities. OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/92cd40a0-en

[2] Martin, R., & Sunley, P. (2015). On the notion of regional economic resilience: conceptualization and explanation. Journal of Economic Geography, 15(1), 1–42. https://doi.org/10.1093/jeg/lbu015

[3] Boschma, R. (2015). Towards an Evolutionary Perspective on Regional Resilience. Regional Studies, 49(5), 733–751. https://doi.org/10.1080/00343404.2014.959481

[4] Frenken, K., van Oort, F., & Verburg, T. (2007). Related Variety, Unrelated Variety and Regional Economic Growth. Regional Studies, 41(5), 685–697. https://doi.org/10.1080/00343400601120296

[5] OECD. (2025). Place-Based Policies for the Future. OECD Regional Development Studies. OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/e5ff6716-en

FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARINI TA'MINLASH VA HIMOYA QILISHNING NAZARIY-AMALIY MASALALARI

Zaytova Gulchexra Jantoreevna
zaytovagulchexra@gmail.com
+998907140015

Hozirgi dunyoda inson huquqlari to‘g‘risidagi masala barcha davlatlarning asosiy masalasidir. O‘tmish tarixga nazar solsak, inson o‘z haq-huquqlari uchun har bir davrda kurashib kelgan. Odamlarning o‘z huquqlari uchun kurashi davomida insonning munosib hayot kechirish huquqi himoya qilingan ko‘plab g‘oyalar, nazariyalar va ta’limotlar vujudga keldi va rivojlandi. Sharqning mashhur huquqshunoslari orasida Imom Burhoniddin al-Marg‘inoniy alohida o‘rin tutadi. 1178-yilda alloma o‘zining 4 jild 53 fasldan iborat bo‘lgan “Hidoya” (To‘g‘ri yo‘l) asarini yozib tugatdi. Bu asarda ulamo kishilar o‘rtasidagi munosabatlar qanday bo‘lishi kerakligini qonun asosida ko‘rsatib berdi. Ko‘p asrlar davomida mana shu kitob huquqshunoslik (fiqh) sohasi bo‘yicha qo‘llanma bo‘lib keldi. Uyg‘onish davri mutafakkirlari ham Burhoniddin al-Marg‘inoniyning har bir insonning tabiiy huquqlariga, u ana shu mamlakat fuqarosi ekanligi yoki aksincha ekanligidan qat’i nazar, bo‘ysunishini qonunlashtirish va ta’minlash zarurligi haqidagi g‘oyasini qo‘llab-quvvatladilar.

Mana shu davrdan boshlab davlatga mutlaqo boshqacha - shaxs huquqlarini oyoq osti qiladigan institut sifatida emas, balki uning inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi nuqtai nazaridan qaralmoqda. Tabiiy huquqlar g‘oyasi dunyodagi turli davlatlarning Konstitutsiyaviy huquqida o‘z ifodasini topgan. Inson eng oliy qadriyat ekanligi asosiy qonun bilan O‘zbekistonda ham ta’kidlangan. Shunday qilib, Konstitutsiyamizda insonning huquq va erkinliklarini ta’kidlash, ularga bo‘ysunish va ularni himoya qilish davlat majburiyati degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan. Unda "butun dunyoviy mavjudot ichidagi eng ulug‘i-inson" ekanligi yaqqol mujassamlashgan. Insonni ulug‘lash, uni himoya qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiyamizning asosiy g‘oyasiga aylantirilgan. Bu esa, Konstitutsiyamizning eng katta va muhim qismi “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan II bo‘limidir.

Konstitutsiyamizda nafaqat fuqarolarning huquqlari belgilab qo‘yilgan, balki xorijiy davlatlarning hamda fuqaroligi bo‘lmagan insonlarning asosiy huquqlari, erkinliklari to‘g‘risidagi qoidalar ham mustahkamlangan. Ushbu qoidalar, prinsiplar fuqarolar o‘z huquq va erkinliklaridan to‘g‘ri foydalanishi hamda zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni halol, vijdonan bajarishi shartligini hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli va samarali amalga oshirish uchun mas’ul ekanligini bayon etadi. Bu qoidalar qonuniylik, fuqarolarning umumiy tengligi, fuqaro va davlatning bir-biriga bo‘lgan huquq va majburiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning mushtarakligidan iborat. Insonlarning qonun oldida kelib chiqishidan qat’i nazar tengligi huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VI-bobi 22-24-moddalari “Fuqarolik” deb nomlanib, ushbu moddalarda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolikka oid qoidalar bayon etilgan. Fuqarolik masalasi siyosiy masala. Ibtidoiy jamiyatda fuqarolik tushunchasi bo‘lmagan, chunki unda davlat kabi tashkilot ham bo‘lmagan. Fuqarolik tartiblari davlat va huquq kabi ijtimoiy hodisalar paydo bo‘lishi natijasida shakllanib, bunda davlat qonunlar orqali odamlarni o‘z fuqarolari sifatida tan olish asoslarini belgilay boshlagan. Shaxs va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat fuqarolik tartiblari bilan belgilanadi.

Fuqarolik - bu shaxsning muayyan davlatga mansubligini bildiradigan, shaxs bilan davlat o‘rtasidagi barqarorlik, siyosiy, huquqiy aloqalarni belgilaydigan tushunchadir. Bu aloqalar davlat va shaxsning o‘zaro huquq va majburiyatlarini belgilashda namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik insonning davlat bilan huquqiy aloqalarini anglatadi. Davlat o‘z qonunlarida insonning huquqiy hokimiyatini, ya’ni insonning davlatga, uning organlariga va boshqa shaxslarga bo‘lgan o‘rnini belgilaydi.

Fuqaro hisoblangan shaxs o‘z davlati hududida ham, xuddi shuningdek, undan tashqarida ham uning himoyasi va qaramog‘ida bo‘ladi hamda fuqaroga mustahkamlab qo‘yilgan barcha huquqlardan to‘liq foydalanadi. O‘z navbatida fuqarolar o‘z davlati qonunlariga bo‘ysunishlari, o‘z fuqarolik burch va majburiyatlarini bajarishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida 2020-yil 13-martda “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Ushbu huquqiy hujjatlarda O‘zbekistonda fuqarolik masalalari, insonning fuqarolikka ega bo‘lish asoslari, fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining tugatilishi, ota-onaning fuqaroligi o‘zgarganda va farzandlikka olinganda

bolalarning fuqaroligi, fuqarolik to‘g‘risida ishlarni yurituvchi O‘zbekiston Respublikasining davlat kengashlari va ularning vakolatlari, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va takliflarni ko‘rib chiqish, fuqarolikka oid qarorlarning ijrosi, mansabdor shaxslarning fuqarolik masalalariga oid qonunga xilof xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish, xalqaro shartnomalarning qo‘llanilishi kabi eng muhim masalalar bayon etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasiga binoan O‘zbekiston hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi asosiy hujjat pasport hisoblanadi. Pasport (italyan tilidan olingan bo‘lib, “portga kirish uchun ruxsatnoma”) - fuqarolikni tasdiqlovchi hujjat. Pasport olingunga qadar tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma yoki shaxsning fuqaroligiga doir ma’lumotlar mavjud bo‘lgan hujjat uning fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasida Pasport tizimi to‘g‘risida”gi qonunga asosan O‘zbekiston Respublikasining 16 yoshga to‘lgan barcha fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti berilishi shart, deb ko‘rsatilgan. Pasport Respublika Ichki ishlar organlari tomonidan beriladi.

O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har bir shaxs fuqaro bo‘lish huquqiga ega. “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lish quyidagi asoslar bo‘yicha amalga oshiriladi:

1. O‘zbekiston fuqarolaridan tug‘ilgan bolalar ular mamlakat hududida yoki chet elda tug‘ilgan bo‘lsa ham O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Agar ota-onalardan biri O‘zbekiston fuqarosi, ikkinchisi chet el fuqarosi bo‘lsa, tug‘ilgan bola O‘zbekistonda tug‘ilsa O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Agar shunday ota-onadan bola mamlakatimizdan tashqarida tug‘ilsa, uning fuqaroligi ota-onaning kelishuviga ko‘ra belgilanadi. Ota-onasi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan tug‘ilgan bolalar O‘zbekistonda tug‘ilgan bo‘lsa, O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Otasi noma’lum, onasi ma’lum bo‘lib, O‘zbekistonda tug‘ilgan bola O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

2. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘z xohishiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun ular quyidagi shartlarni bajarishlari shart:

a) chet el fuqaroligidan voz kechganda: bunda chet el fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror qabul qiladi. Chet el fuqarosi esa o‘z fuqaroligining

o‘zgartirilganligi to‘g‘risida mazkur davlatning ishtirokini ko‘rsatuvchi hujjatni taqdim etishi shart;

b) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududida kamida besh yil yashagan bo‘lsa, ya’ni oxirgi besh yil davomida O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganligi va qonuniy yashash manbalari mavjudligi tasdiqlangan holda;

v) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olsa va bajarsa,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasida ulkan yutuqlari bo‘lgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yoki mutaxassislikka ega bo‘lgan ayrim shaxslarga nisbatan ushbu moddaning a, b va v bandlaridagi talablar hisobga olinmasligi mumkin. Lekin, ularda albatta O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olishi va bajarishi shart.

Agar shaxs:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishni yoqlab chiqqan bo‘lsa;

Xizmati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy prinsiplariga zid bo‘lgan partiyalar va boshqa tashkilotlarga a’zo bo‘lsa;

O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq jazolanadigan xatti-harakatlari uchun ozodlikdan mahrum etilgan va ushbu jazoni o‘tayotgan bo‘lsa;

uni O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risidagi iltimosi bajarilmaydi.

Fuqarolik to‘g‘risidagi qonunning 23-25-moddalarida: O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining tugatilishi va yo‘qolishi asoslari belgilangan. Shaxsning iltimosiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqarilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, fuqarolikni tiklash, fuqarolikdan chiqish va uni yo‘qotish masalalari Prezident farmoni bilan rasmiylashtiriladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalari bo‘yicha qarorlar ijrosi ustidan nazorat Prezident huzuridagi Fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqqan kundan e’tiboran O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo‘qotiladi.

Mamlakatimizda fuqarolarimizdan tashqari chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ham huquq va erkinliklari teng himoya qilinadi.

Chet el fuqarolari - O‘zbekiston hududida yashayotgan, boshqa xorijiy davlatlar fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxslar. Ularning O‘zbekistonda bo‘lishiga turli sabablar bor.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmagan va o‘zining chet el fuqarosiga mansubligini ko‘rsatuvchi dalillari bo‘lgan shaxslar chet el fuqarolari deb e’tirof etiladi.

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning huquqiy ta’rifi “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida quyidagicha belgilangan:

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan huquq va erkinliklardan, shuningdek o‘zlarini himoya qilish uchun sud organlariga murojaat qiladilar. Shu vaqtning o‘zida O‘zbekiston fuqarolari bilan bir xil vazifalarni bajaradi. Respublikamizda doimiy yashovchi chet el fuqarolarining huquq va erkinliklari vaqtincha yashovchilarga nisbatan kengroq bo‘ladi." Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar sodir etgan huquqbuzarliklari uchun mamlakatimiz fuqarolari bilan teng asosda javobgar bo‘ladi va O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan javobgarlikka tortiladi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ayrim huquqlari cheklab qo‘yiladi. Ular vakillik organlariga deputat bo‘lib saylana olmaydilar, saylovga, referendumlarga qatnasha olmaydilar. Ular Qurolli Kuchlar safida, Davlat xavfsizlik xizmatida, ichki ishlar organlarida ishlashi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi Qonuni (Yangi tahriri). O‘RQ-610-son, 2020-yil 13-mart.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. - Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2018.
4. Saidov A.X. Inson huquqlari xalqaro huquqi: Darslik. - Toshkent: Konsauditinform-Nashr, 2006. – 480 b.
5. Tadjixanov U., Saidov A.X. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2 tomlik. - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.
6. Muhammedov O.H. Inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: Monografiya. - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.

7. Ismoilov Sh.A. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish // *Huquqiy tadqiqotlar jurnali*. - 2022. – №4. – B. 45–52.

IMPORTANCE OF FESTIVALS IN ATTRACTING TOURISTS TO UZBEKISTAN

Rukhshona Rakhmatova Rashidovna
raxmatova.ruxshona2510@gmail.com
+998885779709

Abstract. *The present research is focused on the major ones, namely, Navruz, Silk and Spices Festival, and Sharq Taronalari, to discuss the impact of festivals in attracting tourists to Uzbekistan. The quantitative survey method is used along with collecting secondary data from official tourism reports to find out factors like visitor motivation, experience, satisfaction, and spending patterns. The results are quite amazing because they show that festivals do attract more tourists and this in turn creates the need for the management and marketing of festivals that additionally raise the profile of Uzbekistan as a cultural tourism destination.*

Key words: *Festival, tourism, development, tourist, attractions, Uzbekistan.*

Introduction

Cultural events that are incorporated in tourism business are gaining more and more popularity, however, there are still very few studies done on their impact on the behavior and destination choice of travelers in Uzbekistan. Coupled with the above-mentioned, still open questions about the attractions that bring tourists to the events, varying perceptions of their enjoyment, and the extent to which festivals contribute to the inclusion of the country among the tourist destinations have been raised. It is really important for the stakeholders, tourism strategists, and surrounding areas who want to have a sustainable tourism development by the adequate utilization of the powers of festivals to gain insights into these dynamics. Hence, the present research work is aimed at uncovering how cultural festivals affect the inflow of tourists into Uzbekistan and thus, bridging the voids in understanding. . The research objectives are: [to appraise the characteristics and attraction of notable Uzbek festivals;](Azizbek Allaberganov and Pippa Catteral, 2023). The purposes were to study the reasons, visitors' satisfaction and their consumption during festivals; and to suggest changes in festival management and marketing approaches aimed at tourist attraction. In this manner, the research both develops the theoretical

understanding of the case and gives concrete measures for cultural tourism to thrive in Uzbekistan. In Central Asia, cultural festivals are mainly seen as a tool for promoting tourism. The nations such as Kazakhstan, Kyrgyzstan, and Uzbekistan have created festivals where the main elements for pulling in tourists, both local and overseas, are their historical sites and non-material cultural heritage. The prediction has been made that the festival of regional artistic expressions, music, and gastronomy will be held simultaneously by (Abdurahmonov, 2018) The strategy is to make Central Asia a more visible destination for tourists and to ensure that their stay is not just a one-off. On the other hand, the problems are really difficult to handle because of the very poor infrastructure, lack of advertisement and no measuring of the festivals' impact on tourist movement. Central Asia has always been the home of the most magnificent cultural festivals that are the best and most vivid representation of its great past.

Literature review

Every year, on the spring equinox, on the 21st of March, millions upon millions of people in the Zoroastrian lands and beyond celebrate Nowruz with customs, traditional foods, music, and dancing. The Silk and Spices Festival is not just a Central Asian Heritage celebration but also a demonstration of a glorious past that has been covered by dust where once the merchants and their goods traversed. The venue for the Silk and Spices Festival is historic cities such as Samarkand and Bukhara where the ancient Silk Road of the country with its entire handicrafts and food is revealed. The festival draws in both local and international tourists and visitors alike. The annual Sharq Taronalari international music festival has become famous for its role in fostering cross-cultural relations and uniting artists from every part of the earth.world. (Elham Cheraghi,Zahed Ghaderi,Mohammadhossein Dehghan,Pour Farashah,Mironshokh Uktamov, 2025) Anyone who visits these festivals would find them a bit more than just a fun place to be, but still, the massive increase in popularity has still not led to substantial empirical studies that can capture their impacts on visitors' behavior, satisfaction, and spending. There is a knowledge gap regarding the connection between cultural events and tourism development due to the fact that most of the existing studies focus on either general tourism trends or festival organization rather than cultural events (Amiriddinova, 2024). The concepts of destination image formation and event tourism theory are central to this study. Based on the event tourism theory, festivals do not serve merely as attractions, but, to some extent, also as originators, thereby having an impact on the decision-making

process and behavior of the tourists. (Getz, 2010). The same way, destination image theory claims that festivals strongly affect the consumers' perceptions, the extent of their happiness, and their decision to return in the future. (Gartner, 1993). This framework would provide a means for studying the impact of cultural festivals on tourist satisfaction and therefore on the attractiveness of Uzbekistan.

A significant factor that impacts the tourism sector by festivals is displaying the different cultural characteristics and their lives in a region. Festivals are the core of cultural tourism, and they also create and promote economic benefits while fostering the development of national heritage and unity. The rise in travelers' demand for genuine and deep experiences has recently made festival tourism one of the most dynamic sectors of the global tourist industry. ((Crompton J.)). Festivals are a major attraction for travelers but more than that, they are a means by which the place develops character through the connection created between the visitors and the local community. The festivals contribute significantly to the image of Uzbekistan as a hospitable and culturally rich country where it is nice to visit. The government initiatives that support culture and event tourism are very important but so is the diversification of the tourism sector. The festivals like Sharq Taronalari (Melodies of the East) in Samarkand, Silk and Spices Festival in Bukhara, and Boysun Bahori in Surkhandarya which incorporate music, art, food, and crafts are luring not only local visitors but also those from abroad. Through these events, Uzbekistan is not only promoting herself on the world tourism map but also allowing the tourists to discover its nonconformist cultural values.(UNWTO, 2021).

Methodology

The main goal of this research was to uncover the long-term trajectory of festival development along with the corresponding increase in tourism by marking the years 2000 to 2025.The main indicators of demand for travel are the arrivals of local and foreign visitors to Samarkand, which are the dependent variables of the study.

Results

Festivals that have strong cultural branding and are marketed worldwide are the most effective in attracting international travellers. (Laing, 2018). The study not only showed through its analysis that the dates of the festival are one of the elements luring tourists to a particular place, but it also further proved that the average duration of tourists' stay was lengthened due to the festivals they planned to attend. Besides, there was a significant association between the periods of the specific festivals and the tourism revenue, meaning that the tourists were

spending more on accommodation, food, transport, and cultural goods. The two main factors that determined the number of visitors the most were the accessibility of transport and the ease of getting a visa; these factors support the argument that the success of a festival is wholly dependent on the underlying proper infrastructure and legal measures in place. However, the economic conditions in the tourists' countries of origin also influence their travel decisions, whereas changes in the exchange rate have a negligible impact. In conclusion, the findings of the research confirmed that the festivals have a very significant impact on the demand for tourist services in Samarkand. (Donald Getz, Stephen J, 2016).

Conclusion

Festivals are the primary factor in travelers' choice of Samarkand and at the same time, they are behind the remarkable increase of the city's tourism. Moreover, besides uplifting the destination's reputation, festivals draw in more tourists, extend their stay and, therefore, increase revenue for local businesses. The conclusions of the research emphasize the strategic function of festivals in luring tourists and increasing the appeal of Samarkand as a travel destination. The event tourism literature asserts that festivals provide one-of-a-kind cultural experiences that make places different from others and also create emotional bonds between the tourists and the places. The city as a UNESCO World Heritage site, the festivals are legitimate with the celebration of history, culture, and customs of Samarkand. Besides, the hotels' monthly guest statistics show that the influx of tourists due to festivals' demand is very high, indicating that the tourists are keen on the cultural events as well as the historical sites. The time spent by the visitors was one of the main reasons for the festivals' capability of stimulating visitors' deeper interaction with the place and, thus, esoteric economic impacts.

Reference

1. Amiriddinova, M. Z. K. (2024). Mechanism for Managing Catering Service Improvement and Its Impact on the Economy. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, *5*(6), 390-397.

2. Crompton, J. (n.d.). motivations for pleasure vacation. *Annuals of Tourism Reaserch*, 408-428.

3. Donald Getz, Stephen J. (2016). Progress and prospects for event tourism research. *Science Direct*, 593-631.

4. Duarte, P. (2018). Event tourism analysis and state of the art. *Coeasu journal*, 9.

5. Elham Cheraghi,Zahed Ghaderi,Mohammadhossein Dehghan,Pour Farashah,Mironshokh Uktamov. (2025). Navruz as a cultural asset in Central Asians state. *Taylor and Francis*.

6. Getz, D. (2019). Event tourism:Definition,evolution, and research. Tourism Management. 403-428.

7. Laing, J. (2018). Festival and event tourism research. *Science Direct*, 165-168.

8. Lee,Y & Arcodia,C. (2016). Developing of typology of cultural festivals.Multiple case study.

9. Nurullayev, H. (2025). The importance of cultural traditions in the development of tourism and economic growth in Uzbekistan. *Conference of modern science and pedagogy*.

10. Quinn, B. (2020). Festivals,events, and tourism An emerging resesarch area. *Journal of policy Research in tourm*, 142-159.

BYUROKRATIK TO‘SIQLARNI BARTARAF ETISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR MEXANIZMLARINING AHAMIYATI

Asadova Malika Ulug‘bek qizi
malikaortykbayeva@gmail.com,

Annotatsiya. *Mazkur ishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi “Davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi asosida ishga tushirilgan “Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturini amalga oshirishda jamoatchilik bilan aloqalar (PR) mexanizmlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Dastur doirasida olib borilayotgan ishlar, jumladan, davlat xizmatlarini soddalashtirish va raqamlashtirish, ortiqcha tartib-taomillarni qisqartirish hamda “Zero Bureaucracy” raqamli platformasi orqali takliflarni yig‘ish jarayonlarini aholiga yetkazishda PR vositalarining imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, amaliy tajriba asosida ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va aholi bilan bevosita muloqot orqali olib borilayotgan axborot-tushuntirish ishlarining samaradorligi baholangan.*

Kalit so‘zlar: *byurokratiya, jamoatchilik bilan aloqalar, raqamli transformatsiya, davlat xizmatlari, platforma, shaffoflik.*

Аннотация*: В работе анализируются роль и значение механизмов связей с общественностью (PR) в реализации программы “Устранение бюрократии – 2030”, запущенной на основании распоряжения Президента Республики Узбекистан от 28 ноября 2025 года “Об организационных мерах, направленных на цифровую трансформацию и повышение эффективности государственного управления”. Раскрываются возможности PR-инструментов в донесении до населения мер, реализуемых в рамках программы, в том числе упрощения и цифровизации государственных услуг, сокращения избыточных процедур, а также сбора предложений через цифровую платформу “Zero Bureaucracy”. На основе практического опыта оценивается эффективность информационно-разъяснительной работы, проводимой через социальные сети, средства массовой информации и в ходе непосредственного общения с населением.*

Ключевые слова: *бюрократия, связи с общественностью, цифровая трансформация, государственные услуги, платформа, прозрачность.*

Abstract: *This paper analyzes the role and importance of public relations (PR) mechanisms in implementing the "Eliminating Bureaucracy – 2030" program, launched under the Presidential Order of the Republic of Uzbekistan of November 28, 2025, "On organizational measures aimed at the digital transformation and improving the efficiency of public administration." It explores how PR tools can help communicate the program's measures to the public, including the simplification and digitalization of public services, the reduction of unnecessary procedures, and the collection of proposals through the Zero Bureaucracy digital platform. Drawing on practical experience, the paper assesses the effectiveness of outreach activities conducted through social media, the mass media, and direct engagement with citizen.*

Keywords: *bureaucracy, "public relations, digital transformation, public services, platform, transparency.*

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruvini takomillashtirish, davlat xizmatlarini aholiga yanada qulay va samarali ko‘rsatish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda davlat organlarining fuqarolar va tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatuvchi tizim sifatida faoliyat yuritishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ortiqcha hujjat talab qilish, murakkab tartib-taomillar, bir masalani hal qilish uchun bir nechta idoraga murojaat qilish zarurati kabi byurokratik holatlar hali ham uchrab turibdi. Bunday muammolar fuqarolar va tadbirkorlarning davlat organlari faoliyatiga bo‘lgan ishonchiga ta’sir qilishi mumkin.

Ushbu muammolarni tizimli hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi farmoyishi bilan 2026-yil 1-yanvardan boshlab “Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturi ishga tushirildi. Dastur davlat xizmatlarini soddalashtirish va raqamlashtirish, ortiqcha majburiyatlarni qisqartirish hamda davlat, aholi va biznes o‘rtasida raqamli muloqotni yo‘lga qo‘yishni nazarda tutadi.

Mazkur maqsadga erishish uchun uchta ustuvor vazifa belgilangan. Birinchisi, 2030-yilga qadar mavjud 1043 ta davlat xizmatining 95 foizini onlayn shaklga o‘tkazish. Hozirgi vaqtda ularning 227 tasi hali an’anaviy tarzda ko‘rsatilmoqda. Ikkinchisi, fuqaroning masalasini hal qilishda bir nechta idora ishtirok etsa, ular o‘zaro hamkorlikda ishlab, xizmatni kompozit shaklda, ya’ni

“bir darcha” orqali taqdim etishi. Uchinchisi, ushbu sohadagi eng yaxshi 50 ta g‘oyani tanlab, mualliflarini pul mukofoti bilan rag‘batlantirish orqali jamoatchilikni islohotlarga jalb qilish.

O‘zgarishlar ko‘lamini amaliy misollar yaqqol ko‘rsatadi. Ilgari oliygohdan to‘lov-kontrakt shartnomasini olish uchun bir necha kun, keyinroq esa bir necha soat vaqt sarflangan bo‘lsa, bugun bu xizmat to‘liq onlayn tarzda olinmoqda. Pensiyaga chiqish yoki xorijga chiqish stikerini rasmiylashtirish uchun fuqarolar oylab ovora bo‘lgan davrlar ham ortda qoldi: xorijga chiqish stikeri butunlay bekor qilindi. Talabalarga ko‘rsatiladigan ikkita alohida xizmat birlashtirildi, endi talaba yotoqxonaga joylashganda yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tish avtomatik amalga oshiriladi. Bu har yili kamida 200 ming nafar talabaning vaqtini tejaydi. Shuningdek, yoshga doir va nogironlik pensiyalarini fuqaroning arizasini kutmasdan, proaktiv tarzda tayinlash imkoniyati yaratildi.

Ushbu jarayon alohida davlat xizmatlarini raqamlashtirish bilangina cheklanmay, davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Fuqarolar va tadbirkorlarning murojaatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud muammolarning aksariyati faqat bitta idora doirasida hal etilmaydi va ularni bartaraf etish bir nechta davlat organlarining hamkorligini talab qiladi. Shu bois byurokratik to‘siqlarni kamaytirishda alohida xizmat yoki jarayonni soddalashtirish bilan bir qatorda, fuqaroning muammosini aniqlashdan boshlab uni to‘liq hal etishgacha bo‘lgan jarayonni kompleks qayta ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayonda jamoatchilik bilan aloqalar mexanizmlari alohida o‘rin tutadi. Chunki byurokratik to‘siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishda fuqarolar, tadbirkorlar hamda davlat organlari o‘rtasida samarali va muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yish zarur. Shu maqsadda vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda aholiga amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud imkoniyatlar va murojaat qilish mexanizmlari haqida axborot yetkazish, fuqarolarning taklif va muammolarini o‘rganish hamda jamoatchilik fikrini tegishli jarayonlarga yo‘naltirish bo‘yicha targ‘ibot va axborot-tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bunday hamkorlik nafaqat amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning ochiqligini ta’minlash, balki fuqarolarning islohotlardagi ishtirokini kuchaytirish va amaliy muammolarni aniqlashga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvning amaliy ko‘rinishlaridan biri sifatida “Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturi doirasida 2026-yil 21-sentabrdan 20-noyabrga qadar “Byurokratiyasiz O‘zbekiston” jamoatchilik tashabbusi o‘tkazilmoqda. Tashabbusning asosiy maqsadi fuqarolar va tadbirkorlar davlat

organlariga murojaat qilish jarayonida duch kelayotgan byurokratik to‘siqlarni aniqlash, ular orasida eng dolzarb muammolarni saralash hamda jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflarni amaliy islohotlarga yo‘naltirishdan iborat.

O‘zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya, masofaviy bank xizmatlari, avtomatlashtirilgan risk nazorati va platformaviy biznes modellarning kengayishi tijorat banklarida innovatsion faoliyatni boshqarish mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy bankda innovatsiya faqat yangi mobil ilova yoki axborot tizimini joriy etish bilan cheklanmaydi. U korporativ strategiya, kapital taqsimoti, kredit risklari, operatsion jarayonlar, mijoz tajribasi, ma’lumotlarni boshqarish va hududiy tarmoq faoliyatini yagona boshqaruv sikliga birlashtirishni talab qiladi [1].

Shu sababli aksiyadorlik tijorat banklarida innovatsion boshqaruv tizimini o‘rganishda texnologik yechimlarning mavjudligidan tashqari, innovatsion tashabbuslarning qayerda shakllanishi, qanday mezonlar asosida saralanishi, kim tomonidan moliyalashtirilishi, risklari qanday baholanishi va yakuniy natijalari qaysi ko‘rsatkichlar orqali nazorat qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion loyiha bankning biznes modeli yoki kapital sarfiga sezilarli ta’sir qiladigan bo‘lsa, uni faqat texnik bo‘linma darajasida hal qilish yetarli emas; loyiha korporativ strategiya va bankning risk appetiti bilan muvofiqlashtirilishi lozim [1].

“Agrobank” ATB O‘zbekiston Respublikasidagi yirik aksiyadorlik tijorat banklaridan biri bo‘lib, uning tashkiliy ko‘lami innovatsion qarorlarni korporativ boshqaruv organlari orqali muvofiqlashtirishni talab etadi. Dissertatsiyada keltirilgan rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, bank 170 ta filial, 24 ta bank xizmatlari markazi, 154 ta smart-ofis va 729 ta 24/7 o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish punktlariga ega [2]. Bunday keng tarmoq yangi texnologiyani markaziy ofisda yaratish bilan cheklanmasdan, uni hududlar bo‘ylab standartlashtirish, xodimlarni o‘qitish, texnik qo‘llab-quvvatlash va mijozlarning qabul qilish darajasini nazorat qilishni talab etadi.

Bankning rasmiy ochiq ma’lumotlarida “innovatsion boshqaruv departamenti” nomi bilan yagona alohida organ ko‘rsatilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda Agrobankning innovatsion boshqaruv tizimi korporativ boshqaruv organlari, raqamli texnologiyalar, mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish, risk-menejment, komplayens, moliyaviy boshqaruv va hududiy ijro tizimlari o‘rtasidagi funksional aloqalar majmui sifatida talqin qilinadi [1]. Bu yondashuv innovatsiyani faqat IT loyihasi emas, balki tashkiliy, mahsulot, jarayon, risk va boshqaruv innovatsiyalarining yig‘indisi sifatida baholash imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi “Agrobank” ATBda innovatsion boshqaruv tizimining amaldagi funksional tuzilishini aniqlash, raqamli transformatsiya va korporativ boshqaruv elementlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish, 2023–2024-yillardagi moliyaviy natijalar fonida innovatsion boshqaruv samaradorligining muammoli jihatlarini yoritish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflarni shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, Agrobank misolida innovatsion boshqaruvni texnologik joriy etishdan natijaga yo‘naltirilgan korporativ boshqaruv tizimiga o‘tkazish zarurati asoslanadi. Bunda innovatsion loyiha muvaffaqiyati “joriy etildi” yoki “foydalanuvchilar soni oshdi” kabi texnik output ko‘rsatkichlari bilan emas, balki operatsion xarajat, komissiya daromadi, kredit portfeli sifati, NPL, mijoz faolligi, jarayon tezligi va rentabellik kabi outcome va impact ko‘rsatkichlari bilan baholanishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Innovatsion faoliyatni boshqarish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarda innovatsiya tashkilotning alohida texnik funksiyasi emas, balki strategik maqsadlar, resurslar, risklar va natijalarni bog‘lovchi uzluksiz boshqaruv jarayoni sifatida qaraladi. Aksiyadorlik jamiyatlari sharoitida ushbu jarayon korporativ boshqaruv organlari vakolatlari bilan bevosita bog‘liq, chunki yirik innovatsion loyihalar kapital xarajatlar, aksiyadorlar qiymati va risk profiliga ta’sir ko‘rsatadi.

Bank sektorida innovatsion boshqaruvning o‘ziga xosligi shundaki, texnologik yangilik moliyaviy vositachilik, prudensial talablar, ma’lumotlar maxfiyligi va kredit risklari bilan bir vaqtda uyg‘unlashtirilishi kerak. Shu sababli bankdagi raqamli transformatsiyani faqat yangi dasturiy ta’minot yoki mobil kanal sifatida baholash yetarli emas. Innovatsion tashabbusning bank strategiyasiga mosligi, iqtisodiy qaytimi, riskka ta’siri va masshtablash imkoniyati ham baholanishi lozim.

Dissertatsiyada “Agrobank” ATB innovatsion boshqaruvini tahlil qilishda korporativ boshqaruv arxitekturasi asosiy institutsional baza sifatida ko‘rsatiladi. Bankning aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi strategik maqsadlarni belgilash, investitsion chegaralarni tasdiqlash, ijro mexanizmlarini tashkil etish va natijalar ustidan korporativ nazoratni ta’minlaydi [3]. Innovatsion faoliyatning keyingi operatsion qatlami esa IT va raqamli transformatsiya, biznes, risk, komplayens, moliya hamda hududiy tarmoq funksiyalaridan tashkil topadi.

Raqamli transformatsiya innovatsion boshqaruvning markaziy elementlaridan biridir. “Agrobank” ATB bo‘yicha ochiq ma’lumotlarda elektron hujjat almashinuvi tizimi amalda qo‘llanayotgani qayd etilgan. 2024-yilda korrupsiyaga oid murojaatlarning 162 tasi bankning elektron hujjat almashish tizimi orqali qabul qilingan [4]. Bu EDO tizimining hujjat aylanishidan tashqari nazorat, hisobdorlik va audit izi kabi boshqaruv funksiyalariga ham integratsiyalashganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, bankning 2024-yilgi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi bo‘yicha hisobotida kredit ajratish jarayonida inson omilini kamaytirish maqsadida mobil ilova va boshqa elektron dasturlar orqali kredit mablag‘larini ajratish tizimi joriy etilgani ko‘rsatilgan [5]. Ushbu amaliyot jarayon innovatsiyasining muhim ko‘rinishi bo‘lib, kreditlash tezligi, standartlashtirish, nazorat va mijoz tajribasiga ta’sir qilishi mumkin.

Dissertatsiyada OAK portalida e’lon qilingan boshqa tadqiqot natijalariga ham murojaat qilinib, tijorat banklarida FinTech va RegTech texnologiyalari, Big Data va Machine Learning algoritmlari asosida risklarni real vaqt rejimida prognozlash, stress-testlarni avtomatlashtirish va erta ogohlantirish indikatorlaridan foydalanishga asoslangan yondashuvlarning ayrim natijalari Agrobank faoliyatiga joriy etilgani qayd etiladi [6]. Bu innovatsion boshqaruvning risk funksiyasiga ham kirib borayotganini ko‘rsatadi.

Mavjud yondashuvlarni umumlashtirish “Agrobank” ATB uchun innovatsion boshqaruvni uchta o‘zaro bog‘liq darajada ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi: birinchisi – korporativ strategiya va nazorat; ikkinchisi – innovatsion loyiha va portfel boshqaruvi; uchinchisi – operatsion joriy etish va natijalarni o‘lchash. Ushbu uch daraja o‘rtasida aniq javobgarlik va qayta aloqa bo‘lmasa, texnologik tashabbus biznes natijasidan uzilib qolishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada innovatsion boshqaruv samaradorligi faqat raqamli infratuzilmaning mavjudligi bilan emas, balki tashabbuslarning strategik maqsadlarga mosligi, moliyaviy natija bilan

bog‘lanishi, risk nazorati, hududiy masshtablash va post-implementation review mexanizmlarining mavjudligi bilan baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil, institutsional yondashuv va funksional dekompozitsiya usullaridan foydalanildi. Asosiy empirik baza sifatida dissertatsiyada tizimlashtirilgan “Agrobank” ATBning ochiq tashkiliy va korporativ ma’lumotlari, 2023–2024-yillik hisobotlari, elektron jarayonlar bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar hamda muallifning tahliliy ishlanmalari qabul qilindi [1–5].

Funksional tahlilda innovatsion boshqaruv besh darajaga ajratildi: aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi; Kuzatuv kengashi; Bank boshqaruvi; IT/raqamli transformatsiya, biznes, risk, komplayens va moliya funksiyalari; hududiy boshqarmalar, filiallar, smart-ofislar va raqamli kanallar. Har bir darajaning innovatsion jarayondagi vazifasi strategik qaror, resurs taqsimoti, ekspertiza, integratsiya, monitoring va amaliy joriy etish mezonlari bo‘yicha baholandi.

Moliyaviy tahlilda 2023 va 2024-yillar bo‘yicha jami aktivlar, kredit va lizing operatsiyalari, o‘z kapitali, foiz daromadlari, komissiya va xizmat haqlaridan daromad hamda sof foyda ko‘rsatkichlarining dinamikasi o‘rganildi. O‘zgarish sur’ati $\Delta X=(X_t-X_{t-1})/X_{t-1}\times 100$ formula asosida talqin qilindi. Mazkur tahlil innovatsion boshqaruvning iqtisodiy kontekstini aniqlashga xizmat qiladi, biroq ochiq manbalarda har bir innovatsion loyiha budjeti va uning sof iqtisodiy samarasi alohida ochiqlanmagani sababli bevosita sababiy bog‘liqlik da’vo qilinmaydi.

Metodologiyaning muhim cheklovi shundaki, Agrobankning ochiq hisobotlarida innovatsion portfelning to‘liq reyestri, IT va raqamli loyihalar bo‘yicha investitsiya miqdori, loyiha egasi, individual KPI, ROI va yakuniy post-audit natijalari batafsil ajratib ko‘rsatilmagan. Shu sababli maqolada innovatsion boshqaruv tuzilishi rasmiy tashkiliy ma’lumotlar, tasdiqlangan raqamlashtirish faktlari va moliyaviy hisobotlarni o‘zaro bog‘lash orqali baholandi. Sababiy bog‘liqlikni isbotlash mumkin bo‘lmagan holatlarda natijalar ehtiyotkor talqin qilindi.

Takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishda muammo–vosita–natija mantiqiy modeli qo‘llanildi. Bunda aniqlangan har bir boshqaruv muammosi uchun uni bartaraf etuvchi vosita va kutiladigan boshqaruv natijasi moslashtirildi. Xususan, innovatsion KPIlarning cheklanganligi uchun yagona portfel reyestri va dashboard; texnologiya bilan biznes natijasi o‘rtasidagi uzilish uchun benefit-realization va post-audit; hududiy masshtablash murakkabligi uchun pilot–

masshtab metodikasi va adoption KPI; funksiyalararo koordinatsiya uchun RACI va Stage-Gate yondashuvi taklif qilindi.

Tahlil va natijalar

“Agrobank” ATBda innovatsion boshqaruv tizimining funksional tuzilishini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyat bankning bir nechta boshqaruv pog‘onalari va funksional yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqaga asoslanadi. Innovatsion loyiha qanchalik yirik va strategik bo‘lsa, uning korporativ boshqaruv darajasida muvofiqlashtirilishi shunchalik muhim bo‘ladi.

1-jadval.

“Agrobank” ATBda innovatsion boshqaruvning funksional tuzilishi

Boshqaruv darajasi	Asosiy subyekt	Innovatsion boshqaruvdagi funksiyasi
1-daraja	Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi	Korporativ rivojlanishning umumiy yo‘nalishlari va yirik korporativ qarorlar
2-daraja	Kuzatuv kengashi	Strategiya, risklar, yirik investitsiyalar va ijro organi faoliyati ustidan nazorat
3-daraja	Bank boshqaruvi	Strategiyani amaliy dastur va loyihalarga aylantirish, resurslarni taqsimlash
4-daraja	IT/raqamli transformatsiya, biznes, risk, komplayens, moliya	Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish, ekspertiza, integratsiya va monitoring
5-daraja	Hududiy boshqarmalar, filiallar, smart-ofislar va raqamli kanallar	Yangi mahsulot va jarayonlarni amaliyotga joriy etish, mijozlar bilan qayta aloqa

Manba: dissertatsiyada “Agrobank” ATBning ochiq tashkiliy va korporativ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan [1; 2].

1-jadvalda keltirilgan tuzilmaning muhim xususiyati innovatsion tashabbuslarning ikki yo‘nalishda – “yuqoridan pastga” va “pastdan yuqoriga” harakatlanishidir. Yuqori boshqaruv darajasida bank strategiyasi, kapital chegaralari va risk cheklovlari shakllantiriladi. Operatsion darajada esa mijozlarning ehtiyojlari, texnologik muammolar, kreditlashdagi kechikishlar yoki yangi xizmat imkoniyatlari aniqlanib, loyiha tashabbusiga aylantiriladi.

Samarali innovatsion tizimda ushbu ikki oqim strategik ustuvorliklar va real operatsion muammolar kesishgan nuqtada birlashishi lozim.

“Agrobank” ATBning keng hududiy tarmog‘i innovatsion boshqaruv uchun bir vaqtning o‘zida imkoniyat va murakkablik yaratadi. 170 ta filial, 154 ta smart-ofis va yuzlab o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish punktlari mavjud tizimda yangi texnologiya markaziy ofisdagi pilot bilan yakunlanmaydi. Dasturiy integratsiya, xodimlarni o‘qitish, mijozlarga tushuntirish, texnik yordam va hududlar bo‘yicha natijalarni kuzatish talab qilinadi. Shuning uchun innovatsion loyiha budjetida masshtablash xarajati va o‘zlashtirish darajasi alohida ko‘rsatkich sifatida nazorat qilinishi kerak [2].

Hududiy tarmoq innovatsiyalar uchun muhim qayta aloqa manbai ham hisoblanadi. Filiallar va smart-ofislar mijozlar duch kelayotgan real muammolar, yangi mahsulotlarga talab va jarayondagi ortiqcha bosqichlar haqida ma’lumot to‘playdi. Ushbu ma’lumot markaziy innovatsion portfelga tizimli ravishda qaytarilsa, innovatsiyalar faqat rahbariyat tashabbusi emas, balki mijoz va xodim ehtiyojlaridan kelib chiqadigan uzluksiz jarayonga aylanishi mumkin. Buning uchun “g‘oya banki”, standart taklif formasi va istiqbolli tashabbuslarni tezkor pilotga chiqarish mexanizmi maqsadga muvofiq.

2-jadval.

“Agrobank” ATBning ayrim moliyaviy ko‘rsatkichlari, 2023–2024-yillar

Ko‘rsatkich	2023	2024	O‘zgarish, %
Jami aktivlar, mlrd so‘m	66 699,7	79 403,8	19,0
Kredit va lizing operatsiyalari, mlrd so‘m	54 126,1	58 445,9	8,0
O‘z kapitali, mlrd so‘m	12 296,9	12 426,8	1,1
Foiz daromadlari, mlrd so‘m	11 309,6	14 671,3	29,7
Komissiya va xizmat haqlaridan daromad, mlrd so‘m	752,8	882,8	17,3
Sof foyda, mlrd so‘m	750,9	69,0	-90,8

Manba: Openinfo portalidagi Agrobankning 2023 va 2024-yil yillik hisobotlari asosida dissertatsiya muallifi hisob-kitobi [3; 7].

2-jadval ma’lumotlari “Agrobank” ATB faoliyati ko‘lami 2023–2024-yillarda sezilarli kengayganini ko‘rsatadi. Jami aktivlar 66 699,7 mlrd so‘mdan 79 403,8 mlrd so‘mga yoki 19,0 foizga oshgan. Kredit va lizing operatsiyalari 8,0 foiz, o‘z kapitali 1,1 foizga ko‘paygan. Foiz daromadlarining 29,7 foiz va komissiya daromadlarining 17,3 foizga o‘sishi bankning daromad yaratish ko‘lami kengayganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, sof foyda 750,9 mlrd so‘mdan 69,0 mlrd so‘mgacha, ya’ni 90,8 foizga kamaygan. Ushbu holat innovatsion boshqaruv samaradorligini faqat aktivlar o‘sishi, yangi xizmatlar yoki raqamli kanallar soni bilan baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Innovatsion loyihalar yakuniy foyda, xarajat, risk va kapital samaradorligi bilan bog‘lanishi kerak.

Bankdagi elektron hujjat almashinuvi va elektron kreditlash elementlari jarayon innovatsiyalarining amaliy bazasi shakllanganini ko‘rsatadi. Elektron hujjat aylanishi qarorlar izchilligini qayd etish, ijro intizomini nazorat qilish, axborotni tezkor uzatish va audit izini shakllantirishga xizmat qiladi. Mobil ilova va elektron dasturlar orqali kredit ajratish esa inson omilini kamaytirish, standartlashtirish va xizmat tezligini oshirish imkoniyatini yaratadi [4; 5].

“Agrobank” ATBdagi innovatsion boshqaruv tizimining kuchli jihatlaridan biri raqamli xizmat infratuzilmasining kengligi va jarayonlarni elektronlashtirish bo‘yicha amaliy tajribaning mavjudligidir. Smart-ofislar, 24/7 xizmat punktlari, elektron hujjat almashinuvi va elektron kreditlash elementlari bankda raqamli transformatsiya uchun zarur texnologik va tashkiliy baza shakllanganini ko‘rsatadi [2; 4; 5].

Ikkinchi kuchli jihat korporativ boshqaruv va oshkoralik infratuzilmasidir. Bankning yillik hisobotlari, moliyaviy natijalari, Kuzatuv kengashi va boshqaruv tarkibi ochiq e’lon qilinadi [3]. Bu yirik texnologik investitsiyalarni moliyaviy va risk natijalari bilan bog‘langan holda ko‘rib chiqish uchun institutsional asos yaratadi.

Biroq ochiq hisobotlarda innovatsion portfelning alohida KPIlari, IT va raqamli loyihalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hamda ularning iqtisodiy qaytimi batafsil ajratib ko‘rsatilmagan. Natijada tashqi tahlilchi uchun innovatsion investitsiyaning sof ta’sirini aniqlash cheklangan. Ushbu cheklov bank ichki boshqaruvida ham loyiha natijalarini yagona standart asosida qayd etish va post-audit qilish zarurligini ko‘rsatadi.

3-jadval.

“Agrobank” ATBda innovatsion loyihalarni boshqarish uchun tavsiya etiladigan KPIlar

KPI guruhi	Ko‘rsatkich	Hisoblash mazmuni	Boshqaruv qarori
Raqamli qamrov	Raqamli kanalda faol mijozlar ulushi	Faol raqamli mijozlar / faol mijozlar	Kanal investitsiyasini baholash
Jarayon tezligi	Kredit arizasini ko‘rib chiqish vaqti	Arizadan qarorgacha o‘rtacha vaqt	Avtomatlashtirish darajasini oshirish
Operatsion samara	Bir tranzaksiya/xizmat tannarxi	Xarajat / operatsiyalar soni	Jarayonni optimallashtirish
Moliyaviy natija	Innovatsion ROI	Loyiha foydasi / investitsiya	Portfelga resurs taqsimlash
Risk	NPL va cost of risk	Muammoli kreditlar va risk xarajati	Scoring/EWSni takomillashtirish
Mijoz natijasi	Faollik va retention	Faol qolgan mijozlar ulushi	Personalizatsiya va servis qarori
Joriy etish	Adoption rate	Yangi yechimdan foydalanuvchilar / maqsadli guruh	Pilotni masshtablash yoki qayta dizayn

Manba: mualliflik takliflari asosida tuzildi.

KPI tizimining asosiy vazifasi innovatsion loyihani texnik outputdan biznes outcome va korporativ impact darajasiga olib chiqishdir. Masalan, yangi mobil funksiya ishga tushirilgani output bo‘lsa, uning faol foydalanilishi outcome, operatsion xarajat yoki komissiya daromadiga ta’siri esa impact sifatida qaraladi. Bunday ko‘p bosqichli o‘lchov innovatsion loyihalar o‘rtasida resurslarni iqtisodiy samara asosida qayta taqsimlash imkonini beradi.

“Agrobank” ATB uchun riskka yo‘naltirilgan innovatsion boshqaruv ham alohida ahamiyatga ega. Dissertatsiyada FinTech, RegTech, Big Data va Machine Learning asosidagi risklarni real vaqt rejimida prognozlash, stress-testlarni avtomatlashtirish va erta ogohlantirish indikatorlaridan foydalanish bo‘yicha amaliy yo‘nalishlar qayd etilgan [6]. Bunday texnologiyalar kredit portfelidagi salbiy o‘zgarishlarni kechikkan hisobotlardan oldinroq aniqlash, segmentlar bo‘yicha chuqur tahlil va ssenariylarni tez qayta hisoblash imkonini beradi.

Shu bilan birga, AI va analitik modellarning joriy etilishi model riskini ham yuzaga keltiradi. Modelning tushuntirilishi, ma’lumotlar sifati, tarafkashlik, model drift va kiberxavfsizlik nazorat qilinmasa, texnologik yangilik yangi risk

manbaiga aylanishi mumkin. Shu sababli Agrobank innovatsion boshqaruv tizimida model risk management elementi shakllantirilishi, muhim model uchun egasi, ma’lumot manbasi, versiya, validatsiya natijasi, qo‘llanish sohasi va monitoring ko‘rsatkichlari belgilanishi maqsadga muvofiq.

Ma’lumotlarni boshqarish innovatsion tizimning yana bir tayanch elementidir. Yagona data platformasi mavjud bo‘lmagan yoki ma’lumotlar bo‘linmalar kesimida fragmentatsiyalangan sharoitda mijoz analitikasi, AI scoring va boshqaruv dashboardlarining sifati cheklanadi. Shu sababli ma’lumot egasi, ma’lumot lug‘ati, sifat mezonlari, kirish huquqlari, saqlash muddati va audit izini belgilovchi data governance modeli innovatsion boshqaruv infratuzilmasining bir qismi bo‘lishi kerak.

Innovatsion madaniyat va kadrlar kompetensiyasi ham texnologik investitsiya samaradorligini belgilaydi. Bank yangi texnologiyani sotib olishi mumkin, biroq xodimlar uni kundalik jarayonda to‘liq qo‘llamasa, kutilgan iqtisodiy natija yuzaga kelmaydi. Shu sababli yirik innovatsion loyiha texnik joriy etish bilan birga o‘qitish, o‘zgarishlarni boshqarish, ichki kommunikatsiya va foydalanuvchi qabul qilish rejasiga ega bo‘lishi kerak.

4-jadval.

“Agrobank” ATB innovatsion boshqaruv tizimining muammolari va takomillashtirish yo‘nalishlari

Aniqlangan masala	Boshqaruvdagi oqibat	Taklif etiladigan yechim	Kutiladigan natija
Innovatsion loyihalar bo‘yicha yagona KPI tizimi cheklangan	Loyiha natijasini taqqoslash qiyin	Yagona innovatsion portfel reyestri va dashboard	Shaffoflik va resurslarni qayta taqsimlash
Texnologiya va biznes natijasi o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarli o‘lchanmasligi mumkin	Raqamli ko‘rsatkichlar moliyaviy natijadan uziladi	Benefit-realization va post-audit	Innovatsion ROI aniqligi
Keng hududiy tarmoq	Masshtablash murakkabligi	Pilot–masshtab metodikasi va adoption KPI	Joriy etish tezligi va bir xilligi
Legacy tizimlar va integratsiya ehtiyoji	Takroriy xarajat va ma’lumot fragmentatsiyasi	Raqamli konsolidatsiya va API arxitekturasi	Tannarx va integratsiya xarajatlarini kamaytirish

AI/analitika risklari	Model xatosi va tushuntirish muammosi	Model risk management va validatsiya	Nazorat qilinadigan AI qo‘llanilishi
Funksiyalararo koordinatsiya	Loyiha kechikishi va javobgarlik noaniqligi	RACI va Stage-Gate boshqaruvi	Qaror tezligi va hisobdorlik

Manba: muallif tahlili.

4-jadvaldagi muammolar innovatsion boshqaruvni institutsionallashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Bankda innovatsion loyiha reyestri shakllantirilsa, har bir loyiha uchun maqsad, loyiha egasi, budjet, muddat, strategik ustuvorlik, risk darajasi, KPI va kutiladigan iqtisodiy natija bir xil formatda qayd etilishi mumkin. Bu Kuzatuv kengashi va Bank boshqaruviga portfelni individual loyihalar yig‘indisi emas, yagona kapital va risk portfeli sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Stage-Gate yondashuvi yirik innovatsion loyihalarni birdaniga to‘liq moliyalashtirish o‘rniga bosqichma-bosqich qaror qilishga yordam beradi. G‘oya, konsepsiya, pilot, masshtablash va post-audit bosqichlarida alohida qaror nuqtalari belgilanadi. Har bir bosqichdan keyin loyiha davom ettirilishi, qayta dizayn qilinishi yoki to‘xtatilishi mumkin. Bu yuqori noaniqlikka ega innovatsion loyihalarda kapital yo‘qotish xavfini kamaytiradi.

Pilot–masshtab mexanizmi “Agrobank” ATBning hududiy tarmog‘i uchun ayniqsa muhim. Yangi xizmat avval cheklangan filiallar yoki mijoz segmentida sinovdan o‘tkazilib, texnik barqarorlik, foydalanuvchi qabul qilishi, jarayon vaqti va iqtisodiy samara o‘lchanadi. Faqat oldindan belgilangan mezonlar bajarilgandan so‘ng loyiha butun tarmoqqa kengaytiriladi. Bu masshtablash xarajatlarini boshqarish va hududlar o‘rtasidagi joriy etish tafovutlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Post-implementation review yoki post-audit innovatsion loyiha yakunlangandan keyin rejalashtirilgan va haqiqiy natijalarni taqqoslashni nazarda tutadi. Masalan, loyiha kredit arizasini ko‘rib chiqish vaqtini 30 foiz qisqartirish, operatsion xarajatni 10 foiz kamaytirish yoki faol raqamli mijozlar ulushini oshirishni maqsad qilgan bo‘lsa, joriy etilgandan keyin aynan shu ko‘rsatkichlar qayta o‘lchanishi kerak. Natija kutilgan darajaga chiqmasa, sabablar aniqlanib, keyingi loyihalarga qayta aloqa sifatida uzatiladi.

“Agrobank” ATBning 2026–2027-yillar strategiyasi doirasida qayd etilgan raqamli konsolidatsiya yo‘nalishi ushbu boshqaruv modelini shakllantirish uchun institutsional asos bo‘lishi mumkin [8]. Yagona platforma texnik integratsiya bilan cheklanmay, loyiha portfeli, data governance, KPI va post-audit tizimi bilan to‘ldirilsa, innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

yaxlitlashadi. AgroPay, Agromarkaz va boshqa ekotizim elementlari natijalarini komissiya daromadi, mijoz faolligi, operatsion tannarx va kredit riskiga bog‘lab monitoring qilish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning keyingi strategik qismida 2025-yil bazaviy holati sifatida “Agrobank” ATB aktivlari 103 216 mlrd so‘m, kreditlari 80 403 mlrd so‘m, kapitali 13 766 mlrd so‘m, depozitlari 31 166 mlrd so‘m va NPL darajasi 3,4 foiz ekani keltiriladi [9]. Bu ko‘rsatkichlar bankning katta kredit portfeliga ega ekanini va innovatsion boshqaruvda kredit riskini texnologik boshqarish hamda depozit bazasini mustahkamlash iqtisodiy markazda turishi kerakligini ko‘rsatadi.

Mualliflik strategiyasining asosiy tamoyili “raqamlashtirish uchun raqamlashtirish”dan “o‘lchanadigan korporativ qiymat yaratadigan innovatsiya”ga o‘tishdir. Bu yondashuvda yangi texnologiya yoki xizmat muvaffaqiyati uning ishga tushirilgani bilan emas, balki faol foydalanish, operatsion xarajat, depozit bazasi, kredit portfeli sifati, risk va rentabellikka qo‘shgan hissasi bilan baholanadi [9]. Mazkur tamoyil amaldagi innovatsion boshqaruv tuzilmasini takomillashtirishning umumlashtiruvchi yo‘nalishi sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa va takliflar

1. “Agrobank” ATBda innovatsion boshqaruv alohida bitta departament faoliyatidan ko‘ra korporativ boshqaruv organlari, raqamli texnologiyalar, biznes, risk-menejment, komplayens, moliya va hududiy tarmoq o‘rtasidagi funksional aloqalar majmui sifatida shakllangan.

2. Bankning 170 ta filial, 154 ta smart-ofis va 729 ta 24/7 o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish punktidan iborat keng infratuzilmasi innovatsiyalarni ommaviy joriy etish imkoniyatini yaratadi, biroq masshtablash xarajati, xodimlarni o‘qitish va adoption darajasini boshqarishni ham talab qiladi.

3. Elektron hujjat almashinuvi, elektron kreditlash va raqamli xizmat infratuzilmasi Agrobankda jarayonlarni raqamlashtirish bo‘yicha amaliy baza mavjudligini ko‘rsatadi. Keyingi bosqichda ushbu texnologik bazani moliyaviy va risk natijalari bilan bog‘laydigan boshqaruv tizimini kuchaytirish zarur.

4. 2023–2024-yillarda bank aktivlari 19,0 foiz, kredit va lizing operatsiyalari 8,0 foiz, foiz daromadlari 29,7 foiz va komissiya daromadlari 17,3 foizga oshgan, biroq sof foyda 90,8 foizga kamaygan. Bu innovatsion boshqaruvni faqat o‘sish va raqamli qamrov bilan emas, xarajat, risk va yakuniy rentabellik bilan birgalikda baholash zarurligini asoslaydi.

5. Bankda yagona innovatsion portfel reyestri va dashboard joriy etilib, har bir loyiha uchun loyiha egasi, budjet, muddat, strategik maqsad, risk darajasi, KPI,

kutiladigan iqtisodiy samara va post-audit natijasi qayd etilishi maqsadga muvofiq.

6. Innovatsion loyihalar uchun Input–Process–Output–Outcome–Impact mantiqiga asoslangan KPI tizimi shakllantirilishi lozim. Raqamli foydalanuvchilar soni va ishga tushirilgan xizmatlar bilan bir qatorda jarayon vaqti, operatsion tannarx, komissiya daromadi, NPL, cost of risk, mijoz retentioni va innovatsion ROI kuzatilishi kerak.

7. Yirik va noaniqligi yuqori loyihalarda Stage-Gate va pilot–masshtab yondashuvini qo‘llash, katta kapital sarfidan oldin texnik, iqtisodiy va risk mezonlarini pilot bosqichida tekshirish tavsiya etiladi.

8. AI, Big Data va analitik modellar kengaygani sari model risk management va data governance tizimlarini institutsionallashtirish zarur. Har bir muhim modelning egasi, ma’lumot manbasi, versiyasi, validatsiyasi va monitoring ko‘rsatkichlari belgilanishi kerak.

9. Hududiy tarmoqdan innovatsion g‘oyalar va mijoz muammolari bo‘yicha tizimli qayta aloqa olish uchun “g‘oya banki”, standart tashabbus formasi va istiqbolli takliflarni tezkor pilotga chiqarish mexanizmi joriy etilishi maqsadga muvofiq.

10. Agrobank innovatsion boshqaruvining takomillashtirilgan modeli besh ketma-ket blokdan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi: strategik ustuvorliklarni belgilash; g‘oyalarni yagona mezonlar asosida saralash; pilot va bosqichli moliyalashtirish; masshtablash va operatsion integratsiya; moliyaviy, risk va mijoz KPIlari bo‘yicha post-audit. Yakuniy natijalar keyingi strategik rejalashtirishga qaytarilishi kerak.

11. Natijada innovatsion boshqaruv bir martalik raqamlashtirish dasturidan doimiy o‘rganadigan, resurslarni natijaga qarab qayta taqsimlaydigan va aksiyadorlik jamiyati uchun o‘lchanadigan korporativ qiymat yaratishga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] “Agrobank” ATB rasmiy veb-sayti. Bank haqida va tashkiliy infratuzilma ma’lumotlari. Dissertatsiyada qayd etilgan oxirgi yangilanish: 27.04.2026.

[2] Korporativ axborot yagona portali (Openinfo). “Agrobank” ATBning 2024-yil yillik hisoboti. Oshkor qilingan sana: 14.07.2025; tasdiqlangan sana: 30.06.2025.

[3] “Agrobank” ATB. 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi bo‘yicha hisobot: elektron hujjat almashinuvi tizimidan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar.

[4] “Agrobank” ATB. 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi bo‘yicha hisobot: kredit ajratish jarayonida mobil ilova va elektron dasturlardan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar.

[5] OAK portalida 2026-yilda e’lon qilingan tijorat banklarida FinTech, RegTech, Big Data va Machine Learning asosida risklarni boshqarish bo‘yicha tadqiqot natijalari; dissertatsiyada Agrobank faoliyatiga joriy etish dalili sifatida keltirilgan.

[6] Korporativ axborot yagona portali (Openinfo). “Agrobank” ATBning 2023-yil yillik hisoboti.

[7] “Agrobank” ATBning 2026–2027-yillar strategiyasi doirasidagi raqamli konsolidatsiya yo‘nalishlari. Dissertatsiyada keltirilgan manba.

[88] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari va dissertatsiya muallifining 2025-yil yakuniy ko‘rsatkichlari asosidagi tahlili: Agrobank aktivlari, kreditlari, kapitali, depozitlari va NPL darajasi.

QURILISH PUDRATIDA ISH NATIJASINI QABUL QILISHDAN BOSH TORTISH: HUQUQIY ASOSLAR VA FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLAR

Donayev Abduqodir Haydarovich
O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Odil sudlov akademiyasi

Annotatsiya. *Tezisda qurilish pudrati shartnomasi bo‘yicha bajarilgan ish natijasini qabul qilishdan bosh tortishning huquqiy asoslari va oqibatlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida buyurtmachining ish natijasini qabul qilish majburiyati, ikki tomonlama va bir tomonlama dalolatnomaning huquqiy ahamiyati hamda qabul qilishni rad etishga yo‘l qo‘yiladigan holatlar o‘rganiladi. Oliy sud Plenumining qurilish pudrati nizolariga oid tushuntirishlari va Germaniya Fuqarolik kodeksining qabul qilish instituti qiyosiy tahlil qilinadi. Nuqsonning har qanday mavjudligi qabul qilishni rad etish uchun yetarli bo‘lmasligi, rad etish huquqi nuqsonning jiddiyligi, bartaraf etish imkoniyati va obyektning shartnomaviy maqsadda foydalanishga yaroqliligiga qarab differensial baholanishi lozimligi asoslantiriladi. O‘zbekiston qonunchiligida ahamiyatsiz nuqson, bartaraf etiladigan jiddiy nuqson va foydalanishga to‘sqinlik qiluvchi bartaraf etib bo‘lmaydigan nuqsonlarning qabul qilishga ta’sirini aniqroq belgilash taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *qurilish pudrati, ish natijasini qabul qilish, qabul qilishdan bosh tortish, bir tomonlama dalolatnoma, qurilish nuqsoni, buyurtmachi, pudratchi, to‘lov, xavf.*

Аннотация. *В тезисе анализируются правовые основания и гражданско-правовые последствия отказа заказчика от приемки результата работ по договору строительного подряда. Исследуются обязанность заказчика приступить к приемке, правовое значение двустороннего и одностороннего акта, а также случаи, когда отказ от приемки может считаться обоснованным. Проводится сравнительный анализ законодательства Узбекистана, разъяснений Пленума Верховного суда и положений Германского гражданского уложения об приемке результата работ. Обосновывается необходимость дифференцировать влияние недостатков на приемку в зависимости от их существенности,*

устранимости и влияния на возможность использования объекта по договорному назначению.

Ключевые слова: *строительный подряд, приемка результата работ, отказ от приемки, односторонний акт, строительный недостаток, заказчик, подрядчик, оплата, риск.*

Abstract. *This thesis examines the legal grounds and civil-law consequences of a client's refusal to accept completed construction work. It analyzes the client's duty to commence acceptance, the evidentiary and legal significance of bilateral and unilateral acceptance records, and the circumstances in which refusal may be justified. Uzbek legislation and Supreme Court Plenum guidance are compared with the German Civil Code rules on acceptance. The paper argues that the mere existence of a defect should not automatically justify refusal: the legal effect should depend on the defect's seriousness, remediability and impact on the contractual use of the construction object. A differentiated model for insignificant, serious but remediable, and non-remediable use-preventing defects is proposed.*

Keywords: *construction contract, acceptance of work, refusal of acceptance, unilateral acceptance record, construction defect, client, contractor, payment, risk.*

Kirish

Qurilish pudrati shartnomasida ish natijasini topshirish va qabul qilish bosqichi shartnomaviy munosabatlarning oddiy texnik yakuni emas. Aynan shu bosqichda pudratchi bajargan ishning shartnomaga muvofiqligi tekshiriladi, aniqlangan nuqsonlar hujjatlashtiriladi, bajarilgan ish natijasining buyurtmachiga o‘tishi rasmiylashtiriladi va keyingi mulkiy talablarning muhim daliliy bazasi shakllanadi. Shu bilan birga, amaliyotda buyurtmachining qabul qilish dalolatnomasini imzolamasligi pudratchining bajarilgan ish uchun haq olish imkoniyatini murakkablashtirishi, taraflar o‘rtasidagi nizoni esa ***“ish bajarilganmi?”*** degan masaladan ***“qabul qilishdan bosh tortish asoslimi?”*** degan boshqa huquqiy masalaga ko‘chirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 680-moddasi qurilish pudrati shartnomasi bo‘yicha bajarilgan ish natijasi topshirishga tayyorligi haqida xabar olgan buyurtmachiga darhol qabul qilishga kirishish majburiyatini yuklaydi. Ish natijasining topshirilishi va qabul qilinishi, qoida tariqasida, ikki taraf imzolagan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Biroq taraflardan biri dalolatnomani imzolashdan bosh tortsa, bu holat dalolatnomada qayd etilib, uni

ikkinchi taraf imzolashi mumkin. Bir tomonlama dalolatnoma faqat sud imzolashdan bosh tortish sabablarini asosli deb topgan taqdirdagina huquqiy kuchini yo‘qotishi mumkin [1].

Mazkur konstruksiya qabul qilish institutida ikki qarama-qarshi manfaatni muvozanatlashtirishga qaratilgan. Bunda bir tomondan, buyurtmachi shartnomaga nomuvofiq yoki foydalanishga yaroqsiz ish natijasini qabul qilishga majbur etilmasligi kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan, buyurtmachi dalolatnomani shunchaki imzolamaslik orqali amalda bajarilgan ish uchun haq to‘lashni noma’lum muddatga kechiktira olmasligi lozim.

Qabul qilish majburiyati va bir tomonlama dalolatnomaning huquqiy funksiyasi

FK 680-moddasining mazmunidan qabul qilish buyurtmachining ixtiyoriy xatti-harakati emas, balki shartnomaviy majburiyatlardan biri ekanligi kelib chiqadi. Pudratchi ish natijasi yoki shartnomada nazarda tutilgan bosqich topshirishga tayyorligini bildirganidan so‘ng buyurtmachi qabul qilish jarayonini boshlashi kerak. Demak, buyurtmachining passivligi yoki qabul qilishni hech qanday huquqiy sabab ko‘rsatmasdan cho‘zishi shartnoma mexanizmining normal ishlashiga zid.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2016-yil 23-dekabrdagi “Iqtisodiy sudlar tomonidan qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 306-sonli qarorining 9-bandida FK 646 va 680-moddalari asosida buyurtmachi bajarilgan ishni shartnomada nazarda tutilgan muddat va tartibda pudratchi ishtirokida ko‘rib chiqishi va qabul qilishi shartligi alohida ko‘rsatilgan. Plenum bir tomonlama dalolatnomani mustaqil da’vo predmeti sifatida haqiqiy emas deb topish masalasidan ko‘ra, konkret nizoda uning daliliy ahamiyatini baholashga urg‘u beradi. Agar sud ikkinchi tarafning dalolatnomani imzolashdan bosh tortishini asossiz deb topsa, bir tomonlama dalolatnoma ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi dalil sifatida xizmat qilishi mumkin [2].

Bu yondashuvning amaliy ahamiyati katta. Aks holda, buyurtmachining imzosi bajarilgan ish uchun haq olishning mutlaq shartiga aylanib qolishi mumkin edi. Bir tomonlama dalolatnoma esa pudratchini buyurtmachining asossiz passivligidan himoya qiluvchi protsessual-daliliy mexanizm vazifasini bajaradi. Biroq bunday dalolatnoma ***“ish, albatta, tegishli sifatda bajarilgan”*** degan rad etib bo‘lmaydigan prezumpsiyani yaratmaydi. Sud ish hajmi, sifati, shartnoma shartlari, yozishmalar, ekspertiza va boshqa dalillarni birgalikda baholashi lozim.

Shu nuqtai nazardan, qabul qilish dalolatnomasining uch funksiyasini ajratish mumkin: birinchidan, ish natijasining topshirilganligini hujjatlashtirish; ikkinchidan, qabul vaqtida aniqlangan kamchiliklarni qayd etish; uchinchidan, shartnomadagi keyingi huquqiy oqibatlar – haq to‘lash, xavfning o‘tishi, kafolat muddatining boshlanishi va nuqsonlar bo‘yicha talablarni amalga oshirish uchun faktik-huquqiy asos yaratish.

Qabul qilishdan bosh tortishning amaldagi mezonlari

FK 680-moddasida buyurtmachining ish natijasini qabul qilishdan bosh tortish huquqi alohida og‘ir holat bilan bog‘langan. Agar bajarilgan ishda qurilish pudrati shartnomasida ko‘rsatilgan maqsadda foydalanish imkoniyatini bermaydigan kamchiliklar aniqlansa va ularni pudratchi, buyurtmachi yoki uchinchi shaxs bartaraf eta olmasa, buyurtmachi qabul qilishdan bosh tortishga haqli [1]. Demak, normaning bevosita matnida uchta element birlashadi: nuqson mavjudligi; uning obyektning shartnomaviy maqsadda foydalanilishiga to‘sqinlik qilishi; nuqsonning bartaraf etib bo‘lmasligi.

306-sonli Plenum qarorining 9-bandi ushbu mezonni sud amaliyoti uchun takrorlaydi va yana bir holatni – qonun, shartnoma yoki ish xususiyatiga ko‘ra dastlabki sinov talab etilganda pudratchining bunday sinovdan bosh tortishini – qabul qilishni rad etishning asosli sababi sifatida ko‘rsatadi [2]. Shunday qilib, amaldagi tartib qabul qilishdan bosh tortishni istalgan kamchilik bilan emas, obyektning funksional yaroqliligiga jiddiy ta’sir qiluvchi va bartaraf etib bo‘lmaydigan nuqson yoki zarur sinovdan bosh tortish bilan bog‘laydi.

Biroq amaliy nizolarda muammo ko‘pincha aynan oraliq holatlarda yuzaga keladi. Masalan, nuqson jiddiy, lekin bartaraf etilishi mumkin; nuqson obyektning butunlay foydalanilishini to‘xtatmaydi, biroq uning muhim qismini ishlatishni cheklaydi; yoki aksincha, kamchilik texnik jihatdan mavjud, lekin obyektning xavfsizligi va funksionalligiga sezilarli ta’sir qilmaydi. Bunday vaziyatlarda ***“qabul qilish kerakmi yoki rad etish mumkinmi?”*** degan savolni faqat nuqson mavjudligi faktiga qarab hal qilish yetarli emas.

306-sonli Plenum qarorining 9.1-bandi ham qabul qilish paytidagi nuqsonlarni hujjatlashtirishning ahamiyatini ko‘rsatadi: buyurtmachi qabul vaqtida aniqlagan kamchiliklarni yoki ularni keyinchalik tuzatish to‘g‘risida talab qo‘yish imkoniyatini dalolatnoma yoxud qabul qilishni tasdiqlovchi boshqa hujjatda qayd etgan bo‘lsa, keyinchalik ularga tayanishi mumkin [2]. Bu qoida qabul qilish va nuqson bo‘yicha huquqlardan voz kechish aynan bir narsa emasligini ko‘rsatadi. Buyurtmachi ayrim nuqsonlarni qayd etgan holda ishni

qabul qilishi va keyin tegishli huquqiy himoya vositalaridan foydalanishi mumkin.

Germaniya modeli: ahamiyatsiz nuqson qabul qilishni to‘xtatmaydi

Germaniya Fuqarolik kodeksi ***(Bürgerliches Gesetzbuch – BGB)*** § 640(1) buyurtmachiga shartnomaga muvofiq tayyorlangan ishni qabul qilish majburiyatini yuklaydi va muhim qoidani belgilaydi, ya’ni ahamiyatsiz nuqsonlar ***(unwesentliche Mängel)*** sabab qabul qilishni rad etish mumkin emas [3]. Bu norma nuqsonning mavjudligi bilan qabul qilishdan bosh tortish huquqi o‘rtasiga jiddiylik mezonini kiritadi.

BGB § 640(2) esa qabul qilishni asossiz cho‘zishga qarshi qo‘shimcha mexanizm yaratadi. Pudratchi ish tugagach buyurtmachiga qabul qilish uchun oqilona muddat belgilasa va buyurtmachi shu muddat ichida kamida bitta nuqsonni ko‘rsatgan holda qabul qilishni rad etmasa, ish qabul qilingan deb hisoblanishi mumkin. Iste’molchi ishtirokidagi munosabatlarda esa bunday oqibat yuzaga kelishi uchun pudratchi iste’molchiga qabul qilmaslikning huquqiy oqibatlari haqida matn shaklida alohida xabar berishi kerak [3].

Mazkur yondashuvning O‘zbekiston huquqi uchun qiziqarli tomoni shundaki, u qabul qilishni ikki holatga ajratadi: nuqsonning mavjudligi va nuqsonning qabul qilishni rad etishga yetarli darajada jiddiyligi. Ahamiyatsiz nuqson buyurtmachining nuqsonni bartaraf etish bo‘yicha huquqlarini yo‘qotmaydi, biroq butun ish natijasini qabul qilmaslik uchun asos ham bo‘lmaydi.

Germaniya modelida qabul qilish haq to‘lash majburiyati bilan ham uzviy bog‘langan. BGB § 641(1)ga ko‘ra haq, qoida tariqasida, ish qabul qilinganda to‘lanadi. Shu bilan birga, buyurtmachi nuqsonni bartaraf etishni talab qilish huquqiga ega bo‘lsa, § 641(3) unga haqning oqilona qismini ushlab qolish imkonini beradi; qonun bunday oqilona qism sifatida odatda nuqsonni bartaraf etish uchun zarur xarajatlarning ikki baravarini ko‘rsatadi [4]. Bu konstruksiya «nuqson bor – demak, butun qabul qilish va butun to‘lov to‘xtaydi» degan yondashuv o‘rniga mutanosib huquqiy oqibatni qo‘llaydi.

Qabul qilishni rad etishning differensial modeli

Qiyosiy tahlil asosida O‘zbekiston qurilish pudrati huquqida qabul qilishga ta’sir qiluvchi nuqsonlarni kamida uch funksional toifaga ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Birinchi toifa – ahamiyatsiz nuqsonlar. Bular ish natijasining xavfsizligi, asosiy funksiyasi yoki shartnomaviy maqsadda foydalanishiga sezilarli ta’sir qilmaydigan, nisbatan oddiy tarzda bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan

kamchiliklardir. Bunday nuqsonlar qabul qilishni butunlay rad etish uchun asos bo‘lmasligi, biroq dalolatnomada qayd etilishi va buyurtmachining ularni bartaraf ettirish yoki boshqa tegishli talablarini saqlab qolishi kerak.

Ikkinchi toifa – jiddiy, biroq bartaraf etiladigan nuqsonlar. Bunday kamchiliklar obyektning muhim xususiyatlariga ta’sir qilishi mumkin, lekin texnik jihatdan bartaraf etish imkoniyati mavjud. Bu holatda qabul qilishning huquqiy oqibati nuqsonning real ta’siriga qarab belgilanmog‘i lozim: ayrim hollarda qabul qilishni nuqson bartaraf etilguniga qadar kechiktirish, ayrim hollarda esa nuqsonni qayd etgan holda qabul qilish va haqning tegishli qismini ushlab qolish samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Uchinchi toifa – obyektni shartnomada nazarda tutilgan maqsadda ishlatishga imkon bermaydigan va bartaraf etib bo‘lmaydigan nuqsonlar. Aynan ushbu holat FK 680-moddasining amaldagi oxirgi qismiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladi va buyurtmachining ish natijasini qabul qilishdan bosh tortish huquqini asoslaydi.

Bunday differensial model buyurtmachi huquqlarini zaiflashtirmaydi. Aksincha, nuqsonning xususiyatiga mos himoya vositasini tanlash imkonini beradi. Pudratchi ham ahamiyatsiz kamchilik sabab butun ish natijasining qabul qilinmasligi va to‘lovning to‘liq bloklanishi xavfidan himoyalanadi. Natijada qabul qilish instituti jazolovchi vosita emas, taraflar manfaatlarini muvozanatlashtiruvchi mexanizm sifatida ishlaydi.

Asossiz bosh tortishning fuqarolik-huquqiy oqibatlarini aniqlashtirish

Qabul qilishdan asossiz bosh tortishning huquqiy oqibatlari ham tizimli yondashuvni talab qiladi. Amaldagi O‘zbekiston huquqida bir tomonlama dalolatnoma pudratchiga buyurtmachining imzosiz ham ish topshirilganini isbotlash imkonini beradi. Biroq nizoning amaliy markazi ko‘pincha dalolatnomaning o‘zidan ko‘ra, undan kelib chiqadigan haq to‘lash, xavfning o‘tishi, kafolat davrining boshlanishi va kechikish oqibatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shu sababli qonunchilik yoki Oliy sud Plenumi tushuntirishlarida asossiz rad etishning kamida quyidagi oqibatlari o‘zaro bog‘langan holda yoritilishi maqsadga muvofiq: pudratchi qabul qilish uchun tegishli tarzda xabar bergan bo‘lishi; ish natijasi amalda qabul qilishga tayyor bo‘lishi; buyurtmachiga ko‘rik va nuqsonlarni qayd etish uchun real imkoniyat berilishi; rad etish aniq sabablar va nuqsonlar bilan asoslanishi; asossiz rad etilgan taqdirda bir tomonlama dalolatnomaning daliliy kuchi, haq to‘lash majburiyatining yuzaga kelishi va tegishli xavflarning taqsimlanishi aniqlashtirilishi.

Ayniqsa, rad etishning shakliga e'tibor qaratish zarur. «Ishni qabul qilmayman» mazmunidagi umumiy bayonot o'rniga buyurtmachi qaysi konkret nuqson yoki shartnomaviy nomuvofiqlik qabul qilishga to'sqinlik qilayotganini ko'rsatishi kerak. BGB § 640(2)dagi kamida bitta nuqsonni ko'rsatib rad etish talabi shu ma'noda foydali qiyosiy tajriba hisoblanadi [3]. O'zbekiston sharoitida esa yirik qurilish obyektlarining murakkabligini inobatga olib, rad etish dalolatnomasida nuqsonning joylashuvi, tavsifi, uning shartnoma yoki texnik talabga nomuvofiqligi va qabul qilishga qanday ta'sir qilayotgani qayd etilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan xorijiy va milliy qonunchilik tahliliga ko'ra qonunchilik va sud amaliyotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni bildirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, FKning qurilish pudratida ish natijasini qabul qilishga oid normalarida yoki ularni qo'llash bo'yicha sud tushuntirishlarida ***"ahamiyatsiz nuqson"***ning qabul qilishga ta'siri alohida belgilanishi maqsadga muvofiq. Ahamiyatsiz va bartaraf etiladigan nuqsonlar, qoida tariqasida, butun ish natijasini qabul qilishni rad etish uchun asos bo'lmasligi, buyurtmachining nuqson bo'yicha boshqa talablarini esa saqlab qolishi kerak.

Ikkinchidan, qabul qilishni rad etish asoslantirilgan bo'lishi lozimligi aniq ifodalanishi kerak. Buyurtmachi pudratchining qabul qilish haqidagi xabarini olgach, shartnomada yoki qonunda belgilangan muddat ichida qabul qilishga kirishishi, rad etgan taqdirda esa konkret nuqsonlarni va ularning qabul qilishga ta'sirini ko'rsatishi lozim.

Uchinchidan, jiddiy, lekin bartaraf etiladigan nuqsonlar uchun ***"hammasi yoki hech narsa" modeli***dan voz kechish maqsadga muvofiq. Nuqsonning xususiyatiga qarab qabul qilishni qisqa muddatga kechiktirish, nuqsonlarni qayd etib qabul qilish, haqning nuqsonni bartaraf etishga mutanosib qismini vaqtincha ushlab qolish kabi huquqiy oqibatlar tizimi qo'llanishi mumkin.

To'rtinchidan, bir tomonlama dalolatnomaning daliliy kuchi bilan undan kelib chiqadigan moddiy-huquqiy oqibatlar farqlanishi lozim. Dalolatnoma ish bajarilganligini isbotlovchi muhim dalil bo'lishi mumkin, biroq ishning hajmi, sifati, shartnomaga muvofiqligi va haq miqdori zarur hollarda boshqa dalillar bilan birgalikda tekshiriladi.

Beshinchidan, qabul qilish jarayonini raqamli hujjatlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Elektron xabarnoma, foto va video qaydlar, geolokatsiyaga bog'langan nuqsonlar reyestri, elektron imzoli qabul qilish protokoli taraflarning keyingi nizoda pozitsiyasini aniqroq isbotlashga xizmat

qiladi. Bunday mexanizm, ayniqsa, katta hajmdagi va bosqichma-bosqich topshiriladigan qurilishlarda dalillar yo‘qolishi xavfini kamaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, qurilish pudratida ish natijasini qabul qilishdan bosh tortish buyurtmachining cheklanmagan ixtiyoriy huquqi emas. FK 680-moddasi qabul qilish majburiyatini umumiy qoida sifatida belgilab, rad etishning eng og‘ir asosini – obyektni shartnomaviy maqsadda ishlatishga imkon bermaydigan va bartaraf etib bo‘lmaydigan kamchilikni nazarda tutadi. 306-sonli Plenum qarori esa bir tomonlama dalolatnomaning daliliy funksiyasini va rad etishning asosli sabablarini sud amaliyoti uchun aniqlashtiradi.

Germaniya BGB § 640dagi ahamiyatsiz nuqson sabab qabul qilishni rad etish mumkin emasligi va rad etishda konkret nuqson ko‘rsatilishi zarurligi O‘zbekiston huquqi uchun foydali qiyosiy model hisoblanadi. Mazkur tajriba asosida qabul qilishga ta’sir qiluvchi nuqsonlarni ahamiyatsiz, jiddiy-bartaraf etiladigan va foydalanishga to‘sqinlik qiluvchi bartaraf etib bo‘lmaydigan nuqsonlarga funksional ajratish taklif etildi.

Bunday yondashuv buyurtmachining sifatli ish natijasini olish manfaatini saqlagan holda pudratchini asossiz qabul qilmaslik va to‘lovni bloklashdan himoya qiladi. Eng muhimi, qabul qilish instituti nuqson mavjud yoki mavjud emas degan ikki qutbli modeldan chiqib, nuqsonning jiddiyligi va uning shartnomaviy natijaga ta’siriga mos mutanosib huquqiy oqibatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism) // URL: https://lex.uz/docs/-180552

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2016-yil 23-dekabrdagi “Iqtisodiy sudlar tomonidan qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 306-son qarori // URL: https://lex.uz/docs/-3106543

3. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). § 640. Abnahme. Bundesministerium der Justiz / Bundesamt für Justiz, Gesetze im Internet.

4. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). § 641. Fälligkeit der Vergütung. Bundesministerium der Justiz / Bundesamt für Justiz, Gesetze im Internet.

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA MEHNAT SALOHIYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Ibragimov Salohiddin Ochilovich
"Alfraganus University" NOTT
salohiddinibragimov061@gmail.com
Inog'omova Komilaxon Muxiddin qizi
erkinovakomilaxon57@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan. Salohiyat bilan amaldagi natija o'rtasidagi farqni o'lchash uchun kadrlar bilan ta'minlanganlik, ish kunlari, smena vaqti va unumdorlik omillaridan iborat to'rt omilli ko'paytma model taklif etilib, 24 ta korxona ma'lumotlarida (2020-2024) sinovdan o'tkazilgan. Omillarga bog'langan tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional mexanizmlar asoslanib, 2030 yilgacha ikki ssenariyli prognoz ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *qurilish materiallari sanoati, mehnat salohiyati, salohiyatdan foydalanish koeffitsiyenti, ko'paytma model, zanjirli o'rnini bosish usuli, ish vaqti yo'qotishlari, ssenariyli prognoz.*

Аннотация. *В статье исследованы механизмы повышения эффективности использования трудового потенциала на предприятиях промышленности строительных материалов. Для измерения разрыва между потенциалом и фактическим результатом предложена четырёхфакторная мультипликативная модель (обеспеченность кадрами, использование рабочих дней, сменного времени и потенциала производительности), апробированная на данных 24 предприятий за 2020-2024 годы. Обоснованы организационные, экономические, социальные и институциональные механизмы, разработан двухсценарный прогноз до 2030 года.*

Ключевые слова: *промышленность строительных материалов, трудовой потенциал, коэффициент использования потенциала,*

мультипликативная модель, метод цепных подстановок, потери рабочего времени, сценарный прогноз.

Mazkur kompetensiyalarni bir-biridan ajratilgan holda shakllantirish ta’lim natijasining yaxlitligini pasaytirishi mumkin. Masalan, talaba axborotni izlash uchun raqamli vositadan foydalanadi, topilgan ma’lumotning ishonchliligini baholaydi, uni tahlil qiladi, guruhdoshlari bilan muhokama qiladi va natijada muayyan kasbiy vazifani hal qiladi.

Talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishning integrativ modeli

Raqamli ta’lim sharoitida talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi integrativ modelni taklif etish mumkin:

Maqsad, mazmun, raqamli muhit, pedagogik texnologiyalar, talabaning faoliyati, monitoring va baholash, refleksiya, natija.

Mazkur model bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan beshta asosiy komponentdan tashkil topadi.

Maqsadli komponent. Uning asosiy maqsadi talabaning raqamli muhitda mustaqil, ijodiy, kommunikativ va kasbiy faoliyat olib borishga tayyorligini shakllantirishdan iborat. Maqsadni belgilashda nafaqat bilimni o‘zlashtirish, balki uni yangi vaziyatlarda qo‘llash, muammoni hal qilish, axborot bilan ishlash va o‘z faoliyatini baholash kabi natijalar hisobga olinadi.

Mazmuniy komponent. Mazkur komponent o‘quv fanlari mazmunini raqamli resurslar bilan integratsiyalashni nazarda tutadi. Elektron darsliklar, videoma’ruzalar, interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriyalar, elektron

kutubxonalar, testlar va raqamli portfolio mazmunni o‘zlashtirishning qo‘shimcha vositalari sifatida xizmat qiladi.

Texnologik komponent. Bu bosqichda interaktiv, muammoli, loyiha asosidagi, hamkorlikda va aralash ta’lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Raqamli platformalar yordamida talabaga individual topshiriqlar berish, guruhli loyihalarni tashkil etish, tezkor teskari aloqa berish va o‘zlashtirish dinamikasini monitoring qilish mumkin.

Motivatsion-faoliyatli komponent. Talabaning raqamli ta’lim jarayonidagi faolligi uning ichki motivatsiyasi, o‘quv vazifasining amaliy ahamiyatini anglashi va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga bog‘liq. Shuning uchun topshiriqlar real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilishi, tanlov imkoniyatlari berilishi va talabaning individual ta’lim yo‘nalishi shakllantirishga sharoit yaratilishi zarur.

Natijaviy-refleksiv komponent. U shakllangan kompetensiyalarni diagnostika qilish va talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishini ta’minlaydi. Elektron portfolio, diagnostik testlar, loyiha natijalari, amaliy topshiriqlar, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash vositalaridan foydalanish mumkin.

1-jadval.

Integrativ modelning tarkibiy tuzilishi

Komponent	Mazmuni	Raqamli vositalar	Kutiladigan natija
Maqsadli	Kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadini belgilash	Elektron o‘quv reja, LMS	Aniq ta’lim maqsadi
Mazmuniy	O‘quv materiallarini raqamli resurslar bilan boyitish	Elektron darslik, video, interaktiv material	Bilim va axborot kompetensiyasi
Texnologik	Interaktiv va muammoli ta’limni tashkil etish	LMS, videokonferensiya, test platformalari	Faol o‘quv faoliyati
Motivatsion faoliyatli	Mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatni rag‘batlantirish	Forum, loyiha platformalari, gamifikatsiya	O‘quv motivatsiyasi
Natijaviy refleksiv	Natijalarni baholash va tahlil qilish	E-portfolio, elektron test, rubrikalar	Kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi

Integrativ yondashuvning pedagogik samaradorligi

Raqamli ta’lim sharoitida integrativ yondashuvning muhim jihati shundaki, u alohida kompetensiyalarni mexanik tarzda birlashtirish emas, balki ularni yagona faoliyat jarayonida o‘zaro ta’sirlashuvchi tizim sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

Masalan, talaba muayyan kasbiy muammo bo‘yicha loyiha tayyorlayotganda:

1.raqamli manbalardan axborot izlaydi;
2.manbalarning ishonchliligini baholaydi;
3.olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi;
4.guruh a’zolari bilan muloqot qiladi;
5.raqamli vositalar yordamida mahsulot yaratadi;
6.natijani taqdim etadi;
7.o‘z faoliyatini refleksiv baholaydi.

Ushbu yagona faoliyat jarayonida bir nechta kompetensiyalar parallel ravishda rivojlanadi. Shuning uchun integrativ modelning asosiy pedagogik qiymati kompetensiyalarni fanlar, faoliyat turlari va raqamli texnologiyalar kesishmasida shakllantirish imkoniyatidadir.

XULOSA

Raqamli ta’lim sharoitida talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga oddiy texnik vosita sifatida kiritish yetarli emas.

Shunday qilib, raqamli ta’lim muhitida kompetensiyalarni integrativ asosda rivojlantirish talabaning nafaqat raqamli vositalardan foydalanish qobiliyatini, balki mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, muammolarni hal etish, hamkorlik qilish, kasbiy vazifalarni bajarish va o‘z faoliyatini refleksiv baholash qobiliyatlarini ham kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023.

2.Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – 2nd ed. – Athabasca: Athabasca University Press, 2008.

3.Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

4.Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.

O‘ZBEKISTONDA KO'RISH BO‘YICHA NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALAR TA’LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Akramov Abdurahmon Xaydarali o‘g‘li
Mustaqil tadqiqotchi
akramovabdurrahmon@gmail.com

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan talabalar, oliy ta'lim, inklyuziv ta'lim, O'zbekiston, me'yoriy-huquqiy asos.*

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan izchil davlat siyosati shakllanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida inklyuziv ta'lim muhitini yaratish vazifasi belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining O'RQ-641-son Qonuniga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalariga qabulda qo'shimcha kvota joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-avgustdagi PQ-292-son Qarori bu boradagi eng dolzarb hujjat bo'lib, unga muvofiq 2027-yildan boshlab alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni zamonaviy assistiv jihozlar bilan vaucher asosida ta'minlash tizimi joriy etiladi, shuningdek nogironligi bo'lgan abituriyentlarga oliy ta'lim tashkilotlariga kirish imtihonlarida qo'shimcha vaqt va moslashtirilgan (Brayl, audio, elektron) imtihon materiallaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bu — davlat siyosati darajasida raqamli va assistiv texnologiyalar mavzusining dolzarbligini tasdiqlovchi muhim dalildir.

Shunga qaramay, mavjud me'yoriy-huquqiy baza asosan texnik ta'minot va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, sun'iy intellekt asosidagi assistiv vositalarning ta'lim jarayoniga pedagogik jihatdan integratsiya qilinishi masalasi hali ochiq qolmoqda. Mahalliy pedagogika fanida N.Z. Abidova, P.M. Pulatova kabi olimlarning ishlarida maxsus ta'lim va tiflopedagogika nazariy jihatdan yoritilgan bo'lsa-da, raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarining bu sohaga tatbiqi alohida tadqiqot predmeti sifatida deyarli o'rganilmagan.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida assistiv sun'iy intellekt vositalarining qo'llanilishida jiddiy amaliy cheklov mavjud: mavjud vositalarning aksariyati o'zbek va rus tilidagi matnlarni ishonchli tanib olish va tabiiy ovozga aylantirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat, o'quv adabiyotlarining katta qismi aynan shu tillarda nashr etilishini hisobga olganda, talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Demak, xorijiy tajribada samarali natija bergan yechimlarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki ularni mahalliy til va o'quv kontentiga moslashtirish O'zbekiston uchun ustuvor ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan talabalar ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida kuchli me'yoriy-huquqiy asos shakllangan, biroq uni pedagogik amaliyotga, xususan mahalliy tilga moslashtirilgan yechimlar orqali tatbiq etish masalasi keyingi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni. – www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – www.lex.uz.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-avgustdagi PQ-292-son Qarori. – www.lex.uz.

4. Abidova N.Z. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). – T.: Baraka fayz media, 2017.

5. Pulatova P.M. Maxsus pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2014.

XORIJIY TILLARNI OLIY TA'LIMDA O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Berdimurodov Adham
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
adham-94@inbox.ru

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy uslubiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan ta'lim (TBLT), fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL), aralash va teskari ta'lim modellari, raqamli vositalar hamda formativ baholash tizimining samaradorligi ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan mazkur usullarni kredit-modul tizimi sharoitida qo'llash bo'yicha uslubiy model taklif etiladi va uning samaradorligini baholash uchun pedagogik tajriba-sinov dizayni ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *xorijiy til ta'limi, kommunikativ kompetensiya, vazifaga asoslangan ta'lim, CLIL, aralash ta'lim, formativ baholash, raqamli ta'lim resurslari, CEFR.*

Kirish. Zamonaviy mehnat bozori bitiruvchidan nafaqat til tizimi haqidagi bilimni, balki real kasbiy vaziyatlarda muloqot qila olish qobiliyatini talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "Aholi o'rtasida chet tillarini o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida chet tili ta'limini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, o'qituvchilar malakasini oshirish va baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilangan. Bu esa an'anaviy grammatika-tarjima metodidan kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'limga o'tishni dolzarb qilib qo'ydi.

Muammo shundaki, amaliyotda ko'p hollarda o'quv jarayoni hamon o'qituvchi markazida quriladi: dars vaqtining asosiy qismi tushuntirish va nazorat qilishga sarflanadi, talabaning mustaqil nutq faoliyati esa cheklangan bo'ladi. Natijada talaba grammatik qoidani biladi, ammo uni nutqda avtomatlashtira olmaydi. Mazkur maqolaning maqsadi — xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullarini nazariy jihatdan tahlil qilish va ularni oliy ta'lim sharoitida tizimli qo'llash modelini asoslashdan iborat.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Til o‘qitish metodikasi XX asr davomida bir necha bosqichni bosib o‘tdi. Grammatika-tarjima metodi til haqidagi bilimni birlamchi deb hisoblagan bo‘lsa, audiolingval metod takrorlash va odat hosil qilishga tayangan edi. XX asrning 70-yillaridan boshlab kommunikativ yondashuv yetakchi o‘rinni egalladi: uning markazida til tizimi emas, balki kommunikativ kompetensiya turadi. D. Haymz kiritgan bu tushuncha keyinchalik lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarga ajratildi.

S.Kreshen ilgari surgan “tushunarli kiritma” (comprehensible input) gipotezasiga ko‘ra, til o‘zlashtirilishi uchun o‘rganuvchi o‘z darajasidan bir pog‘ona yuqori bo‘lgan mazmunli materialni tushunishi zarur. M. Sveyn esa bunga “chiqarma” (output) gipotezasini qo‘shdi: o‘rganuvchi fikrini ifodalashga urinib ko‘rgandagina o‘z bilimidagi bo‘shliqni anglaydi va uni to‘ldirishga harakat qiladi. Bu ikki gipoteza birgalikda zamonaviy darsning asosiy mantig‘ini belgilaydi: talaba mazmunli matnni qabul qiladi, so‘ngra o‘zi nutq mahsulini yaratadi.

Leksikani o‘zlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar so‘z boyligining chastotaviy printsip asosida tanlanishi, takroriy uchrashuvlar soni va vaqt bo‘yicha taqsimlangan takrorlash (spaced repetition) samaradorligini ko‘rsatadi. Multimedia resurslari bo‘yicha R. Mayer ishlarida esa matn va tasvirning birgalikda berilishi, ortiqcha bezakli elementlardan voz kechish kognitiv yuklamani kamaytirishi asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda nazariy tahlil (ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish), pedagogik kuzatish, so‘rovnoma va pedagogik tajriba-sinov usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Tajriba-sinov dizayni quyidagicha qurilishi mumkin:

–Tanlanma: filologiya va nofilologik yo‘nalish talabalaridan tashkil topgan nazorat hamda tajriba guruhlari (har birida kamida 25–30 nafar talaba).

–Davomiylik: bir semestr (15 hafta).

–Mustaqil o‘zgaruvchi: tajriba guruhida taklif etilayotgan integratsiyalashgan model (TBLT + aralash ta’lim + formativ baholash) qo‘llanadi; nazorat guruhida an’anaviy tartib saqlanadi.

–Bog‘liq o‘zgaruvchilar: og‘zaki nutq ravonligi va aniqligi, tinglab tushunish, yozma nutq sifati, faol leksik zaxira hajmi, o‘quv motivatsiyasi darajasi.

–O‘lchov vositalari: CEFR deskriptorlariga tayangan kirish va yakuniy testlar, og‘zaki nutqni baholash uchun analitik reyting jadvali (talaffuz, leksik

boylik, grammatik aniqlik, ravonlik, o‘zaro ta’sir), motivatsiya bo‘yicha Likert shkalasidagi so‘rovnoma.

–Ma’lumotlarni qayta ishlash: o‘rtacha ko‘rsatkichlar, standart chetlanish va guruhlararo farqning statistik ishonchliligini aniqlash (t-mezon yoki uning noparametrik muqobili).

Bunday dizayn maqolaga empirik asos beradi va olingan natijalar aynan tadqiqot olib borilayotgan auditoriyaga tegishli bo‘ladi.

Zamonaviy usullarning tavsifi va qo‘llanilishi. ***Vazifaga asoslangan ta’lim (Task-Based Language Teaching)***. TBLTda o‘quv birligi sifatida grammatik mavzu emas, balki real hayotiy vazifa olinadi: intervyu o‘tkazish, muammoni hal qilish, yo‘riqnoma tuzish, mahsulotni taqdim etish. Dars uch bosqichda quriladi: vazifadan oldingi tayyorgarlik (zarur leksika va namunani berish), vazifani bajarish (juftlik yoki kichik guruhlarda), vazifadan keyingi tahlil (til shakllariga qaytish va xatolarni umumlashtirish).

Ushbu yondashuvning kuchli tomoni shundaki, talaba tilni maqsad emas, vosita sifatida ishlatadi va nutqiy tajriba to‘playdi. Zaif tomoni — agar uchinchi bosqich tashlab ketilsa, xatolar mustahkamlanib qolish xavfi mavjud. Shu bois vazifadan keyingi til tahlili majburiy komponent hisoblanadi.

Fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish (CLIL). CLIL modelida chet tili mustaqil fan sifatida emas, boshqa fan mazmunini o‘zlashtirish vositasi sifatida qo‘llanadi. Nofilologik yo‘nalishlarda bu yondashuv ayniqsa samarali: axborot texnologiyalari talabasi ingliz tilida algoritm tavsifini o‘qiydi, pedagogika talabasi esa chet el ta’lim tizimi haqidagi matn ustida ishlaydi. Natijada til o‘rganish motivatsiyasi ortadi, chunki material talabaning kasbiy ehtiyojiga bog‘lanadi. CLILni joriy etishda asosiy shart — matn murakkabligini talabaning til darajasiga moslashtirish va tushunishni qo‘llab-quvvatlovchi vositalar (glossariy, sxema, oldindan beriladigan savollar) bilan ta’minlash.

Aralash va teskari ta’lim. Aralash ta’lim (blended learning) auditoriya mashg‘ulotini elektron platformadagi mustaqil ish bilan birlashtiradi. Teskari dars (flipped classroom) modelida esa nazariy material — video-ma’ruza, grammatik tushuntirish, tinglash materiali — darsdan oldin mustaqil o‘zlashtiriladi, auditoriya vaqti esa amaliy mashq va muloqotga bag‘ishlanadi. Bu yechim xorijiy til darsidagi eng qimmatli resursni — o‘qituvchi ishtirokidagi jonli muloqot vaqtini tejaydi.

Kredit-modul tizimida bu model tabiiy ravishda joylashadi: mustaqil ta’lim soatlari platformadagi topshiriqlar bilan to‘ldiriladi, auditoriya soatlari esa nutq amaliyotiga yo‘naltiriladi. Shart shuki, mustaqil ish topshiriqlari baholanadigan

va nazorat qilinadigan bo‘lishi kerak, aks holda talaba darsga tayyorlanmay keladi va model ishlamaydi.

Raqamli vositalar va sun’iy intellect. Hozirgi kunda til o‘rganishda bir necha guruh raqamli vositalar qo‘llanadi: intervalli takrorlashga asoslangan leksik ilovalar, korpus resurslari (so‘zning real qo‘llanish kontekstini ko‘rsatadi), talaffuzni tanib olish tizimlari, o‘quv platformalaridagi avtomatik testlar hamda sun’iy intellektga asoslangan suhbatdosh dasturlar.

Sun’iy intellekt vositalarining afzalligi — talabaga katta miqdorda mashq va tezkor qaytar aloqa berish imkoniyati. Ayni paytda ularning cheklovi ham bor: avtomatik qaytar aloqa til xatolarini aniqlaydi, lekin talabaning o‘quv strategiyasini yo‘naltira olmaydi va yozma ishlarning mustaqil bajarilishini kafolatlamaydi. Shu sababli bunday vositalar o‘qituvchi o‘rnini emas, balki mashq hajmini kengaytiruvchi yordamchi vosita o‘rnini egallashi lozim. Akademik halollikni ta’minlash uchun yozma topshiriqlarning bir qismi auditoriyada, nazorat ostida bajarilishi maqsadga muvofiq.

Interaktiv va o‘yin elementlariga asoslangan usullar. Rolli o‘yinlar, munozara va debat, keys-stadi, loyiha usuli hamda gamifikatsiya elementlari (ball, daraja, reyting jadvali) talabaning darsdagi nutq faolligini oshiradi. Bunday usullarning metodik qiymati shundaki, ular affektiv to‘siqni — xato qilishdan qo‘rqishni pasaytiradi. Ammo o‘yin o‘z-o‘zidan maqsad bo‘lib qolmasligi kerak: har bir interaktiv mashg‘ulot aniq til maqsadiga (masalan, ma’lum nutq shaklini avtomatlashtirishga) bog‘langan bo‘lishi shart.

Formativ baholash va qaytar aloqa. Baholash tizimi metodikaning ajralmas qismi hisoblanadi. Formativ baholash o‘quv jarayoni davomida amalga oshiriladi va uning asosiy vazifasi baho qo‘yish emas, balki talabaga o‘z darajasi va keyingi qadami haqida ma’lumot berishdir. Buning samarali shakllari: analitik reyting jadvallari (rubrikalar), o‘z-o‘zini va tengdoshini baholash varaqalari, til portfeli, mini-nazoratlar va og‘zaki qaytar aloqa.

Qaytar aloqa samarali bo‘lishi uchun u aniq (qaysi jihat yaxshi bajarilgani va nimani o‘zgartirish kerakligini ko‘rsatadigan), o‘z vaqtida berilgan va talabaning keyingi harakati bilan bog‘langan bo‘lishi lozim.

Taklif etilayotgan integratsiyalashgan model. Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi to‘rt komponentli model taklif etiladi:

–Mazmun komponenti — o‘quv materiali CEFR deskriptorlari va talabaning kasbiy yo‘nalishi asosida tanlanadi (CLIL elementlari bilan).

–Jarayon komponenti — dars TBLT mantig‘ida quriladi, nazariy qism esa teskari dars tamoyili bo‘yicha auditoriyadan tashqariga chiqariladi.

–Texnologik komponent — mustaqil ta’lim platformada tashkil etiladi: intervalli leksik mashqlar, tinglash materiallari, avtomatik testlar, korpus bilan ishlash topshiriqlari.

–Baholash komponenti — analitik rubrikalarga asoslangan formativ baholash, til portfeli va semestr yakunidagi kompleks nazorat.

Modelning amaliy joriy etilishi uchun uchta shart zarur: o‘qituvchining uslubiy tayyorgarligi (malaka oshirish kurslari va o‘zaro dars kuzatuvlari orqali), moddiy-texnik ta’minot (lingafon xonasi, internetga ulangan qurilmalar, elektron resurslarga kirish) hamda guruhlarning maqbul to‘ldirilishi, chunki nutq amaliyoti katta guruhda samarasiz bo‘ladi.

Kutilayotgan natijalar va muhokama. Taklif etilayotgan model joriy etilganda quyidagi natijalar kutiladi: talabalarning og‘zaki nutq ravonligi va o‘zaro muloqotga kirishish faolligining oshishi, faol leksik zaxiraning kengayishi, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish darajasining ko‘tarilishi va o‘quv motivatsiyasining kuchayishi. Ayni paytda modelning cheklovlarini ham e’tirof etish lozim: u o‘qituvchidan an’anaviy darsga nisbatan ko‘proq tayyorgarlik vaqtini talab qiladi, platformadagi materiallarni doimiy yangilab turishni taqozo etadi va talabalarning raqamli savodxonligi bir xil emasligi bilan bog‘liq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Xulosa. Xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy usullari bir-birini istisno qilmaydi, balki o‘zaro to‘ldiradi. Yagona “eng yaxshi metod” mavjud emas: usul tanlovi talabalarning til darajasi, ta’lim yo‘nalishi, guruh hajmi va texnik imkoniyatlarga bog‘liq. Samaradorlikni ta’minlovchi asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat: darsda talabaning nutq faoliyati vaqti maksimal bo‘lishi, materialning mazmunan qiziqarli va kasbiy jihatdan ahamiyatli bo‘lishi, raqamli vositalarning o‘qituvchi ishini almashtirmay, uni kuchaytirishi hamda baholashning o‘rgatuvchi funksiyani bajarishi. Kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan modelning samaradorligini turli ta’lim yo‘nalishlari kesimida empirik tekshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “Aholi o‘rtasida chet tillarini o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Council of Europe.

3. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press.
4. Ellis R. Task-based Language Learning and Teaching. – Oxford University Press.
5. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition.
6. Swain M. Communicative Competence: Some Roles of Comprehensible Input and Comprehensible Output in its Development.
7. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge University Press.
8. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge University Press.
9. Mayer R.E. Multimedia Learning. – Cambridge University Press.
10. Dörnyei Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. – Cambridge University Press.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI DIREKTORI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINING RAQAMLI O‘LCHOVI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI RAQAMLI QO‘LLAB-QUVVATLASH

Berdimurotov Adxam Xayrulla o‘g‘li
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
berdimurottov@gmail.com

Annotatsiya. *Tezisda raqamli ko‘nikmalarni maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori moliyaviy savodxonligining alohida yo‘nalishi sifatida emas, balki moliyaviy faoliyatning beshta funksional yo‘nalishining har biridan o‘tuvchi umumiy qatlam sifatida ko‘rib chiqish taklif etiladi. Ushbu qatlamning uskunaviy, huquqiy va himoyaviy tarkibiy qismlari hamda elektron kurs, hisob-kitob shablonlari, qonunchilik bazasiga havolalar va masofaviy maslahatdan iborat raqamli qo‘llab-quvvatlashning o‘qish samarasini auditoriyadan tashqariga uzaytirishdagi o‘rni tavsiflanadi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, raqamli moliyaviy savodxonlik, elektron davlat xaridlari, g‘aznachilik tizimi, elektron raqamli imzo, malaka oshirish.*

Bir necha yil oldin maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT) direktorining moliyaviy ishi asosan qog‘ozda yuritilar edi. Bugun to‘lovlar g‘aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi, xaridlar elektron savdo maydonchalarida o‘tkaziladi, hisobotlar axborot tizimlari orqali topshiriladi, hujjatlar esa elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. Smeta, xaridlar va hisobot uchun shaxsan javob beradigan direktor endi moliyaviy qoidalarni bilishi bilan cheklanib qololmaydi: u shu qoidalar amalga oshadigan raqamli muhitda ham ishonch bilan harakat qila olishi kerak.

So‘nggi yillarda direktorga qo‘yiladigan talablar sezilarli oshdi. Lavozimga tayinlash uchun menejerlik o‘quv kursini tamomlash va sertifikat olish talab qilinadi [1], davlat xaridlari va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunlar esa tartib-taomillarni bevosita elektron tizimlar bilan bog‘laydi hamda hisobni tashkil etish mas’uliyatini tashkilot rahbariga yuklaydi [2; 3]. Shu bilan birga, direktorlarning aksariyati pedagogik ma’lumotga ega va raqamli moliyaviy

vositalar ular uchun koʻpincha qoʻshimcha toʻsiqqa aylanadi. Tezisning maqsadi – direktor moliyaviy savodxonligi tuzilmasida raqamli tarkibiy qismning oʻrnini aniqlash va uni rivojlantirishda raqamli qoʻllab-quvvatlashning rolini tavsiflash.

Soʻnggi yillardagi tadqiqotlarda raqamli moliyaviy savodxonlik iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi bilan bogʻliq mustaqil oʻlchov sifatida tobora koʻproq ajratilmoqda [4]. OECD/INFE xalqaro vositalar toʻplami kattalar moliyaviy savodxonligini baholashga tegishli raqamli koʻrsatkichlarni kiritgan [5], Yevropa Ittifoqi va OECD tomonidan ishlab chiqilgan kattalar moliyaviy kompetensiyalari ramkasi esa raqamli jihatlarni alohida boʻlimda emas, har bir mazmuniy sohaning ichida tavsiflaydi [6]. Biroq bu yondashuvlarning barchasi bank ilovalari va raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchi xususiy shaxsni nazarda tutadi. Davlat tashkiloti rahbari uchun mazmun boshqacha: gap davlat axborot tizimlarida ishlash, elektron hujjatning yuridik kuchi va tashkilot ma’lumotlarini himoya qilish haqida boradi.

Kattalar ta’limi nazariyasi rahbarlar oʻz amaliyotidagi real vazifalar asosida va oʻrganganini darhol qoʻllash imkoni boʻlganda eng yaxshi oʻrganishini ta’kidlaydi [7]. T.Kayzer va hammualliflarining meta-tahlili moliyaviy ta’lim bilim va xulq-atvorni yaxshilashini, lekin keyingi qoʻllab-quvvatlash boʻlmasa, samara vaqt oʻtishi bilan susayishini koʻrsatadi [8]. Ikkala xulosa ham oʻqitishning raqamli qismini loyihalash uchun muhim.

Tadqiqotda MTT moliyaviy faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar, direktorning lavozim vazifalari mazmuni tahlil qilindi, malaka oshirish kurslari tajribasi umumlashtirildi, oʻqitish mazmuni va vositalari loyihalandi. Raqamli talablar direktor moliyaviy faoliyatining besh funksional yoʻnalishi bilan solishtirildi: byudjet va smeta, byudjetdan tashqari faoliyat, xaridlar va shartnomalar, hisob va hisobot, ichki nazorat va xavflar.

Raqamli qatlam – umumiy talab sifatida. Raqamli tarkibiy qismni oltinchi, alohida yoʻnalishga ajratmasdan, uni beshta yoʻnalishning barchasidan oʻtuvchi qatlam sifatida koʻrish taklif etiladi. Byudjet yoʻnalishida bu – gʻaznachilik toʻlovlari bilan ishlash va smeta ijrosini axborot tizimi ma’lumotlari asosida nazorat qilish. Byudjetdan tashqari faoliyatda – pullik xizmatlar va homiylik tushumlarini elektron hujjat aylanishida toʻgʻri rasmiylashtirish. Xaridlar yoʻnalishida – elektron savdo maydonchasida ishlash, elektron tartib-taomillar muddatlarini va texnik topshiriq tayyorlash tartibini bilish. Hisob va hisobotda – axborot tizimi shakllantirgan hisobotlarni oʻqish va ularning oʻzaro mosligini tekshirish. Nazorat yoʻnalishida esa – axborot xavfsizligi qoidalariga va elektron raqamli imzodan foydalanish tartibiga rioya qilish.

Bunday yondashuvning ikki afzalligi bor. Birinchidan, raqamli ko‘nikmalar mazmundan ajralib qolmaydi: direktor “umuman platformada ishlash”ni emas, balki muayyan moliyaviy amalni uning raqamli shaklida o‘rganadi. Ikkinchidan, tashxis aniqroq bo‘ladi: masalan, direktor xarid qoidalarini bilishi, lekin elektron maydonchada ishlashga ishonchi yo‘qligini aniqlab, o‘qitishni aynan shu bo‘shliqqa yo‘naltirish mumkin.

Raqamli qatlam mazmuni. Unda uch guruh talab ajratiladi. Birinchisi – uskunaviy talablar: g‘aznachilik tizimida, xaridlar maydonchasida va elektron hisobot tizimida amallarni bajara olish. Ikkinchisi – huquqiy talablar: elektron hujjatning yuridik kuchini va hujjatni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlashning oqibatlarini tushunish. Uchinchisi – himoyaviy talablar: elektron imzo kalitlarini saqlash, kirish huquqlarini chegaralash va tashkilot ma’lumotlarini himoya qilish qoidalariga rioya etish. Aynan uchinchi guruh ko‘pincha o‘quv dasturlaridan chetda qoladi, holbuki bu sohadagi xatolar eng katta xavf tug‘diradi.

O‘qitishni raqamli qo‘llab-quvvatlash. Ishlab chiqilgan texnologiyada raqamli qism to‘rt vazifani bajaradi. Elektron kurs me’yoriy materialni mustaqil o‘zlashtirish va oraliq test topshirish imkonini beradi. Hisob-kitob shablonlari smeta va xarid rejasi ustida ishlashni osonlashtiradi va direktorga arifmetikaga emas, qarorni asoslashga e’tibor qaratish imkonini beradi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasiga havolalar me’yorlar tez-tez o‘zgargan sharoitda mazmunning dolzarbligini saqlaydi. Masofaviy maslahat kanallari esa bilimni ish joyiga ko‘chirish bosqichida direktor bilan aloqani uzmaydi. Raqamli qism tashxis ma’lumotlarini yig‘ish va qayta ishlashni ham soddalashtiradi, bu esa monitoringni tezkor qiladi. Mexanizmning dasturiy ta’minoti O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan elektron dastur shaklida rasmiylashtirilgan [9], mazmuniy asosini esa “Moliyaviy menejment” o‘quv qo‘llanmasi tashkil etadi [10].

Muhim metodik shart shundan iboratki, raqamli vositalar auditoriyadagi mashg‘ulotlar o‘rnini bosmaydi, balki ularning atrofidagi tayyorgarlik va mustahkamlash qatlamini egallaydi. Auditoriyadagi mashg‘ulot real vaziyatlarni tahlil qilish, xatolarni muhokama qilish va tajriba almashish joyi bo‘lib qoladi. Raqamli qismning eng katta qiymati esa kurs tugagandan keyin namoyon bo‘ladi – direktor o‘rganganlarini o‘z tashkilotida qo‘llab, auditoriyada tug‘ilmagan savollarga duch kelgan davrda.

Xulosa qilib aytganda, MTT direktori moliyaviy savodxonligining raqamli o‘lchovini har bir funksional yo‘nalish ichidagi umumiy talablar qatlami sifatida loyihalash va unda uskunaviy, huquqiy va himoyaviy qismlarni ajratish

maqsadga muvofiq. O‘qitishni raqamli qo‘llab-quvvatlashni esa ta’lim samarasini auditoriyadan tashqariga uzaytirish vositasi sifatida ko‘rish kerak. Shu asosda quyidagilar taklif etiladi: menejerlik sertifikati dasturlariga g‘aznachilik tizimi va xaridlar maydonchasining o‘quv versiyalarida amaliy topshiriqlarni kiritish; har bir modulga axborot xavfsizligi va elektron imzo mavzusini qo‘shish; kursdan keyin uch-olti oy davomida direktorlarni masofadan qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish, ularga menejerlik sertifikatini berish va nomzodlarni lavozimga tayinlash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 531-son qarori // www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). 2021-yil 22-aprel, O‘RQ-684-son // www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). 2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son // www.lex.uz.

4. Гимранова Г.Х. Цифровая финансовая грамотность в эпоху цифровой трансформации экономики // Экономика и управление: научно-практический журнал. – 2021. – № 1. – С. 98–102.

5. OECD. OECD/INFE Toolkit for Measuring Financial Literacy and Financial Inclusion 2022. – Paris: OECD, 2022.

6. European Union/OECD. Financial Competence Framework for Adults in the European Union. – Paris: OECD Publishing, 2022.

7. Knowles M.S., Holton E.F., Swanson R.A. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development. – 9th ed. – London: Routledge, 2020. – 402 p.

8. Kaiser T., Lusardi A., Menkhoff L., Urban C. Financial Education Affects Financial Knowledge and Downstream Behaviors // Journal of Financial Economics. – 2022. – Vol. 145, № 2. – P. 255–272.

9. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish” elektron dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2025-yil 10-dekabrdagi DGU 57349-son guvohnomasi.

10. Berdimurotov A.X. Moliyaviy menejment: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: MTTDMQTMOI, 2026. – 94 b.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ART-PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI BAHOLASH MEZONLARI VA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH

Bo‘ltakova Roziya Xasan qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagogikasi oliy maktabi
bultakovar@mail.com

Annotatsiya. *Maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining art-pedagogik qobiliyatlarini baholash mezonlari va tajriba-sinov ishlarini tashkil etish tartibi yoritiladi. Tadqiqot Jizzax davlat pedagogika universiteti, Namangan davlat universiteti va Nukus davlat pedagogika institutida jami 431 nafar talaba qamrovida olib borilgan. Motivatsion, kreativ, faoliyatli va shaxsiy rivojlanish mezonlari kuzatiladigan dalillar bilan bog‘lanadi. Maqola metodik va diagnostik yondashuvga bag‘ishlangan; birlamchi natijalar bilan tasdiqlanmagan yakuniy foizlar keltirilmaydi.*

Kalit so‘zlar: *art-pedagogik qobiliyat; boshlang‘ich ta’lim; raqamli muhit; baholash mezoni; tajriba-sinov; portfolio.*

Аннотация. *В статье представлены критерии оценки арт-педагогических способностей будущих учителей начальных классов и организация педагогического исследования в цифровой образовательной среде. Исследованием охвачены 431 студент Джизакского государственного педагогического университета, Наманганского государственного университета и Нукусского государственного педагогического института. Мотивационный, творческий, деятельностный и личностный критерии соотнесены с наблюдаемыми результатами. Статья посвящена методике оценивания; неподтверждённые итоговые проценты не приводятся.*

Ключевые слова: *арт-педагогические способности; начальное образование; цифровая среда; критерии оценивания; педагогический эксперимент; портфолио.*

Abstract. *This article presents assessment criteria for the art-pedagogical abilities of prospective primary school teachers and the organization of a study*

in a digital learning environment. The study encompasses 431 students at Jizzakh State Pedagogical University, Namangan State University, and Nukus State Pedagogical Institute. Motivational, creative, activity-based, and personal development criteria are linked to observable evidence. The paper focuses on assessment design and does not report unverified outcome percentages.

***Keywords**: art-pedagogical abilities; primary teacher education; digital learning environment; assessment criteria; educational study; portfolio.*

Kirish

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining art-pedagogik qobiliyatini raqamli vositadan foydalanish tezligi yoki tayyor dizaynning ko‘rinishi bilangina baholab bo‘lmaydi. Muhim jihat talabaning badiiy g‘oyani ta’limiy vazifaga moslashtirishi, bolaga tushunarli faoliyat yaratishi va tanlagan yechimini izohlashidir. Shu sababli baholash ijodiy mahsulot bilan birga topshiriqning pedagogik maqsadi, bajarilish jarayoni va refleksiv tahlilini ham qamrab olishi lozim.

UNESCOning AKT kompetensiyalari doirasi va DigCompEdu o‘qituvchining raqamli faoliyatini pedagogik vazifalar bilan bog‘laydi [1, 2]. Raqamli dizayn va san’at ta’limi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan tadqiqot ham vositaning ijodiy imkoniyatini pedagogik muhitda ko‘rishga asos beradi [3]. Mahalliy dissertatsiya avtoreferatlarida art-pedagogika asosida kasbiy tayyorgarlik va oliy ta’limning artpedagogik asoslari alohida yoritilgan [8, 9]. Ushbu maqolada esa aynan art-pedagogik qobiliyatning o‘sishini aniqlashga xizmat qiladigan kuzatiladigan ko‘rsatkichlar va ularni qayd etish tartibi bayon qilinadi.

Tadqiqotning umumiy qamrovi uchta oliy ta’lim muassasasi — Jizzax davlat pedagogika universiteti, Namangan davlat universiteti va Nukus davlat pedagogika institutidagi jami 431 nafar talabadan iborat. Tadqiqot obyekti bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli muhitdagi art-pedagogik tayyorgarligidir. Muassasalar kesimidagi sonlar va tajriba hamda nazorat guruhlarining yakuniy taqsimoti mazkur maqolada alohida son bilan ko‘rsatilmaydi: buning uchun yagona tasdiqlangan ishtirokchilar ro‘yxati va baholash bayonnomasi zarur.

Art-pedagogik qobiliyat talabaning san’at, ijodiy ifoda va pedagogik maqsadni bir faoliyatda uyg‘unlashtira olishi sifatida talqin etiladi. Raqamli muhitda unga tasvir, animatsiya, audio, interaktiv ko‘rgazma va hamkorlik vositalari qo‘shiladi. Masalan, talaba raqamli hikoya tuzganida uning syujetini

bolalarning yoshiga moslaydi, mavzuga oid savollar beradi va yaratilgan materialning darsdagi o‘rnini izohlaydi. Badiiy mahsulotning sifati va pedagogik foydalanish sifati bir-biridan ajratib qayd etiladi.

Metodik yondashuv dastlabki diagnostika, faoliyat jarayonidagi monitoring va yakuniy baholashdan tuziladi. Dastlabki bosqichda talabaning tajribasi va muayyan topshiriqni bajarishga tayyorligi aniqlanadi. Jarayonda ish namunasi va uning tahrirlari saqlanadi. Yakunda talaba tayyor mahsulotni taqdim etib, o‘qituvchi va tengdoshlari bildirgan fikrlar asosida qanday o‘zgartirish kiritganini tushuntiradi. Shu uch manba natijani bir martalik taassurot bilan baholash xavfini kamaytiradi.

Motivatsion mezon ijodiy vazifaga kirishish, faoliyatni davom ettirish va pedagogik maqsadga qiziqishni ifodalaydi. Uning dalillari mashg‘ulotdagi savol-javob, topshiriq rejasini mustaqil tuzish, yangi yechim izlash va murakkab joyni bartaraf qilishga urinishdir. So‘rovnoma talabaning munosabatini aniqlashi mumkin, biroq u kuzatilgan faoliyat o‘rnini bosmaydi. O‘qituvchi faqat “qiziqadi” degan umumiy bahoni emas, bu xulosaga olib kelgan aniq ishni qayd etadi.

Kreativ mezon badiiy g‘oyaning o‘ziga xosligi bilan birga uning vazifaga mosligini baholaydi. Mahsulotdagi rang, obraz, kompozitsiya yoki syujet tanlovi bolaga qaysi tushunchani anglatishini talaba izohlashi kerak. Tayyor shablonning rangini almashtirish mustaqil ijod bilan tenglashtirilmaydi. Yangi yechim namunadan qanday farq qilishi, o‘quvchiga qanday faol harakat taklif etishi va zarurat tug‘ilganda qanchalik o‘zgartirilishi mezonning dalillari bo‘ladi.

Faoliyatli mezon dars maqsadini belgilashdan raqamli materialni qo‘llashgacha bo‘lgan qarorlarni qamrab oladi. Talaba vositani tanlash sababini, boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga beriladigan ko‘rsatmani va yakuniy natijani tekshirish usulini yozma yoki og‘zaki tushuntiradi. Masalan, tabiatshunoslik mavzusidagi rasmlar to‘plami o‘quvchiga kuzatish va tasniflash topshirig‘i bilan birga berilgandagina didaktik mahsulotga aylanadi. “Dasturda ishlay oladi” degan baho bu metodik qarorlarni aks ettirmaydi.

Shaxsiy rivojlanish mezoni talabaning o‘z ishiga tanqidiy qarashi va keyingi o‘sish yo‘lini belgilashini ko‘rsatadi. Portfolio ichida dastlabki mahsulot, tahrirlangan mahsulot, olingan fikr va qisqa refleksiv izoh yonma-yon qo‘yiladi. Talaba o‘zgartirish kiritishining sababini tushuntira olsa, baholash faqat tayyor fayl sifatiga bog‘lanib qolmaydi. Bu mezon guruhdagi tengdoshlararo fikr almashishni ham izchil pedagogik dalilga aylantiradi.

Mezonlar bir xil dalil bilan o‘lchanmasligi zarur. Motivatsiya uchun kuzatish varaqasi va qisqa so‘rov, kreativlik uchun topshiriq mahsuloti va g‘oya

izohi, faoliyat uchun dars ishlanmasi hamda foydalanish namoyishi, shaxsiy rivojlanish uchun portfolio va refleksiv yozuv mos keladi. Har bir vosita topshiriq boshlanishidan avval talabaga tushuntiriladi. O‘quvchi yoshiga moslik, pedagogik maqsadning ravshanligi, mualliflik va texnik qulaylik umumiy rubrikada alohida band bo‘lishi mumkin.

Baholash darajalari tavsifi kuzatiladigan harakatga asoslanadi: yuqori darajada talaba pedagogik maqsadni mustaqil asoslaydi va mahsulotni sinfdosh mulohazasiga tayangan holda takomillashtiradi; o‘rta darajada qarorlarni qisman izohlaydi va ayrim yordamga muhtoj bo‘ladi; boshlang‘ich darajada esa raqamli mahsulotni dars vazifasi bilan bog‘lashda muntazam yordam talab qilinadi. Daraja nomlarining o‘zi baholashni aniq qilmaydi; rubrikada aynan qanday dalil ko‘rilishi ko‘rsatilishi kerak.

Uch muassasada mezonlar bir xil mazmunda ishlatilishi uchun baholovchilar oldindan bir nechta namuna ishni birgalikda ko‘rib chiqishi maqsadga muvofiq. Aks holda bir muassasadagi “yuqori” baho boshqa muassasadagi xuddi shu toifadan farq qilishi mumkin. Baholovchi fikrini ishning konkret qismiga, masalan, o‘quvchi uchun tuzilgan savolga yoki qayta ishlangan sahnaga bog‘laydi. Talabaning shaxsiy ma’lumotlarini yashirgan holda namunalar saqlansa, keyingi tahlilda baholashdagi farqlarni qayta ko‘rish osonlashadi.

Aniqlovchi bosqichda ta’lim dasturlari va mavjud mashg‘ulotlar o‘rganiladi, boshlang‘ich tayyorgarlik aniqlanadi, topshiriqlar va rubrika sinaladi. Ushbu bosqichning vazifasi o‘quvchi uchun badiiy material yaratish bo‘yicha talabaning dastlabki qobiliyatini hujjatlashtirishdir. Natijalar keyingi mashg‘ulotlarda qaysi topshiriqlarga ko‘proq vaqt ajratishni belgilaydi. Muassasalardagi texnik sharoitlar farqi ham qayd etilishi zarur.

Shakllantiruvchi bosqichda talabalar vizual material, qisqa raqamli hikoya, didaktik plakat va elektron portfolio tayyorlaydi. Har mahsulot uchun sinf, mavzu, maqsad, o‘quvchi bajaradigan harakat va baholash usuli alohida yoziladi. Badiiy faoliyatni fan mazmuniga moslashtirish o‘qituvchining ko‘rsatmasi, kichik guruhda sinash va tahrir qilish orqali amalga oshadi. Hamkorlik jarayonida kim g‘oya bergani, kim raqamli ishlovni bajargani va kim pedagogik savollarni tuzgani ham qayd etiladi.

Yakuniy bosqichda ayni mezonlar asosida ish namunalari qayta baholanadi. Dastlabki va yakuniy topshiriq sharti sezilarli farq qilsa, natija faqat baho o‘zgarishi bilan izohlanmaydi. Har talabaning ikki davrdagi ishlarini identifikatorsiz kod orqali bog‘lash, ishtirok etmay qolganlar sonini alohida qayd

etish va baholovchilarning bir xil rubrikadan foydalanganini ko‘rsatish keyingi statistik tahlil uchun zarur. Shu tartib umumiy 431 nafar qamrovni muassasalar, guruhlar va tahlil davrlari bilan aniq bog‘lash imkonini beradi.

Ma’lumotlar tayyor bo‘lganda har muassasa uchun boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlar alohida jadvalda beriladi, so‘ng guruhlar bo‘yicha yig‘ma tahlil amalga oshiriladi. Foiz hisobida surat va maxraj ochiq yozilishi kerak: masalan, muayyan toifani olgan talabalar soni shu guruhdagi haqiqiy baholangan talabalar soniga bo‘linadi. Umumiy qamrov 431 nafar bo‘lishi barcha bosqichdagi har bir jadvalning maxraji ham 431 ekanini anglatmaydi. Bu farq ochiq ko‘rsatilishi natijani tushunishga xizmat qiladi.

Agar yakuniy natija to‘rt tartibli toifada berilsa, tajriba va nazorat guruhlarining taqsimoti Pearson χ^2 yordamida taqqoslanishi mumkin; bunda kutiladigan chastotalar va erkinlik darajasi hisobga olinadi [6]. Boshlang‘ich va yakuniy individual ballar saqlangan bo‘lsa, takroriy o‘lchovga mos boshqa tahlil ham tanlanadi. Statistik ahamiyatning o‘zi pedagogik ta’sirning hajmini yoki sababini to‘liq ko‘rsatmaydi. Shuning uchun sonli natijalar talaba ishlari, tahrirlar va kuzatuv qaydlari bilan birga muhokama qilinadi.

UNESCOning texnologiya haqidagi monitoring hisoboti ta’limda vositaning o‘zi emas, o‘quvchi ehtiyoji va dalilga tayangan qaror muhimligini eslatadi [4]. OECD raqamli ekotizimda tashkiliy va texnik sharoitlarni birga ko‘rishni taklif qiladi [5]. Shunga ko‘ra bir muassasada raqamli mahsulot sifati yuqoriroq bo‘lsa, bunga faqat metodika emas, foydalanilgan qurilma, mashg‘ulot vaqti va talabalarning boshlang‘ich tajribasi ham ta’sir qilishi mumkin. Bunday omillarni protokolda qayd etish natija talqinini aniqroq qiladi.

Xulosa

Uchta oliy ta’lim muassasasida 431 nafar talaba ishtirokidagi tadqiqotni maqolada izchil yoritish uchun art-pedagogik qobiliyatning motivatsion, kreativ, faoliyatli va shaxsiy rivojlanish mezonlarini kuzatiladigan dalillarga bog‘lash zarur. Dastlabki diagnostika, jarayon monitoringi, yakuniy mahsulot va refleksiv portfolio birgalikda qo‘llanganda pedagogik o‘sishning mazmuni ravshanlashadi. Muassasalar va guruhlar kesimidagi tasdiqlangan birlamchi natijalar alohida taqdim etilgach, metodikaning miqdoriy samaradorligi haqida asosli xulosa chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris, 2018. https://www.unesco.org/en/articles/unesco-ict-competency-framework-teachers

2. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. European Commission, 2017. https://doi.org/10.2760/159770

3. González-Zamar M.-D., Abad-Segura E. Digital Design in Artistic Education: An Overview of Research in the University Setting. Education Sciences, 2021, 11(4), 144. https://doi.org/10.3390/educsci11040144

4. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023. https://www.unesco.org/gem-report/en/publication/technology

5. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/c74f03de-en

6. OpenStax. Introductory Statistics. Section 11.3: Test of Independence. Rice University. https://openstax.org/books/introductory-statistics/pages/11-3-test-of-independence

7. Echegoyen-Sanz Y., Morote Á., Martín-Ezpeleta A. Transdisciplinary Education for Sustainability: Creativity and Awareness in Teacher Training. Frontiers in Education, 2024, 8:1327641. https://doi.org/10.3389/feduc.2023.1327641

8. Zubaydullayev O‘.R. Bo‘lajak o‘qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO7617fO1.file

9. Mustafayev Sh.N. Oliy ta’lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini rivojlantirish. DSc dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2023. https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO8424fO1.file

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ART-PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MODELINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH

Bo‘ltakova Roziya Xasan qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagogikasi oliy maktabi
bultakovar@mail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining art-pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modelni o‘quv jarayoniga joriy etish mexanizmi tahlil qilinadi. Diagnostik-motivatsion, mazmuniy-faoliyatli va refleksiv-korreksion bosqichlarning vazifalari, raqamli ijodiy topshiriqlar hamda baholash vositalari ko‘rsatiladi. Modelning amaliy jihati badiiy mahsulotni boshlang‘ich sinfdagi aniq ta’limiy vazifaga moslashtirish bilan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim muhiti; art-pedagogik qobiliyat; boshlang‘ich ta’lim; pedagogik model; raqamli portfolio*

Аннотация: *В статье рассматривается механизм внедрения педагогической модели развития арт-педагогических способностей будущих учителей начальных классов в цифровой образовательной среде. Раскрыты задачи диагностико-мотивационного, содержательно-деятельностного и рефлексивно-коррекционного этапов, цифровые творческие задания и средства оценивания. Практическая направленность модели определяется адаптацией художественного продукта к конкретной учебной задаче начальной школы.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда; арт-педагогические способности; начальное образование; педагогическая модель; цифровое портфолио*

Abstract: *The article examines the implementation of a pedagogical model for developing the art-pedagogical abilities of prospective primary school teachers in a digital learning environment. It describes the diagnostic and motivational, activity-based, and reflective stages, along with digital creative*

tasks and assessment tools. Its practical focus is the adaptation of artistic products to specific primary classroom objectives.

Keywords: *digital learning environment; art-pedagogical abilities; primary education; pedagogical model; digital portfolio*

Kirish

Boshlang‘ich ta’limga tayyorlanayotgan talaba san’at vositalarini bilishi bilan birga, ularni bolaga tushunarli ta’limiy faoliyatga aylantira olishi lozim. Raqamli muhit bunday faoliyatga tasvir, tovush, qisqa video va hamkorlikdagi tahrir imkoniyatini qo‘shadi. Biroq tayyor dizayn shablonidan foydalanishning o‘zi pedagogik natija bermaydi: raqamli mahsulotning dars maqsadiga mosligi, bolaning yoshi va bajaradigan amali ham oldindan belgilanadi.

Raqamli texnologiyalarni san’at bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ko‘paygan bo‘lsa-da, tayyorlanayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yaratgan badiiy mahsulotning darsdagi aniq o‘quv harakatiga qanday aylanishi asosiy metodik masala bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola shu masalani pedagogik modelning ichki bog‘lanishlari, uch bosqichli tatbiq tartibi va kuzatiladigan baholash dalillari orqali ochib beradi.

Mavzuning o‘rganilganligi va tadqiqot yondashuvi

UNESCOning o‘qituvchilar uchun AKT kompetensiyalari doirasi hamda DigCompEdu texnologiyani pedagogik vazifa va kasbiy tayyorgarlik bilan bog‘laydi [1, 2]. Raqamli dizaynning san’at ta’limidagi o‘rnini tahlil qilgan González-Zamar va Abad-Segura mazkur yo‘nalishlar kesishishini ko‘rsatgan [3]. UNESCOning keyingi tahlili vositani o‘quvchi ehtiyojiga mos tanlashni, OECD esa uni ta’lim ekotizimining qismi sifatida ko‘rishni tavsiya etadi [4, 5].

Mahalliy tadqiqotlardan Zubaydullayev bo‘lajak o‘qituvchini art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini [9], Mustafayev esa oliy ta’lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini o‘rgangan [10]. Mazkur maqolaning alohida yo‘nalishi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining badiiy g‘oyani raqamli mahsulotga, so‘ng bolalar uchun bajariladigan o‘quv vazifasiga aylantirishiga e’tibor qaratishdir.

Tahlilda muallifning pedagogik modeli amaliy tartibga keltirildi: maqsad va mazmun belgilandi, talabaning ijodiy faoliyati bilan raqamli vosita vazifasi muvofiqlashtirildi, yakuniy ish esa darsda foydalanish va refleksiya mezonlariga bog‘landi. Maqola pedagogik tizimning tatbiq metodikasini yoritadi; miqdoriy samaradorlik haqidagi xulosalar bu yerda ilgari surilmaydi.

Pedagogik modelning mazmuni va ishlash mexanizmi

Conclusion. The novel has religious and didactic features: each chapter includes moral generalizations, and the work has a happy ending, the quintessence of which is a spiritual hymn that marks the father's return. The epilogue depicts the happy marriage of one of the sisters. Christmas marks a turning point from misfortune to prosperity and symbolizes the path of human initiation, as this time is associated with spiritual transformation. The protagonists' high moral ideals are shaped by their father's profession as a priest, their mother's upbringing, and the intellectual atmosphere in which the girls grow up. The work explicitly presents a symbolic initiation for each of the heroines: through their journey of maturation and self-knowledge, they mature and develop their best qualities.

References

1. Shalimova, N. S. Poetics of the initiation novel in modern US literature / N. S. Shalimova // Philological Sciences. Questions of Theory and Practice. — 2022. — Vol. 15, no. 12. — P. 3800–3803.

2. Elbert, S. A Hunger for Home: Louisa May Alcott’s Place in American Culture / S. Elbert. — New Brunswick : Rutgers University Press, 1987. — 346 p.

3. Stern, M. B. Louisa May Alcott: A Biography / M. B. Stern. — Hanover ; London : University Press of New England, 1999. — 422 p.

4. Trites, R. S. Twain, Alcott, and the Birth of the Adolescent Reform Novel / R. S. Trites. — Iowa City : University of Iowa Press, 2009. — 232 p.

5. Belova, A. O. The works of Louisa May Alcott in the context of children’s literature in England and the USA in the second half of the 19th – early 20th centuries : dissertation for the degree of Candidate of Philological Sciences / A. O. Belova. — Moscow, 2013. — 243 p.

6. Shishkova, I. A. Sentimentalist revolution and Victorian values in US literature / I. A. Shishkova // Bulletin of Kostroma State University. — 2019. — No. 2. — P. 86–90.

7. Polyakov, O. Yu. Transcendentalist concept of education in the story of L. M. Alcott “Little Women” / O. Yu. Polyakov, O. A. Polyakova // Bulletin of Humanitarian Education. — 2020. — No. 2 (18). — P. 86–93.

8. Crawford, B. V. American Literature / B. V. Crawford, A. C. Kern, M. H. Needleman. — New York : Barnes and Noble, 1955. — P. 144.

9. Anthony, K. Louisa May Alcott / K. Anthony. — New York, 1938. — P. 162.

10. Alcott, L. M. Little Women / L. M. Alcott. — Random House, 2017. — 400 p.

11. History of US Literature : in 5 volumes / edited by A. M. Zverev. — Moscow : Nasledie, 1999. — Vol. 2 : Literature of the Romantic Era. — 461 p.

ОБРАТНЫЙ ПЕРЕВОД КАК СПОСОБ РАСШИРЕНИЯ РУССКО-УЗБЕКСКОГО ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА

Анварова Мафтунахон Дилмурод Кизи

Аннотация. *Рассматривается использование обратного перевода для получения синтетических параллельных данных. Определены условия отбора узбекских текстов, контроля смысловой эквивалентности и включения автоматически созданных пар в обучение русско-узбекской системы. Обоснована необходимость раздельного учёта происхождения данных и независимой проверки их эффективности.*

Ключевые слова: *обратный перевод, синтетические данные, параллельный корпус, русский язык, узбекский язык, нейронный машинный перевод.*

Недостаток качественных параллельных текстов ограничивает возможности обучения русско-узбекских систем машинного перевода. Исследование машинного перевода тюркских языков, проведённое Дж. Мирзахаловым и соавторами, показывает значимость ресурсной обеспеченности и специально подготовленных тестовых материалов.[38] Одним из способов расширения обучающих данных является обратный перевод. Цель настоящего обзора — определить условия его применения к русско-узбекскому направлению с учётом лингвистического качества создаваемых пар. Используется сравнительное обобщение научных публикаций.

В нейронном машинном переводе обратный перевод предполагает автоматическое преобразование монолингвальных текстов целевого языка в исходный язык. Полученные пары дополняют корпус для обучения основного направления. Такой способ использования монолингвальных данных исследован Р. Сеннрихом, Б. Хэддоу и А. Бёрч.[39] Для системы, переводящей с русского на узбекский, исходным материалом расширения служат узбекские тексты: вспомогательная модель переводит их на русский

[38] Mirzakhalov J. et al. A Large-Scale Study of Machine Translation in Turkic Languages. 2021. P. 5876–5890.
[39] Sennrich R., Haddow B., Birch A. Improving Neural Machine Translation Models with Monolingual Data. 2016. Разд. 3.2.

язык. При последующем обучении русский синтетический сегмент становится входом, а исходный узбекский текст — целевым образцом.

Преимущество данной процедуры заключается в сохранении естественного текста на целевой стороне обучающей пары. Узбекский материал может содержать разнообразные словоформы, устойчивые сочетания и конструкции, редко встречающиеся в имеющемся двуязычном корпусе. Вместе с тем монолингвальный текст требует предварительной проверки: происхождение из открытого источника не гарантирует нормативности и отсутствия машинной генерации. Отбор следует соотносить с задачей системы, например с переводом учебных или научных материалов, и сопровождать фиксацией источников и жанров.

Главное ограничение связано с тем, что естественность узбекского предложения не обеспечивает эквивалентности автоматически созданной русской версии. Рассмотрим иллюстративный пример: «Talaba topshiriqni hali bajarmadi» — «Студент ещё не выполнил задание». Если вспомогательная модель сформирует вариант «Студент уже выполнил задание», в обучающей паре возникнет противоречие между утвердительным и отрицательным содержанием. Этот пример сконструирован для пояснения риска, а не получен при тестировании определённой системы. Подобные ошибки особенно существенны при передаче отрицания, времени, количества и отношений между участниками ситуации.

С. Едунов и соавторы установили, что результативность обратного перевода зависит от способа генерации синтетических предложений; преимущества отдельных методов различаются в зависимости от ресурсных условий.[40] Поэтому нельзя заранее признать оптимальным один способ декодирования или единую долю синтетических пар для русско-узбекского корпуса. Вариативность формулировок может быть полезна для обучения, однако её необходимо отличать от искажения содержания. Выбор параметров должен опираться на валидационную выборку, а не на показатели итогового теста.

Для русско-узбекского материала предлагается последовательная проверка синтетических данных. Сначала исключаются пустые, дублирующиеся и ошибочно определённые по языку сегменты. Затем сопоставляются числа, имена собственные, термины и смысловые отношения. Автоматические признаки используются для выделения

[40] Edunov S., Ott M., Auli M., Grangier D. Understanding Back-Translation at Scale. 2018. P. 489–500.

сомнительных пар, после чего проводится выборочная экспертная проверка. Каждая пара должна сопровождаться указанием синтетического происхождения, версии вспомогательной модели и настроек генерации. Это позволяет выявлять источники повторяющихся ошибок и при необходимости исключать соответствующие группы данных.

Эффективность расширения корпуса целесообразно проверять сравнением обучения на исходных данных, на исходных данных с нефильтрованными синтетическими парами и с проверенными парами. Архитектура, вычислительный бюджет и тестовый набор должны быть сопоставимыми; пересечения теста с монолингвальным материалом расширения исключаются заранее. М. Пост показал зависимость BLEU от параметров обработки текста, что требует единообразного расчёта метрики. [41] Количественное сравнение следует дополнять анализом смысловых и грамматических ошибок, особенно связанных с узбекскими аффиксами и русскими предложно-падежными конструкциями.

Таким образом, обратный перевод представляет способ контролируемого расширения обучающего корпуса, при котором естественные узбекские тексты соединяются с автоматически полученными русскими соответствиями. Его практическая ценность определяется сохранением смысла, соответствием предметной области и прозрачностью происхождения данных. Для русско-узбекской системы обоснованным направлением дальнейшего исследования является экспериментальное сравнение способов генерации и фильтрации синтетических пар на независимом материале.

Список литературы

1. Mirzakhalov J., Babu A., Ataman D. et al. A Large-Scale Study of Machine Translation in Turkic Languages // Proceedings of the 2021 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing. Association for Computational Linguistics, 2021. P. 5876–5890. DOI: 10.18653/v1/2021.emnlp-main.475.

2. Sennrich R., Haddow B., Birch A. Improving Neural Machine Translation Models with Monolingual Data // Proceedings of the 54th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics. Vol. 1: Long Papers. Berlin: Association for Computational Linguistics, 2016. P. 86–96. DOI: 10.18653/v1/P16-1009.

[41] Post M. A Call for Clarity in Reporting BLEU Scores. 2018. P. 186–191.

3. Edunov S., Ott M., Auli M., Grangier D. Understanding Back-Translation at Scale // Proceedings of the 2018 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing. Brussels: Association for Computational Linguistics, 2018. P. 489–500. DOI: 10.18653/v1/D18-1045.

4. Post M. A Call for Clarity in Reporting BLEU Scores // Proceedings of the Third Conference on Machine Translation: Research Papers. Brussels: Association for Computational Linguistics, 2018. P. 186–191. DOI: 10.18653/v1/W18-6319.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “YOSHLIK” KONSEPTINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOPRAGMATIK VA DISKURSIV TAHLILI

Mamatmurodova Sohiba Muhammad qizi
Termiz Davlat Universiteti

Annotatsiya*: Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillari frazeologik fondining eng serqirra va faol qatlamlaridan biri bo‘lgan “yoshlik” konseptini ifodalovchi birliklarning lingvopragmatik hamda diskursiv xususiyatlari tizimli tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqotning nazariy negizini kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va diskurs tahlili yo‘nalishlarining uyg‘unlashtirilgan yondashuvi tashkil etadi. Muallif badiiy, media hamda og‘zaki-kundalik diskurs materiallarini qiyosiy tahlil qilish orqali yoshlik konseptiga oid frazeologizmlarning nominativ vazifadan tashqari kuchli ekspressiv-baholovchi, ta'sir etuvchi va identifikatsion funksiyalarga ega ekanligini asoslaydi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarda tarbiyaviy-axloqiy va jamoaviy pragmatika, ingliz tilidagi birliklarda esa individual erkinlik, tanlov huquqi va shaxsiy tajriba pragmatikasi ustunlik qiladi. Olingan xulosalar chog‘ishtirma frazeologiya, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot nazariyasi uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *konsept, frazeologik birlik, lingvopragmatika, diskursiv tahlil, lingvokulturologiya, kognitiv metafora, chog‘ishtirma tilshunoslik, “yoshlik” konsepti, madaniy kod.*

Аннотация: *В статье представлено системное исследование лингвопрагматических и дискурсивных характеристик единиц, репрезентирующих концепт «молодость» — один из наиболее многогранных и активных пластов фразеологического фонда как в английском, так и в узбекском языке. Работа базируется на комплексном подходе, объединяющем когнитивную лингвистику, лингвокультурологию и дискурс-анализ. На основе сравнительного анализа материалов художественного, медийного и разговорного дискурсов автор демонстрирует, что фразеологические единицы, связанные с концептом «молодость», помимо номинативной функции, выполняют важные*

экспрессивно-оценочные, убеждающие и идентификационные функции. Анализ показывает, что для узбекских фразеологизмов характерна прагматика нравственного воспитания и коллективизма, тогда как в английских единицах акцент делается на прагматике личной свободы, праве выбора и личном опыте. Полученные результаты имеют практическое значение для сопоставительной фразеологии, переводоведения и теории межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: *концепт, фразеологическая единица, лингвопрагматика, дискурс-анализ, лингвокультурология, когнитивная метафора, сопоставительная лингвистика, концепт «молодость», культурный код.*

Abstract: *This article presents a systematic study of the linguopragmatic and discursive characteristics of units representing the concept of "youth"—one of the most multifaceted and active layers of the phraseological stock in both English and Uzbek. The study is grounded in an integrated approach combining cognitive linguistics, linguoculturology, and discourse analysis. Through a comparative analysis of materials from literary, media, and everyday spoken discourse, the author demonstrates that phraseological units related to the concept of youth possess—in addition to their nominative function—significant expressive-evaluative, persuasive, and identificational functions. The analysis reveals that Uzbek phraseological units are dominated by a pragmatics of moral upbringing and collectivism, whereas English units emphasize the pragmatics of individual freedom, the right to choose, and personal experience. The findings are of practical significance for comparative phraseology, translation studies, and the theory of intercultural communication.*

Keywords: *concept, phraseological unit, linguopragmatics, discourse analysis, linguoculturology, cognitive metaphor, comparative linguistics, concept of "youth", cultural code.*

Zamonaviy tilshunoslik fanida antroposentrik paradigmaning yetakchi o‘ringa chiqishi bilan til nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy tajribasining lingvistik shaklda mujassamlashgan ko‘zgusi sifatida talqin etilmoqda. Ushbu yondashuv doirasida kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya fanlarining kesishgan nuqtasida “konsept” tushunchasi markaziy tadqiqot obyektiga aylandi. Konsept — bu shunchaki tushuncha yoki ma’noning oddiy majmui emas, balki millat ongida asrlar

davomida shakllangan, hissiy-baholovchi, obrazli va qadriyat komponentlarini o‘zida mujassam etgan murakkab mental tuzilma hisoblanadi.

Konsept nazariyasining rivojlanishiga Yu.S. Stepanov, V.I. Karasik, A. Wierzbicka, G. Lakoff va M. Johnson kabi olimlarning ishlari salmoqli hissa qo‘shgan[42][43][44][45]. Xususan, G. Lakoff va M. Johnsonning kognitiv metafora nazariyasiga ko‘ra, inson mavhum tushunchalarni ko‘pincha aniq, hissiy jihatdan idrok etiladigan sohalar (harakat, makon, tabiat hodisalari) orqali anglaydi, bu esa konseptlarning til birliklarida qanday obrazli tarzda voqelanishini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi[46]. A. Wierzbicka esa har bir tilning o‘ziga xos “semantik universumi” mavjudligini, bu universum orqali millatning dunyoni idrok etish tarzi til birliklarida aks etishini asoslab bergan[47].

Inson hayotining bosqichlarini ifodalovchi konseptlar orasida “yoshlik” alohida o‘rin tutadi, chunki u nafaqat fiziologik yosh davrini, balki umidlar, orzular, erkinlik, tajribasizlik, jasorat va o‘zgarish kabi ko‘plab qo‘shimcha ma’no komponentlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Yoshlik konsepti — universal, ya'ni barcha madaniyatlarda mavjud bo‘lgan tushuncha, biroq uning lingvistik ifodalanish shakllari, pragmatik yuki va baholovchi ottenkalari millatdan-millatga sezilarli darajada farq qiladi.

Frazeologik birliklar til tizimining eng “madaniy yuklangan” qatlami sifatida tan olinadi. V.N. Teliyaning ta’kidlashicha, frazeologizmlar shaxsning dunyoni idrok etishida nafaqat nominativ, balki kuchli konnotativ-pragmatik vazifani bajaradi, ular millatning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va qadriyatlar tizimini “ivirsiqlashtirilgan” shaklda saqlaydi [48]. Shu boisdan “yoshlik” konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarni tadqiq etish orqali til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada chuqurroq ochib berish mumkin bo‘ladi.

Kognitiv metafora nazariyasi nuqtai nazaridan [49] “yoshlik” konsepti ko‘pincha tabiat hodisalari, xususan, fasllar (bahor), o‘simliklar (gul, ko‘chat) va harakat (uchish, oqim) sohalari orqali konseptuallashtiriladi. Bunday metaforik proyeksiyalar ham ingliz, ham o‘zbek tilida kuzatiladi, biroq metaforaning aniq lingvistik shakli va u bilan bog‘liq baholovchi konnotatsiyalar milliy xususiyat kasb etadi. Bu qarash V.A. Maslovaning lingvokulturologiya fani frazeologik

[42]Stepanov Yuriy Sergeyevich. Konstantы: Slovar russkoy kulturы. – Moskva: Akademicheskiy proekt, 2001.
[43]Karasik Vladimir Ilyich. Yazыkovoy krug: lichnost, kontseptы, diskurs. – Volgograd: Peremena, 2002.
[44]Wierzbicka Anna. Semantics, Culture, and Cognition. – Oxford: Oxford University Press, 1992.
[45]Lakoff George, Johnson Mark. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
[46]Lakoff George, Johnson Mark. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
[47]Wierzbicka Anna. Semantics, Culture, and Cognition. – Oxford: Oxford University Press, 1992.
[48]Teliya Veronika Nikolayevna. Russkaya frazeologiya: Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspektы. – Moskva: Yazыki russkoy kulturы, 1996.
[49]Lakoff George, Johnson Mark. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

birliklardagi obrazlarni madaniy “tayanch metaforalar” sifatida talqin qilish lozimligi haqidagi fikri bilan ham uyg‘unlashadi[50].

Frazeologiya nazariyasida V.N. Teliyaning lingvokulturologik metodi alohida ahamiyatga ega. Ushbu metodga ko‘ra, frazeologik birlik o‘zida faqat denotativ ma’noni emas, balki madaniy-milliy “ichki formani”, konnotativ va pragmatik komponentlarni saqlaydi, bu esa frazeologizmni oddiy leksik birlikdan farqlab turadigan asosiy xususiyatdir[51]. Shu bilan birga, M.L. Kovshovaning ta’kidlashicha, frazeologik birlik muloqot jarayonida “madaniy kod”ni faollashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi va nutq subyektining kommunikativ strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi[52].

O‘zbek tilshunosligida Sh. Safarovning pragmalingvistika bo‘yicha ishlari nutqiy akt nazariyasi va kommunikativ niyat tushunchalarini o‘zbek tili materiali asosida tizimlashtirgan holda, ushbu tadqiqot uchun muhim nazariy tayanch nuqta bo‘lib xizmat qildi[53]. Shuningdek, Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” frazeologik birliklarning semantik-struktura tahlili uchun asosiy leksikografik manba sifatida foydalanildi[54], J. Boronovning ingliz va o‘zbek tillari frazeologik birliklari bo‘yicha chog‘ishtirma tadqiqotlari esa metodologik yo‘naltiruvchi manba vazifasini o‘tadi[55].

Badiiy matnlarda yoshlikka oid frazeologizmlar, birinchi navbatda, personajning xarakterini ochish, uning ichki holati yoki xatti-harakatiga nisbatan muallif pozitsiyasini ifodalash vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Ingliz badiiy diskursida *“to sow one's wild oats”* (yoshlikda erkin, beparvo hayot kechirish, xatolarga yo‘l qo‘yish), *“in the springtime of life”* (hayotning bahor faslida, yoshlik chog‘ida), *“salad days” (*tajribasizlik, yashillik davri) kabi birliklar keng qo‘llaniladi; so‘nggi ibora Shekspir davri ingliz adabiy tiliga borib taqaladi va zamonaviy frazeologik lug‘atlarda ham izohli birlik sifatida qayd etilgan[56]. Bu birliklar diskursda ko‘pincha yoshlikning erkinligi, notinchligi va tajriba to‘plash jarayoni sifatidagi obrazini shakllantiradi.

O‘zbek badiiy diskursida esa *“qoni qaynagan zamon”, “og‘zi sut hidi anqigan”, “eti suyagiga yetib ulgurmagan”, “yigitlik chog‘i”, “gul kabi*

[50]Maslova Valentina Avraamovna. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2004.
[51]Teliya Veronika Nikolayevna. Russkaya frazeologiya: Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. – Moskva: Yazыki russkoy kulturы, 1996.
[52]Kovshova Mariya Lvovna. Lingvokulturologicheskiy metod vo frazeologii. – Moskva: URSS, 2016.
[53]Safarov Shahriyor. Pragmalingvistika. – Toshkent: Milliy ensiklopediya, 2008.
[54]Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. (Muallifning to‘liq ismi manbalarda faqat “Sh.” shaklida qayd etilgan.)
[55]Boronov J. Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili. – Toshkent: Fan, 2015. (Muallifning to‘liq ismi manbalarda faqat “J.” shaklida qayd etilgan.)
[56]Cambridge International Dictionary of Idioms. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

ochilgan yosh” kabi frazeologizmlar faol qo‘llaniladi. Ushbu birliklarning umumiy xususiyati shundaki, ular yoshlikning jismoniy-hissiy jonliligi (“qoni qaynagan”) bilan bir qatorda, tajribasizlik va kattalar maslahatiga muhtojlik (“og‘zi sut hidi anqigan”) semantikasini ham yaqqol ifodalaydi, bu esa o‘zbek mentalitetida yoshlikning avtonom emas, balki katta avlod nazorati va g‘amxo‘rligi ostidagi davr sifatida idrok etilishidan dalolat beradi.

Zamonaviy media diskursda yoshlik konsepti, birinchi navbatda, ijtimoiy faollik, salohiyat va imkoniyatlar davri sifatida talqin etiladi. Ingliz media matnlarida *“young blood”* (yangi, ilg‘or kuch, yangi avlod vakili), “*the youth of today”* kabi birliklar ko‘pincha innovatsiya, tadbirkorlik va individual muvaffaqiyat mavzusidagi maqolalarda qo‘llanadi, bu esa ingliz madaniyatida yoshlikning shaxsiy erkinlik va mustaqil muvaffaqiyat bilan bog‘liq talqin etilishini tasdiqlaydi.

O‘zbek media diskursida esa yoshlarga qaratilgan matnlarda ko‘pincha *“yoshlarimiz — yurtimiz kelajagi”, “yosh avlod tarbiyasi”* kabi turg‘un birikmalar bilan yonma-yon holda *“qoni qaynagan yoshlar”, “ilm-fanga chanqoq yoshlar”* kabi frazeologik xarakterdagi iboralar qo‘llaniladi. Bunday matnlarda yoshlik konsepti individual emas, balki jamoaviy-milliy manfaat nuqtai nazaridan, ya'ni yoshlarning jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyati kontekstida taqdim etiladi.

Og‘zaki-kundalik muloqot materiallari tahlili shuni ko‘rsatdiki, yoshlikka oid frazeologizmlar kundalik suhbatlarda ko‘pincha nasihat, ogohlantirish yoki xotira-nostalji funksiyasini bajaradi. O‘zbek og‘zaki nutqida katta yoshdagi suhbatdoshlar tomonidan “yoshlik — bir davlat, uni bilib qadrla” kabi maqol-frazeologik xarakterdagi birliklar yosh avlodga nasihat berish, ularni oqilona xatti-harakatga undash maqsadida faol qo‘llaniladi.

Ingliz og‘zaki nutqida esa *“you're only young once” (*faqat bir marta yosh bo‘lasan) iborasi ko‘pincha xavf-xatarli yoki notandart qarorni oqlash, shaxsiy tajriba to‘plashga undash kontekstida ishlatiladi, bu esa o‘zbek tilidagi *“ehtiyot bo‘l, yoshlik o‘tkinchi”* kabi ogohlantiruvchi pragmatikaga nisbatan qarama-qarshi, ya'ni undovchi-ruxsat beruvchi pragmatik yo‘nalishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tahlil qilingan birliklarning pragmatik funksiyalari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (foizlar tanlangan korpus doirasida hisoblangan nisbiy ko‘rsatkichlar sifatida keltirilgan):

Pragmatik funksiya	Ingliz tili (%)	O‘zbek tili (%)
Individual erkinlik / tanlov pragmatikasi	47	18

Pragmatik funksiya	Ingliz tili (%)	O‘zbek tili (%)
Tarbiyaviy-axloqiy nasihat pragmatikasi	21	44
Baholash / xarakterlash pragmatikasi	24	26
Jamoaviy mas’uliyat / vatanparvarlik pragmatikasi	8	12

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilidagi frazeologik birliklarda individual erkinlik va tanlov pragmatikasi (47%) ustunlik qilsa, o‘zbek tilida tarbiyaviy-axloqiy nasihat pragmatikasi (44%) yetakchi o‘rinni egallaydi.

Olingan natijalar “yoshlik” konseptining universal tabiatga ega bo‘lishiga qaramay, uning lingvopragmatik voqelanishi milliy-madaniy kontekstga chambarchas bog‘liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu holatni tushuntirishda G. Hofstedening madaniy o‘lchovlar nazariyasiga, xususan, uning individualizm–kollektivizm o‘lchoviga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir[57]: individualistik jamiyatlarga xos bo‘lgan ingliz madaniyatida shaxsiy erkinlik va mustaqil tanlov qadriyat sifatida yuqori baholanadi, bu esa tilda yoshlikni “tajriba to‘plash va tanlov erkinligi davri” sifatida konseptuallashtirishga olib keladi. Kollektivistik qadriyatlarga tayanuvchi o‘zbek jamiyatida esa yosh avlod tarbiyasi va jamoat manfaati ustuvor bo‘lgani bois, tilda yoshlik “nazorat va tarbiya ostidagi, kattalarga hurmat bilan bog‘liq davr” sifatida ifodalanadi.

Xulosa shuki, “yoshlik” konseptini ifodalovchi frazeologik birliklar shunchaki nominativ til birligi emas, balki muallifning kommunikativ niyatini amalga oshiruvchi, adresatga faol pragmatik ta'sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi; badiiy, media va og‘zaki-kundalik diskurs materiallari tahlili mazkur birliklarning funksional faolligi diskurs turiga qarab o‘zgarib turishini ko‘rsatdi: badiiy diskursda xarakterlash-baholash, media diskursda ijtimoiy-undash, og‘zaki diskursda nasihat-ogohlantirish funksiyalari yetakchilik qiladi; qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tub pragmatik farqni ochib berdi: ingliz tilidagi frazeologizmlar individualistik, dinamik va tanlov erkinligiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi birliklar tarbiyaviy-axloqiy va jamoaviy qadriyatlarga asoslangan pragmatikani namoyon etadi; aniqlangan farqlar ikki xalqning ijtimoiy-madaniy qadriyatlar tizimi — xususan, individualizm va kollektivizm o‘lchovlari — bilan bevosita bog‘liq ekanligi asoslab berildi.

[57]Hofstede Geert. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2001.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Milliy ensiklopediya, 2008. – 288 b.

2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 543 b.

3. Stepanov Yu.S. Konstanty: Slovar russkoy kulturы. – Moskva: Akademicheskiy proekt, 2001. – 990 s.

4. Karasik V.I. Yazыkovoy krug: lichnost, kontseptы, diskurs. – Volgograd: Peremena, 2002. – 477 s.

5. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2004. – 208 s.

6. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspektы. – Moskva: Yazыki russkoy kulturы, 1996. – 288 s.

7. Kovshova M.L. Lingvokulturologicheskiy metod vo frazeologii. – Moskva: URSS, 2016. – 456 s.

8. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

9. Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – 487 p.

10. Fairclough N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. – London: Longman, 1995. – 265 p.

11. Van Dijk T.A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 267 p.

12. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2001. – 596 p.

13. Boronov J. Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili. – Toshkent: Fan, 2015. – 176 b.

14. Cambridge International Dictionary of Idioms. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 587 p.

“LISON UT-TAYR” DOSTONIDAGI HIKOYATLAR TAVSIFI VA TASNIFI

Norqobilova Oydin
Toshkent davlat o‘zbek tili adabiyoti universiteti
norqobilova4@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida keltirilgan hikoyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari, mazmun-mohiyati va tasnifi tahlil qilinadi. Dostondagi hikoyatlar qushlar timsolida insonning ma’naviy kamoloti, nafsni yengish, sabr-qanoat, ishq, sadoqat, adolat, ilm va komillikka intilish kabi g‘oyalarni yoritishda muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, hikoyatlar mavzu va mazmuniga ko‘ra tasniflanib, ularning tasavvufiy-falsafiy qarashlarni ifodalashdagi o‘rni ochib beriladi. Hikoyatlarning doston kompozitsiyasidagi vazifasi va Navoiyning pand-nasihat, ramz hamda badiiy obrazlardan foydalanish mahorati ham yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Lison ut-tayr”, hikoyat, tasavvuf, ramz, majoz, qushlar timsoli, komillik, nafs, ishq, ma’naviy kamolot.*

Annotation. *This article analyzes the stories included in Alisher Navoi’s epic poem Lison ut-Tayr, focusing on their artistic and aesthetic features, thematic content, and classification. The stories presented in the work serve as important literary devices for expressing ideas about human spiritual development, overcoming worldly desires, patience, devotion, love, justice, knowledge, and the pursuit of spiritual perfection. The study examines the plot structure, character system, symbolic and allegorical meanings of the stories, as well as their connection with the central ideas of the epic poem. In addition, the stories are classified according to their themes and content, and their role in expressing Sufi-philosophical ideas is explored. Particular attention is paid to the function of the stories within the composition of the epic and to Navoi’s skillful use of symbolism, allegory, and literary imagery.*

Keywords: *Alisher Navoi, Lison ut-Tayr, stories, Sufism, symbolism, allegory, bird imagery, spiritual perfection, worldly desires, love, spiritual development.*

Аннотация. *В данной статье анализируются притчи и рассказы, представленные в поэме Алишера Навои “Лисон ут-тайр”, с точки зрения*

их художественно-эстетических особенностей, тематического содержания и классификации. Рассказы, включённые в произведение, выступают важным художественным средством раскрытия идей духовного совершенствования человека, преодоления нафса, терпения, преданности, любви, справедливости, знания и стремления к духовному совершенству. В исследовании рассматриваются сюжетная структура рассказов, система образов, их символическое и аллегорическое содержание, а также связь с основными идейно-философскими концепциями поэмы. Кроме того, рассказы классифицируются по тематике и содержанию, раскрывается их роль в выражении суфийско-философских взглядов автора. Особое внимание уделяется композиционной функции рассказов в структуре поэмы и художественному мастерству Алишера Навои в использовании символов, аллегорий и образных средств.

Ключевые слова: *Алишер Навои, "Лисон ут-тайр", рассказы, притчи, суфизм,*

Kirish. Navoiy hayoti va ijodiy merosini ilmiy asosda o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligida XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Bu boradagi dastlabki izlanishlar taniqli o‘zbek ijodkori professor Abdurauf Fitratga qalamiga mansubdir. Navoiyshunoslik fani Alisher Navoiy ilmiy biografiyasini yaratishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. "Lison ut-tayr" hazrat Navoiy umrining so‘nggi yillarida, demakki, daho ijodkor badiiy tafakkuri va shaxsiyati kamolga yetgan bir pallada, shoir ma'naviy-ma'rifiy faoliyatiga adabiy xulosa sifatida dunyoga kelgan buyuk asar, shoir ijodining cho‘qqisi hisoblanadi.

Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. "Lison ut-tayr" V. Zohidov, Oybek, Y.E Bertels, I.Sulton, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Mallaev, S.G‘anieva A.Abdug‘afurov, Y.Ishoqov singari yirik navoiyshunoslar tomonidan muayyan ilmiy masalalar yuzasidan tadqiq etilgan. Asar qator Sharq va yevropa tillariga tarjima qilingan. Sh. Eshonxojayev dostonning tanqidiy matnini, Sh. Sharipov "Lison ut-tayr" nasriy bayonini ishlab chiqqan.

Tahlil va natijalar. "Lison ut-tayr" (arab. – "Qush tili") Alisher Navoiyning dostoni, o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek tilining muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Asar 1498 – 1499-yillarda fors shoiri Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari ta'sirida yozilgan. Navoiy asar syujeti va bosh g‘oya xususida Attorga izdoshlik qilgan. Ulug‘ fors-tojik shoiri Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoni Navoiy dostonining yaratilishiga sabab bo‘lgan. Farididdin Attor (1119-1193) jahon she'riyati, falsafasiga katta

hissa qo‘shgan ulug‘ shoir va mutafakkir, tasavvuf olamining yorqin namoyandasidir. Manbalarda keltirilishicha, Attor yuzdan ortiq asar muallifidir. Biroq ulardan ayrimlarigina bizgacha yetib kelgan. Uning “Asrornoma”, “Ilohiynoma”, “Musibatnoma”,“Muxtornoma”, “Xusravnoma”, “Mantiq ut-tayr” nomli asarlari juda mashhurdir. Alisher Navoiyning Attor ijodiy merosiga ixlosi katta bo‘lgan. Shoir Attorning ko‘pgina asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Ular orasida “Mantiq ut-tayr” shoirga o‘zgacha ta’sir ko‘rsatgan. Navoiy bolaligida sevib o‘qigan, qattiq ta’sirlangan va hayratga tushgan Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga javoban “Lison ut-tayr” dostonini yozadi. “Lison ut-tayr”ning boshlanishida maxsus bobda shoir Attor asarlari va ta’limotini yuqori baholaydi. Bunda Navoiy dunyo dengiz va konlarida nimaiki bor bo‘lsa bularning barchasi Attor do‘konida bor, deydi. Bu do‘konda turli-tuman dardlarga shifo bo‘luvchi dori-darmonlar borligi aytiladi. Bu dori-darmonlar Attorning ijod mahsullari bo‘lib chiqadi va ular insonni ma’naviy tubanlikdan qutqarishiga ishora qilinadi. Asarda Navoiy Attor ruhidan madad olib, o‘z dostonini yaratganini va ustozidan minnatdorligini aytadi [58]. Asardagi boblar alohida epizodlardan, savol-javoblardan, kichik hajmli hikoya va masallardan tashkil topgan. Asardagi hikoyalarda Navoiy buyuk hikoyanavis sifatida ko‘zga tashlanadi. “Lison ut-tayr” Alisher Navoiyning 20 jildli Mukammal asarlar to‘plami 12-j. (T., 1996) dan o‘rin olgan. “Lison ut-tayr” dostonining tili Navoiyning boshqa dostonlari, she’riy asarlari tiliga nisbatan anchagina sodda va ravondir. Asardagi murakkab falsafiy mazmun, majoziy tasvir vositalarining keng qo‘llanganligi til va uslubni yengil, o‘ynoqi, jonli ham tushunarli bo‘lishini taqozo qilgan. Navoiy xalq og‘zaki ijodi, undagi syujetlar, hikmatli so‘zlar, ta’birlardan, hazil-mutoyibalardan unumli foydalangan. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari juda ko‘p tillarga tarjima qilingan, jumladan, birinchi marotaba polyak tiliga polshalik mutaxassis Yanuj Kjijovskiy tomonidan tarjima qilinib, kitob shaklida chop etildi va Polsha kutubxonalariga tarqatildi va ushbu nashrning bir nusxasi muallifning iltimosiga binoan Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasiga sovg‘a tariqasida taqdim etilgan. Ana shunday daholardan biri so‘z mulkining sultoni mir Alisher Navoiy hazratlaridir[59]. Dostonda 65 ta hikoyat keltirilgan bo‘lib, ularning 51tasi Navoiyning o‘zining ijodi bilan bog‘liq, qolgani esa Attor dostonidan olingan hikoyatlardir. Hikoyatlarning jami bayt miqdori (1800 baytga yaqin) doston umumiy hajmining teng yarmini tashkil qiladi. Ushbu hikoyatlarni quyidagi guruhlarga bo‘lib tasniflash mumkin:

[58]Фариддин Аттор. Мантиқ ут тайр. – Т., 2006. – Б.4.
[59] Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. –T.: Tamaddun, 2018. – B.169.

1. Hudhud dostondagi qushlarni Simurg‘ yo‘liga targ‘ib qilib, ularga murojaat qilayotgan paytda aytilgan hikoyatlar. Bu hikoyatlar shoirning ijtimoiy fikrlarini umumlashtirib bayon qilishga xizmat qiladi. Undagi timsollar ham ijtimoiy-didaktik ahamiyat kasb etgan bo‘lib, ularga yashil to‘n kiygan soxta darvesh, mazxaraboz hindu va bo‘yra shohi haqidagi, uquvsiz bog‘bon haqidagi, soxta zargar haqidagi, musht yeb kun ko‘ruvchi tekinxo‘r haqidagi, mechkay pahlavon haqidagi, vayronada ganj qidirgan kishi haqidagi, giyohvand darvesh haqidagi, suvga cho‘kib ketgan xasis haqidagi va hajga bormagan savdogar haqidagi hikoyatlarni kiritish mumkin.

2.Tarixiy shaxslar bilan bog‘liq ibratli fikrlar aks etgan hikoyatlar. Bular qatoriga payg‘ambarlar va valiylar to‘g‘risidagi hikoyatlar kiradi. Jumladan, Odam Safiyulloh, Ibrohim alayhissalom, Sulaymon alayhissalom bilan bog‘liq, Muhammad payg‘ambar, to‘rt nafar sahoba - Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali (r.a.) haqidagi hikoyatlar; tasavvuf namoyandalaridan Xoja Abdulloh Ansoriy, Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham, Abusaid Abuxayr, Abulhasan Xaraqoniy, Abu Bakr Nishopuriy, Mansur Halloj, Abul Abbos Qassob Omuliy, Sufyon Suriy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso va Xoja Abu Nasr, tilshunos olim Asma‘iy, Mahmud va Ayoz to‘g‘risidagi hikoyatlarini keltirish mumkin.

3. Keyingi turdagi hikoyatlarga muallifning falsafiy-tasavvufiy fikrlarini bayon etish uchun keltirilgan hikoyatlarni kiritish mumkin. Bularga Simurg‘ haqidagi, uning Chin shahriga tushgan pati to‘g‘risidagi, gulxanda yongan soxta oshiq haqidagi, husnini namoyish qilishga ko‘zguni vosita qilgan shoh haqidagi, shohga sovg‘a tayyorlovchi oshiqlar haqidagi, shohga oshiq bo‘lib zindonda yotishga va itboqarlikka tayyor oshiqlar to‘g‘risidagi, Sidra daraxti shoxidagi qushlar to‘g‘risidagi, Iskandarning elchilikka borganligi haqidagi, Shayx San’on haqidagi, Arastuning shogirdi to‘g‘risidagi, g‘am chekuvchi misrlik to‘g‘risidagi, Majnun al- Haq, fil va ko‘rlar xususidagi, ikki shatranjchi haqidagi, hayrat zabun etgan ma’shuq yigit to‘g‘risidagi, parvonalar va sham’i haqiqiy zikridagi, Majnun haqidagi, devona oshiq va uning oqil ma’shuqi to‘g‘risidagi, Qaqnus haqidagi, podshohdan hech nima so‘ramagan darvesh to‘g‘risidagi va yiqilgan devor haqidagi hikoyatlar misol bo‘la oladi. Ammo Sh.Sharipov dostondagi hikoyatlarni tematika jihatdan tasniflaydi:

1. Ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mazmundagi hikoyatlar.
2. Din va tasavvuf vakilari, ularning ba’zi muhim qarashlariga oid hikoyatlar.
3. Axloqiy-ta’limiy hikoyatlar.

4. Ishq-muhabbat mavzusidagi hikoyatlar[60].

Doston – 193 bobdan iborat. Hajman 3 ming 598 bayt, ya'ni 7 ming 196 misrani tashkil etadi. Doston an'anaga muvofiq muqaddimaviy boblar bilan boshlanadi. Muqaddima 13 bobdan iborat bo'lib, uning dastlabki bobi Alloh hamdiga bag'ishlangan. Xususan, dostondagi an'anaviy hamdning Jon qushi chun mantiqi roz aylagay, Tengri hamdi birla og'oz aylagay,– degan misralar bilan boshlanishi uning qushlar tili vositasida yozilajak asar bo'lishiga ishora qiladi. Shuningdek, shoir o'z salafi Attor ta'rifini bayon etishda (Qaqnus qushi haqidagi rivoyatning keltirilishi), zamona hukmdori Sulton Husayn Boyqaro madhi bilan bog'liq o'rinlarda ham qush tili bilan bog'liq iboralardan foydalanadi. 2-bobi munojotni o'z ichiga oladi. Umuman, munojot yalinish, yolvorish, ya'ni yaratganning qoshida gunohkor deb hisoblashi bilan bog'liq fikrlar aytilgan. Dostonning 3-4-boblari payg'ambar rasuli akram madhi va me'roj tunini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari 5-12-boblari to'rt xalifa – chahoryorlar tavsifiga bag'ishlangan. Navoiy dastlab har bir xalifaga ta'rif beradi, so'ngra chahoryorlar hayotidan muayyan voqea aks etgan hikoyatlarni keltirib o'tadi.

Dostonning o'n uchinchi bobi buyuk forsigo'y adib Farididdin Attor madhiga bag'ishlangan. Navoiy so'z o'yini vositasida shoir taxallusiga majoziy nisbat berib, butun olamda boyliklar, dengiz va konlardagi dur-u gavharlar qancha bo'lsa ham undan foydalangan. Shoir o'z salafi Attor ta'rifini bayon etishda (Qaqnus qushi haqidagi rivoyatning keltirilishi), zamona hukmdori Sulton Husayn Boyqaro madhi bilan bog'liq o'rinlarda ham qush tili bilan bog'liq iboralardan foydalanadi. Shuningdek, Attor asarlarini sanab o'tgan Navoiy o'zi javob yozadigan dostonning Attor dostoniga munosib javob bo'lishiga umid bildiradi. Shoir ushbu asari orqali Attorga izdoshlik qilgan.

Dostonning asosiy qismi bosh qoliplovchi qissa: jahondagi barcha qushlarning yig'ilib, martaba va fazilatlariga ko'ra joy talashish voqeasidan boshlanadi. Dostonda keltirilishicha, bir gulistonning turli qushlari majlis qurmoq uchun yig'iladilar. Qushlar o'zlariga mos emas, balki duch kelgan o'rinni egallaganliklari sababli orada nizo chiqadi va uni bartaraf etish uchun odil va oqil yo'lboshchiga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shunda Hudhud Simurg' daragini aytadi. Hudhud Simurg'ni maqtovlardan yiroq, barcha qushlar holidan ogoh bir shoh sifatida ta'riflaydi. Qushlar bu shohdan bexabar bo'lsalar-da, u har doim qushlar bilan birgadir. Dostonda keltirilishicha, dunyo qushlariga shoh bo'lgan Simurg'ning laqabi Anqo bo'lib, u Kof tog'ida yashaydi. Uning parlari rang-

[60] Шарипов Ш. "Лисонут тайр" ҳақиқати. – Т.: Ма'навият, 1998. – Б.14.

barang bo‘lib, har bir rangida yuz xil naqsh bor, bu naqsh ranglarni aql idrok eta olmaydi. Hudhudning aytishicha, har bir jonzot ana shu shohga yaqin bo‘lmog‘i va u sari intilmog‘i lozim. Qushlarda Simurg‘ga katta havas uyg‘onadi va ular Simurg‘ni izlab yo‘lga chiqishga qaror qilishadi. Hudhuddan bu yo‘lda rahbarlik qilishni iltimos qiladilar. Hudhud ham o‘z navbatida To‘ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kaklik, Durroj, Kabutar, Shohboz, Shunqor kabi qushlarga murojaat qilib, ularni yo‘lga otlanishga da’vat qiladi. Qushlar yo‘lga ravona bo‘ladilar. Ammo bu yo‘lda qiyinchiliklar anchagina edi. Keltirilgan hikoyatlar zamirida kishilarning to‘g‘ri maqsadlari yo‘lidan qaytmasligi, har bir kasbni puxta egallashi va kasbini yaxshi bilmaslik natijasida oxirida yomon oqibatlarga olib kelishini uqtiradi. Masalan, uquvsiz bog‘bon haqida. Bu inson bog‘bonlik san’atidan bexabar bo‘ladi. U hech qanday daraxtlarga payvand qilishni, shirin mazali meva olishni va ularni qanday parvarishlashni bilmasdi. Faqat u bog‘ aro xashak terishni yaxshi bilardi. Shuning uchun ham uni xashakchi deyish kerak edi. Shunday mazmunda, u umrini o‘tkazar edi. Unga o‘rtoqlari shu ishni tashlab, boshqa ish qil deb tavsiya qilardi, lekin ularning gaplariga quloq solmadi. Bir kuni bog‘da tok kesib yurrganda, alal oqibat ilon chaqib o‘ldirdi. Xulosa qilganda, har bir kasbni ustasi bo‘lish uchun insonda yuksak darajadagi bilim va malaka kerak bo‘ladi.

Xulosa. Dostondagi hikoyatlar, uning mazmun samaradorligini yuksak pog‘onaga olib chiqqan. Ushbu hikoyatlar doston ichidagi xulosaviy voqeaband asardir. Navoiy o‘z ustoziga ergashgan holda badiiy kashfiyot sanalgan, falsafiy dostonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фариддин Аттор. Мантиқ ут тайр. – Т., 2006. – Б.200.

2. Шарипов Ш. “Лисонут тайр” ҳақиқати. – Т.: Ма’навият, 1998. – Б.14.

3. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. –T.: Tamaddun, 2018. – B.459.

4. www.ziyo.com.uz.

TRANSLATING PROVERBS THAT EXPRESS PERSONAL SPIRITUALITY IN ENGLISH AND UZBEK: LINGUISTIC PROBLEMS AND LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION

Ochilova Zarifa Zafar qizi
Karshi State University
zarifaochilova958@gmail.com

Abstract. *This article examines the linguistic problems that arise when translating and lexicographically representing English and Uzbek proverbs that express personal morality — honesty, patience, conscience, modesty, and related values. Building on a corpus-based comparative analysis of paremiological units, the study identifies the levels of translation equivalence (full, partial, functional and zero), the main translation strategies (calque, functional analogue, descriptive paraphrase and compensation), and the linguo-spiritual and linguo-cultural components that condition equivalence loss. The results show that only 25–40% of the analysed proverbs achieve full equivalence, while the remaining 60–75% require partial or functional solutions; religiously and culturally marked units show the highest risk of semantic loss (up to 35–45%). The article further proposes a componential Y+O+P+R+M model (core meaning, image, pragmatic function, register, cultural marker) for documenting translators' decisions, and outlines principles for representing such proverbs in bilingual and specialised ideographic (thematic) dictionaries. The findings have practical value for translation practice, foreign-language teaching, bilingual lexicography and intercultural communication.*

Keywords: *paremiology; proverb translation; translation equivalence; linguo-cultural analysis; bilingual lexicography; ideographic dictionary; English and Uzbek proverbs; personal morality.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxsiy axloqiy fazilatlarni — halollik, sabr-toqat, vijdon, kamtarlik va shunga o'xshash qadriyatlarni ifodalovchi ingliz va o'zbek maqollarini tarjima qilish hamda leksikografik jihatdan aks ettirish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik muammolar tahlil qilinadi. Paremiologik birliklarning korpusga asoslangan qiyosiy tahliliga tayangan holda, tadqiqot tarjima ekvivalentligi darajalari (to'liq, qisman, funksional va nol ekvivalentlik),*

asosiy tarjima strategiyalari (kalka, funksional analog, tavsifiy parafraz va kompensatsiya) hamda ekvivalentlik yo‘qolishiga sabab bo‘luvchi lingvo-ma’naviy va lingvo-madaniy omillarni aniqlaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tahlil qilingan maqollarning atigi 25–40 foizigina to‘liq ekvivalentlikka ega; qolgan 60–75 foizi esa qisman yoki funksional yechimlarni talab qiladi. Diniy va madaniy xususiyatga ega birliklarda semantik yo‘qotish xavfi eng yuqori (35–45 foizgacha) ekanligi aniqlandi. Shuningdek, maqolada tarjimonlarning qarorlarini qayd etish uchun Y+O+P+R+M (asosiy ma’no, obraz, pragmatik funksiya, registr, madaniy belgi) komponentli modeli taklif etiladi hamda bunday maqollarni ikki tilli va maxsus ideografik (mavzuli) lug‘atlarda aks ettirish tamoyillari bayon qilinadi. Tadqiqot natijalari tarjima amaliyoti, chet tilini o‘qitish, ikki tilli leksikografiya va madaniyatlararo muloqot sohalarida amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *paremiologiya; maqollarni tarjima qilish; tarjima ekvivalentligi; lingvo-madaniy tahlil; ikki tilli leksikografiya; ideografik lug‘at; ingliz va o‘zbek maqollari; shaxsiy axloq.*

Аннотация. *В статье рассматриваются лингвистические проблемы, возникающие при переводе и лексикографическом описании английских и узбекских пословиц, отражающих аспекты личной нравственности: честность, терпение, совесть, скромность и сопряженные с ними ценности. На основе сопоставительного анализа паремиологических единиц с использованием корпусных данных в исследовании выделяются уровни переводческой эквивалентности (полная, частичная, функциональная и нулевая), основные стратегии перевода (калькирование, функциональный аналог, описательный перифраз и компенсация), а также лингводуховные и лингвокультурологические компоненты, обусловливающие утрату эквивалентности. Результаты показывают, что лишь 25–40% проанализированных пословиц характеризуются полной эквивалентностью, тогда как для остальных 60–75% требуются решения на уровне частичной или функциональной эквивалентности; наибольший риск семантических потерь (до 35–45%) наблюдается у единиц, отмеченных религиозной и культурной спецификой. В статье также предлагается компонентная модель Y+O+P+R+M (ядерное значение, образ, прагматическая функция, регистр, культурный маркер) для фиксации переводческих решений и формулируются принципы представления таких пословиц в двуязычных и специализированных идеографических (тематических) словарях. Полученные выводы имеют*

практическую значимость для переводческой деятельности, преподавания иностранных языков, двуязычной лексикографии и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: *паремиология; перевод пословиц; переводческая эквивалентность; лингвокультурологический анализ; двуязычная лексикография; идеографический словарь; английские и узбекские пословицы; личная нравственность.*

1. INTRODUCTION

Proverbs occupy a special place among the linguistic means through which a speech community encodes and transmits its moral experience. A proverb is not simply a fixed phrase; it is a compact, ready-made formula that carries an ethical judgement, an evaluative stance and a piece of collective wisdom in an economical grammatical shape. When such units are transferred between typologically and culturally distant languages such as English and Uzbek, translators and lexicographers face a recurring difficulty: the moral core of a proverb can rarely be reproduced together with its image, rhythm and cultural resonance at the same time.

Despite a substantial body of research on paremiology, translation studies and linguoculturology, the specific problems raised by proverbs that express personal morality — honesty, conscience, patience, modesty, honour — remain insufficiently systematised for the English–Uzbek language pair. Existing bilingual dictionaries often list a single “equivalent” without distinguishing between full equivalents, functional analogues and descriptive paraphrases, and without indicating the register, pragmatic function or cultural marking that would allow a user to select the right variant for a given communicative situation.

The aim of this article is threefold: (1) to establish the levels and mechanisms of translation equivalence that operate in English–Uzbek proverb translation, with particular attention to morally and spiritually loaded units; (2) to describe the main translation strategies — calque, functional analogue, descriptive paraphrase and compensation — together with the conditions under which each is most effective; and (3) to formulate principles for representing such proverbs in bilingual and specialised ideographic dictionaries, so that lexicographic practice can better support translation and language teaching.

2. MATERIALS AND METHODS

The material for the study was drawn from Uzbek and English paremiological collections, bilingual and monolingual phraseological

Og‘ir va kimyo sanoati siyosati

1973-yilda og‘ir va kimyo sanoatini kengaytirish yo‘nalishi kuchaydi. Po‘lat, mashinasozlik, kemasozlik, elektronika, kimyo va rangli metallar strategik yo‘nalishlarga aylandi [4]. Bu o‘zgarish eksport hajmini oshirish bilan birga ishlab chiqarish tarkibini yangilashga qaratilgan edi. Strategik tarmoqlarni kengaytirish uchun vaqt, kapital va texnologik imkoniyatlarni birlashtirish talab etilgan.

Nathan Lanening 2025-yilda arXivda e’lon qilingan tadqiqoti 1973–1979-yillardagi sanoat siyosati bevosita qo‘llab-quvvatlangan tarmoqlarni hamda ularning oraliq mahsulotlaridan foydalanuvchi keyingi ishlab chiqarish bo‘g‘inlarini rivojlantirganini aniqlaydi [10]. Bu yerda manba muallifning empirik tadqiqoti sifatida ishlatiladi; arXiv nusxasi alohida ko‘rsatiladi. Tadqiqotning xulosasi muayyan sanoat siyosatiga taalluqli bo‘lib, Pak tuzumining barcha siyosiy amaliyotlarini baholamaydi.

Shu farq tarixiy argumentning markazidir. Ayrim sanoat vositalari samara bergani saylovlarni cheklash yoki muxolifatni bostirish ham iqtisodiy jihatdan zarur bo‘lganini ko‘rsatmaydi. Bunday umumiy da’vo uchun siyosiy tuzumning ta’sirini kredit, tarmoq tanlovi, tashqi bozor va texnologik o‘zgarishlardan ajratadigan qo‘shimcha dalillar kerak bo‘ladi. Ushbu maqolada ularning mavjudligi da’vo qilinmaydi.

Wontack Hong hisoblariga ko‘ra, 1979-yilda tovar eksporti taxminan 15 milliard dollarga yetgan va uning 90 foizdan ko‘prog‘ini sanoat mahsulotlari tashkil etgan. Eksportning yalpi milliy mahsulotga nisbati 1962–1966-yillardagi

taxminan 4 foizdan 1977–1979-yillardagi taxminan 26 foizga ko‘tarilgan [8]. Bu ko‘rsatkichlar tashqi bozor bilan integratsiyani ifodalaydi. Dollar qiymati nominal bo‘lgani uchun u real ishlab chiqarish yoki aholi farovonligining aynan shu miqdorda oshganini anglatmaydi.

1 jadval. Iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning tekshirilgan ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Davr va qiymat	Manba	Talqin chegarasi
Tovar eksporti	1979: taxminan 15 mlrd AQSh dollari	[8]	Nominal qiymat; real o‘sish sur’ati emas
Eksportda sanoat mahsulotlari ulushi	1979: 90% dan yuqori	[8]	Butun iqtisodiyotdagi sanoat ulushi emas
Eksportning yalpi milliy mahsulotga nisbati	1962–1966: ≈4%; 1977–1979: ≈26%	[8]	Davriy ko‘rsatkich; YaIM bilan almashtirilmaydi
Qishloq xo‘jaligi va baliqchilikdagi bandlik ulushi	1965: 58,7%; 1978: 38,4%	[15]	Mahsulot yoki daromad ulushi emas
Shahar aholisining jami aholidagi ulushi	1979: 54,9%	[15]	Uy-joy va xizmatlar sifati haqida yakka o‘zi xulosa bermaydi

Manbalar: Hongning ilmiy tahlili [8] va Country Studyning Society under Park bo‘limi [15]. Qiymatlar muallif tomonidan yangidan hisoblanmagan; manbalardagi yaxlitlash saqlangan.

Ko‘rsatkichlar turli hodisalarni o‘lchaydi. Eksportning milliy mahsulotga nisbati bozor yo‘nalishini, bandlik tarkibi mehnat resurslarining ko‘chishini, shahar aholisi ulushi esa hududiy-demografik o‘zgarishni ifodalaydi. Ularning birgalikdagi siljishi sanoat jamiyatiga o‘tish haqidagi talqinni qo‘llab-quvvatlaydi, ammo ishtirokchilar orasida foyda va xarajatlar qanday taqsimlanganini o‘z-o‘zidan ko‘rsatmaydi.

Xavfsizlik argumenti va Yushin tizimi

1972-yil 4-iyuldagi Shimol–Janub qo‘shma bayonoti birlashishning tashqi aralashuvsiz mustaqil hal etilishi, tinch yo‘l va mafkuraviy farqlardan yuqori milliy birlik tamoyillarini belgilagan. Unda provokatsiyalarni cheklash, almashinuvlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa haqida ham kelishilgan [11]. Hujjatning mavjudligi ikki davlat amalda birlashganini yoki harbiy ishonchsizlik tugaganini anglatmaydi.

Diplomatik muloqotning ochilishi ichki siyosiy erkinlashuv bilan bir yo‘nalishda kechmagan. Kissinjerning 1972-yil 17-oktyabrdagi memorandumida harbiy holat, parlamentni tarqatish, universitetlarni yopish va ommaviy axborot vositalariga oldindan senzura joriy etish rejalari qayd etilgan [12]. Hujjat xalqaro vaziyat haqidagi argument bilan ichki hokimiyatni mustahkamlash maqsadini birga muhokama qiladi. Uni faqat tashqi xavfga majburiy javob sifatida o‘qish manbadagi siyosiy bahoni toraytiradi.

Yushin konstitutsiyasi 1972-yil 21-noyabrdagi referendum bilan tasdiqlanib, 27-dekabrda kuchga kirgan. 39-modda prezidentni Birlashtirish milliy konferensiyasi orqali saylashni, 40-modda parlamentning uchdan bir qismi uchun nomzodlarni prezident tavsiya etishini, 47-modda olti yillik prezidentlik muddatini belgilagan. 53-modda favqulodda choralar, jumladan erkinlik va huquqlarni vaqtincha to‘xtatish imkonini bergan; 59-modda parlamentni tarqatish vakolatini ko‘rsatgan [13].

Manbalarni solishtirish muhim tuzatishni beradi. 17-oktyabrdagi memorandum bo‘lajak tizim uchun ikki muddatlik cheklovni taxmin qilgan [12]. Yakuniy Yushin tizimida esa qayta prezident bo‘lish cheklovi mavjud bo‘lmagan [13]. Shuning uchun dastlabki diplomatik xabardagi prognozni konstitutsiyaning haqiqiy qoidasi sifatida keltirish mumkin emas. Bu tafovut hujjatning voqea bilan bir vaqtda yozilgani uning barcha ma’lumotlari yakuniy ekanini anglatmasligini ko‘rsatadi.

1972-yil 22-dekabrdagi AQSh Davlat departamenti memorandumida Pakning qayta saylanishi oldindan kutilgani hamda tabrik xatini Seul AQSh roziligi sifatida targ‘ib qilishi mumkinligi yozilgan. Shu bilan birga, ittifoq manfaatlari tufayli diplomatik tabrik yuborish tavsiya etilgan [14]. Ushbu hujjat AQShning noroziligi bilan amaliy hamkorlikni davom ettirishi o‘rtasidagi chegarani ko‘rsatadi. Ochiq qo‘llab-quvvatlashdan tiyilish munosabatlarni uzish bilan bir xil emas edi.

Jamiyatdagi o‘zgarish va siyosiy qarshilik

Sanoatlashtirish qishloqdan shaharga ko‘chish va bandlik tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Country Study qishloq xo‘jaligi va baliqchilikdagi bandlik ulushi 1965-yildagi 58,7 foizdan 1978-yilda 38,4 foizga tushganini, 1979-yilda shahar aholisi jami aholining 54,9 foiziga yetganini qayd etadi [15]. Shu manba Saemaul harakatini qishloq yo‘llari, ko‘priklar va turmush sharoitini yaxshilash bilan birga davlatning siyosiy safarbarlik faoliyati sifatida ham tasvirlaydi [15].

Saemaul tajribasini faqat infratuzilma dasturi yoki faqat siyosiy targ‘ibot deb baholash uning ikki vazifasini ajratishga imkon bermaydi. Yo‘l va xizmatlar o‘zgarishi kundalik hayotga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin; dastur atrofidagi safarbarlik esa hukumatning jamiyat bilan aloqasini boshqarishga xizmat qilgan. Bir vazifaning mavjudligi ikkinchisining bo‘lmaganini isbotlamaydi. Ularning ko‘lami haqida alohida mahalliy tadqiqotlar zarur.

Siyosiy norozilik Yushin tizimiga qarshi konstitutsiyaviy kampaniyalar bilan davom etgan. 1975-yil maydagi 9-son favqulodda chora konstitutsiyani tanqid qilish va shu faoliyatni matbuotda yoritishga jinoiy cheklovlar qo‘ygan [5]. Bunday tartib jamoatchilikning hukumatni nazorat qilish imkoniyatini kamaytirgan. Iqtisodiy yutuqlarni muhokama qilish bilan boshqaruv qarorlarini erkin tanqid qilish huquqi bir-biridan farqli masalalar edi.

1979-yil avgustida YH korxonasi ayol ishchilarining muxolif Yangi demokratik partiya binosidagi noroziligi kuch bilan bostirilgan. Korea Democracy Foundation materiallari 4-oktyabrda muxolifat yetakchisi Kim Yon Sam parlamentdan chiqarilganini ham hujjatlashtiradi [16]. Bu voqealar mehnat talabi va siyosiy vakillik muammosi bir-biriga tutashganini ko‘rsatadi. Ish joyini saqlash masalasi hukumatga qarshi umumiy kurash bilan bog‘langan.

16–20-oktyabrda Pusan va Masandagi talabalar hamda fuqarolar namoyishlari Bu–Ma demokratik qo‘zg‘oloni sifatida tarixga kirgan. 18-oktyabrda Pusanda harbiy holat, 20-oktyabrda Masan va Changvonda garnizon chorasi joriy etilgan [17]. Ushbu ketma-ketlik norozilikning mahalliy hodisadan davlat xavfsizligi vositalari bilan bostiriladigan siyosiy inqirozga aylanganini ko‘rsatadi. Biroq namoyishlar bilan keyingi suiqasd orasidagi qisqa vaqt ularni yagona sababiy zanjirga avtomatik birlashtirish uchun yetarli emas.

1979 yilgi inqiroz va Pak Chon Xi o‘limi

Davr oxirida inflyatsiya, qarzga bog‘langan korxonalar va barqarorlashtirish siyosatining oqibatlari iqtisodiy bosimni kuchaytirgan [4]. Iqtisodiy qiyinchilik siyosiy erkinlik talabini tushuntiruvchi yagona omil emas: Yushin normalariga qarshilik avvalroq mavjud edi. Shuning uchun 1979-yilgi inqiroz iqtisodiy bosim, siyosiy vakillik cheklovi va xavfsizlik apparati ichidagi munosabatlar tutashgan vaziyat sifatida talqin qilinadi.

1979-yil 26-oktyabrda Pak Chon Xi KCIA rahbari Kim Jae Gyu tomonidan otib o‘ldirildi [17; 19]. Bu voqeaning sodir bo‘lgani bilan jinoyat motivining izohini farqlash kerak. Shaxsiy mojaro, siyosiy qaror va norozilikka munosabat haqidagi versiyalar bir xil darajadagi dalil emas. Alohida ishtirokchining ruhiy

holati to‘g‘risidagi boshqa amaldor bildirgan taxmin klinik yoki yakuniy tarixiy xulosa sifatida olinmaydi.

27-oktyabrdagi Pinckney memorandumida kim o‘q uzgani haqidagi dastlabki xabarlar bir-biriga zid bo‘lgani ko‘rinadi. 29-oktyabrdagi Wickham telegrammasi esa Kim Jae Gyuning harakatlari haqida batafsilroq ma’lumot beradi [18; 19]. Ikkinchi hujjat ham suhbatdosh generalning axboroti va bahosiga tayangan. Shunday qilib, keyingi xabar oldingisidagi noaniqlikni kamaytiradi, ammo barcha motivlarni shubhasiz aniqlab bermaydi.

Bu hujjatlar inqiroz paytidagi axborotning qanday shakllanishini ochadi. Voqeaga yaqin sana manbaning afzalligi bo‘lsa-da, shoshilinch xabarlar tekshirilmagan versiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Maqolada suiqasdning tasdiqlangan ishtirokchisi va sanasi fakt sifatida, uning maqsadi haqidagi mulohazalar esa manbaga bog‘langan talqin sifatida beriladi. Shu farq tarixiy ishonchlilikni saqlaydi.

Pakning o‘limidan so‘ng Choi Kyu Ha rahbarligi ostida konstitutsiyaviy o‘tish ehtimoli paydo bo‘lgan. Biroq 1979-yil 12-dekabrda Chun Doo Hwan harbiy boshqaruv ustidan nazoratni kuchaytirgan [20]. Demak, 1961–1979-yillarni faqat Pakning vafoti bilan yakunlash yilning oxirgi muhim siyosiy burilishini chetda qoldiradi. 1979-yil oxiri demokratik tartibning to‘liq tiklanishi emas, keyingi hokimiyat uchun kurashning boshlanishi bo‘lgan.

2 jadval. Asosiy tarixiy dalillar va ulardan kelib chiqadigan xulosalar

Dalil	Hujjat yoki manba	Asoslanadigan xulosa	Asoslanmaydigan da’vo
1961-yildagi AQSh bahosining o‘zgarishi	16-may telegrammasi va 15-dekabr xati [1; 2]	Dastlabki tanqid keyingi hamkorlik bilan almashgan	AQSh to‘ntarishni oldindan tashkil qilgan
1965-yilgi iqtisodiy kelishuv	BMT Treaty Series, I modda [6]	Grant mahsulot va xizmatlar, kredit esa alohida majburiyat bo‘lgan	500 mln dollar birdan naqd berilgan
Sanoat siyosatining natijalari	Lane tadqiqoti [10]	Muayyan tarmoq siyosati ishlab chiqarishga ta’sir qilgan	Barcha avtoritar choralar o‘sish uchun zarur bo‘lgan
1972-yilgi prognoz va yakuniy norma	17-oktyabr memorandum va Yushin matni [12; 13]	Dastlabki xabar yakuniy qoidadan farqlangan	Prognoz konstitutsiya matniga teng

Dalil	Hujjat yoki manba	Asoslanadigan xulosa	Asoslanmaydigan da’vo
1979-yilgi dastlabki xabarlar	27 va 29-oktyabr hujjatlari [18; 19]	Axborot keyingi xabarlarda aniqlashgan	Bir amaldorning fikri barcha motivlarni isbotlaydi
1979-yil dekabrdagi harbiy burilish	The Transition [20]	Pakning o‘limi demokratik o‘tishni darhol ta’minlamagan	1979-yilda demokratik tizim to‘liq tiklangan

Manba: ko‘rsatilgan hujjatlar asosidagi muallifning qiyosiy tahlili. Oxirgi ustunda manbalardan chiqarib bo‘lmaydigan da’volar berilgan.

Muhokama

Dalillar ikki soddalashtirilgan tushuntirishga chegaralar qo‘yadi. Birinchisi, iqtisodiy o‘sishni faqat avtoritar rahbarning qat’iyati bilan izohlashdir. EPBning vazifalari, tashqi bitimlar va eksport siyosati muayyan institut va vositalarni ko‘rsatadi. Ikkinchisi, siyosiy repressiyalar tufayli iqtisodiy o‘zgarishlarni faqat targ‘ibot mahsuli deb hisoblashdir. Eksport va bandlik tarkibidagi ko‘rsatkichlar real o‘zgarishlar yuz berganini tasdiqlaydi [3; 6; 8; 15].

Ushbu maqolaning talqiniga ko‘ra, iqtisodiy muvofiqlashtirishning kuchayishi va siyosiy hisobdorlikning kamayishi bir davrda yuz bergan, ammo turli mexanizmlar orqali ishlagan. Birinchisi resurslarni safarbar qilish va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan, ikkinchisi tanqid, raqobat va hokimiyat almashinuvini cheklash bilan bog‘liq. Ularni ajratish iqtisodiy yutuqni tan olish bilan inson huquqlari buzilishini baholash o‘rtasida sun’iy tanlov yaratmaslikka imkon beradi.

Sanoat siyosatining natijasidan diktaturaning zarurligi haqida xulosa chiqarish sababiy tahlil chegarasidan chiqadi. Shuningdek, 1979-yildagi inqirozdan barcha oldingi sanoat qarorlari samarasiz bo‘lgan degan hukm ham kelib chiqmaydi. Vaqt bo‘yicha birga kechgan hodisalar sabab va oqibat ekanini ko‘rsatish uchun uzatuvchi mexanizm hamda muqobil izohlar tekshirilishi kerak. Maqola bunday farqlashni manbalarni tanqidiy solishtirish orqali amalga oshiradi.

Manbalar korpusining cheklovi ham mavjud. Diplomatik hujjatlar qaror qabul qiluvchi elitani yaxshi ko‘rsatadi, ammo oddiy oilalarning tajribasini to‘liq ifodalamaydi. Umumiy statistik ulushlar hududiy, gender va kasbiy tafovutlarni yashirishi mumkin. Demokratik harakat materiallari qarshilikni tushunish uchun zarur, lekin barcha aholining fikrini reprezentativ so‘rov kabi o‘lchamaydi. Shu

sababli maqola Pak davrining har bir ijtimoiy guruh uchun yagona tajriba bo‘lganini da’vo qilmaydi.

Xulosa

1961–1979-yillardagi Janubiy Koreya tarixida iqtisodiy modernizatsiya va siyosiy markazlashuv o‘zaro tutashgan, ammo bir-biriga teng bo‘lmagan jarayonlardir. Harbiy to‘ntarish hokimiyatning yangi manbasini yaratgan; rejalashtirish idoralari va eksport siyosati ishlab chiqarish o‘zgarishlarini tashkil etgan; tashqi bitimlar moliyaviy va xavfsizlik resurslarini kengaytirgan. Yushin konstitutsiyasi esa prezident hokimiyatini uzoq muddatga mustahkamlab, siyosiy hisobdorlikni keskin cheklagan.

Maqolaning manbashunoslik natijasi prognozni yakuniy normadan, dastlabki xabarni tasdiqlangan faktdan va ishtirokchi bahosini muallif xulosasidan ajratish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa 1972-yilgi konstitutsiya va 1979-yilgi suiqasd hujjatlari bunday farqlashsiz noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Kuchli tarixiy dalil alohida hujjatning mavqei bilan emas, uning boshqa manbalar bilan tekshirilishi orqali hosil bo‘ladi.

Pak davridagi eksport yutuqlarini tan olish avtoritar cheklovlarni oqlashni talab qilmaydi. Siyosiy repressiyalarni qayd etish esa sanoatlashtirishning natijalarini inkor etishga asos bo‘lmaydi. 1979-yil oxiridagi harbiy qayta guruhlanish rahbarning o‘limi hokimiyatni demokratik yo‘l bilan almashtirish institutlari o‘rnini bosa olmasligini ko‘rsatgan. Shu tariqa davrning asosiy tarixiy ziddiyati iqtisodiy boshqaruv imkoniyatlari kengayishi bilan siyosiy tuzumning moslashuv va hisobdorlik imkoniyatlari torayishi o‘rtasida namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

[1] U.S. Department of State. Telegram From the Department of State to the Embassy in Korea. 16 May 1961. FRUS, 1961–1963, Vol. XXII, document 216. https://history.state.gov/historicaldocuments/frus1961-63v22/d216

[2] Berger, S. Letter From the Ambassador to Korea to Secretary of State Rusk. 15 December 1961. FRUS, 1961–1963, Vol. XXII, document 249. https://history.state.gov/historicaldocuments/frus1961-63v22/d249

[3] Korea Development Institute. (2014). 2013 Modularization of Korea’s Development Experience: Operation of the Economic Planning Board in the Era of High Economic Growth in Korea. Hisobotning onlayn mazmuni. https://www.kdi.re.kr/research/reportView?classcd=N01&pp=10&pub_no=13671

[4] Savada, A. M., & Shaw, W. (Eds.). (1992). South Korea: A Country Study. Washington, DC: Federal Research Division, Library of Congress. Economic Development bo‘limi. Onlayn nusxa: https://countrystudies.us/south-korea/15.htm

[5] Savada, A. M., & Shaw, W. (Eds.). (1992). South Korea: A Country Study. The Military in Politics bo‘limi. Onlayn nusxa: https://countrystudies.us/south-korea/14.htm

[6] Japan and Republic of Korea. (1965). Agreement on the Settlement of Problems concerning Property and Claims and on Economic Co-operation. Signed at Tokyo, 22 June 1965. United Nations Treaty Series, Vol. 583, No. 8473. I modda. https://treaties.un.org/doc/Publication/unts/Volume%20583/volume-583-I-8473-English.pdf

[7] Brown, W. G. (1966). Brown Memorandum. 4 March 1966. National Institute of Korean History, History through Sources, hujjat matni va sharhi. https://contents.history.go.kr/front/hm/print.do?levelId=hm_150_0070&tabId=01&treeId=020108&whereStr=

[8] Hong, W. (1991). Import Restriction and Liberalization. In L. B. Krause & K. Kihwan (Eds.), Liberalization in the Process of Economic Development. Berkeley: University of California Press. 7-bob, 263-bet. https://publishing.cdlib.org/ucpressebooks/public/book/liberalization-in-the-process-of-economic-development.html

[9] SaKong, I., & Koh, Y. (2026). Export Promotion and Korea’s Government-Led Industrialization (1960s–1970s). K-Developedia, 26 August. https://www.kdevelopedia.org/k-db-originals/export-promotion-and-koreas-government-led-industrialization-1960s-1970s

[10] Lane, N. (2025). Manufacturing Revolutions: Industrial Policy and Industrialization in South Korea. arXiv preprint, 2505.20566. https://arxiv.org/abs/2505.20566

[11] Inter-Korean Relations Management Bureau, Ministry of Unification. (1972). July 4 South–North Joint Communiqué. 4 July 1972. Koreyscha hujjat. https://dialogue.unikorea.go.kr/ukd/cb/usrtalkmanage/View.do?id=19&major_talk_yn=Y&tab=5

[12] Kissinger, H. A. Memorandum to President Nixon. South Korean President to Announce Imposition of Martial Law October 17. 17 October 1972. FRUS, 1969–1976, Vol. XIX, Part 1, document 162. https://history.state.gov/historicaldocuments/frus1969-76v19p1/d162

[13] Republic of Korea. (1972). Yushin Constitution. Official Gazette, No. 6337, 27 December 1972. National Institute of Korean Historydagi hujjat parchasi va sharhi; 39, 40, 47, 53 va 59-moddalar. https://contents.history.go.kr/front/hm/view.do?levelId=hm_150_0090

[14] Eliot, T. L., Jr. Memorandum to Kissinger. Congratulatory Message to President Park Chung Hee. 22 December 1972. FRUS, 1969–1976, Vol. XIX, Part 1, document 172. https://history.state.gov/historicaldocuments/frus1969-76v19p1/d172

[15] Savada, A. M., & Shaw, W. (Eds.). (1992). South Korea: A Country Study. Society under Park bo‘limi. Onlayn nusxa: https://countrystudies.us/south-korea/16.htm

[16] Korea Democracy Foundation. Mehnat va siyosiy qarshilik haqidagi tarixiy materiallar, jumladan Kim Yon Samning parlamentdan chiqarilishi haqidagi 4 October 1979 gazeta xabari. Koreyscha elektron material. https://contents.kdemo.or.kr/sub06/sub06_02.html

[17] Korea Democracy Foundation Open Archives. 1970 – Korea Democratic Movements. Anti-Yushin Movement va Busan-Masan Democratic Uprising bo‘limlari. https://archives.kdemo.or.kr/display/en/1970.html

[18] Pinckney, T. C. Information Memorandum. Korea Situation and Future US Policy. 27 October 1979. National Security Archive, hujjat va OCR nusxasi. https://nsarchive.gwu.edu/document/22885-document-11-information-memorandum-drafted

[19] SSO Korea to SSO DIA. Cable. Assassination and the Aftermath. 29 October 1979. General Wickhamning xabari. National Security Archive, hujjat va OCR nusxasi. https://nsarchive.gwu.edu/document/22886-document-12-cable-sso-korea-sso-dia-subject

[20] Savada, A. M., & Shaw, W. (Eds.). (1992). South Korea: A Country Study. The Transition bo‘limi. Onlayn nusxa: https://countrystudies.us/south-korea/18.htm

[21] Memorandum of Conversation. President Jimmy Carter and President Park Chung Hee. The Blue House, Seoul, 30 June 1979; memorandum dated 3 July 1979. National Security Archive, OCR nusxasi. https://nsarchive.gwu.edu/media/22882/ocr

YOZMA MANBALARDAN BIRI “TARJIMATUT-TABAQOT FI TI’DAD AT-TASNIFOT” ASARINING QIYMATI XUSUSIDA

Elmurodova Xursandoy Gulmurod qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
xursadoyelmurodova0409@gmail.com

Tariximiz o’zida buyuk xalqimizning ko’p asrlik rivojlanish yo’lini aks ettiruvchi ko’plab muhim tarixiy voqealiklarni mujassam etadi. Ushbu voqealiklarni o’rganish, ularning mazmun-mohiyatini tahlil qilish va tatbiq qilish va tarixiy manbalar asosida yoritib berish bugungi kunda tarixshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Tariximizni yoritishda mahalliy va xorij tadqiqotchilarning asarlari o’rganib kelinmoqda. Har bir davrda izlanishlar olib borilib, ko’plab qimmatli asarlarning ahamiyati ochib berilgan. Shunday bebaho manbalardan biri Sayyid Abdurahmon Ashraf (Andijoniy)ning XIX asrda yozilgan “**TARJIMATUT-TABAQOT FI TI’DAD AT-TASNIFOT** (“Tasniflar sanog’i haqida tabaqalar tarjimasi”) asaridir. Yagona qo’lyozma manbasi sifatida Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida saqlanadi.

Asl muallif Sayyid Abdurahmon Ashraf bo’lib, taniqli o‘zbek diniy olimi, shayx va adibdir. U Ikkinchi jahon urushi va sho‘rolar davridagi qatag‘onlar oqibatida xorijga (jumladan, Saudiya Arabistoniga) ko‘chib ketishga majbur bo‘lgan va o‘sha yerda ijod qilgan ko‘plab vatandoshlarimiz («Andijoniy», «Turkistoniy» taxallusli muhojirlar) qatoriga kiradi. Diniy ilmlar, xususan islom va fiqh rivojlanishiga o’z hissasini qo’shgan. Sho‘rolar Ittifoqi davrida dindorlarga nisbatan o‘tkazilgan qatag‘onlar (ayniqsa, 1930–1950-yillar oralig‘ida) sababli juda ko‘plab vodiylik (Andijon, Farg‘ona, Namangan) olimlar Afg‘oniston yoki Pokiston orqali Yaqin Sharq mamlakatlariga hijrat qilishgan. Sayid Abdurahmon Ashraf ham xuddi shunday og‘ir davrda dini va e’tiqodini saqlab qolish maqsadida Saudiya Arabistoniga ko‘chib o‘tgan. U yerda tolibi ilmlarga ustozlik qilib, o’z faoliyatini olib boradi. **Sayid Abdurahmon Ashraf Andijoniy** sermahsul ijod qilgan adib hisoblanadi. Uning qalamiga mansub kitoblar asosan quyidagi mavzularni qamrab oladi:

• **Aqida va fiqh:** Moturidiyya aqidasi va Hanafiy mazhabi asoslarini muhojirlikdagi vatandoshlar va arab dunyosiga sodda tilda tushuntirib berishga oid asarlar.

• **Tarix va biografiya:** Islom olami va xususan, Markaziy Osiyo (Turkiston) zaminidan yetishib chiqqan buyuk muhaddislar — Imom Buxoriy, Imom Termiziy hayoti haqidagi tadqiqotlar.

• **Xususiy asarlari:** Uning ba'zi qo'lyozma va chop etilgan asarlari Saudiya Arabistonidagi o'zbek diasporasi va turkistonlik muhojirlar kutubxonalarida hozirgacha saqlanib keladi.

Asar Hijriy 1151-yil, rabiul-avval oyining 8-kuni (milodiy **1738-yil 26-iyun**)da yozilgan. Xiva nusxasini Mahmud Oxund tayyorlagan. Ko'chirilgan sanasi 1297-yil (milodiy 1879-1880- yillar, tazkira ustidagi tahrir va mutolaa qaydlari 1882-1885- yillar hisoblanadi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz, 1864-1910) homiylik qilgan. Eski o'zbek (chig'atoy tilidagi) asar bo'lib, nasriy va nazmiy, aralash uslubda yozilgan. 1 muqaddima, 36 ta tazkira (fasl) va 1 xotima va Xotimada muallif hamda tarjimonning xotima qismlari mavjud.

Asarning ilmiy-tarixiy ahamiyati

Mazkur qo'lyozma islom tarixining ilk davrlarida faoliyat yuritgan mashhur muj-tahid va olimlar, xususan, hanafiy mazhabining asoschisi **Imom Abu Hanifa Nu'mon ibn Sobitn**ing hayoti va ilmiy faoliyati, shuningdek, u zotning shogirdlari hamda keyingi avlod izdoshlariga oid ma'lumotlarni qamrab oladi. Asarda olim va faqihlar "tabaqot" tizimi asosida tasniflanib, birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi tabaqalarga mansub ilm ahli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Asarning Markaziy Osiyo ma'rifat va ilm-fan tarixini o'rganishdagi muhim jihatlaridan biri — mintaqadagi madrasalarda o'qitilgan diniy-ilmiy fanlarga oid darsliklar, ularning mualliflari, shuningdek, mazkur asarlarga yozilgan sharh va hoshiyalarga doir ma'lumotlarning berilganidir. Xususan, Misr va Arabiston hududlarida faoliyat yuritgan yirik nahv (arab tili grammatikasi) olimlari, jumladan, **Abu Ja'far an-Nahhos, Ahmad ibn Muhammad ibn Ismoil ibn Yunus an-Nahviy al-Misriy** haqida biografik ma'lumotlar uchraydi. Asarda Ibn Hojibning mashhur «Al-Kofiya» asariga Abdurahmon Jomiy tomonidan yozilgan «Al-Favoid az-Ziyoiyya» sharhi hamda mazkur sharhga Shayx Ali va Mahmud Posho kabi ulamolar tomonidan bitilgan sharh va hoshiyalar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu asarlarning madrasalardagi o'quv dasturiga, xususan, «vazifayi yavmiya»ga kiritilgani haqidagi qaydlar o'sha davr ta'lim

tizimida qaysi ilmiy manbalarga ustuvor ahamiyat berilganini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, asarda Ibn al-Javziy va boshqa musanniflarning ilmiy merosi haqida ma’lumotlar uchraydi. Olimlarning ilmiy safarlari, turli ilm markazlarida faoliyat olib borganliklari hamda vafot etgan va dafn qilingan joylari haqidagi qaydlar esa o‘sha davrning ilmiy-madaniy aloqalarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, Misrdan Istanbul — Konstantiniyaga borib, ilmiy faoliyat olib borgan olimlar haqidagi ma’lumotlar islom olamidagi ilmiy aloqalarning geografik ko‘lamini ko‘rsatib beradi.

Asarda Anadolu hududidagi tarixiy-diniy obidalar va mashhur allomalar bilan bog‘liq ma’lumotlar ham qayd etilgan. Jumladan, sahobai kiromlardan Abu Ayyub al-Ansoriyning Anadolu hududidagi maqbarasi va uning atrofidagi qabriston haqida ma’lumot beriladi. Shu bilan birga, Mirzo Ulug‘bekning shogirdi va mashhur vatandoshimiz Ali Qushchining mazkur hududda dafn etilgani haqidagi tarixiy qaydlar ham asarning tarixiy-geografik ahamiyatini yanada oshiradi.

Asarning yaratilish sababi quyidagicha keltirib o’tiladi: “ Suratan garchi bo’lsa ul odam, Keldi ma’nida chorpodin kam”. Ya’nikim, Inson tashqi ko‘rinishidan odam bo‘lsa-da, agar ilm va ma’rifatdan bebahra bo‘lsa, mazmunan chorva hayvonidan ham past darajada bo‘ladi. Mazkur baytda muallif insonning haqiqiy kamoloti uning tashqi qiyofasi bilan emas, balki ilm, ma’rifat va ma’naviy yetukligi bilan belgilanadi, degan g‘oyani ilgari suradi. Shu jihatdan ushbu misralar asarning ilm-ma’rifat va ulamolar faoliyatini yoritishga qaratilgan umumiy mazmuni bilan hamohangdir.

Shul vajhdan bu kitobni tasnif qilg‘on Sayyid Abdurahmon ayturkim: ”Bu niyozmandi bebizoat va bul faqiri haqir, qalilul-istitoat (imkoniyati oz) o‘z iste’dodimga loyiq va qobiliyatimga muvofiq fazilatgustar ulamo tasnifotidin va hikmatparvar hukamo ta’lifotidin alarni jam qilg‘on ash’oir va qaboillarini (urug‘ va qabilalarini) hamda ta’lif etgan kutub va rasoyillarini (kitob va risolalarini) zikr etib, e’timodli (ishonchli) kitoblardin bir miqdor avroqi parishonni (tarqoq varaqlarni) tartib va tarkib qilib, bul musavvadaning otini “Tarjimatut-tabaqot fi ta’dodi tasnifot” deb tasmiya qildim (nomladim). Va hojat qo‘lini Fayyozi chora-soz va Vahhobi bandanavozning dargohiga ochib ko‘tardim, toki bu kitobni bu dunyoda sababi baqoyi zikri jamil (go‘zal nom qolishiga sabab) va oxiratda vositai ahrozi ajri jazil (ulkan savobga erishish vositasi) qilg‘ay, omin! Vallohul-muvaffiqu val-mu’in al-mujib, va alayhi tavakkaltu va ilayhi unib”.

“**TARJIMATUT-TABAQOT FI TI’DAD AT-TASNIFOT** muqaddima qismida insoniyat tabaqalari va xalqlar tasnifi keltirib o’tiladi. Muqaddima bayoni shulkim, bani odam avlodining barcha toifalari aslida ikki asosiy tabaqaga (va ulardan tashqaridagi ilmsiz guruhlarga) bo‘linadi:

Birinchi tabaqa: Nazariy ilm va ma’rifat ahli

Bular zoti sharif insonlar bo‘lib, ilmu ma’rifatdan bahramand hamda hirfa va sanoye’dan (kasb-hunar va san’at ishlaridan) arjumanddirlar (qadrlidirlar). Ular o‘zlarining daryo kabi keng zamirlaridan (qalb va tafakkur xazinalaridan) turli ilmlar va masalalarni istixroj qilib (chiqarib), ko‘plab kitoblar va yangi-yangi tasnifotlarni ro‘zg‘or (zamon) sahifalariga sabt qilib, o‘zlaridan yodgor qo‘yib ketganlar. Ularning fazilati: Bu toifaning xilqati va tabiati pok, siyrati nurli bo‘lib, kecha-yu kunduz ibodat va riyozat bilan nafsi notiqasining (aqliy ruhining) fazilatlariga butun umrlarini sarf qilganlar va shu sa’y-ko‘shishlari tufayli «ulumi hikmat»dan xabardor bo‘lganlar. Mansub xalqlar: Hindiston toifasi, Furs (forslar) jamoasi, suryoniylar va ibroniylar (yahudiylar) guruhlari, ahli Rum (Rim va Vizantiya), ahli Misr va ahli Arab odamlari ko‘proq fazl va hunarlarni kasb etishga sa’y-harakat qilganlar. Shu bois ulardan behisob tasnifot va benihoya kitobu asarlar yodgor qolgan. Jumladan, asarning birinchi tazkirasi/fasli Hindiston aholisi va akobirlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda hind donishmandlarining ilohiyot ilmlari hamda yulduzlarga sig‘inuvchi — sitora-parast «sobiiya» sinfi bayon etiladi.

Ikkinchi tabaqa: Amaliy san’at, hunar va harbiy ish ahli («Ahli Chin va Atrok»)

Bu toifa odamlarning fikr va nazarlari ulamolar nazdida «natoyiji hikmat va g‘aroyibi san’at» (hikmat natijalari va ajoyib amaliy san’atlar) hisoblanadi. Ular nazariy bilimlardan ko‘ra amaliy bilimlarga — san’at, naqqoshlik, tasvirot (suratgarlik) va kasb-hunarga ko‘proq berilgan bo‘lib, shu fazlu hunarlari bilan bir-birlaridan mumtoz (ajralib turuvchi) bo‘lurlar. Bu toifaga o‘zaro o‘xshash bo‘lgan ahli Chin (xitoyliklar) va Atrok (turkiy xalqlar) kiradi. Mazkur ikki tabaqadan — ya’ni na nazariy ilm olgan va na uni amaliyotga tatbiq eta olganlardan tashqari qolgan kimsalar esa «bahoyimsifat» (hayvonsifat), beidrok toifadirlar. Atrok (turkiylar) va ularga nisbat berilgan shoxobcha toifalar tasnifi.

Umuman olganda, «atrok» toifasi sanoe’ va hunarda chinliklardek bo‘lmasa-da, shijoat va jalodatda (bahodirlik va mardonalikda), ot chopish, qilich va nayza urish hamda o‘q otishda boshqa odamlardan foyiq (ustun va ustuvor) turadilar. Biroq ularning (ma’rifatdan uzoq qolgan ko‘chmanchi qismlari) aksariyati berahm, g‘addor va ziyonkor bo‘lib, yag‘mo, toroj, talon-toroj, ihroq

(o‘t qo‘yish) va ig‘roq-da (suvga cho‘ktirish/vayron qilishda) bemisldirlar («Na’uzu billahi min shururihim»). Muallif o‘sha davr etnografik tasavvurlariga ko‘ra, «atrok» jamoasidan munsha’ib (shoxa-shoxa bo‘lib ajralib chiqqan) yoki ular bilan mintaqadosh bo‘lgan quyidagi guruhlarni tavsiflaydi:

1. Cherkas (Cherkes) toifasi: Kavkaz tog‘lari va qullalarida (cho‘qqi va tepaliklarida) dashtda yolg‘iz yashovchi «g‘uli biyobon» (biyobon devi/yovvoyi odam) kabi sokin bo‘lurlar. Ilm va ma’rifatdan mahoratlari yo‘qdir. Doimo bir-birlari bilan behuda jidol va nizo (jang-jadal) qilib, urush va g‘avg‘odan xoli bo‘lmaslar, rohat va istirohatdan mahrum yasharlar. G‘ofil topsalar, bir-birlarining o‘g‘il-qizlarini, xotin va farzandlarini o‘g‘irlab sotarlar. Hech bir millatga tobe bo‘lmaslar va tog‘larda ko‘karib turgan ulug‘ daraxtlarga parastish qilurlar (sig‘inurlar — shamanizm va daraxt ruhiga e’tiqod qoldiqlari). Aksariyati diyonat, shariat va millatni bilmaslar.

2. Ayoza (Abaza/Abxaz) qabilasi: Cherkas toifasi kabi bemazhab bo‘lurlar. Tog‘larda uzlatda yashab, boshqa millatlar bilan ixtilot qilmaganlari (aralashmaganlari) va tabiatlari g‘aliz bo‘lgani sababli oliy martaba bo‘lmish ilmu ma’rifat hamda hirfatu san’atdan bebahra qolganlar.

3. Gurji (Gruzin) toifasi: Bular nasroniy (xristian) dinidadirlar. Tog‘ tepaliklarida, shuningdek, mahallalarda, qariya (qishloq) va qasabalarda (shaharchalarda, kentlarda) o‘rnashib, tojirlar (savdogarlar) toifasi bilan ulfat (do‘stlik va savdo aloqasi) tutarlar. Ammo ularning qissislari (ruhoniylari), rahbonlari (rohiblari) va bitriklari (patriarxlari/tarki dunyochi zohidlari) haddan ziyod riyozat va parhezkorlik (go‘sht yemaslik va uzlat) bilan umr kechirib, haqiqiy tavhid idrok-ma’rifatidan uzoq qolurlar.

4. Turkman toifalari: Atrok sinfidan bo‘lib, qabila va guruhlari had-hisobsiz darajada ko‘pdir. Hamisha sahro va biyobonlarda ko‘chib yurishadi, ularda ziroatchilik (dehqonchilik) kam. Aksar maoshlari (tirikchiligi) qo‘y va sigirlarning suti hamda go‘shti bo‘lib, liboslari jun va po‘stindir. Sahroda ajralib yashaganlari sababli, garchi Islom millatiga tobe bo‘lsalar ham, shariati Muhammadiy ahkomlari va diniy ilmlardan bahralari kamroqdir.

5. Akrod (Kurd) toifasi: Kurdlar ikki sinf bo‘lurlar:

Birinchi sinfi: Qariya va qasabalarda (kentlarda) sokin bo‘lurlar. Qal’alari ko‘proq Iroq, Arab va Ajam (Eron) o‘rtalarida voqedir. Urug‘ va qabilalari juda ko‘p, tillari (shevalari) ham bir-biridan muxtalif (farqli) bo‘lib, ba’zilari forsiy til bilan so‘zlashurlar. Ularning orasidan ba’zi ulamo va fuzalolar yetishib chiqsa-da, maqbul asarlar va musallam tasnifotlarga to‘liq amal qilmaslar va shariat ahkomini mahkam tutmaslar.

Ikkinchi sinfi (ko‘chmanchi qismi): Yozu qishda tog‘larda, dasht va sahrolarda hamisha ko‘chib yururlar. Ilmu ma’rifat va kasbu hunardan e’timod qilgudek asar topilmas; o‘g‘rilik va qatto’ ut-tariqlikni (karvon yo‘llarini to‘sishni, yo‘ltosarlikni) o‘zlariga pesha (kasb va maqtov) qilib olganlar.

6. Movarounnahr diyori ahli (ilm va madaniyat cho‘qqisi)

E’timodli (ishonchli) muarrixlar keltirmishlarkim, Movarounnahr diyorida sokin bo‘lgan odamlar ham atrok jamoasining bir shoxasidir. Va lekin moziyda o‘tgan oliyhim-mat podshohlar zamonlarida bu mamlakatda behisob madrasalar, bisyor rabotlar (karvonsaroy va chorsular) hamda xonaqohlar bunyod etildi.

Natijada Movarounnahrda:

• «Tasonifi jalila va osori jami-la» (ulug‘ kitoblar va go‘zal asarlar) juda ko‘p zohir bo‘ldi;

• ulumi shar’iyyada komil va fozil bo‘lgan ulamolar ijtihod (mujtahidlik) martabasiga yaqin darajada yetishib chiqdilar;

• hukamoi donishsiy-modin (donishmand faylasuf va tabiblardan) o‘z tengdoshlaridan ustun va davronning mashhur hoziqlari bo‘lgan Imom Forobiy va Abu Ali ibn Sino kabi zotlar aynan shu zamindan zuhur qildilar.

Kitobning xotimasi haqida to’xtaladigan bo’lsak, hijriy 1151-yilda yozilgani keltiriladi. “Endi hamdu siposi beqiyos Hazrati Maliki muta’olga va shukru minnat Podshohi qadimul-ehsonga bo‘lsinkim, bu avroqi parishonni jam va tasvid (qoralama), tabyiz (oqqa ko‘chirish) va tatmim (yakunlash) qilmag‘imga menga tavfiqi azal-iysini rafiq va hidoyati lam-yazaliysini shafiq ayladi. Hijrati Shafi’ ul-ummadin (Payg‘ambar s.a.v. hijratlaridan) ming yuz ellik birda (1151), rabi’ul-avval oyining sakkizinchi kunida faqiru haqir, az’afi ibod Sayyid Abdurahmon erdimki, bu kitobimni itmom va ixtitomiga (nihoyasiga) yetkurdim. Va bu — «Tazkirai kasiratul-barakot — Tarjimatut-tabaqot» kitobidir. Mustafid (bahramand) bo‘lgan nozir ixvoni safo va xulloni bovafodin (sof birodarlar va vafodor do‘stlardan) umid va iltimos budirkim, bu kitobning jome’i va muallifini duoi xayrlarida yod qilg‘aylar va ruhini duolari bilan shod etgaylar. Va agar hafavot, zullot va nuqsonotlari (xato va kamchiliklari) bo‘lsa, lutfi ammim va karami jasimlari bilan isloh qilg‘aylar (tuzatg‘aylar).” Tarjimon xotimasi va manzuma-tarixi Maxmud Oxund tomonidan hijriy 1297/1879-1880- yillar ko’chirilgan.

Karam aylab Xoliqi Vahhob, xob (go‘zal) tarjima bo‘ldi bu xujasta kitob:

Xush kitobi jahon ekandur bul,

La’lu gavharga kon ekandur bul.

Munda maktub hunaru olam,

Hunarvar olim, faylasuf — hamma bani odam.
Ham munajjimki, sa’du nahsni bilur,
Barchasini jam qildi bu qirtos (qog‘oz).
Hukamoi jahondin Falotuni aql,
Barchasini munda aylamishdur naql.
Ahli san’at barisidur maktub,
Barcha o‘z fanida edi marg‘ub.
Barcha as’hobu tobi’in ahli,
Ham mufassir, muhaddisin ahli,
Ham muallif, havoshiy va shorih —
Barchasi bu kitob aro vozeh (ravshan).
Mujtahidin alayhimur-rizvon,
Bu kitob ichra barcha topdi bayon.
Avliyo, atqiyo kelib marhum,
Har biri gavhari asror erur maktum.
Hech kishi qolmadi jahon ichra,
Bo‘ldi maqrunning bu bayon ichra.
Garchi ma’dum edi ular zoti,
Yodgor qoldi sahfada oti.
Tarjimaga shoh bo‘ldi sabab,
Ko‘rmasun bu jahonda ranju ta’ab.
Shoh Muhammad Rahim erur oti,
Ota-bobosini rahmat qil,
Xobgohin bariga jannat qil.
Shohimizni davri jahon,
Turguncha masnadida aylagin omon.
Baxtu iqbolini qilib mas’ud,
Oqibat korni aylagin mahmud.
Bu kitobim anga muborak qil,
Yovarın surai «Taborak» qil.
Qalamimga raqam qilib tamomat,
Yozdi tarixi: «Xatmu bir-rahmat».
Ayla jonimni jannat ru’yati,
Etma konimni fazlingdan judo,
Qilg‘ay bahonamni, ayla Mahmudin nishonamni.

Kollofon(yakuniy qaydda 1297-yil hijriy(milodiy 1879-1880-yillar) yozib qo’yilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Sayyid Abdurahmon Ashraf tomonidan yozilgan “ Tarjimatut- tabaqot fi ti’dad at-tasnifot” islom tarixiga oid noyob asarlar sirasiga kiradi. Yagona qo’lyozma manbada bo’lganligi bois hali tarixchilar tomonidan o’rganilmagan. Mualllif turli ishonchli tarixiy va biografik manbalar asosida dunyo xalqlari, ilm-fan tabaqalari hamda islom ulamolari va hakimlarning asarlarini jamlab, kitob qilgani uning qiymatini oshirib, manbashunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi.

BURLI QAL'A YODGORLIGINING QUYI AMUDARYO TARIXIDAGI O'RNI

Genjebaev Batirbek Jaqsibaevich
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Quyi Amudaryo hududida joylashgan Burli qal'a yodgorligining qadimgi Xorazm tarixidagi o'rni, uning mudofaa-me'moriy xususiyatlari hamda mintaqadagi qadimgi aholi joylashuvi va madaniy jarayonlarni o'rganishdagi ahamiyati yoritiladi. Burli qal'a qadimgi Xorazmning mudofaa inshootlari tizimini o'rganishda muhim arxeologik manba hisoblanadi. Yodgorlikning o'rganilish tarixi, xususan, Yu.P. Manilov va G. Xo'janiyozov tadqiqotlari asosida uning Quyi Amudaryo tarixidagi o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Burli qal'a, Quyi Amudaryo, qadimgi Xorazm, arxeologiya, fortifikatsiya, qal'a, Sulton Uvays, moddiy madaniyat.*

Kirish. Quyi Amudaryo hududi Markaziy Osiyoning qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lib, bu hududda sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, shaharsozlik va mudofaa me'morchiligi rivojlangan. Amudaryoning quyi oqimi va unga tutash hududlarda ko'plab qadimgi shahar va qal'alarning mavjudligi mintaqada murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlar kechganidan dalolat beradi.

Qadimgi Xorazm arxeologiyasini o'rganishda qal'a va qo'rg'onlar alohida ahamiyatga ega. Chunki ularning me'moriy tuzilishi, joylashuvi va mudofaa tizimi qadimgi jamiyatning xavfsizlik, boshqaruv va hududiy tashkil topish masalalarini o'rganish imkonini beradi.

Ana shunday yodgorliklardan biri Burli qal'adir. Yodgorlik qadimgi Xorazm fortifikatsiyasini o'rganish doirasida Yu.P. Manilov va G. Xo'janiyozov tomonidan tadqiq qilingan. Ularning 1981-yilda Toshkentda nashr etilgan tadqiqoti Burli qal'a va Ayazqal'a 1 yodgorliklarining mudofaa xususiyatlariga bag'ishlangan. Burli qal'aning ilmiy o'rganilishi XX asrda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati bilan bog'liq. Britaniya kutubxonasi arxiv ma'lumotlarida Burli qal'a yodgorligiga oid 1971 va 1973-yillardagi qazishmalar hamda aerofotosuratlar mavjudligi qayd etilgan. Mazkur materiallar

yodgorlikning o‘sha davrdagi arxeologik holatini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Burli qal’ani o‘rganishda Yu.P. Manilov va G. Xo‘janiyozovning ishlari alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar yodgorlikni alohida obyekt sifatida emas, balki qadimgi Xorazmning umumiy fortifikatsiya tizimi tarkibida ko‘rib chiqqanlar.

Bu yondashuv Burli qal’aning tarixiy ahamiyatini kengroq kontekstda tushunish imkonini beradi. Ya’ni yodgorlikning o‘ziga xos me’moriy tuzilishi bilan birga, uning boshqa qal’alar bilan hududiy va funksional aloqalarini o‘rganish ham muhimdir. Burli qal’aning Quyi Amudaryo tarixidagi ahamiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri uning fortifikatsion xususiyatlaridir. Qadimgi Xorazm hududida qal’alar ko‘pincha tabiiy-geografik jihatdan qulay joylarda qurilgan. Bunday joylashuv kuzatuv va mudofaa imkoniyatlarini oshirgan. Burli qal’a ham qadimgi Xorazmning mudofaa me’morchiligi an’analarini aks ettiruvchi yodgorlik sifatida o‘rganiladi. Manilov va Xo‘janiyozovning tadqiqoti uning aynan fortifikatsion jihatlariga e’tibor qaratgan.

Yodgorlikning mudofaa tizimini boshqa qadimgi Xorazm qal’alari bilan qiyoslash orqali mintaqada mudofaa me’morchiligining rivojlanish bosqichlarini aniqlash mumkin. Xususan, qal’a devorlari, mudofaa yo‘laklari, kuzatuv va jangovar elementlarning joylashuvi qadimgi quruvchilarning harbiy-muhandislik tajribasi haqida ma’lumot beradi.

Quyi Amudaryoda qadimgi aholi manzilgohlarining joylashuvi ko‘p jihatdan suv manbalari, sug‘orish tarmoqlari va tabiiy-geografik sharoit bilan bog‘liq bo‘lgan. Arxeologik tadqiqotlarda qadimgi Xorazmning o‘ng qirg‘og‘idagi ko‘plab yodgorliklarning joylashuvi va ularning o‘zaro aloqalari alohida o‘rganilgan. Burli qal’aning ham ushbu tarixiy-madaniy makondagi o‘rnini boshqa yodgorliklar bilan birgalikda o‘rganish zarur. Bunda qal’aning geografik joylashuvi, unga yaqin manzilgohlar, qadimgi sug‘orish tizimlari va transport-kommunikatsiya yo‘llari bilan munosabatlarini aniqlash muhim ilmiy masalalardan biridir. Shu jihatdan Burli qal’a faqat harbiy inshoot emas, balki Quyi Amudaryoning qadimgi madaniy landshaftini o‘rganish uchun ham muhim arxeologik manbadir. Burli qal’aning tarixiy-madaniy ahamiyatini bir necha yo‘nalishda ko‘rish mumkin.

Birinchidan, yodgorlik qadimgi Xorazmning mudofaa tizimini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Uning Ayazqal’a kabi boshqa qal’alar bilan birgalikda o‘rganilishi qadimgi Xorazm fortifikatsiyasining umumiy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, Burli qal’a Quyi Amudaryoda aholi joylashuvi va qadimgi madaniy landshaft masalalarini o‘rganish uchun muhimdir. Qal’aning geografik o‘rni va atrofidagi arxeologik obyektlar bilan aloqasi qadimgi aholining hududdan foydalanish xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, yodgorlik qadimgi Xorazmning me’moriy-qurilish an’analarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Qadimgi Xorazm qal’alarining qurilish texnikasi va mudofaa tizimlarini qiyosiy o‘rganish mintaqada fortifikatsiya taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. To‘rtinchidan, Burli qal’a Quyi Amudaryo tarixining turli davrlarini o‘rganishda boshqa arxeologik yodgorliklar bilan birgalikda kompleks manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Xulosa. Burli qal’a Quyi Amudaryo va qadimgi Xorazm tarixini o‘rganishda muhim arxeologik yodgorliklardan biridir. Uning tarixiy ahamiyati, avvalo, qadimgi Xorazmning mudofaa me’morchiligi va aholi joylashuvi jarayonlarini o‘rganish imkonini berishi bilan belgilanadi. Yodgorlikning XX asrda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganilishi, 1971 va 1973-yillardagi tadqiqotlar hamda keyingi ilmiy izlanishlar Burli qal’a haqidagi arxeologik ma’lumotlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Yu.P. Manilov va G. Xo‘janiyozovning tadqiqotlari Burli qal’ani qadimgi Xorazm fortifikatsiyasi tizimi doirasida o‘rganish uchun muhim ilmiy asos yaratgan. Umuman olganda, Burli qal’a Quyi Amudaryoning qadimgi tarixini, xususan, mudofaa inshootlari, aholi joylashuvi, me’morchilik va madaniy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida yodgorlikni zamonaviy arxeologik usullar, GIS texnologiyalari va raqamli xaritalash asosida tadqiq etish uning tarixiy-madaniy ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Манылов Ю.П., Ходжаниязов Г. Аяз кала 1 и Бурлы кала (к изучению фортификации древнего Хорезма) // Археологические исследования в Каракалпакии. – Ташкент: Фан, 1981. – С. 33–35.

2. Ходжаниязов Г. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент.

3. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва, 1948.

4. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва, 1962.

5. British Library. Burly-Kala: excavations, aerial photographs from 1971 and 1973. EAP1075/1/45.

ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA GIS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: QADIMGI XORAZM MISOLIDA

Genjebaev Batirbek Jaqsibaevich
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyalarining arxeologik tadqiqotlardagi o‘rni va amaliy imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. GIS texnologiyalari arxeologik yodgorliklarni xaritalash, ularning geografik joylashuvini aniqlash, fazoviy munosabatlarini tahlil qilish, tarixiy landshaftlarni rekonstruksiya qilish hamda madaniy meros obyektlarini monitoring qilish imkonini beradi. Qadimgi Xorazm hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar misolida an’anaviy xaritalash va aerofotos’yomka materiallarini zamonaviy GIS texnologiyalari bilan integratsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan yig‘ilgan xaritalar, arxeologik planlar va aerofotosuratlarning zamonaviy GIS tadqiqotlari uchun tarixiy geoma’lumot sifatidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *GIS, arxeologiya, Qadimgi Xorazm, fazoviy tahlil, arxeologik yodgorlik, aerofotos’yomka,*

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi arxeologik tadqiqotlarning metodologiyasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy arxeologik qazishmalar, dala kuzatuvlari, topografik xaritalash va yozma tavsiflar bilan bir qatorda geografik axborot tizimlari (GIS), GPS/GNSS, masofadan zondlash, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va dron fotogrammetriyasi kabi texnologiyalardan keng foydalanilmoqda.

GISning asosiy imkoniyati shundaki, u arxeologik obyektlar haqidagi turli ma’lumotlarni yagona geografik muhitda birlashtirish imkonini beradi. Masalan, arxeologik yodgorlikning koordinatasi, xronologiyasi, turi, o‘lchami va saqlanish holatini uning tabiiy geografik muhiti — relyef, suv manbalari, qadimgi kanallar va yo‘llar bilan birgalikda tahlil qilish mumkin.

Asosiy qism. GIS texnologiyalarining arxeologiyadagi qo‘llanilishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan bo‘lsa-da, bugungi kunda uning

imkoniyatlari ancha kengaydi. Zamonaviy GIS dasturlari yordamida arxeologik obyektlarni raqamlashtirish, ularning zichligini aniqlash, masofalarni hisoblash, relyefni tahlil qilish va tarixiy landshaftlarni modellashtirish mumkin.

Arxeologik GISning muhim yo‘nalishlaridan biri — yodgorliklarni raqamli xaritalashdir. Dala tadqiqotlari davomida GPS/GNSS yordamida olingan koordinatalar GIS bazasiga kiritiladi. Keyinchalik mazkur ma’lumotlar sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, topografik xaritalar va tarixiy kartografik materiallar bilan birlashtiriladi.

GISning yana bir muhim imkoniyati — fazoviy tahlil. Masalan, arxeologik yodgorliklarning suv manbalariga, qadimgi kanallarga yoki boshqa aholi punktlariga nisbatan joylashuvini aniqlash mumkin. Bunday tahlillar qadimgi jamiyatlarning yashash muhiti va xo‘jalik faoliyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Qadimgi Xorazm hududi GIS tadqiqotlari uchun alohida ahamiyatga ega. Hududda qal’alar, qishloq manzilgohlari, qadimgi sug‘orish inshootlari, mudofaa tizimlari va boshqa arxeologik obyektlarning katta majmuasi mavjud.

Qadimgi Xorazm arxeologiyasini o‘rganishda S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Ekspeditsiya tomonidan XX asrning o‘rtalarida katta hajmdagi arxeologik, topografik va kartografik materiallar to‘plangan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, S.P. Tolstov davrida zamonaviy GIS texnologiyasi mavjud bo‘lmagan. Shu sababli ekspeditsiya faoliyatini bevosita GISdan foydalanish bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Biroq ekspeditsiya tomonidan yaratilgan xaritalar, arxeologik planlar va aerofotosuratlar bugungi GIS tadqiqotlari uchun muhim tarixiy geoma’lumot manbalaridir.

Xorazm ekspeditsiyasida aerofotos’yomkadan foydalanilishi ayniqsa katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Aerofotosuratlar yordamida qadimgi aholi punktlari, mudofaa inshootlari va sug‘orish tizimlarining umumiy tuzilishini aniqlash imkoniyati kengaygan.

Bugungi kunda mazkur tarixiy materiallarni raqamlashtirib, georeferensiyalash va zamonaviy GIS muhitiga kiritish mumkin. Bunda tarixiy aerofotosuratlar zamonaviy sun’iy yo‘ldosh tasvirlari bilan taqqoslanadi. Natijada arxeologik landshaftning vaqt davomida qanday o‘zgarganini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

